MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI





17-18-MAY
2024-YIL

doi

Google Scholar

2-QISM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 457-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida hududlar va hatto mintaqalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan bir-biriga integratsiyalashib borayotganligini kuzatib turibmiz. Bu jarayonda jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash ustuvor omilga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimiga yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tadbiq qilinishi va rivojlantirilishi davr talabidir. Hozirgi davr, ya’ni “Axborot asri” jamiatning har bir qatlamida axborot texnologiyalarini keng qo‘llash talabini qo‘yar ekan, mazkur yo‘nalishda chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yosh kadrlarni tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida mediata’lim dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar tomonidan o‘rganilmoqda. Mediata’limdan ko‘zlangan maqsad esa yosh avlod mediasavodxonligini shakllantirishdir. Shu boisdan ham nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda mediata’limning imkoniyatlari va raqamli OAV tushunchalarini ilmiy jihatdan yoritish va tadqiq qilish ko‘lamini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Demak, aytish mumkinki, boshqa sohalar qatori aniq va ijtimoiy fanlar tizimida rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini O‘zbekiston mediata’lim tizimiga tadbiq qilish kelajakda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda o‘z samarasini beradi. Bu borada zamonaviy innovatsion tadqiqotlar, ularning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari muhim ahamiyatga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu yo‘nalishdagi islohotlar samarasini yaxshilash, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar yuqori salohiyatli ilmiy maktablar o‘rtasidagi muhokamalar, munozaralar va ilmiy ma’ruzalar jarayonida o‘z yechimini topadi.

Anjumanda ilg‘or fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalari, mamlakatimizning intellektual nufuzini oshirish hamda izlanishlar natijasini tijoratlashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Shu bilan birgalikda anjumanning asosiy maqsadlaridan biri, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta’minotlarini yaratishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va ularni murakkab tizimlarni boshqarishda hamda ta’lim va ilmiy tadqiqot jarayonlarida joriy qilishning ilmiy, uslubiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish, respublikamizda pedagogik kadrlar tayyorlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari hamda iqtisodiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlarni yoritishdan iborat.

Anjumanning asosiy vazifasi, muhokama qilingan dolzarb muammolar va ularning yechimlari asosida O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ishlab chiqarish korxonalari muammolarini yechishga doir ilmiy asoslangan takliflar berish, ta’lim muassasalari va ilmiy tekshirish institutlarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lib, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan yosh olim, katta ilmiy-xodim-izlanuvchilar,

magistrant va iqtidorli hamda iste’dodli talabalarga o‘zlarining tadqiqotlari natijalarini ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun ham yangi bir imkoniyat yaratadi deb hisoblaymiz.

Anjuman natijasida professor-o‘qituvchilar, talabalar, ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil tadqiqotchi, tegishli sohalar olim va mutaxassislari o‘rtasida o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhitini hamda o‘zaro fikr-mulohaza va tajriba almashishlari uchun sharoit yaratib beriladi, ularni fan-texnika taraqqiyoti yo‘lida birlashtiriladi. Shuningdek anjumanda mamlakatimizning intellektual nufuzini faol reklama qilish hamda izlanishlar natijasini tijoratlashtirish masalalari nazarda tutilgan.

Muxtasar qilib aytganda, yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, tajriba orttirish, zamonaviy ta’lim jarayonini rivojlantirish va yangi o‘qitish jarayonlarini soha muaammolariga bog‘lash bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish kabi jarayonlarni jadal amalga oshirish katta marralarga erishishimizga turtki bo‘ladi deb ishonamiz.

Shularni hisobga olib, turli iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion rivojlanish jarayonini va ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holatini chuqur o‘rganish asosida uni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari va imkoniyatlarini muhokama qilish, respublika iqtisodiy salohiyatini oshirish va innovatsion tadqiqotlar uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, sohalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish hamda ushbu jarayonlarni rivojlantirishni davlatimiz tomonidan qo‘llab quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mazkur anjumanda ishtirok etayotgan turli soha olimlari, hukumat idoralari vakillari, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari asosiy e’tiborlarni iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalar samaradorligini oshirishning yuqorida aytib o‘tilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlariga qaratsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi, deb o‘ylayman. Anjuman yakunida soha tarmoqlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularni rivojlantirishning har bir yo‘nalishidagi muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilib, tegishli hukumat idoralari va tashkilotlariga taqdim etiladi, degan umiddaman.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universitetining Jizzax filiali direktori **O.Turakulov**

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI MUSTAQIL ISHLASH JARAYONIDA KASBIY-IJODIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sattorova Mahliyo Burxanovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti
makhliyosattorova87@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimining alohida yo’nalishlaridan biri kasbiy ta’limda - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ish jarayonida kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosining tarixiy tahlili va muammoning hozirgi holati to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, kasb ta’limi, mustaqil ishlash, tadqiqot, kasbiy faoliyat, tayyorlik, ta’lim samaradorligi, amaliy tadqiqotlar, mehnat bozori, tarixshunoslik, kasbiy faoliyatga tayyorlik.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida, samarali global rivojlanish tendentsiyasi sifatida, inson hayotining turli sohalarida uning sifatini oshirish uchun jamiyat va ish beruvchiga mehnat bozorida yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan bitiruvchi qiziqish uyg‘otadi. Yosh mutaxassis nafaqat mavjud bilim va olingan kasbiy ko‘nikmalardan foydalanish qobiliyatini, balki mustaqil qaror qabul qilishda va kasbiy faoliyatda, uni yanada takomillashtirish uchun zarur bo’lgan shaxsiy fazilarlarni shakllantirish talab qilinadi. Shunday ekan, talabalar - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ish jarayonida kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosini nazariy tushunish va uni hal qilish yo‘llarini izlash, bizningcha, uning tarixiy tomonlarini hisobga olishdan boshlanishi kerak. Bu bizga uning rivojlanish trayektoriyasini kuzatish, uni ishlab chiqish darajasini baholash va keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Talabalar - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ish jarayonida kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosini umumiy tahlil qilish jarayonida biz shunday xulosaga keldikki, bu murakkab xususiyatga ega va tarixiy kontekstdagi asosiy jihatlarni hisobga olgan holda uning mohiyatini tushunmasdan turib o‘rganilayotgan savolning hozirgi holatini belgilab berish mumkin emas.

Bunda muammoni umumiy tahlil qilish uchun shakllanish va rivojlanish, kasbiy va ijodiy faoliyat; muammoning holati,

talabalar - bo‘lajak muhandislarning pedagogika fanida kasbiy va ijodiy faoliyatiga tayyorligini shakllantirish; talabalar - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ishlarining mohiyatini zamonaviy tushunish kabi tushunchalarni tahlil qilishimiz lozim.

Biz o‘rganayotgan muammoni o‘rganish tarixida IX-asr oxirida paydo bo‘lgan ishlab chiqarishni texnologiyalashtirish va yoshlarni sanoat korxonalarida ishlashga o‘rgatish zarurati sabab bo‘lishi mumkin va XX-asr boshlarida buning natijasida “kasbiy faoliyat” tushunchasini ilmiy-nazariy asoslash zaruriyati vujudga keldi.

Ana shu ikki tarixiy fakt o‘rganilayotgan muammoning tarixshunosligining birinchi bosqichini (IX-asr oxiri – XX-asrning 60-yillari boshlari) belgilab berdi.

Ikkinchi bosqich 60-yillarning boshlarida ajralish bilan bog‘liq. XX asr zamonaviy psixologik-pedagogik bilimlar tizimida "kasbiy faoliyatga tayyorlik" tushunchasi, ishni ilmiy tashkil etish g‘oyalari taraqqiyotning kaliti va samaradorlikni oshirishning asosi deb hisoblangan. Pedagogika fani bu jarayonda mustaqil ishlashning ulkan imkoniyatlarini ta’kidlagan holda o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim tizimiga tatbiq etishning samarali shakl va usullarini izlay boshladi.

XXI-asrning 2000-yillari boshidan beri va bugungi kunga kelib, ham mahalliy, ham xorijiy ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichida o‘qituvchilar va olimlar talabalarning mustaqil ishlarining mohiyatini qayta ko‘rib chiqishni taklif qilmoqdalar. Zamonaviy dunyo voqeliklari paradigmasida ular uni butun o‘quv jarayonini talabaning shaxsiga jamlashni ifodalovchi, unga o‘quv jarayonining barcha sohalarida ko‘proq tanlash erkinligini ta’minlaydigan avtonom ta’lim sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilishdi: uning faoliyatini rejalashtirish, ta’lim paradigmasi, maqsadlarni belgilash, materiallarni tanlash, ta’lim vazifalarini tanlash, tashabbus ko‘rsatish, hamkorlik, qobiliyatingizni ochib berish, aks ettirish va o‘z-o‘zini hurmat qilish.[1]

Bu holat o‘rganilayotgan muammoning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tarixnavislik tahlilining uchinchi bosqichini aniqlash imkonini berdi.

Shunday qilib, ilmiy va uslubiy adabiyotlarning tarixshunoslik tahlili talabalarning - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ishlash jarayonida kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi evolyutsiyasining uchta asosiy bosqichini aniqlashga imkon berdi:

1) IXX-asr oxiri - XX asrning 60-yillari boshlari;

2) 60-yillarning boshlari. XX asr - XXI asr boshlari;

3) XXI-asr boshlari - hozirda.

Keling, aniqlangan bosqichlarning har birini batafsilroq tahlil qilamiz.

Birinchi bosqich (19-asr oxiri - 20-asrning 60-yillari boshlari)

Talabalarning - bo‘lajak muhandislarning kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi nuqtai nazaridan, tarixshunoslik tahlilining boshlang‘ich nuqtasi sifatida IXX-asr oxirida jahon iqtisodiyotining sanoatlashtirishga o‘tishi hisoblanishi mumkin.

Bu hodisa mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jarayonlarini va yangi kasblarga bevosita ehtiyojni kuchaytirdi. Buning natijasida XIX asrning 70-80-yillarida insonning doimiy yashashining zaruriy sharti sifatida kasbiy malakalarni egallash uchun kasbiy mehnat maktablari ommaviy ravishda tashkil etilmoqda.

Tadqiqotchilar E. A. Klimov va O. G. Noskova ta’kidlashlaricha, Rossiyada IXX-asr oxirida ushbu muammoni hal qilishning ikkita yo‘nalishi mavjud edi:

1) maktablar tashkil etilgan bo‘lib, ular oilaviy an’anaga ko‘ra, kasbga, hisob-kitob yoki tasodifan kasblarni o‘rganadilar;

2) “Shahar vositachilik byurolari” tashkil etilib, ularga ishga joylashish va ta’lim muassasasiga yo‘llanma olishda yordam ko‘rsatildi.

G‘arbiy Yevropada birinchilardan bo‘lib kasb tanlash muammosiga F.Parsons murojaat qilgan. U 1909 yilda belgi va omillar nazariyasiga tayangan holda o‘z tadqiqotida kasb tanlash nazariyasining quyidagi qoidalarini shakllantirdi: inson kasb tanlashga o‘zining individual sifatlari va kasbiy qobiliyatlaridan kelib chiqib yondashishi kerak, uning kelajakdagi hayotdagi muvaffaqiyati kasbdan qoniqish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Ushbu qoidalardan kelib chiqqan holda, kasbiy tanlov - bu ongli va oqilona jarayon bo‘lib, unda inson o‘zining kasbiy pozitsiyasini belgilaydi va uni turli kasblarning mavjud talablari bilan bog‘laydi.[2]

Shunday qilib, "kasbiy faoliyat" tushunchasining mohiyatining asosiy g‘oyalari 20-asrning boshlarida shakllantirilgan.

XX asrning 60-yillari boshlarida K. M. Gurevich, V. P. Zinchenko, Yu V. Kotelova, E. A. Klimov, K. K. Platonov, V. V. Chebysheva, V.D.Shadrikov va boshqalar kasbiy ta’lim, amaliy tadqiqotlar esa kasbiy ta’lim sohasida jamlangan. Aynan shu davrda "kasbiy faoliyat" ilmiy-nazariy tushuncha va tadqiqot ob’ektiga aylandi.

Bu davrda kasbiy faoliyat moddiy va ma’naviy ne’matlar olish va yaratishga qaratilgan muayyan ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislik bo‘yicha inson hayotini ta’minlash va faoliyat yuritish uchun vositalarni sotib olish; jamiyatning o‘zgarishi inson faoliyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi;

Mehnatni ilmiy tashkil etish kontsepsiyasida shaxsni o‘rganish bilan bog‘liq masalalarga katta e’tibor beriladi. Harakatlar tizimini, motivlarni shakllantirish usullarini ishlab chiqish, kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish ushbu tadqiqotlarning asosiy maqsadi edi.

Yangi sanoat texnologiyalarining yanada paydo bo‘lishi va tarqalishi va natijada mehnat bozorida raqobatning kuchayishi olimlarni yangi turdagi ishchilarni izlashga va "kasbiy faoliyat" tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga undadi. Natijada ko‘plab mamlakatlarda ta’lim va kadrlar tayyorlash jarayoniga o‘zgartirishlar kiritildi. Endi kasbiy faoliyatni tushunish vektori uni jarayonning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlik qilish va harakatlarning hamkorlik qilish imkoniyati, muloqot qilish qobiliyati, moslashuvchanlik va tez o‘zgaruvchan ish sharoitlari va mazmuniga moslashish sifatida belgilashga qaratilgan edi. Bunda kasbni egallashga emas, balki raqobatbardosh shaxsni rivojlantirish uchun yanada yuqori kasbiy malaka olishga qaratilgan.

Bundan kelib chiqqan holda, ilmiy adabiyotlarda kasbiy faoliyat "bir-biriga bog‘langan, birlashtiruvchi komponenti mehnat predmeti bo‘lgan, uning hayotiy faoliyatini ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimi bo‘lgan murakkab ko‘p xususiyatli ob’ekt" va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini namoyish qilish" deb ta’riflanadi. [3].

Shu bilan birga, kasbiy faoliyatni o‘rganishga turli uslubiy yondashuvlar "kasbiy faoliyat" tushunchasining turli xil ta’riflarini shakllantirish imkonini berdi.

Shunday qilib, E.Giddens kasbiy faoliyatni «ish haqi yoki haq evaziga amalga oshiriladigan yollanma ish» deb hisoblaydi, kasbiy faoliyatning o‘zi esa inson ehtiyojlarini qondirish uchun aqliy va jismoniy kuch sarflash bilan bog‘liq muammolarni hal etishdir.”

Shunday qilib, biz "kasbiy faoliyat" tushunchasining ta’rifi bo‘yicha konsensus yo‘qligini aytishimiz mumkin. Ko‘pgina tadqiqotchilar bu noaniq, murakkab, ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, inson mavjudligida muhim o‘rin egallaganiga rozi bo‘lishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kasbiy faoliyatni T. L. Markova tushunchasida talqin qilishni uslubiy jihatdan asosli deb hisoblaymiz, u buni "ixtisoslashgan va" deb belgilashni taklif qiladi. Shaxsning o‘z mavjudligini saqlab qolish uchun maxsus qobiliyatlari (ta’lim, bilim, ijodkorlik) asosida amalga oshiradigan institutsional ishdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, birinchi davr talabalar - kelajak muhandislarining tayyorgarligini rivojlantirish yo‘nalishlari

kasbiy va ijodiy faoliyatida har qanday maqsadli va tizimli tadqiqotlarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich (XX asrning 60-yillari boshlari - XXI-asr boshlari)

Dastlab, "tayyorlik" tushunchasi psixologiya fanida 50-yillarning oxiri - 60-yillarning boshlarida paydo bo‘lgan. XX asrda amerikalik olim D.Super rivojlanish nazariyasi kontekstida ham psixologik, ham boshqa fanlarning bir qator nazariyalarining nuqtai nazarlarini birlashtirib, shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligiga oid quyidagi qoidalarni shakllantirdi:

1) o‘z xususiyatlari va qobiliyatlari bilan ajralib turadigan shaxs, rivojlanishning turli bosqichlarida, o‘z tushunchasiga ko‘ra, real hayotda o‘zini "sinab ko‘rish" istagini shakllantirishi va saqlab turishi mumkin;

2) o‘z-o‘zini qoniqtirish insonning o‘z qobiliyatlarini, shaxsiy fazilatlarini, qiziqishlarini, olimlar tomonidan uyg‘onish va izlanish bosqichlari deb atagan kasbiy rivojlanish bosqichlarida ro‘yobga chiqarishga qay darajada tayyorligiga bog‘liq;

3) vaqt va tajribaga qarab, insonning kasbiy rivojlanishi uchun ob’ektiv va sub’ektiv shartlar o‘zgaradi, bu esa bir nechta kasbiy tanlovga olib keladi.

R. D. Sanjaeva ushbu muammoni o‘rganar ekan, kasbiy faoliyatga tayyorlikni to‘siqlarni yengib o‘tish istagida ifodalangan shaxsning barqaror xususiyati sifatida ko‘rib chiqishni tavsiya qildi. Uning fikriga ko‘ra, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- motivatsion - kasbiy munosabatlar;
- axloqiy yo‘naltirilgan - professional va qadriyatlarga asoslangan o‘rnatish;
- kognitiv-operatsion - kasbiy yo‘nalish;
- hissiy-irodaviy - faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi irodaviy jarayonlar;
- psixofiziologik - samaradorlikni oshirishni ta’minlaydigan qobiliyatlar;
- qiymat - kasbiy tayyorgarlikni o‘z-o‘zini baholash.

Shunday qilib, ikkinchi bosqich kasbiy faoliyatga tayyorlik muammosi o‘zini kasbiy faoliyatga qodir va tayyor deb hisoblaydigan shaxsning sub’ektiv holati va xususiyatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganligi bilan tavsiflanadi va tayyorlikning

mazmuni va tuzilishi. psixologik jarayonlar, holatlar, tajriba va shaxsiy xususiyatlar uchun kasbiy faoliyat talablari bilan belgilanadi.

Uchinchi bosqich (XXI asr boshi - hozirgi)

XX asr oxirida Rossiyaning Boloniya jarayoniga qo‘shilishi va mehnat bozori aniq bilimlarga emas, balki ishchilarning malakalariga bo‘lgan talablarni qo‘ydi. Ta’lim tizimiga federal ta’lim standartlarini joriy etish, uning tarkibiy va mazmunini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida yangilash ta’lim va raqobatbardosh inson kapitalini mamlakat rivojlanishining eng muhim resurslari deb hisoblash imkonini berdi. Shuning uchun talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi dolzarb bo‘lib qoldi.

Bu davrda birinchi marta olimlar va o‘qituvchilar uning tadqiqot va ishlanmalariga murojaat qilishdi, jumladan K. M. Durai-Novakova, E. A. Koksheneva, I. G. Kondaurova, E. L. Kuzmenko, G. A. Larionova, V.N.Makarova, A.A.Novikov, D.I.Feldshteyn va boshqalar.

Xuddi shu davrda san’at ta’limi tizimi oldiga ijodiy yo‘naltirilgan kasblar (muhandis, dizayner, rassom, musiqachi kabi) bo‘yicha nafaqat o‘z kasbining malakasini mukammal egallagan, balki uning istiqbollarini ham chuqur anglaydigan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash vazifasi qo‘yildi. zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonni rivojlantirish, professional muhitda o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi belgilash.

Bu jarayonga ijodiy faoliyat samarali yordam beradi, u o‘z ahamiyatiga ko‘ra individual badiiy uslubni izlash platformasi va ijtimoiy taraqqiyotning yuqori sifat va rivojlanish bosqichlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri dvigateli sifatida xizmat qiladi.

2000-yillarning boshlarida bu vazifaga erishish uchun. Birinchi marta talabalarning kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi ko‘tarildi. Va I.V.Besedina, E.K.Kazaneva, N.M.Kachurovskaya, V.A.Kiseleva, to‘g‘ridan-to‘g‘ri arxitektura talabalarining kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi M.V.Nikolskiy, L.A.Odnosum, I.V.Petrova, N.A.Plotnikova, S.Yu.Razheva, O.M.Shentsova. Ularning umumiy fikriga ko‘ra, talabalar - bo‘lajak muhandislarda kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish, uning ajralmas asosi kasbiy muhitning dinamik o‘zgaruvchan sharoitlarida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir, ijodiy rivojlanishda, izlanishda ustunlik beradi. individual badiiy uslub ularga axloqiy mezonlarga e’tibor qaratgan holda, atrofdagi voqelikni o‘zgartirishga, innovatsion jamiyat muammolarini hal qilishning nostandart va samarali usullarini izlashga imkon beradi.

Talabalar - bo‘lajak muhandislarning kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish alohida talablarni talab qiladi. Ta’lim jarayonini tashkil etish, mazmuni, yo‘nalishlari, uslubiy yondashuvlari va ta’lim texnologiyalaridagi o‘zgarishlar, bunda pedagogik urg‘u bilimlar yig‘indisidan ularning kasbiy va ijodiy o‘zlashtirishiga o‘tadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bunday o‘quv jarayonining yaxlitligini ta’minlaydigan tizimni tashkil etuvchi komponent talabalarning mustaqil ishi hisoblanadi, chunki zamonaviy o‘quv paradigmasida unga o‘quv vaqtining 60% gacha ajratiladi.

Shunday qilib, uchinchi bosqich mahalliy kasbiy va badiiy ta’lim tizimidagi islohotlar, talabalarning kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish

muammosini faol tadqiq etish, fanda talabalarning tayyorgarligini rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. - kelajakdagi muhandislarning kasbiy va ijodiy faoliyati va mustaqil talabalar ishini tushunishga yangicha yondashuv.

Bizning tahlilimiz talabalar - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ish jarayonida kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosini o‘rganishning ijtimoiy-tarixiy va ilmiy-nazariy shartlarini aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy-tarixiy shartlar qatoriga milliy ta’limni modernizatsiya qilish, uni kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida tarkibiy va mazmunan yangilash kiradi. Ilmiy-nazariy shartlar qatoriga talabalarning kasbiy va ijodiy faoliyatiga, shu jumladan arxitektura va san’at oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarligini rivojlantirish muammolariga faol qiziqish va talabalar - bo‘lajak muhandislarning mustaqil ishlarining mohiyatini tushunishga yangi yondashuv kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 466-son qarori https://lex.uz/docs/-4500926
3. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, [228, b. 42]
4. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. T.:Fan va texnologiyalar, 2007.
5. I. Avazboyev, Y.U. Ismadiyarov KASBIY PEDAGOGIKA T.:Cho‘lpon, 2014. [201, b. 60]
6. Алимов Н. Н. Сквозное научно-техническое творчество важный фактор обеспечения качества в высшем образовании //International journal of discourse on innovation, integration and education.–2020.–Т.1.–№. 5. – С. 400-404.
7. Алимов Н. Н., Турабов А. М., Ташбаев А. К. Поэтапное развитие творческой деятелъности студентов–важный фактор при повышении качества подготовки будущих специалистов //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 99-102.
8. Sattorova Mahliyo. (2023). Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak muhandislarni mustaqil ishlash jarayoniga tayyorlashning ba’zi jihatlari. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 45–49. Retrieved from https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/367

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

Candidate of Philological Sciences, Vishnyakova E.A.
Lev Tolstoy Tula State Pedagogical University
vishnyalis@yandex.ru

Abstract: The article deals with the problem of using artificial intelligence in the educational process. The possibility of introducing artificial intelligence into the learning process is analyzed, and the technologies that are currently used to optimize the learning process are considered. Special attention is paid to electronic publications, computer simulators, independently created electronic courses containing materials for the successful development of educational material and control, as well as publicly available resources.

Keywords: artificial intelligence, education, data, technologies, students, Internet resources, human intelligence.

Artificial intelligence is increasingly penetrating into all spheres of human activity. It is increasingly being used in medicine, economics, marketing, and even creativity. The influence of artificial intelligence has not bypassed the field of education. Technological progress and the constant development of the possibilities of using artificial intelligence allow us to open up new opportunities in the field of education.

If we talk about the definition of the term "artificial intelligence", then its author is John McCarthy. In his opinion, this is the science and technology of creating intelligent machines, especially intelligent computer programs." He also noted that "artificial intelligence is related to the task of using computers to understand the work of human intelligence, but is not limited to using methods observed in biology" [5]. Artificial intelligence is also defined as "the ability of intelligent systems and algorithms to perform creative functions traditionally performed by humans. The key task of this technology is the intelligent modeling of achievable cognitive processes" [1]. In general, it is a science that is part of computer science and its task is to ensure reasonable reasoning and actions using computer systems and other artificial devices [4].

Artificial intelligence involves working primarily with data. This includes obtaining data from various sources, verifying, systematizing and analyzing them. If we talk about the field of education, then these technologies can be an auxiliary tool in this field for students, teachers, management, and parents of students. This technology gives teachers the opportunity to look for new ideas for classes, to find the right and interesting material. At the same time, the use of these technologies can save time, make the learning process more efficient and exciting, while focusing on the individual characteristics and abilities of students. The use of artificial intelligence gives students the opportunity, depending on age, psychophysiological characteristics, to increase academic performance in academic subjects, motivation, as well as acquire skills and abilities, master competencies that are in demand in modern society and necessary for further development after graduation. The parents

of students involved in this process also have a number of advantages – the ability to monitor student progress and respond promptly, interact with teachers and the management of educational institutions.

Various technologies related to artificial intelligence are widely used in educational institutions. At the same time, this is not only content developed by employees of an educational institution, but also publicly available resources. Thus, it can be noted that teachers widely use electronic publications, computer simulators, independently developed electronic courses containing materials for the successful development of educational material and control.

The introduction of digital technologies into the education system makes it possible to optimize the educational process. For example, students have the opportunity to use Internet resources, namely, online courses, websites and platforms containing content for lectures and practical classes in various academic disciplines, not only from domestic developers, but also from foreign ones. At the same time, you can use these technologies at any time and in any place.

According to the researchers, the artificial intelligence system of the educational process should include such elements as a search information system that can provide the formation of a database of the educational process from various sources; an automatically updated library of electronic textbooks, manuals and methodological guidelines; a system for monitoring the level of knowledge of students, which implies a subsystem for continuous monitoring of their academic performance, activity and results; as well as a database of control tasks that automatically adjusts to the level of training of each student, depending on his results; an automated system for scheduling and distributing the workload and a maintenance system that ensures communication between the student and the educational organization [3].

The undoubted advantages of using artificial intelligence in education are obvious, but it is also necessary to take into account the risks associated with the correct use and protection, for example, of personal data of participants in this process. In addition, important attention should be paid to the continuous development and improvement of competencies related to the use of artificial intelligence, as well as the dosed use of such technologies.

References:

1. Amirov R. A., Bilalova U. M. Prospects for the introduction of artificial intelligence technologies in the field of higher education // Managerial consulting. 2020. No. 3. pp. 80-88

2. Artificial intelligence in education: Changing the pace of learning. Analytical note by UNESCO IITE / Stephen Duggan; ed. by S.Y. Knyazev; translated from English: A.V. Parshakova. — Moscow : UNESCO Institute for Information Technologies in Education, 2020.

3.. Slavyanov A. S., Feshina S. S. Artificial intelligence technologies in education as a factor in improving the quality of human capital // Economics and Business: Theory of Economics and practice. 2019. No. 7. pp. 156-159.

4. Osipov G. S. Artificial intelligence: the state of research and a look into the future // Russian Association of Artificial Intelligence. URL: http://www.raai.org/about/persons/osipov/pages/ai/ai.html (date of access: 03/04/2024)
5. Schroer A. Artificial Intelligence // Built In. URL: https://builtin.com/artificial-intelligence (date of application: 03/04/2024)

TA'LIM TIZIMIDAGI RIVOJANISHLAR VA STRATEGIYALAR

p.f.f.d., dots. Zaripova Dilnoza Anvarovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Yakubova Diloromxon Murodjon qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
zaripovada85@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga va uni yangi bosqichga olib chiqishga yanada katta e'tibor qaratilmoqda. Buni birgini ta'lim tizimidagi islohatlar uchun ajratilgan davlat budjetidan mablag'larning sarfida ham o'sishni ko'rishimiz mumkin. Maqolada davlatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Strategiya, rivojlanishlar, uzluksiz ta'lim, O'rta ta'lim, Oliy ta'lim.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi hisoblanmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini dooimiy rivojlantirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlar uchun davlat budjetidan xarajatlar so'nggi 6 yilda 4,3 baravarga oshirildi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2016-yildagi 5 211 tadan 2021-yilga kelib 19 316 taga, maktablar soni 9 719 tadan 10 289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta'lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, OTM soni 70 tadan 191 taga yetkazildi, oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki pog'onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetkazildi[1].

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratish,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o‘quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko‘zda tutildi. Shuningdek, oliy ta’limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMlar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi[2].

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va doimiy bo‘lishini ta’minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta’lim olishga bo‘lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Shuni inobatga olgan holda, yangilanayotgan Konstitutsiyada ilk marotaba bog‘cha yoshidagi bolalarning ta’lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining joriy etilishi, bolaning o‘rta ta’lim olishi majburiyligi va davlat tomonidan bepul ta’minlanishi, fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishi kabi qo‘shimchalar bilan to‘ldirilmoqda.

Ta’lim sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlari nazarda tutilgan bo‘lib, ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda[3].

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta’lim berish sifatiga e’tibor berish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirishib borish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘liq. O‘qituvchi ilm-fan sirlari, ma’naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Demak, o‘qituvchilarga o‘zlarining salohiyatini to‘liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo‘llab-quvvatlash darkor.

Shu bois, Konstitutsiyaga o‘qituvchining jamiyatdagi maqomiga bag‘ishlangan alohida modda kiritilmoqda. O‘zbekistonda o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi mustahkamlanmoqda. Davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi nazarda tutilmoqda.

O‘z navbatida, mazkur yangilik mamlakatda faoliyat yuritayotgan 685 mingdan ortiq pedagogning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish va kasbiy o‘sishini ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa shuki, inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni ta’lim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo‘naltirish nafaqat bugun, balki ertaning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Shu boisdan ham, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo‘ldagi ulug‘vor maqsad va vazifalarini, avvalo o‘z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://strategiya.uz
2. Mo‘minov, T. (2020). O‘zbekistonda ta’lim islohotlari: hozirgi holati va istiqbollari. Markaziy Osiyo dasturi, Jorj Vashington universiteti.
3. Rashidov, F. va To‘raev, B. (2021). O‘zbekistonda oliy ta’lim islohotlari: yutuq va muammolar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti matbuoti.

TA’LIM TIZIMIDA SIFATLI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

p.f.f.d., dots. Zaripova Dilnoza Anvarovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Ummatova Nilufar Baxodir qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
nilufarummatova6@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqola O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va vazifalarini tahlil qiladi. Texnologik integratsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimini samarali o'sish uchun zarurdir. Maqolada ta'limning yuqori sifatini ta'minlash uchun kadrlar tayyorlash tizimining isloh qilinishi va huquqiy asoslarining yaratilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, integratsiya, strategiya, texnologiya, innovatsion, muassasa, mutaxassis, masofaviy ta’lim.

Bugungi kunda O’zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalarini amalga oshirishishda bir necha qiyinchilik va to’siqlarga duch kelmoqda. O`zbekistonda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo`lida jadal harakat qilib borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilinmoqda va ta’lim ustuvorligini ta’minlash uchun ta’lim to’g’risida qonunlar ishlab chiqilmoqda. Bugungi dunyoda texnologiyalar juda ham tez rivojlanmoqda va shu o’zgarishlarga mos ravishda ta’lim tizimi ham integratsiya qilinishi kerak. Ta’lim jarayonida o’qituvchilar va o’quvchilar uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishni joriy etish, onlayn ta’lim vositalarini qulaylashtirish va ta’lim platformalarini rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ta’lim tizimda shaxsiy ta’limga ham e’tibor berilishi va o’quvchilarning qiziqishlari ham inobatga olinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o`zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo`yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilyapti. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm-fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o`z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib,

yangilab, to`ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o`zgarishlar bo`lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini komponentli yondashuvi asosida tashkil etish va boshqarishni taqozo etmoqda.[1]

Hozirda yurtimizda ta’lim sohasini tubdan modernizatsiya qilish yo’lida uning yuqori darajasiga erishish va yanada takomillashtirish bo`yicha xorijiy va mahalliy tajribalar ham tadqiq qilinmoqda. Ta’lim sifati bu butun ta’lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish bosqichiga ega bo`lgan jarayondir. U ta’lim muassasalari faoliyatidagi iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va siyosiy muhitning o`zgarishi bilan izohlanadi. Ta'lim tizimini sifatini oshirish uchun ta'limda qulaylik va samarali o'quv usullari tadqiq qilinishi zarur. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun innovatsion va interaktiv ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari va resurslarining rivojlantirilishi ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi.

Barcha talablarga to’liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash hozirgi kun zamon talabi hisoblanadi. Mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalash, o’qitish bilim berish, zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish va yangi texnologiyalardan to’g’ri foydalanishni o’rgatish ishlari keng ko’lamda amalga oshirilmoqda. Ulardan eng muhimlaridan biri masofadan o’qitish texnologiyasini joriy etishdir. Hozirda texnologiyalar keng rivojlanib borayotgan davrda masofaviy ta’limda tahsil olish keng ommalashib bormoqda. Chunki bu ta’lim tizimi o’zining ijobiy taraflari bilan boshqa ta’lim turlaridan farq qilmoqda.

Ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada ta’lim turlari to`g`risidagi yangi qonun va qoidalar hayotga joriy etilmoqda. Misol uchun, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning huquqiy – me’yoriy asosi bo’lgan qonunlar yaratildi. «Ta’lim to`g`risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari uzluksiz ta’lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni yaratish, yuksak mehnat intizomini shakllantirish vazifasini yaratadi.

Ta'limni ommaviylashtirish hozirda ta'limning global tendensiyasiga aylandi. "Barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash" 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalaridan biridir

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim strategik maqsadlari hisoblanadi:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari asosiy o'ringa qo'yilgan.[2]

Xulosa qilib aytganda ta’limni rivojlantirish strategiyasini amaliyotga joriy qilish orqali professional ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish, boshqarishning samarali modellarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida yuqori intellektual salohiyatli, yuksak axloqiy sifat va fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://interonconf.org/index.php/iisrc/article/view/4586/4082

2. Strategic objectives and priorities of higher education system development Muallifi: Shoira Akbarovna Xusinova Aktam Xatamovich Xolov Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Nadira Egamberdiyevna Yuldashova

3. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Indiya. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.

4. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.

ПОДГОТОВКА БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИНФОРМАТИКИ В ОБЛАСТИ СКВОЗНЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

к.п.н., доц. Аниськин Владимир Николаевич,
к.п.н., доц. Добудько Александр Валерьянович,
д.п.н., проф. Добудько Татьяна Валерьяновна
Самарский государственный социально-педагогический университет
vnaniskin@gmail.com

Аннотация: в работе рассматриваются вопросы обучения будущих учителей информатики средствам сквозных цифровых технологий. Приводятся возможные структурные изменения в образовательных программах, призванные непосредственно обеспечить должный уровень подготовки студентов в области сквозных цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровая трансформация; сквозные цифровые технологии; искусственный интеллект; большие данные; компоненты робототехники и сенсорика; технологии дополненной и виртуальной реальности; новые производственные технологии; промышленный Интернет;

квантовые технологии; технологии распределенного реестра; технологии беспроводной связи.

В настоящее время пристальное внимание в экономике уделяется сквозным цифровым технологиям (большие данные, искусственный интеллект, виртуальная и дополненная реальность, компоненты робототехники и сенсорика, технологии беспроводной связи, технологии распределенного реестра, новые производственные технологии, промышленный Интернет, квантовые технологии), необходимость развития которых зафиксирована в программе «Цифровая экономика Российской Федерации» [3], поскольку их внедрение приводит к значительным экономическим эффектам и созданию конкурентных преимуществ. Однако отмечается недостаточность численности подготовки кадров и соответствия образовательных программ нуждам цифровой экономики.

Цифровая трансформация экономики ставит новые задачи перед школьным курсом информатики [1; 2; 4]. В связи с этим перед педагогическими вузами стоит важная задача подготовки учителей информатики, которые будут обучать подрастающее поколение, понимающее роль цифровых технологий в условиях цифровой трансформации многих сфер жизни современного общества [5].

Реализуемая в настоящее время концепция «Ядра высшего педагогического образования» в части предметной подготовки учителя информатики частично отвечает требованиям времени: высшее педагогическое образование по профилю «Информатика» имеет не опережающий, а догоняющий характер [4].

В набор учебных предметов, призванных непосредственно (если судить по названию) обеспечить должный уровень подготовки студентов в области сквозных цифровых технологий, включен только курс «Основы искусственного интеллекта», в котором представлены разделы «Искусственный интеллект – фундаментальная наука и технология комплексных технологических решений», «Инженерия знаний», «Представление знаний», «Системы искусственного интеллекта: примеры использования и инструментальные средства их разработки», «Машинное обучение», «Основы технологий обработки больших данных».

Анализ содержания других курсов предметного модуля показал, что в содержание некоторых курсов включены темы, название которых совпадает (или близко по тематике) с рассматриваемыми технологиями. Так в курсе «Программное обеспечение систем и сетей» изучаются вопросы «Беспроводная связь. Технологии глобальных сетей», «Тенденции развития сети Интернет. Интернет вещей. Реализация принципов построения открытых систем в развитии глобальных телекоммуникационных технологий». В курсе «Архитектура компьютера» находим тему «Современные тенденции развития архитектуры компьютера», в которой можно рассказать о квантовых технологиях.

Между тем этого недостаточно для полноценного знакомства со сквозными цифровыми технологиями. Необходимо внести коррективы в содержание и структуру предметного блока учебных дисциплин, дополнив курсами (выделены курсивом), представленными в таблице 1.

Таблица 1.

Предполагаемые структурные изменения в системе подготовки будущих учителей информатики в области сквозных цифровых технологий

Сквозная цифровая технология	Дисциплины предметного модуля в учебном плане
Искусственный интеллект	Основы искусственного интеллекта, *Решение олимпиадных задач по информатике*
Технологии виртуальной и дополненной реальности	*Разработка приложений AR и VR, Компьютерная графика*
Большие данные	Информационные системы, Теоретические основы информатики, Программирование, *Базы данных*
1. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Westview Press.
2. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (2010). Teaching for creativity in the common core classroom. Teachers College Record, 112(8), 2201-2239.
3. Craft, A. (2005). Creativity in schools: Tensions and dilemmas. Routledge.
4. Csikszentmihalyi, M. (1988). Society, culture, and person: A systems view of creativity. In R. J. Sternberg (Ed.), The nature of creativity: Contemporary psychological perspectives (pp. 325-339). Cambridge University Press.

DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANIDAN MANTIQIY SXEMALAR QURISH MAVZUSIDA INTERFAOL O‘QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH

Xolmatov Javlon Yusupovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizza filiali
javlonxolmatov@jbnuu.uz

Annotatsiya. Interfaol o‘qitish metodi - ta’limda nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Ushbu maqolada interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishning dolzarbligi, oliy ta’lim muassasalarida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitishda ulardan foydalanish zarurati asoslangan. Jumladan, “zinama-zina” metodidan “Mantiqiy sxemalar qurish” mavzusini o‘qitishda foydalanish borasidagi tajribalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metod**,** “kichik guruhlarda ishlash”, “zinama-zina”, metodi, mantiqiy funsiyalar sistemasi, mukammal normal shakllar, mantiqiy sxema.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishni innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagilarga imkon beradi: mashg‘ulot jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga intilishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi; ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan yangi bilimlarini ongli ravishda egallashlarini ta’minlaydi va pirovardida ularda o‘rganilayotgan fanga nisbatan doimiy motivatsiyani shakllanishiga olib keladi; tabaqalashtirilgan holda, yakka tartibda bilim berish imkoniyatlarini kengaytiradi. [1,2]

Ushbu maqolada “kichik guruhlarda ishlash”, “zinama-zina” interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish haqida so‘z boradi hamda “Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitish misolida yoritiladi. “Diskret matematika va matematik mantiq” fani bakalavriat matematika va amaliy matematika yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq o‘qitiladi va asosiy mutaxassislik fanlaridan biri hisoblanadi [2].

Endi “Diskret matematika va matematik mantiq” fanidan “Mantiqiy sxemalar qurish” mavzusida amaliy mashg’ulotni tashkil etishda “Zinama-zina” metodidan foydalanish masalasini qarab chiqamiz. Buning uchun esa guruhni 4 ta kichik guruhga ajratamiz.

Har bir ajratilgan guruhga quyidagi kichik mavzular yozilgan qog’ozlar tarqatiladi:

1-guruhga: Funksiyaning chinik jadvalini tuzish; $f = (x \leftrightarrow y\bar{z}) \rightarrow (\bar{x} \downarrow z)$

2-guruhga: Vektor funksiyani mukammal dizyunktiv (konyunktiv) normal shakl (MDNSh/MKNSh) ga keltirish; *f={00101111}*

3-guruhga: MDNSh (MKNSh) dagi funksiyani soddalashitirish;

$f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz$

4-guruhga: Funksiyaning mantiqiy sxemasini tuzish.

$f = x \vee y\bar{z}$

Barcha guruhlarga tegishli ko‘rsatmalar beriladi va topshiriqni bajarish uchun vaqt ajratiladi. Vaqt tugagach guruhlarning javoblari taqdim etiladi ya’ni, doskaga guruhlar tartibi bo’yicha ilib qo’yiladi. Eng birinchi pastga 1-guruh javobi, undan teparoqqa 2-guruh javoblari yozilgan qog’oz ilinadi, keyin 3-guruhniki, 4-guruhniki eng yuqoriga joylashtiriladi.

O’qituvchi talabalar bilan birgalikda zina ko’rinishda ilingan javoblarni muhokama va tahlil qiladilar.

Har bir guruhning javoblari quyidagi ko’rinishda bo’ladi. O’qituvchi ularning har birini tushuntirib beradi:

1-guruhning javobi: $\boldsymbol{f = (x \leftrightarrow y\bar{z}) \rightarrow (\bar{x} \downarrow z)}$

6-jadval

x	y	z	$\bar{z}$	$y\bar{z}$	$x \leftrightarrow y\bar{z}$	$\bar{x}$	$\bar{x} \downarrow z$	$(x \leftrightarrow y\bar{z}) \rightarrow (\bar{x} \downarrow z)$
0	0	0	1	0	1	1	0	0
0	0	1	0	0	1	1	0	0
0	1	0	1	1	0	1	0	1
0	1	1	0	0	1	1	0	0
1	0	0	1	0	0	0	1	1
1	0	1	0	0	0	0	0	1
1	1	0	1	1	1	0	1	1
1	1	1	0	0	0	0	0	1

2-guruhning javobi: *f={00101111}*

Vektor funksiyani chinlik jadvaliga kiritamiz va mukammal dizyunktiv normal shaklni topish qoidasidan foydalanamiz. Mukammal dizyunktiv normal shaklni toppish uchun chinlik jadvalida funksiyaning qiymatlar satridagi 1 ga teng bo’lgan o’zgaruvchilarning qabul qilishi mumkin bo’lgan qiymatarini ko’paytmasini 1 ga teng qilgan holda to’liq elementar konyunksiyalar ko’rinishida yozamiz. So’ng ularni dizyunksiya amali bilan birlashtiramiz.

7-jadval

x	*y*	*z*	*f*	*Elementar konyunksiyalar*
0	0	0	0	-
0	0	1	0	-
0	1	0	1	$\boldsymbol{\bar{x}y\bar{z}}$
0	1	1	0	-
1	0	0	1	$\boldsymbol{x\bar{y}\bar{z}}$
1	0	1	1	$\boldsymbol{x\bar{y}z}$
1	1	0	1	$\boldsymbol{xy\bar{z}}$
1	1	1	1	$\boldsymbol{xyz}$

Yuqoridagi vektor funksiya uchun mukammal dizyunktiv normal shakl quyidagicha:


$\boldsymbol{f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz}$

3-guruhning javobi: $f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz$ funksiyani $\bar{x} \vee x = 1$ tengkuchli formulani qo'llash orqali soddalashtiramiz:

$$f = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}\bar{z} \vee x\bar{y}z \vee xy\bar{z} \vee xyz = \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y}(\bar{z} \vee z) \vee xy(\bar{z} \vee z)$$
$$= \bar{x}y\bar{z} \vee x\bar{y} \vee xy = \bar{x}y\bar{z} \vee x(\bar{y} \vee y) = \bar{x}y\bar{z} \vee x$$
$$= (\bar{x} \vee x)(y \vee x)(\bar{z} \vee x) = (y \vee x)(\bar{z} \vee x) = y\bar{z} \vee x$$

Javob: $f = y\bar{z} \vee x$

4-guruhning javobi. $f = x \vee y\bar{z}$ fuksiyaning mantiqiy sxemasini quramiz:



2-rasm. $f = x \vee y\bar{z}$ fuksiyaning mantiqiy sxemasi.

Bu metod talaba yoki o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi. Agar fan ushbu metoddan foydalanib o'qitilsa, har bir mashg'ulot talaba yoki o'quvchilarini o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib, fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtirish va ularni yozma, rasm, chizma, ko'rinishida ifodalay olishga erishiladi.[5,6,7,8]

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, "Kichik guruhlarda ishlash", "Zinama-zina" interfaol metodlarini o'quv jarayonida yuqorida berilgan tartibda qo'llay olish uchun guruhlarga ajratilgan qismlar o'zaro bog'liq bo'lmasligi, ya'ni birinchi qismni o'zlashtirmay turib, ikkinchi yoki uchinchi qismlarni o'zlashtira olib bilishi mumkin bo'lgan mavzular tanlanishi lozim. Bu metodlar quyidagilarga imkon beradi: ta'lim oluvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish uyg'otadi; ularning bilishga va faol ijodiy fikrlashga bo'lgan intilishlarni rag'batlantiradi; ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilar mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchilar tomonidan o'z-o'zini boshqarishga keng yo'l ochadi; har bir ta'lim oluvchining qobiliyatlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda bilim (hammaga bir xil bilim berishdan voz kechish) berish uchun imkoniyat yaratadi; har bir ta'lim oluvchi shaxsning yaxshi xislatlarini izlash va ularni rivojlantirishga yordam beradi; o'qituvchining "har bir ta'lim oluvchi iste'dodli" degan ishonchga ega bo'lishiga, shunga kelib chiqqan holda uni hurmat qilish, har bir fikriga e'tibor bilan qarash, unga ishonishga, natajada hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchining har bir yutug'ini qo'llab-quvvatlash, ma'qullash, unga xayrixoh bo'lgan vaziyatlarni yaratish va shular asosida yanada chuqurroq bilimlar egallashga bo'lgan intilishlarini o'z vaqtida

rag‘batlantirib boradi; ta’lim jarayonida har bir ta’lim oluvchiga o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratish va unga bu yo‘lda yordam berish imkoniyatlarini oshiradi; qanday, nimaga va nima uchun o‘qitish kabi savollarga, shuningdek, qanday qilib natijali o‘qitish savoliga javob topiladi; o‘qituvchining ish, ya’ni mehnat samaradorligini oshiradi: o‘qitish jarayonida har bir talabaning individual xususiyatlari va xarakterini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilish, o‘qitish natijasini baholashda esa xususiy (sub’ektiv) baholanishdan o‘qituvchini ozod etish imkonini beradi; o‘qitish jarayoni bo‘yicha bosh vazifalarni o‘qitish vositalariga yuklash orqali o‘qituvchining vaqtini samarali qiladi, shu bois o‘qituvchi uchun ko‘proq vaqtini har bir talabaning shaxsiy rivojlanishiga qaratishga imkon yaratiladi; talabalar bilim darajasini baholash va nazoratda shaffoflikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Башин М.А., Дурнев В.Г. О некотором опыте преподавания дисциплины «Дискретная математика» / Преподавание математики в классическом университете: Тезисы докладов научно-методической конференции. - Ярославль: ЯрГУ 2005. - С.6-7.
2. Дурнев В.Г., Башкин М.А., Якимова О.П. Элементы дискретной математики: учебное пособие. - Ярославль: ЯрГУ 2007.
3. Мехамедов Ў.Х., Усмонбекова М.Ҳ., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. Ўқув услубий тавсиялар Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016.-45 б.
4. А. Рахимов, М. Ҳамроева. “Интерфаол таълим ва унинг дидактик имкониятлари”. XXI Международная научно-практическая интернетконференция 30–31 декабря, 2015.
5. Холматов, Ж., Худойшукурова, Р., & Ибадуллаев, Ш. (2023). Bul algebrasi funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to‘liqlikka tekshirish. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 66-70.
6. Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.
7. XOLMATOV J. INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANINI O‘QITISHDA FOYDALANISH //News of UzMU journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1.1. 1. – С. 119-222.
8. Abduraimov S. S. et al. Advancing Educational Equity: A Comprehensive Analysis of Integration in Contemporary Education Systems. – 2023.
9. Javlon X. Salimov Jamshid Obid ogli." Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF." //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – С. 352-357.

10. Yusupovich X. J., Mansur ogli A. N. APTEKA-BEMOR-SHIFOKOR AXBOROT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1265-1272.
11. Kamoliddin B., Javlon K. HAND MOTION CLASSIFIER USING BIOMIMETIC PATTERN RECOGNITION WITH CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORKS WITH A DYNAMIC THRESHOLD METHOD FOR MOTION EXTRACTION USING EF SENSORS //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 282-285.

BO‘LAJAK AKT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Xolmatov Javlon Yusupovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
javlonxolmatov@jbnuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'rib chiqilayotgan kompetensiyalar doirasi bo'lajak IT-mutaxassisning intellektual kompetentsiyasini birgalikda tashkil etuvchi kompetensiyalar va diskret matematika va matematik mantiq kursini tashkil etuvchi fanlar bo'yicha o'qitish vositalari bilan chegaralanadi.

Kalit so‘zlar: Intellektual kompetentlik, Gilfordning ko'p o'lchovli strukturali modeli, intellektual kompetentlikning tarkibiy qismlari, abstrakt kompetentlik, "intuitiv" kompetentlik.

Bo'lajak AKT mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida o'quv jarayoni natijasida shakllanishi kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalar quyidagilar hisoblanadi: tarbiyaviy, pedagogik, ilmiy, intellektual, kommunikativ, til, psixologik, axborot texnologiyalari, faktik, (xotirani rivojlantirish), texnik. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, gap, pedagogik vositalarning butun majmuasidan foydalangan holda o'quvchilarni o'qitish jarayonida shakllanadigan asosiy kasbiy kompetensiyalar haqida bormoqda.

Faylasuflar, psixologlar va o'qituvchilarning intellektning tabiatini aniqlash, uning rivojlanishi va darajasini o'lchash muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar tarixi F.Galtonning (1884, Angliya) birinchi sinovlari va J.Kettellning (1885, AQSh) "aqliy" testlariga borib taqaladi. Ushbu ikki xilma-xil tadqiqotlar natijasida paydo bo'lgan g'oyalar intellektni ob'ektiv baholash usullari uchun asos bo'ldi. Shu bilan birga, uzoq yillar davom etgan inson ongining ma'lum bir kontseptsiyasi yaratildi.[1,2,3,8,9]

XX asr boshidan boshlab intellektning mohiyatini tushuntirishning ikkita asosiy yondashuvi paydo bo'ldi. Ulardan biri K.Spirmen nomi bilan bog'liq bo'lib, intellektni intellektual faoliyatning barcha darajalarida ifodalanadigan umumiy omil sifatida tan oldi, ikkinchisi (L.Terston, J.P.Gilford) intellektual faoliyatning har qanday umumiy tamoyilini inkor etdi va ko'plab mustaqil intellektual funktsiyalar mavjudligini ta'kidladi.

Gilfordning ko'p o'lchovli strukturali modeli intellektual faoliyat orqali hal qilinadigan turli vazifalarni tavsiflovchi uchta parametrga asoslanadi:

1. 5 turdagi operatsiyalar: Baholash (natija va maqsadni to'g'ri taqqoslash qobiliyati); Konvergentsiya (ob'ektni turli xil xususiyatlar bilan aniqlash, xususiyatlarni birlashtirish);Divergensiya (bir mavzudan foydalanishning turli usullari, imkoniyatlarni kengaytirish); Yodlash (xotiradan saqlash va olish);Bilish (materialni idrok etish va talqin qilish).

2. Intellektual faoliyat materialining 4 turi: Ob'ekt yoki tasviriy;Ramziy yoki ikonik; Semantik; Xulq-atvor.

3. Yakuniy mahsulotning 6 turi: Elementlar; Sinflar; Munosabatlar; Tizimlar; Transformatsiyalar; Mulohaza yuritish.

Uchta parametrlar to‘plamining dekart ko‘paytmasi 120=4*5*6 mumkin bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu turdagi muammolarning aksariyati uchun Gilford va uning shogirdlari maxsus testlarni ishlab chiqdilar.

Keyinchalik Gilford ijodkorlikning 6 ta o'lchovini ilgari suradi: muammolarni aniqlash va shakllantirish qobiliyati; g'oyalarni yaratish qobiliyati; g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati-moslashuvchanlik; stimullar (kutilmagan vaziyatlar) ga nostandart javob berish qobiliyati-o'ziga xoslik; tafsilotlarni qo'shish orqali takomillashtirish qobiliyati; muammolarni hal qilish qobiliyati, ya'ni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati.[5,6,7]

Intellektual kompetentli fikrlash texnologiyasi, ya'ni faoliyatning ma'lum bir sohasida samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini ta'minlaydigan bilimlarni tashkil etishning maxsus turi sifatida ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida,

<<Intellektual kompetentlik = Intellekt + Ijodkorlik>>

formula ko`rinishida ifodalashimiz mumkin.

Bu yig'indi emas, balki murakkab tuzilishga ega bo'lgan birlikdir.

Intellektual kompetentlik doirasida biz uning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatamiz:

- algoritmik kompetentlik
  - abstraksiya (bilimlarni modellashtirish va tizimlashtirish)
  - algoritmlarni loyihalash (sintez qilish).
  - algoritmlarni tahlil qilish
  - algoritmik notatsiya
- induktiv kompetentlik (analogiya va umumlashmalarni qo'llash)
- mantiqiy (deduktiv) kompetentlik
- til kompetentligi

Savol tug'iladi: mavhum kompetentsiyani (bilimlarni modellashtirish va tizimlashtirish), "intuitiv" kompetentsiyani va o'z-o'zini o'rganish kompetentsiyasini alohida vakolatlar sifatida aniqlash va rivojlantirishga arziydimi? Bu qobiliyatlarni kompetentsiya deb hisoblash mumkinmi?

Bu savolga uning matematik modeliga asoslangan kompetentsiya tavsifi asosida javob berish mumkin.

Agar ma'lum bilim va qobiliyatlar majmuasi uchun kortejning barcha elementlarini aniqlash mumkin bo'lsa, u holda bu kompleksni mustaqil kompetentsiya

deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, agar ko'rsatilgan vakolatni aniqlash, uni shakllantirish vositalarini ishlab chiqish va uning darajasini baholash zarurati tug'ilsa, bunday ko'rib chiqish mantiqiydir. Masalan, rivojlangan mavhum fikrlash (abstrakt kompetentlik), rivojlangan sezgi ("intuitiv" kompetentlik) va mustaqil kompetentlik tizimlari haqida gapirish odatiy holdir. Haqiqatan ham bu qobiliyatlar shakllantirish, rivojlantirish, baholash va o'qitish ob'ektiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotar ro‘yxati:

1. Yarygin O. N. Diskret matematikani o'qitish jarayonida IT mutaxassisliklari talabalarining intellektual kompetentsiyasini shakllantirish. Avtoreferat. Tolyatti, 2007 yil.
2. Aryaeva L.V. O'qituvchi bilan axborot o'zaro aloqada talabalarning intellektual kompetentsiyasini shakllantirishning didaktik shartlari. Sankt-Peterburg, 2008 yil.
3. Savin E. Yu. Intellektning ontologik nazariyasiga asoslangan intellektual kompetentsiyani o'rganish istiqbollari. Материалы всероссийской научно-практической конференции. – Smolensk, 2007. 112-117-betlar.
4. Kholmatov Javlon, & Mustafoyev Erali. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 136–141.
5. Холматов Д., Мустафоев Э. Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 352-356.
6. Холматов Ж., Худойшукурова Р., Ибадуллаев Ш. Bul algebrasi funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to‘liqlikka tekshirish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 66-70.
7. XOLMATOV J. INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANINI O‘QITISHDA FOYDALANISH //News of UzMU journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1.1. 1. – С. 119-222.
8. Abduraimov S. S. et al. Advancing Educational Equity: A Comprehensive Analysis of Integration in Contemporary Education Systems. – 2023.
9. Javlon X. Salimov Jamshid Obid ogli." Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF." //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – С. 352-357.
10. Yusupovich X. J., Mansur ogli A. N. APTEKA-BEMOR-SHIFOKOR AXBOROT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1265-1272.

DETERMINATION OF PLANT GROWTH-PROMOTING BACTERIA IN EXTREME CONDITIONS FROM THE RHIZOSPHERE OF *FERULA KUHISTANICA* KOROVIN

[1]Nematova M. A., [2]S.S. Murodova., [3]Turaeva B.I.
[1,2]Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
[3]Institute of Microbiology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
malohat.biotex@jbnuu.uz

Annotation. The use of eco-friendly fertilizers is one of the most important aspects of the cultivation of medicinal plants. *Ferula kuhistanica* is one of the medicinal plants grown under such plantation conditions. Therefore, researching the microbiome of this plant, identifying promising strains, and using it as biocontrol is one of the urgent tasks of today. This article describes the growth and development-stimulating properties of certain bacterial strains isolated from the rhizosphere of *Ferula kuhistanica* under stress conditions.

Key words: *Ferula kuhistanica*, *Rahnella aquatilis, Paenibacillus sp., Enterobacter sp.*, biocontrol.

Intensive farming practices aimed at high yields and quality crops have traditionally required extensive use of chemical fertilizers, which are expensive and have a negative impact on the environment. There is a growing interest in ecologically clean, sustainable, and organic agricultural practices. In many cases, the use of bio-fertilizers, which contain beneficial microorganisms rather than synthetic chemicals, has been found to enhance plant growth and improve environmental health and soil fertility by improving nutrient availability.

Many studies have reported improved plant growth and development after treatment (seed or root) with microbial strains capable of producing plant growth regulators. Isolates isolated from the rhizosphere microbiome of *Ferula kuhistanica* include antibiotic producer (*Paenibacillus polymyxa*) [1], catalase positive (*Enterobacter cancerogenus*) [2], and abscisic acid (ABA) producer (*Bacillus subtilis*), glyphosate degrader (*Enterobacter cloacae*) [3], KCN-resistant (*Enterobacter cancerogenus*) phosphate solubilizer, siderophore, and amylase producer (*Enterobacter cloacae, Paenibacillus polymyxa*) diazotroph (*Rahnella aquatilis, Paenibacillus polymyxa, Enterobacter cloacae*) (*Acinetobacter schindleri*) [4] strains indicate that the root microbial community of *F. kuhistanica* is rich and effective and has bright prospects for future use as biocontrol in agricultural crops and medicinal plants.

Salinity, which is one of the consequences of global climate conditions, is one of the current problems that is spreading widely in the world. Climate change and increased salinity as a result of the use of chemical fertilizers cause a number of problems, such as a decrease in soil fertility and a decrease in the yield of agricultural crops.Traditional methods of reclamation of saline soils are less effective, which in turn has a negative effect on agroecosystems. In this context, the development of sustainable methods that increase the productivity of saline soils without harming the environment is one of the urgent problems of today. In recent years, in order to increase productivity in saline soils, many studies have been conducted on the isolation, study, and use of ST-PGPR - plant growth-stimulating salt-resistant rhizobacteria. Due to the large accumulation of Na ions in plant tissues in the saline area, negative changes occur in the growth and metabolism of plants. The accumulation of these Na ions in plant tissues slows down photosynthesis and increases the formation of reactive oxygen species.

Several promising PGPR strains belonging to the genera *Bacillus*, *Enterobacter*, *Rahnella*, *Acinetobacter,* and *Paenibacillus* were isolated from the root rhizosphere of *Ferula kuhistanica*. The morphological, cultural, physiological, and biochemical characteristics of these strains were studied. *Bacillus subtilis* 1, 2, *Paenibacillus sp.,* and *Enterobacter sp.,* bacterial strains were found to grow at a 2.56 M NaCl concentration when inoculated in nutrient media with different salt concentrations.

In conclusion, by creating and using new biopreparations based on these bacterial isolates, it helps to protect the *Ferula kuhistanica* plant from stress factors on saline soils under plantation conditions and to improve growth development. In addition, using plant growth promoting rhizobacteria inoculation will save nitrogen fertilizers, reduce the necessity for chemical fertilizers, and prevent environmental pollution.

References:

1. He Z, et. al. (2007) Isolation and identification of a *Paenibacillus polymyxa* strain that coproduces a novel lantibiotic and polymyxin. Appl Environ Microbiol. Jan; 73(1):168-78. doi: 10.1128/AEM.02023-06. Epub 2006 Oct 27. PMID: 17071789; PMCID: PMC1797129.
2. Jha, C. K. et al. (2011). Enterobacter: role in plant growth promotion. *Bacteria in agrobiology: Plant growth responses*, 159-182.
3. Kryuchkova, Y. V. et al. (2014). Isolation and characterization of a glyphosate-degrading rhizosphere strain, *Enterobacter cloacae* K7. *Microbiological research*, *169*(1), 99-105.
4. Purwanto, P., et. al. (2022). Isolation and molecular identification of halotolerant diazotrophic bacteria from the Northern Coastal of Pemalang, Central Java, Indonesia. Biodiversitas Journal of Biological Diversity, 23(11

DORIVOR QORA RAYHON (*OCIMUM BASILICUM* L) O ‘SIMLIGINING ONTOGENEZI

Mamatkulova Iroda Ergashevna
O‘zbekiston Milliy unversiteti Jizzax filiali
Namozova Mahliyo Asliddin qizi
O‘zbekiston Milliy unversiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: O‘simlikning ontogenezi - urug‘larning unib chiqishidan hamda to‘liq nobud bo ‘lishigacha bo‘lgan vaqt ichida uning o‘zgarib turadigan morfologik holatlarning ketma-ket tartibiga aytiladi. O‘simliklarda ontogenez davrlari bir yillik hamda ikki yillik monokarp o‘simliklarda faqat bir marta namoyon bo ‘ladi. Ko‘p yillik (polikarp) o‘simliklarda embrional, yuvenil davrlar bir marta sodir bo‘ladi, generativ organlar esa ko‘p marta takrorlanadi.

Kalit so‘zlar: *Ocimum basilicum L*, ontogenez, latenlik, verginil, generativ, sinil, askorbin kislotasi, stomatit.

Qora rayhon yoki oddiy Rayhon (*Ocimum basilicum L*) bir yillik o‘t o‘simlik bo‘lib uning ildiz tizimi tarvaqaylab ketgan, yuzaki joylashgan va poyasi tekis, balandligi 50-70 smni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) ko’rinishi

Bu o‘simlikning gullari ikki labli, oq, och pushti, kamroq binafsha rangga ega bo‘lib, apikal barglar va barglar qo‘ltig‘idan tartibsiz burmalarda o‘sadi hamda gullash may va sentyabr oylari orasida sodir bo‘ladi. Mevasi to‘rtta quyuq jigarrang yong‘oqdan iborat bo‘lib, ular pishganidan keyin bir-biridan ajralib chiqadi va 1000 urug‘ning massasi 0,5 - 0,8 g.urug‘lar to‘rt yildan besh yilgacha yashovchan bo‘ladi. O‘simlikni hozirda Eron, Afrika, Amerika qit‘asining tropik mintaqalarida, Kavkazda, Xitoyda keng tarqalgan [1]. O‘simlik tarkibida efir moylari va bioaktiv birikmalarning tarkibi, shuningdek ishlab chiqarilishi genetik va atrof-muhit omillariga ta‘sir qiladi. Atrof muhit omillari orasida yorug‘lik nafaqat o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun hayotiy energiya bilan ta ‘minlaydi, balki o‘simlikga xos

javoblarni tetiklash uchun tashqi signal sifatida ham ishlab, efir moylari va flavonoidlar, askorbin kislotasi, karotinoidlar, tokoferollar, ferment antioksidantlari kabi fitokimyoviy moddalarning to‘plangan. O‘simlik infuzioni gastrit, ko‘k yo‘tal uchun antitussiv vosita sifatida, nevroz, bosh og‘rig‘i, bronxial astma, shamollash va burun oqishi sifatida ishlatilib hamda barglarining tashqi tomondan tomoq og‘rig‘i stomatit bilan yuvish uchun ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) ontogenezi 4 ta davrlarni o‘z ichiga olib (latent, verginil, generativ,sinil) va hayot bosqichlarini (urug‘, ko‘chat, yosh, yetilmagan, erta generativ, o‘rta generativ, kech generativ, qarilikdan past, qarilik) bosib o‘tadi uning ontogenezning oxiri tabiiy o ‘lim bilan tugaydi. Bu o‘simlikda vegetativ ko‘payish yo‘q [2].

Latentlik davr. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) o‘simligi bu davri dam olish davri ham deyilib bunda zich po‘stloqni hosil qiladi, u nihol unib chiqish bilan borib xona haroratida 3-4 kunda, issiqxonalarda esa 6-8 kunlarda unib chiqadi.

Verginil davr. Bu davra o‘simlikda pigmentatsiyasi jarayoni dastlab amalga oshadi keyinchalik 14 - 16 kunlarda barglarning birinchi juftligi ochiladi va o‘simliklar balog‘at yoshiga o‘tadi. Barglari novdasimon shaklli, tuxumsimon va keng tuxumsimon yoki qavariqsimon. bo‘lib unda ildiz tizimi ham yaxshi rivojlanadi apikal kurtak 0.5 sm va qo‘shimcha kurtaklar paydo bo‘ladi.

Generativ davr. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) o‘simliging generativ davrida generativ organlarning rivojlanishi bilan birga yashil massaning ko‘payishi (iyun oxiri-iyul) sodir bo‘ladi. O‘simliklar generativ nihollar sonining ko‘payishi hisobiga ko‘plab bir-uch yon nihollarga ega. Yon nihollarida simpodial shoxchalar bilan to ‘pgullar rivojlangan. Generativ organlar avgust oyida yetuklikka erishadi. Gullash vaqtiga kelib, asosiy novdalar shoxlanadi va diametri 6-10 sm ga etadi. Urug‘larning pishishi avgust oyining o‘rtalarida boshlanib gullashning tugashi bilan bir vaqtda meva beradi.

Sinil davr. Bu davr sentyabr oyining ikkinchi yarmida o‘simlik qarilikdan o‘tadi va oktyabr oyining boshlarida ob-havo to‘satdan sovib ketganda ommaviy ravishda nobud bo‘ladi. Bu o‘simlik oddiy individ bo‘lib, morfologik jihatdan parchalanmaydi, ontogenetik sikli monosentrik biomorflardan iborat. Morfologik tuzilmalarning yaratilish muddatlari va rivojlanish darajasi ularning o`sish yo`liga bog`liq. Ko‘chat yetishtiriladigan issiqxonadagi noqulay sharoit tufayli verginil davri hayot bosqichlari juda uzoq davom etadi [3].

Xulosa. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) o‘simligining umumiy ontogenezini o‘rganish ushbu o‘simligining keng tarqalishiga imkon beradi.

Foydallanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Глухов А., Кустова О., Интродукция и перспективы использования видов рода базилик (Ocimum) на юго-востоке Украины. Изд. Вебер. Донецк. 2009, стр. 69-83.
2. Жукова Л. А., Онтогенез и циклы воспроизведения растений. Журнал общей биологии. XLIV, № 3, 1983, стр. 361-373.
3. L.Dombrov “The ontogenetic characteristics of ocimum basilicum l. Under conditions of republic of moldova” https://ibn.idsi.md/vizularticol/77126

NANOBIOTEXNOLOGIYA VA ENERGETIKANING MURAKKABLIKLARINI NAVIGATSIYA QILISH: TO‘SIQLARNI TUSHUNISH VA ISTIQBOLLI INNOVATSIYALAR

PhD. Sobirova Muqaddas Botirovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Norqo‘ziyeva Nodira Farxod qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali magistranti
sobirovamukaddas83@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola nanobiotexnologiya va energiyaning murakkabliklarida keladigan to'siqlarni va barqaror energiya kelajagiga umid beruvchi istiqbolli innovatsiyalari tahlil qilinadi.Nanobiotexnologiyadagi muhim istiqbolga ega bo'lgan sohalardan biri energiyani ishlab chiqarish va saqlash. nanozarrachalar va biologik tizimlarning noyob xususiyatlaridan foydalanib, dunyoda ortib borayotgan energiyaga bo’lgan talablarni qondirish haqida innovatsion yechimlar.

Kalit so‘zlar: Energetika, nano-zarracha, innovatsiya, batareyalar superkondensatorlar, bioenergiya, fizik-kimyoviy usullar.

Nanobiotexnologiya energiyaning murakkabliklarida yangi funksiyalar va ilovalarni yaratish uchun nano-miqyosda materiallar va qurilmalarni manipulyatsiya qilish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Energetika sektorida qo'llanilganda, nanobiotexnologiya samaradorlikni oshirish, ishlashni yaxshilash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish kabi bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Biroq nanobiotexnologiyalarni energetika tizimlariga integratsiyalashuvi murakkab jihatlardan xoli emas. Nanobiotexnologiya va energiya sohasidagi asosiy muammolardan biri nanozarrachalarni aniq nazorat qilish va manipulyatsiya qilishdir. Nano miqyosida zarrachalarning xatti-harakatiga turli omillar, jumladan hajmi, shakli, sirt kimyosi va tarkibi ta'sir qilishi mumkin. Istalgan xususiyat va funksionallikka erishish uchun nanozarrachalar va ularni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni chuqur tushunish talab etiladi. Nanobiotexnologiya va energetikaga oid tadqiqotlarda bir nechta to'siqlar uning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Asosiy to'siqlardan biri nanobiotexnologiyaga asoslangan energiya yechimlarining kengaytirilishidir. Laboratoriya miqyosidagi namoyishlar istiqbolli natijalarni ko'rsatgan bo'lsa-da, bu texnologiyalarni tijorat darajasiga ko'tarish jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Nano o'lchamdagi materiallar va qurilmalarni katta hajmda izchil sifat bilan ishlab chiqarish keyingi tadqiqot va ishlanmalarni talab qiladigan vazifadir. Yana bir to'siq - nanobiotexnologiyaga asoslangan energiya tizimlari bilan bog'liq bo’lgan xarajatlar hisoblanadi. Nano zarrachalarning sintezi va tavsifi nisbatan sarf harajatlarning yuqoriligi hamda bu materiallarning energiya qurilmalariga integratsiyalashuvi umumiy xarajatlarni oshishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, nanobiotexnologiyaga asoslangan energiya tizimlarining uzoq muddatli barqarorligi va chidamliligi ularning amaliyligi va hayotiyligini ta'minlash uchun chuqur

o'rganilishi kerak. Nanobiotexnologiya va energetika sohasidagi istiqbolli innovatsiyalar to'siqlarga qaramay, tadqiqotchilar nanobiotexnologiyadan foydalangan holda energiya ishlab chiqarish va saqlash uchun innovatsion echimlarni ishlab chiqishda ajoyib yutuqlarga erishmoqdalar. Istiqbolli yangiliklardan biri quyosh batareyalarida nanomateriallardan foydalanishdir. Tadqiqotchilar nanozarrachalarni quyoshdan keladigan zarralarga kiritish orqali yorug'lik yutilishini kuchaytirishga, zaryadni ajratishni yaxshilashga va umumiy samaradorlikni oshirishga muvaffaq bo'lishgan. Ushbu yutuqlar fotoalbom yoqilg'ilarga barqaror va tejamkor alternativ sifatida quyosh energiyasining hayotiyligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Va'da qilingan yana bir soha - batareyalar va superkondensatorlar kabi energiya saqlash qurilmalarida nanobiotexnologiyadan foydalanish. [1.2]

Grafen va uglerod nanotrubkalari kabi nanomateriallar yuqori sirt maydoni va mukammal o'tkazuvchanlikni ta'minlaydi hamda ularni energiya saqlash ilovalari uchun ideal nomzod sifatida tanlanadi. Tadqiqotchilar energiya zichligi, barqarorligi va ushbu qurilmalarning zaryadlash tezligini oshirish uchun turli yondashuvlarni aniqlashmoqda, bu esa yanada samarali va bardoshli energiya saqlash echimlariga yo'l ochib beradi. Nanobiotexnologiyaning energiya ishlab chiqarishda qo'llanilishida yanada samarali va barqaror usullarni qo'llash orqali energiya ishlab chiqarishni inqilob qilish imkoniyatiga ega. Bunday ilovalardan biri bioenergiya ishlab chiqarish uchun nanobiokatalizatorlarni ishlab chiqishdir. Etanol va biodizel kabi bioyoqilg'i qazib olinadigan yoqilg'iga qayta tiklanadigan alternativ sifatida muhim ahamiyatga ega. Nanozarrachalar ustida immobilizatsiyalangan fermentlardan tashkil topgan nanobiokatalizatorlar katalitik samaradorlik va barqarorlikni yaxshilaydi, bu esa tejamkor va ekologik toza bioyoqilg'i ishlab chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, nanobiotexnologiya yonilg'i samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Yoqilg'i manbalari elektrodlariga platina nanozarralari kabi nanomateriallarni kiritish orqali tadqiqotchilar yuqori quvvat zichligiga va elektrokimyoviy reaksiyalarning yaxshilanishiga erishishgan. Ushbu taraqqiyot yonilg'i potentsialini transport va statsionar ilovalar uchun toza hamda samarali energiya manbalari sifatida amalga oshirishga yordam beradi. [3]

Doimiy tadqiqot va ishlanmalar to'siqlarni bartaraf etishi va barqaror energiya yechimlari uchun yangi imkoniyatlar ochishi kutilmoqda. Diqqatning asosiy yo'nalishlaridan biri - muayyan energiya ilovalari uchun moslashtirilgan xususiyatlarga ega nanomateriallarni ishlab chiqishdir. Nanozarrachalarning tarkibi, tuzilishi va sirt xususiyatlarini nozik sozlash orqali tadqiqotchilar ularning ishlashini optimallashtirishlari va turli energiya tizimlarining o'ziga xos talablarini hal qilishlari mumkin. Fanlararo hamkorlik nanobiotexnologiya va energetika sohasini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Materialshunoslik, biologiya, kimyo va muhandislik kabi turli fanlardan mutaxassislarni birlashtirib, turli texnologiyalarning sinergetik ta'siridan foydalanadigan innovatsion yechimlarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv murakkabliklarni chuqurroq tushunish imkonini beradi va tadqiqot natijalarini amaliy dasturlarga tarjima qilishni tezlashtiradi. Nanobiotexnologiyaning energetika sohasini inqilob qilish imkoniyatlarini tan olgan holda, butun dunyo tashkilotlari ushbu sohadagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish uchun turli dasturlarni ishlab chiqishmoqda. Ushbu tashabbuslar

innovatsiyalarni rivojlantirish, hamkorlikni rivojlantirish va nanobiotexnologiyaga asoslangan energiya yechimlarini ishlab chiqish va tijoratlashtirishni tezlashtirishga qaratilgan. Misol uchun, Qo'shma Shtatlarda Milliy nanotexnologiya tashabbusi (NNI) nanobiotexnologiya bo'yicha tadqiqot va ishlanma loyihalarini moliyalashtiradi. NNI nano miqyosda materiyani tushunish va nazorat qilishni rivojlantirishga qaratilgan va bu bilimlarni turli xil ilovalar, jumladan energiya uchun ishlatishni o’z ichiga oladi. Xuddi shunday, Yevropa Ittifoqi nanobiotexnologiya va energiya tadqiqotlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etuvchi Horizon 2020 dasturini yaratdi. Dastur ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi va barqaror rivojlanishga, jumladan, ilg‘or energetika texnologiyalarini rivojlantirishga yordam beruvchi hamkorlikdagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi.[4,5]

Nanobiotexnologiya soxasida energiya ishlab chiqarish, saqlash va undan foydalanish murakkablik va to'siqlarga qaramay, tadqiqotchilar energiya tizimlarining samaradorligi, ishlashi va barqarorligini oshiradigan nanomateriallar va qurilmalarni ishlab chiqishda ajoyib yutuqlarga erishmoqdalar. Kengaytirish, xarajat va integratsiyadagi muammolarni hal qilish orqali nanobiotexnologiyaga asoslangan energiya yechimlari toza, yashil va barqaror kelajakka yo'l ochib, haqiqatga aylanishi mumkin.Ushbu sohaning murakkabliklarini osonlashtirishda, tadqiqot va ishlanmalarning yangi yo'llarini o'rganishda optimistik va faol bo'lish juda muhimdir. Nanobiotexnologiya va energiya chegaralarini oshirib, kelajak avlodlar uchun yanada yorqin va barqaror kelajak yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McNeil SE. Nanotechnology for the biologist. J Leukoc Biol. 2005 Sep;78(3):585-94. doi: 10.1189/jlb.0205074. Epub 2005 May 27. PMID: 15923216.

2.Hulla J, Sahu S, Hayes A. Nanotechnology: History and future. Human & experimental toxicology. 2015;34(12):1318-21.

3.Aithal PS, Aithal S. Nanotechnology innovations and commercialization–opportunities, challenges & reasons for delay. International Journal of Engineering and Manufacturing (IJEM). 2016;6(6):15-25.

4.Ariga K. Nanoarchitectonics: what's coming next after nanotechnology? Nanoscale Horiz. 2021 May 4;6(5):364-378. doi: 10.1039/d0nh00680g. PMID: 33949390.

5.McNeil SE. Nanotechnology for the biologist. J Leukoc Biol. 2005 Sep;78(3):585-94. doi: 10.1189/jlb.0205074. Epub 2005 May 27. PMID: 15923216.

TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHNING BIOLOGIK ASOSLARI

Otanazarov D.X., Qalandarov D.Y., Sultanova SH.Y., Radjabova Z.B.
Urganch davlat universiteti
Mustafaqulova F.A.
Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti
mustafaqulovaferuza@mail.ru

Annotatsiya. Biz yashab turgan davrda ekologik muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda. Hammaga ma'lumki, bu muammo agroekotizimda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bunga sabab, tuproq unumdorligini oshirish, uni pasaytirmasdan saqlab turish uchun zarur bo'lgan organik va mineral o'g'itlarni yetishmasligidir. Buning oqibatida esa, ekologik toza maxsulot yetishtirish muammolari kundan-kunga oshib bormoqda.

Kalit so'zlar: Tuproq, mikroorganizm, biogeotsenoz, o'simlik, hosildorlik.

Tuproq unumdorligini oshirishning biologik asoslari, eng avvalo o'simliklarni mineral oziqlanishini boshqarishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayon tuproqdagi mikroorganizmlarning rivojlanishini mo'tadillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Tabiatdagi barcha o'simliklar tuproq orqali turli mikroorganizmlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar mikroorganizmlarning tuproq organik moddalarni parchalab, o'simlik uchun zarur bo'lgan mineral tuzlarni hosil qilishda, ildiz atrofida foydali mikroorganizmlar faoliyati natijasida biologik faol moddalarning hosil bo'lishi va uni o'simlik tomonidan o'zlashtirilishi, bu moddalarning o'simlikka ta'siri natijasida o'sish va rivojlanishda o'ziga xos o'zgarishlar amalga oshishida namoyon bo'ladi. O'z navbatida har qanday o'simlikning ildizi tuproqda o'ziga xos moddalarni ajratib chiqarganligi tufayli ildiz atrofida o'ziga xos mikroorganizmlar biotsenozi hosil qiladi.

Natijada mikroorganizmlar ta'sirida o'simliklar rizosferasida ko'pgina kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar ro'y beradi. Bu jarayonda hosil bo'lgan moddalarning eng muhimi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini tezlashtiradigan yoki sustlashtiradigan fiziologik faol moddalar bo'lishidir.

Tabiatda sodir bo'ladigan bir qator muhim voqealar - biogeotsenoz, tuproqdagi organik moddalarni minerallashtirish, ularni hayotiy zarur biologik (modda almashinuvi) jarayonlarda ishtirokini belgilash, mikrob senozi (ma'lum sharoitdagi mikroorganizmlarni tarkibi va faolligi) bilan belgilanadi.

Tuproq mikroflorasini aniqlashda, ularni tarkibi va o'ziga xosligini belgilashda, antropogen ta'sirlar sharoitida o'zgarishi va boshqa bir qator sharoitlarda mikrobni tuzilishi va faolligi (funksiyasi) asosiy belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Mikroorganizmlarni soni va sifatini mikroskop ostida, dinamikada tahlil qilinganda ularni doimiy emasligi va vaqti-vaqti bilan o'zgarib turishi isbotlangan. Mikrob massasini tez o'zgaruvchanlik davri, mo'tadillashib (stabilizatsiya) borishi bilan almashib turadi. Boshqacha qilib aytganda bir vaqtda mikrob massasi tez o'zgaradi, ba'zi-bir vaqtda esa o'zgarmasdan turadi va x.k.

Tuproqning mikrob senozi (tarkibi) - bu biosferaning o‘ziga xos reaktiv komponentidir. Uning yuqori reaktivligi fiziologik xilma-xilligi, o‘sish tezligi, polifunksionalligi, oqibat natijada esa modda almashinuvi, mineralizatsiyalanishi jarayonidagi beqiyos ishtiroki bilan belgilanadi.

Mikrob senozi - mikroblar klassifikatsiyasining katta bir bo‘lagi sifatida bir xil sharoitda yashab turgan mikroorganizmlar to‘dasidir. Mikroorganizmlar uchun o‘ta zarur sharoitlar: mikroklimit, suv rejimi, tuproqning geologik tuzilishi va oziqa moddalari hisoblanadi. Shu va boshqa omillar hisobidan mikrob senozi ma’lum biotsenozdagi organik va mineral moddalar transformatsiyasida hamda biologik va nobiologik moddalarni biosferada o‘zaro ta’sirida ishtirok etadi.

Qisqa qilib aytganda - mikroorganizmlar doimiy ravishda tashqi muhitga ta’sir qiladigan va uning ta’siri ostida bo‘ladigan tirik organizmlardir.

Tuproqda mikrob senozi xilma-xildir. E.N.Mishustin ularni zimogen, avtoxton, oligotrof, avtotrof guruhlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi. Bu guruhlar o‘rtasidagi aloqadorlik doimiy o‘zgarib turadi va ko‘p ma’noda tuproqqa bo‘lgan ta’sir bilan belgilanadi. D.N.Nikitin ekotizimda oligotrof mikroorganizmlarni roli katta ekanligini, ular tabiatda tarqalgan energiyani to‘plash qobiliyatiga ega ekanligini e’tirof etadi.

Oxirgi yillarda tuproqdagi mikrob biomassasi haqida ko‘proq fikrlar yoritiladigan bo‘lib qoldi. Bunga bir necha sabablar bor, albatta. D.G.Zvyaginsev mikrob massasi va uni "aylanish" tezligi, tuproq xususiyatiga bog‘liq (ya’ni - pH, namlik, harorat, aeratsiyaga) deb hisoblaydi. T.V.Tarvis tuproqda mikrob massasi to‘planganda mikrob bilan o‘simlik orasida oziqa muhiti uchun raqobat ketadi degan fikrni ilgari suradi. Mikrob biomassasini tez to‘planishi, ularni energetik materiallar bilan ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘lib, tuproq unumdorligidan xabar beradi.

Azot o‘zlashtiruvchi mikroorganizmlarni tarkibi, ularni energetik resurslari, fiziologik faolligi, mikrob massasining miqdori, mineralizatsiya jarayoni va tuproq unumdorligi ko‘rsatkichi haqida ma’lumot beradi.

Mikrob massasini to‘planishi va parchalanishi, tuproqdagi azot miqdorini o‘zgarishiga va o‘simlikni oziqlanish sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etib, tuproq unumdorligini oshishiga xizmat qiladi. Tuproqni fermentativ faolligi, ya’ni tuproqda yashovchi tirik organizmlarni fermentlarini o‘ziga sorbsiya qilish xususiyati ham diqqatga sazovordir. Tuproqda bog‘langan (immobilizatsiya qilingan) fermentlar faolligi ular uchun diagnostik ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Tuproqda fermentlarni uchrashi va faollik ko‘rsatishi, tuproqni biologik faolligi va unumdorligidan xabar beradi.

Bunday imkoniyatlar, mikroblar tizimining ichki imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni funksional xilma-xilligini o‘rganish, geterotrof mikroorganizmlarni faolligini chuqur o‘rganish orqali minerallanish va gumus moddalari hosil qilish jarayonlarini tahlil etish kabi bir qator biokimyoviy jarayonlarni o‘rganish orqaligina amalga oshiriladi. Faqatgina, tuproqdagi mikroorganizmlar guruhlarini, ularni faolligini o‘zgartirish orqaligina tuproq unumdorligini va o‘simlik hosildorligini oshirish mumkin. Mikrob guruhlari faoliyatini boshqarish tuproq biotexnologiyasining asosini, uni mazmun va mohiyatini tashkil qiladi.

Tabiat va tuproqda kechadigan biokimyoviy o‘zgarishlarning aksariyati mikroorganizmlar ishtirokida sodir bo‘ladi. Tuproqda kechadigan qaysi bir jarayonni olmaylik, albatta ularning mikroorganizmlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqligiga amin bo‘lamiz. Ekin ekiladigan yerlarda tabiiy tuproq hosil bo‘lish jarayonida, yerni ishlash va unga o‘g‘it solish yoki boshqa hamma agrotexnika tadbirlari (sug‘orish, zax yerlar suvini qochirish va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda va organik o‘g‘itlar tayyorlash, ularni saqlash hamda ishlatish jarayonlarida ham mikroorganizmlarning ahamiyati ulkan.

O‘simliklarning ildiz atrofi xilma-xil mikroorganizmlarga boy bo‘lib, bu mikroorganizmlar o‘simlik ildizi ajratgan moddalarni o‘zlashtiradi va ildiz atrofida turli xil organik hamda mineral moddalarni o‘zgartirib, o‘simliklarning o‘sishi va oziqlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tuproq xosildorligini oshirishda boshqa mikroorganizmlar qatori bakteriyalar xam muxim rol o‘ynaydi, ularning ko‘pchiligi o‘simlik qoldiqlarini parchalashda faol ishtirok etadi.

Tuproq hosildorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil bolishda, tuproq mikroorganizmlarini har tomonlama o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish eng muhim omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, tuproq unumdorligini- tabiiy ravishda har turdagi tabiatda sof holatda uchraydigan mikroorganizmlarning o’sishi, rivojlanishi va ko’payishi hisobiga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shundagina biz, ekotizimga zarar yetkazmasdan, tuproqni biologik hosildorligini oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахромов И.У., Саимназаров Ю.Б., Проворов Н.А., Пулатова Д.З.Мош ҳосилдорлигини ошириш// Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1997. - №2. – Б. 32.
2. Камбарова М. Х., Мустафакулова Ф. А. РАСПРОСТРАНЕНИЕ МИКРООРГАНИЗМОВ В ПОЧВЕ DISTRIBUTION OF MICROORGANISMS IN SOIL //ББК 65.2 С56. – С. 114.
3. Алимжанов К. И., Мустафакулова Ф. А. БОГАТЫЕ МИКРООРГАНИЗМЫ В ПОЧВЕ //Фундаментальные и прикладные научные исследования: инноватика в современном мире. – 2019. – С. 22-25.
4. Мустафакулова, Ф. А., & Расулова, М. Б. (2019). ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ БАКТЕРИАЛЬНЫХ БИОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ. *НАУЧНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ «АКАДЕМИЧЕСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА*, *43*.
5. Хужамшукуров Н. А., Мустафакулова Ф. А., Отаназаров Д. Х. ПРОИЗВОДСТВА МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ НА ОСНОВЕ БАКТЕРИЙ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 615-617.
6. Мустафакулова Ф. А., Отаназаров Д. Х., Мирзаабдуллаева С. Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БЕЗОПАСНЫХ ПРЕПАРАТОВ ДЛЯ БОРЬБЫ С ВРЕДИТЕЛЯМИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 5. – С. 175-177.

ZA’FARON (*CROCUS SATIVUS L.*) O‘SIMLIGIDAN RIZOBAKTERIYALARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI

Ravshanova Yorqinoy Davlat qizi,
b.f.d., prof. Murodova Sayyora Sobirovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
ssmuradova@rambler.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada za’faron o’simligi ildizidan rizobakteriyalarni ajratib olish texnologiyasi yoritidi. Rizobakteriya uchun optimal bo’lgan ozuqa muhitni tanlandi. Ildiz rizobakteriyasini ozuqa muhitga ekib, uning rivojlanish faoliyati uchun munosib ozuq muhit tanlandi.

Kalit so‘zlar: Za’faron o’simligi, ildiz rizobakteriyalar, ozuqa muhiti.

Za'rafon o'simligi bir necha yillardan beri dorivor, ziravor o'simlik sifatida keng qo'lanilib kelinmoqda. Uning bunday xususiyati ko'plab ilmiy manbalarda yoritilgan.[1,2]. Hozirgi kunda dunyo aholisi sonining ortishi, o‘z navbatida, oziq-ovqat va dori-darmon mahsulotlariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu jarayon keyingi yillarda birmuncha jadallashmoqda. Ana shunday dorivor va shifobaxsh o’simliklardan biri Za’faron *Crocus sativus L.* o‘simligi hisoblanadi. Jahonda so’nggi yillarda dorivor o’simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o’simliklar etishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zafaron o‘simligining batanik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish davomida ko‘plab adabiyotlar tahlil qilindi. O‘zimlikning farmakologik xususiyatlari o‘rganib, bu borada olimlarning fikr mulohazalari ko’rib chiqildi. Zafaron o‘simligining piyozchasini ajratib olish va uning yuvish jarayonlarini olimlarning metotika va usullaridan foydalanildi. O’simlik tuprog’idan namuna olinib tekshiruv natijalarining javobi olindi. Sterilizatsiya jarayoni santariya gigiyena qoidalariga amal qilindi. O‘simlik faoliyati va o‘sib rivojlanishi uchun kerakli minerallarga boy bo‘lgan ozuqa muhit tayorlandi. Ozuqa muhit metodikaga asoslangan holda ekilib faoliyati ko‘zdan kechirilmoqda

Ushbu tadqiqot uchun quyidagi asbob uskunalarkan foydalanildi Elektr qizdirgich, tarozi, pH metr, termostat, elektiv muhitli ozuqalar. Go’sht peptonli bullion, yoki agar, qaynatgich, avtoklav, tuxum oqsili, filtr, probirkalar, pH metr.

Go‘sht-peptonli agarni tayyorlash texnologiyasi.

Odatda mikroorganizmlarning umumiy sonini aniqlash uchun standart oziq muhiti go‘sht-peptonli agar qo‘llaniladi (GPA). Uni tayyorlash uchun avvalom bor go‘sht-peptonli bulyon qilindi (GPB). Uning uchun 1 kg mol go‘shtini suyak, yog‘ va chandirlardan ajratib, go‘sht qiymalagichdan o‘tkazilindi. Olingan 0,5 kg qiymaga 1 l suv qo‘shib 1 soat davomida qaynatilindi. ko‘pigi olib tashlandi. Go‘sht suvini sovitib, ustidagi yog‘ olib tashlandi va uni paxta-marlili filtrdan o‘tkazilindi. So‘ng dastlabki hajmigacha vodoprovod suvi quyildi. 1 l go‘shtli suvga 1% quruq pepton va 0,5% natriy xloridni qo‘shib 30 minut qaynatilinib, hajmini dastlabki darajasiga yetkazildi. GPB filtrlanib, pH 7,2-7,4 ga 10% yordamida yetkazilindi va 20 min davomida 120oC da sterilizatsiya qilindi. GPA tayyorlash uchun GPB ga oziq

muhitning qo‘llanishiga binoan 0,2-2% agar-agar qo‘shiladi va past olovda aralashtirib, agar eriguncha qaynatilindi. GPA ni probirka va kolbalarga quyib 120oC da 20 min sterilizatsiya qilindi.

Oziq muhitlarning pH ko‘pincha Mixaelis bo‘yicha kalorimetrik usul bilan aniqlandi.Bu usul muhitdagi vodorod yoki gidroksil ionlar miqdoriga qarab indikator rangiga asoslangan. Vodorod ionlari kislotali reaksiyani, gidroksil ionlar esa ishqorli reaksiyani yuzaga keltiradi. U yoki bu guruh ionlar miqdorining ko‘payishi muhitning o‘zgarishga olib keladi. Teng miqdordagi ionlar muhitni neytral holatga keltiradi. pH ni aniqlash muhit rangining (unga indikator qo‘shilgandan keyin) Mixaelis bo‘yicha standartlar bilan taqqoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Indikator sifatida metanitrofenol, paranitrofenol va gammodinitrofenol qo‘llaniladi. Indikatorlar yorug‘likni o‘tkazmaydigan shishadan tayyorlangan flakonlarda saqlanadi. Mixaelis asbobida indikatorlardan och sariqdan to to‘q sariqqacha bo‘lgan turli ranglardagi eritmalar solingan standartlar tayyorlangan. Bo‘yalish darajasi pH ning etiketkada yozilgan muayyan kattaligiga to‘g‘ri keladi. Yonma-yon joylashgan probirkalar o‘rtasida pH ning farqi 0,2 ga teng. Standartlardan 4 ta qator hosil qilingan: birinchi qatorda – metanitrofenol indikatori standartlari (pH 6,8-8,4), ikkinchi qator paranitrofenol indikator standartlari (pH 5,4-7,0), uchinchi qatorda gammadinitrofenolniki (pH 4,0-5,4) va to‘rtinchi qatorda alfadinitrofenol indikatori standartlari (pH 2,8-4,4) joylashtirilgan.Ko‘rib chiqilgan usulda tashqari pH ni aniqlash uchun universal pH indikatori ham qo‘llaniladi.

Ushbu tadqiqot ishida quyidagi tarkibdagi ozuqa muhitlari tanlab olindi:

Kartoshka ekstrakti asosidagi ozuqa muhiti

Kartoshka ekstrakti asosidagi ozuqa muhiti tarkibi kartoshka ekstrakti-20%, glukoza-0.5%, NaCl-0.25%, pH-6.8-7.0. Yirik kartoshka tugunaklarini vodoprovod suvida tozalab yuvib, po’sti archildi, so’ngra yana yuvib kislotasini neytrallash uchun 2—3 soatga 1% li natriy gidrokarbonat (soda) eritmasiga solib qo’yildi. Tugunaklardan maxsus moslama bilan probirka eniga mos ustunsimon kartoshka bo’lakchalari kesib olindi. Ustunchalami suvli likopchalarga qo’yib, diametri bo’yicha ikkiga bo’lindi. Bo’lakchalarni filtr qog’oz bilan quritib maxsus probirkalarga solindi. Oddiy probirka ishlatilganda uning tubiga paxta yoki shisha tayoqcha solinib, ustiga kartoshka bo’lakchasi tushirildi va 0,1 MPa bosimda 20—25 minut sterillandi [1,2,3].

Rizosfera mikroorganizmlarini N.A.Krasilnikov va Ye.S.Tepper usulida aniqlandi avvalo, sterillangan pintset bilan ildizga yopishgan tuproq ehtiyotlik bilan olinib tashlandi, sterillangan Petri likobchasiga solindi. So’ngra tuproqdan 1 g tortib olib sterillangan kolbaga solib, ustiga 99 ml sterillangan suv quyildi, bir ikki daqiqa davomida yaxshilab chayqatildi, keyin sterillangan pipetka yordamida sterillangan suvga qo’shib kolbada navbatdagi eritmalar hosil qilindi. 1: 100000 yoki 1 : 1000000, undan yuqori 1 : 100000000 nisbatda eritma tayyorlandi. To’rtinchi-beshinchi yoki beshinchi-oltinchi eritmadan 1 ml dan olib ikkita Petri likobchasiga DPA ga ekildi. Ekilgan likobchalar 23-25ºS termostatga ikki-uch kunga qo’yildi. Keyin likobchada o’sib chiqqan koloniyalarning morfologik, fiziologik xususiyatlari o’rganilib, mikroorganizmlar to’plamining soni 1gr tuproqqa hisob qilinib, umumiy soni aniqlandi. Rizosfera mikroorganizmlari Ye.S.Tepper usulida aniqlanganda

o’simliklar ildizini kesak bo’lakchalaridan tozalab taxminan 1 g ildiz tortib olib, 50 ml sterillangan suv solingan kolbada 2 daqiqa yuvildi. So’ngra ildizlar sterillangan pintset yordamida kolbadan suvi silqitib olinib, 50 ml suv solingan boshqa kolbada yana yuvildi. Shunday qilib, 7 marta yuvildi. 6 va 7-marta yuvilayotganda kolbaga 3-5 g sterillangan kvarts qumi solinib yuvildi. Birinchi, ikkinchi yuvilganda yuvindida tuproq mikroflorasi qoldi; to’rtinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi marta yuvilganda ildizga yopishgan rizosfera mikroorganizmlari qoldi. Bu yuvindilar kerakli darajagacha sterillangan suvda eritilib, GPA ,Chapeka, suslo-agar oziqa muhitlari yuzasiga shpatel yordamida ekildi. Petri likobchasidagi GPA Chapeka, suslo-agar oziqa muhiti yuzasiga sterillangan pipetka yordamida 0,05 ml (1 tomchi) eritma quyildi va shpatel bilan muhitning yuzasiga qurigunicha surtildi, so’ngra ikki-uch kun davomida 25ºS haroratda termostatga qo’yildi, so’ngra likobcha yuzasida o’sib chiqqan mikroorganizmlar to’plamining soni 1 ml eritmaga hisob qilinib, 1 gr ildizda qancha rizosfera mikroorganizmi borligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

0,05-500 1 – X;

X=1*500/0,05=10000

Qattiq ozuqa moddali muhitga ekish usuli bilan mikroorganizmlar miqdorini aniqlash (Kox usuli) Qattiq muhitga ekish .Yuza ekishda dastlab sterillangan Petri likopchasiga 15— 20 ml dan eritilgan agarli muhit quyildi. Keyin muhit sovishi uchun likopchalar gorizontal yuzada saqlandi, so’ngra muhitning quriganligini va sterillanganligini tekshirish uchun qopqog'ini pastg a qilib, 2 — 3 kun 30°C issiq termostatda saqlash tavsiya etiladi. Muhit bilan qopqoqlar yuzasidagi kondensatsi on suv tomchilari yo’qolguncha quritish davom etildi. kattalashtirib ko’rsatadigan lupada koloniyalar sanaladi. Har gal koloniyani sanab bo’lib, likopchaning ustiga siyohda yoki qalam bilan belgi qo’yiladi. O’sib chiqqan koloniyalar nihoyatda ko’p bo’lsa, Petri likopchasining tubi 4, 8 yoki 16 ta bir xil (teng) qismga bo’linib, har bir qismdagi koloniyalar sanaladi va natijasi umumlashtiriladi. Bir nechta qismdagi (lekin likopchadagi muhit maydonining kamida 1 / 3 qismidagi) koloniyalarni sanab, o’rtacha arifmetik qiymatini topish va butun likopchadagi qismlarning umumiy soniga ko’paytirish mumkin.



3-rasm Ozuqa muhitidagi rizobakteriyalarning koloniyalari

Rizobakteriyalarni ozuqa muhitida o’sish jarayonlari Zafaron rizobakteriyasi ekilgandan so’ng bir sutka davomida kuzatishlar olib borildi. Qattiq muhitga ekish

uchun dastlab biz ozuqa muhitni tayyorlandi. Yuza ekishda dastlab sterillangan Petri likopchasiga 15— 20 ml dan eritilgan agarli muhit quyildi. Keyin muhit sovishi uchun likopchalar gorizontal yuzada saqlandi, so'ngra muhitning quriganligini va sterillanganligini tekshirishdi. Bir sutka davomida 30°C li termostatda saqlash tavsiya etildi. Ozuqa muhitda rizobakteriyalar har 24 soat ichida o'sib koloniya hosil qildi.

Ozuqa muhitda rizobakteriyalar faoliyati ko'zdan kechirilib turildi va 3 marta boshqa kulturaga o'tkazilgandan so'ng kattalashtirib ko'rsatadigan lupada koloniyalar sanaldi.

Za'faron o'simligi ildizidan rizobakteriyalarni ajratib olish texnologiyasi yoritidi. Olib borilgan amaliy tajribalar asosida zafaron o'simligi rizobakteriyasi uchun qulay bo'lgan optimal ozuqa muhit tanlandi. Tajribalar davomida zafaron o'simligi rizobakteriyasi uchun qulay bo'lgan ozuqa muhit go'sht peptonli agar ozuqa muhiti muofiq deb topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. MK Khojanazarova, SS Murodova, SF Sanakulov… - IOP Conference Series: Earth and Environmental, Investigating the cultural-morphological features of rhizobacteria and allocating it from the cotton plant (Gossýpium hirsútum): in the example of irrigated meadow soils of Uzbekistan 2021

2. M Sobirova, S Murodova Effects of biopraparites on cynara scolymus L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids - E3S Web of Conferences, 2021.

3. N Ibragimova, S Muradova, M Khojanazarova Storage of potatoes with the help of biopreparationsE3S Web of Conferences, 2023

MEVA VA SABZAVOT CHIQINDILARINI BIOTEXNOLOGIK QAYTA ISHLASH

b.f.d., prof. Murodova Sayyora Sobirovna
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Mamatkulova Farangis Ulug'bek qizi,
Raxmatullayev Islom Jonuzoq o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari
mamatqulovafarangiz001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada meva va sabzavotlarni tabiiy tarkibiy qismidan olingan biologik tozalovchi vosita haqida ma'lumot keltirigan. Mikroorganizmlarning tegishli shtammlari bilan biotexnologik jarayon o'tkazish orqali tabiiy xomashyodan olinadigan innovatsion ingredientlar to'g'risida yoritilgan. Boshqa vositalardan afvzaligi shundaki, kimyoviy moddalardan holi, inson salomatligi, atrof-muhit, suv ekosistemasi va tuproq mikroflorasi uchun zararsiz ekanligi haqida xulosa yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mikroorganizm, chiqindilar, fermentatsiya, biologik tozalovchi vosita, Bio-Ozoda.

Hozirgi kunda foydalanilayotgan kimyoviy tozalovchi vositalar juda ko’p va bu esa atrof-muhitga inson salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bunga asosiy sabab kimyoviy tozalash vositalar tarkibidagi fosfatlar, triklosan, ammiakli birikmalar va boshqa kimyoviy moddalar sabab bolmoqda. Kimyoviy vositadan foydalanilgandan keyin kiyim yoki tozalangan idishlar orqali inson ichki organizmiga kirib boradi. Inson terisi tanadagi eng katta organ bo’lganligi sababli, u vaqt o’tishi bilan bu kimyoviy moddalarni o’zlashtira oladi va oxir-oqibat ular qonga o’tadi. Bu turli xil alergik kasalliklar, toshmalar va undan ham jiddiy bo’lgan sog’liq muammolariga olib keladi [1,3]. Kimyoviy tozalash vositalarining tarkibidagi 1,4-dioksan moddasi saraton chaqirish ehtimoli mavjud. Kimyoviy tozalovchi vositalar idishlar yuzasida kimyoviy yuza- sirt faol moddadan iborat qatlam hosil qiladi. Bu esa insonlarda surunkali og’ir kasalliklar yuzaga kelishiga sabab bo’ladi[5]. Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi ma’lumotlariga ko’ra, ko’plab kimyoviy tozalash vositalarida zararli kimyoviy moddalar mavjud. Masalan, NaClO (natriy gipoxlorid) - bu teri, ko’z, burun va tomoqni tirnash xususiyatini keltirib chiqaradi va uzoq vaqt davomida nafas olish sistemasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bundan tashqari, kimyoviy tozalash vositalardan foydalanilgandan so’ng chiqadigan qoldiq suv tuproq mikroflorasi uchun ham zarar hisoblanadi va ushbu zararli moddalar yer osti suv tarmoqlarigacha kirib borib, suvning sifat tarkibini o’zgartiradi [2].



1-rasm. Tozalovchi vosita sifatida foydalanish

Ushbu muammolarga samarali yechim sifatida ko’p funksiyali Bio-Ozoda tabiiy biologik tozalovchi vosita ishlab chiqildi. Bu mahsulot bir qator afzalliklarga ega. Mahsulot meva va sabzavotlarni tabiiy tarkibiy qismi ya’ni ularning po’stloq qismidan iborat. Mazkur tozalovchi vositadan foydalangandan keyingi qoldiq suv atrof-muhit, yerosti suvlari va tuproq mikroflorasi uchun mutlaqo zararsiz hisoblanadi[4]. Bundan tashqari inson uchun zararli ikkilamchi ta’sirlarga ham ega emas. Mahsulot ko’plab tarmoqli tozalovchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Masalan, idish-tovoq, oyna, pol tozalovchi va boshqa xildagi tozalash vositasi sifatida foydalaniladi(1-rasm).



2-rasm. Bio-Ozoda tayyorlash bosqichlari

1. Meva va sabzavot chiqindilari yig’ib olish
2. Chiqindilarga 1:4 nisbatda suv solib qaynatish
3. 30 C gacha sovutilib mikroorganizm ta’sir ettirish(5l ga $5x10^9$ KHB (24 soat)
4. Aralashmani filtrlash
5. Tayyor filtratni og’zi berk idishga solish
6. 30 kun davomida har kun nazorat qilib borish
7. Birlamchi mahsulotni avtoklavda sterillash
8. Ikki bosqichda filtrlash(3-rasm)
9. 200 ml flakonlarga qadoqlash(3-rasm)



3-rasm. Filtrlash va qadoqlash jarayoni

Tarkibi: Mahsulot bir nechta fermentlar aralashmasidan iborat:

- **Proteazalar-** qon va oziq-ovqat kabi oqsil asosidagi molekulalarni parchalashda samarali.
- **Lipaza** – yog‘larni parchalashda samarali
- **Amilazalar**- barcha kraxmal molekulalarni parchalash
- **Sellyulaza**- matoni yumshatib, uning tolalari rangini tiklaydi

Ushbu fermentlar faoliyati natijasida mahsulot ko’p funksiyali tozalovchi vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mahsulot tabiiy, kimyoviy moddalardan holi hisoblanadi. Atrof-muhit uchun, inson salomatligi, yer osti suvlari va tuproq unumdorligi uchun zararsiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabyotlar ro‘yxati:

1. Sobirova M., Murodova S. Effects of biopraparites on cynara scolymus L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids // In E3S Web of Conferences//. 2021. Vol. 258.
2. Sobirova M.M., Murodova S.S. The Influence of Biofertilizers on the Growth and Development of a Medicinal Plant Artichoke (Cynara scolymus L.)// International journal for innovative research in multidisciplinary field issn: 2019. -10, – Impact Factor: 6.497.- pp. 46-49
3. Oljayev D. N. et al. CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH, ZARARSIZLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI //RESEARCH AND EDUCATION. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 36-42.
4. Rayxona Y. QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH UCHUN INNOVATSION G'OYALAR //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 153-154.
5. Uzoqov G. N. et al. BIOCHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH ZARURATI VA MAMLAKATDAGI BIOMASSA XOM ASHYO ZAXIRASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5 SPECIAL. – C. 437-441.

INULA HELENIUMNI KO‘PAYTIRISH USULLARI

Axmedova Sobira Boyqul qizi,
Mustafakulov Muhammadjon Abduvaliyevich
O‘zbekiston Milliy universitetning Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqola Jizzax vohasida uchraydigan Inula helenium L o‘simlik turining ko‘paytirish usullarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu dorivor o‘simlikning an‘anaviy qo‘llanilishi, tarqalish shakllari va farmakologik xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: Inula helenium L., Inula grandis, inulin, saponinlar, alkaloidlar, smola, digidroadantolakton, fridelin, fitomelan, polienlar, stigiasterin, psevdoinulin.

Inula helenium L. (Baland bo‘yli andiz) yo‘g‘on ildiz poyali, bo‘yi 100 - 175 sm gacha boradigan poya chiqarib o‘sadigan ko‘p yillik bo‘ydor o‘simlik. Barglari yirik, chetlari notekis tishli, ustki tomoni yashil, pastki tomoni kulrang, baxmaldek yumshoq, poya barglari cho‘zinchoq yoki tuxumsimon cho‘zinchoq. Yirik; kichrayib, bandi qisqarib boradi, ildiz yoki barglari uzun bandli ellipssimon cho‘ziq. Gullari shingillar yoki g‘ovaklarga to‘plangan bo‘lib, savatchalar hosil qiladi, tillarang sariq rangda. Mevalari to‘rt qirrali yalang‘och urug‘ donchalaridan iborat. May-sentabr oylarida gullaydi, avgust-oktabr oylarida mevalari yetiladi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlari tog‘larining o‘rta qismigacha bo‘lgan yerlarda, tog‘oldi butalar chakalakzorlarida nam joylarda o‘sadi. Umumiy tarqalishi: O‘rta Osiyo va O‘rta Osiyoning Yevropa qismi, Kavkaz,G‘arbiy Sibir, G‘arbiy Yevropa.

I. helenium, hamma joyda keng tarqalgan [1,2] amaliyotda kimyoviy jihatdan qimmatli dorivor va oziq-ovqat xomashyosi hisoblanadi, ammo uning kimyoviy tarkibi yetarlicha o‘rganilmagan. Ayrim kasalliklarning oldini olish va davolash uchun hamda oziq-ovqat qo‘shimchalari sifatida biologik faol kontsentratlar olish maqsadida ushbu dorivor xom ashyoni qayta ishlash muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi suvli ultratovushli ekstraktsiya yordamida I. helenium ildizlaridan quruq ekstrakt olish va uning kimyoviy tarkibidagi biologik faol moddalarni o‘rganish uchun o’simliklarni ko‘paitirish va etishtirish ishlarini o‘rganish maqsadga muofiq.

I. helenium asosan ikki xil usul bilan urug‘idan hamda ildizpoyalari orqali ko‘paytiriladi. Birinchi usul urug‘ sepish bilan amalga oshiriladi. Buning uchun agrotexnikasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan, kuzda yaxshi shudgorlangan, begona o‘tlardan tozalangan maydonlarni tanlanishi talab etiladi I. helenium ildiz tizimi tuproqda chuqur joylashadi, shuning uchun ekishdan oldin shudgor 25-30 sm chuqurlikkacha amalga oshiriladi. O‘simliklarning morfologik tuzilishi qancha maydonni egallashi nuqtai nazaridan kelib chiqib, o‘simlik urug‘lari qator oralig‘i 50 sm, egatlar oralig‘i esa 60 sm bo‘lgan maydonda gektariga 1,5-2,0 kg hisobida ekilganda o‘simliklar yaxshi o‘sadi va rivojlanadi. Urug‘larning ekish chuqurligi urug‘ning vazni, o‘lchamidan kelib chiqib 0,8-1,0 sm bo‘lsa urug‘lar unuvchanligi yuqori bo‘ladi.

Urug‘larni ekish noyabr va fevral oyining uchinchi dekadasida amalga oshirildi. Urug‘larni ekish fevral oyining uchinchi dekadasida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu davrda ekilgan urug‘lar qisqa muddatda tabiiy stratifikatsiya muddatini o‘tab urug‘larning unuvchanligi 35 % ni tashkil etadi. Urug‘lar 10-12 kun davomida unib chiqadi va maysalar hosil bo‘ladi. Vegetatsiya davomida o‘simliklar egallagan maydon birinchi yili 6-8 marotaba, ikkinchi yili 3-4 marta keyingi yillarda iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sug‘orish tavsiya etiladi.

O‘simliklarning yer ustki va yer ostki organlarining hosildorligi o‘simlik o‘stirilayotgan ekologik muhitga hamda agrotexnik tadbirlarni qay tartibda o‘tkazilishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchi usul – ildizpoyalaridan ko‘paytiriladi. Bu usulda ikki yillik o‘simliklar xom – ashyosi ya’ni ildizpoyalari maydonlardan kovlab olinadi. O‘tkir tig‘li moslamalar yordamida 10-15 sm uzunlikdagi ildizpoya qalamchalari qirqib tayyorlanadi. Oldindan tayyorlangan va agrotexnikasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan maydonlarga 60x50 sm ekish sxemasi asosida egat oraliqlari shakllantirilib o‘simliklar 15-20 sm chuqurlikda ildizpoyalar mexanizatsiya yordamida ekiladi. Bu jarayon ham kuz va erta bahor oylarida amalga oshirilishi mumkin. Tuproq namligini e’tiborga olgan holda ildizpoya ekilgan maydon tez-tez sug‘orib, tuproqda namlikni saqlab turish samarali natija beradi.

Ekilgan maydonlarda o‘simlik holatiga qarab agrotexnik chora tadbirlar amalga oshiriladi va vegetatsiya davrining birinchi yili 6-8 marta sug‘oriladi hamda parvarish qilinadi. O‘simlik vegetatsiyasining ikkinchi yilidan boshlab sug‘orish me’yori tuproq sharoitiga qarab kamaytirib boriladi. Sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan ekin maydonlarini barpo etishda asosan shu usul samarali natija beradi. Lekin ushbu usul o‘zining iqtisodiy samaradorligiga ega hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz natijalari koʻrsatishicha I. helenium ni introduksiya sharoitida ekib koʻpaytirish hamda hosildorligiga erishish mumkin ekanligi aniqlandi. Ushbu turlarning qimmatli xom-ashyo bazasini yaratish undan xalq xoʻjaligining dorivor oʻsimliklarga boʻlgan talabini qondirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki I. helenium vegetatsiyasining birinchi yilida 15,3 s/ga, ikkinchi yili 94,3 s/ga, uchinchi yili 121,4 s/ga ni tashkil etadi. Bu esa turlarning xom ashyosini yigʻib olishda ikkinchi va uchinchi yillar amalga oshirish imkoniyatiga ega ekanligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Haydarov Q., Xojimatov Q. Oʻzbekiston oʻsimliklari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. – B. 56-57.

2. Xudoyberdiev T.X., Hamidov Gʻ.H., Maxsudova R.S. Fitotsenologiya. – Fargʻona, 2007. – B. 30-36.

3. Usmanxodjaev A.X., Azizov S.Z., Muxamedjanova N.N. Oʻzbekiston dorivor oʻsimliklari atlasi. – Toshkent, 2014. – B. 61-62.

4. Toʻxtaev B.Yo., Mahkamov T.X., Toʻlaganov A.A. Dorivor va ozuqabop oʻsimliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini tayyorlash boʻyicha yoʻriqnoma. – Toshkent, 2015. – B. 3-8.

JIZZAX VOHASIDA TARQALGAN *INULA HELENIUM* O‘SIMLIGINING TARQALISHI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Axmedova Sobira Boyqul qizi
Oʻzbekistin Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Jizzax vohasida uchraydigan Inula helenium L oʻsimlik turining tarqalishi va dorivor ahamiyatini oʻrganishga qaratilgan. Dala soʻrovlari, etnobotanik suhbatlar va adabiyotlarni koʻrib chiqish kombinatsiyasi orqali biz ushbu dorivor oʻsimlikning anʻanaviy qoʻllanilishi, tarqalish shakllari va farmakologik xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Kalit soʻzlar: Inula helenium L., Inula grandis, inulin, saponinlar, alkaloidlar, smola, digidroadantolakton, fridelin, fitomelan, polienlar, stigiasterin, psevdoinulin.

Markaziy Osiyoning bepoyon togʻlari qoʻynida joylashgan Jizzax vohasi azaldan oʻzining tarixiy ahamiyati, madaniy merosi va betakror ekologik xilma-xilligi bilan eʻzozlanib keladi. Hozirgi Oʻzbekiston hududida joylashgan ushbu voha ming yillar davomida tsivilizatsiyalar chorrahasi boʻlib, afsonaviy Ipak yoʻli boʻylab muhim markaz boʻlib xizmat qilmoqda. Jizzax vohasi oʻzining oʻsimlik dunyosining ajoyib xilma-xilligi, jumladan kuchli shifobaxsh xususiyatlarga ega boʻlgan koʻplab turlarga ham ega.

Jizzax vohasi aholisining anʻanaviy shifobaxsh usullari asosan mintaqadagi boy botanika resurslariga tayangan. Avlodlar davomida mahalliy tabiblar va

oʻsimlikshunoslar kasalliklarni engillashtirish va farovonlikni oshirish uchun mahalliy floradan foydalanganlar. Vohaning ogʻir iqlim sharoitiga moslashgan bu oʻsimliklar qurgʻoqchil landshaftlarda oʻsib, shifobaxsh salohiyatga ega boʻlgan koʻplab kimyoviy birikmalar hosil qilgan.

Jizzax vohasi florasi va uning shifobaxsh merosi oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlikni tushunish nafaqat anʻanaviy davolash usullari haqidagi bilimimizni boyitibgina qolmay, balki zamonaviy dori vositalarini kashf etish va rivojlantirishga ham yoʻl ochib beradi. Ushbu tadqiqot orqali biz Jizzaxning botanik jixatdan oʻsimlik boyligining yashirin xazinalarini ochish va uning anʻanaviy va zamonaviy sogʻliqni saqlash tizimlariga qoʻshadigan potentsial hissasini tan olishni maqsad qilganmiz.

Jizzax vohasi hududida dorivor oʻsimliklarning tarqalishini aniqlash va hujjatlashtirish maqsadida dala tadqiqotlari oʻtkazildi. Namunalar yigʻildi va ularning taksonomik identifikatorlari botanika mutaxassislari bilan maslahatlashish va mavjud adabiyotlarga murojaat qilish orqali tasdiqlandi. Bundan tashqari, ushbu oʻsimlikning anʻanaviy qoʻllanilishi haqida maʻlumot toʻplash uchun anʻanaviy tabiblar va mahalliy aholi bilan suhbat oʻtkazildi. Bizning topilmalarimizni toʻldirish uchun tegishli etnobotanika va farmakologik adabiyotlar koʻrib chiqildi.

Jizzax vohasi hududidagi dorivor oʻsimliklarni oʻrganish natijasida shifobaxsh xususiyatlari hujjatlashtirilgan turlarning xilma-xilligi aniqlandi. Dala soʻrovlari, etnobotanik intervyular va adabiyotlarni koʻrib chiqish orqali bir nechta hududlarning oʻsimlik turlari aniqlandi, ularning har biri oʻziga xosligi va terapevtik maqsadlariga egaligi oʻrganildi. Quyida asosiy xulosalarning qisqacha mazmuni keltirilgan:

Jizzax vohasi hududidagi Qora andiz - Inula helenuim L. – Asteraceae oilasiga mansub, koʻp yillik boyi 100-150sm ga yetadigan oʻt oʻsimlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik oʻsuvchi, sertuk, yuqori qismi shoxlangan. Ildiz oldi bargi uzun bandli, yirik ellipsimon yoki choʻziq tuxumsimon, barg plastinkasi tishsimon qirrali boʻlib, yuqori tomoni siyrak va qattiq tukli, pastki tomoni esa yumshoq, sertuk . Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz pastdagilari esa qisqa bandi bilan poyada ketma-ket oʻrnashgan. [1] Gullari tilla rangda boʻlib, savatchaga toʻplangan. Savatchalar poya va shoxlarning yuqori qismida qalqonsimon yoki shingilsimon gul toʻplamini tashkil etadi. Savatchaning chetidagi gullari sariq tishsimon, oʻrtadagilari ham sariq, tukli naychasimon. Gullarning kosacha bargi tukka aylanib ketgan, mevasi choʻziq toʻrt qirrali, jigarrang yoki qoʻngʻir pista.Iyul oyidan boshlab sentabr oyigacha gullaydi. Mevasi avgust -oktabr oylarida yetiladi.[2,4]

Qora andizning yer ustki qismi tarkibida 1-3% efir moyi, 44% gacha inulin va boshqa uglevodlar, saponinlar, 0,16% alkaloidlar, smola, bo’yoq va boshqa biologik faol moddalar bor. Andizning ildizpoyalarida va ildizlarida efir moyi (1-3%), saponinlar, smola, shilimshiq va achchiq moddalar (oxirgisi barglarda ham uchraydi) mavjud. Efir moyining asosiy komponenti izoalantolakton aralashmasi bo’lgan alantolaktondir. Ularning aralashmasi ilgari gelenin deb nomlangan. Bundan tashqari, o’simlik ildizlaridan digidroadantolakton, fitomelan, tez tarqaladigan polienlar va boshqa atsetilen birikmalar, shuningdek, stigiasterin, ko’p miqdorda inulin va psevdoinulin ajratilgan[4].

Qora andiz preparatlari va efir moyi yallig'lanishga qarshi, antiseptik va gijja xaydovchi (ayniqsa efir moyi tarkibidagi allontolakton va izoallontolakton birikmalari) ta'sirga ega.

Tabobatda andizning boshqa turlari ham qo'llaniladi. Sariq andiz deb nomlanuvchi turi diyorimizda keng tarqargan.

Jizzax vohasida dorivor o'simliklardan foydalanish avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq tabobatida chuqur ildiz otgan. Mahalliy tabiblar mahalliy o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari haqida murakkab bilimga ega va ko'plab kasalliklar uchun samarali vositalarni ishlab chiqdilar. An'anaviy tibbiyotga doimiy ishonish uning madaniy ahamiyatini va odamlar va ularning tabiiy muhiti o'rtasidagi chuqur aloqani ta'kidlaydi.

Jizzax vohasida dorivor o'simliklarning tarqalish tartibi ularning mintaqaning turli yashash joylariga ekologik moslashuvini aks ettiradi. Yarrow va Sage kabi turlar qurg'oqchil muhitda chidamlilikni namoyish etadi, shuvoq kabi boshqalar esa qumli tuproqli yarim qurg'oqchil hududlarda o'sadi. Ushbu ekologik moslashuvlarni tushunish dorivor florani saqlash va barqaror foydalanish uchun zarurdir.

An'anaviy bilimlarning zamonaviy ilmiy izlanishlar bilan integratsiyalashuvi sog'liqni saqlashga sinergik yondashuvlar uchun imkoniyatlar yaratadi. An'anaviy tabiblarning donoligini farmakologik tadqiqotlarning qat'iyligi bilan birlashtirib, samarali va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan yangi davolash usullarini ishlab chiqish mumkin. Bundan tashqari, an'anaviy tibbiyot amaliyotlarini tasdiqlash an'anaviy tibbiyotning ishonchliligini oshiradi va uni sog'liqni saqlashning asosiy tizimlariga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Dorivor o'simliklar turlarini va ularning yashash joylarini saqlash biologik xilma-xillikni saqlash va an'anaviy davolash usullarini saqlash uchun juda muhimdir. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlar asosiy o'simliklar turlarini va ularning ekotizimlarini himoya qilishga, shuningdek, dorivor o'simliklarning kelgusi avlodlar uchun mavjudligini ta'minlash uchun barqaror hosil olishga ustuvor ahamiyat qaratishi kerak. Mahalliy hamjamiyatlarni tabiatni muhofaza qilish tashabbuslariga jalb qilish ularga o'z tabiiy merosini boshqaruvchi sifatida kuch beradi va barqaror foydalanish amaliyotini rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jizzax vohasida o'simlik turlarining tarqalishi va dorivor ahamiyati inson va uning tabiiy muhiti o'rtasidagi murakkab munosabatlarga misol bo'la oladi. Ushbu qadimiy vohada mavjud bo'lgan boy botanika resurslarini o'zlashtirish nafaqat an'anaviy shifo amaliyotlari haqidagi tushunchamizni boyitibgina qolmay, balki sog'liqni saqlash va tabiatni muhofaza qilishda innovatsiyalar va hamkorlik qilish imkoniyatlarini ham taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.A.Jo'rayeva dorivor o'simliklar atlasi. Noshir nashiryoti 2019. – 264 b.

2. Ahmed, B., Al-Howiriny, T. A., & Siddiqui, A. B. (2013). Anti-inflammatory activity of Achillea millefolium Linn. In the rat airways smooth muscle cells. Indian journal of pharmacology, 45(1), 24–28.

3. Bora, K. S., & Sharma, A. (2011). Phytochemical and pharmacological potential of Artemisia absinthium Linn. Pharmacognosy reviews, 5(9), 116–126.

4.Mustafakulov M. A. Axmedova S.B. Andiz o’simligining kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo’llanilishi. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami (2023-yil 13-oktabr) 248-251 b.

EUPHORBIACEAE OILASIGA MANSUB O‘SIMLIKLARNING MORFOLOGIK ORGANLARIDA MAVJUD BO‘LGAN POLIFENOLLAR MIQDORINING TAHLILI

Mustafakulov Muhammadjon Abduvaliyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Toshbekov Nurmuhammad Toxir o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali magistranti
toshbekovnurmuhammad6@gmail.com

Annotatsiya: Labarotoriya jarayonida o‘simlikning morfologik organlari: poyasi, bargi va guli maydalanib tahlil sifatida olindi va turli xil usullar yordamida ekstraksiya qilingan. Laborotoriya sharoitida olingan tahlil natijalari yordamida ko’zlangan maqsadga erishildi va ishlab chiqarishga tadbiq qilingan. Euphorbiaceae oilasiga mansub o‘simliklarining polifenollari tarkibini va biologik faolliklarini aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Polifenollar, flavonoidlar, fenolik kislotalar, lignanlar va stilbenlar kiradi tannin, fenol.

Mavzuning dolzarbligi: O`simlik hujayralarida birlamchi moddalar almashinuvidan tashqari ikkilamchi metabolitlar almashinuvi mexanizmi ham mavjud.Ikkilamchi metabolitlar ko`pchilik hollarda o`simliklarning noqulay muhitga,fitofaglarga va boshqa salbiy omillarga nisbatan javob reaksiyasi hisoblanadi. Polifenollar o'simliklarda uchraydigan tabiiy birikmalarning turli guruhidir. Ular bir nechta fenol tarkibiy birliklarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Fenollar aromatik uglevodorod halqasiga biriktirilgan kamida bitta gidroksil guruhiga (-OH) ega bo'lgan kimyoviy birikmalardir. Ikkilamchi metabolitlar o`simliklardagi birlamchi metabolizmda, yani fotosintez, nafas olish, nuklein kislotalar, lipidlar, oqsillar sintezi va shunga o`xshash asosiy fiziologik-biokimyoviy jarayonlarda qatnashmaydi [1-2]. O`simliklar bir yoki bir nechta fenol qoldiqlarini tutgan minglab birikmalarni sintezlashi mumkin. Bu birikmalarni uglerod skeletidagi uglerod ketonlari soniga qarab bir nechta guruhlarga bo`lish mumkin. Bulardan o`simliklar dunyosida keng tarqalgani fenol kislotalari va ksantinlardir. Fenol birikmalarining sintezlanishi turlichadir. Masalan, benzoynol kislota trans-tsinnonol Co-A ning B-oksidlanishidan hosil bo`ladi. Kumarin esa korichnoy kislotaning orto-gidroksillanishidan boshlab sintezlanadi. Bu reaksiyaning fermentlari membrana bilan bog’langan bo`lib xloroplastlardan topilgan [3-4].

Polifenollar antioksidant xususiyatlarga ega, ya'ni ular tanadagi erkin radikallarni zararsizlantirishga yordam beradi. Erkin radikallar beqaror molekulalar

bo'lib, ular hujayralarga zarar etkazishi va qarish jarayoniga va turli kasalliklarning, shu jumladan saraton va yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin [7-8].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili: *Euphorbia* o‘simligini poyasi orqali ko’paytirish ishlari amalga oshirilgan bo’lib, bunda dastlab o’simlikdan qirqib olingan qalamchalar, tuproq, qum va o’simlikning rivojlanishi tezlashtirib beradigan kimyoviy dori vositalaridan hamda tuxum oqsilidan foydalangan holda tajriba va nazorat uchun ekildi.1.2-rasm.





72 kundan so’ng tajriba uchun ekilgan o’simlikni laboratoriya jarayonida vegetativ organlarini kesib olib, laboratoriya uchun maxsus belgilangan taroziga qo’yildi. So‘ngra, ularni maydalash jarayoni amalga oshirildi. Maydalangan o‘simlik organlarini yirik holatdagilari va maydalangan holatdagi o’lchamlarini taqqoslash uchun yana taroziga o‘lchanib, maxsus og‘zi berg yopiladigan kolbalarga solindi. Shundan so’ng kolbalarga belgi qo’yilib, maydalanib solingan reaktivlarga ekstraktsiya yaxshi ajralishi uchun 3/1 nisbatda xloroform va etil spirti solindi [8-9]. So’ngra kolbalarni ekstraksiya yaxshi ajralishi uchun ma’lum muddatga muzlatgichga solib qo‘yildi. Va shuningdek tadqiqot bajarilishida birikmalarni ajratib olish va tozalashning quyidagi usullaridan (ekstraktsiya, haydab olish, kolonkali va yupqa qatlamli xromatografiya, qayta kristallash), birikmalar tuzilishini aniqlashning fizik usullari (UB-,IQ-spektroskopiya, mass-spektrometriya), birikmalar tuzilishini aniqlashning kimyoviy usullari (kislotali va bosqichli gidroliz, metanoliz reaktsiyalari) hamda in vitro va in vivo sharoitdagi farmako-toksikologik tadqiqot usullaridan foydalanish maqsad qilib olindi [9-12].

Xomashyoni tayyorlash quyidagicha amalga oshirildi: o‘simlik turlarining ildizi, poyasi va bargi qismlari yig‘ilib, sovuq suv bilan yuvildi va qog‘ozga yupqa qatlamda quritish uchun yoyib qo’yildi; quritish to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri tushmaydigan joyda amalga oshirildi (namlik 78,8%); Quritishning yetarliligi o‘simlikning mo‘rtligi va rangi bilan aniqlandi. Ekstraksiya jarayonini amalga oshirish uchun 3 xil organik erituvchi: atseton, xloroform va etanol (96%) tanlab olindi. Ekstraksiya uchun o‘simlik namunasi va erituvchilardan 1:10 nisbatda foydalanildi. O‘simlikning Farg‘ona, Toshkent va Xorazm viloyatlaridan keltirilgan har bir turining poyasi va bargi alohida -alohida ekstraksiya qilindi [13-15].

Ekstraksiya qilish usullari: Atsetonli ekstraksiya, Etanolli ekstraksiya, Xloroformli ekstraksiya. (1-jadval)

1-jadval.

Erituvchilar yordamida *Euphorbia milii* barglarini ekstraksiya qilish natijalari

№	Erituvchi	Vaqt (soat)	Olingan natija miqdori gr	Ajratib olingan ekstraksiya kiqdori					
				gr			%		
				1	2	3	1	2	3
1	Atseton	3	10	2,5	2,8	2,7	25	28	27
2	Xloroform	3	10	3.0	3,6	3,2	30	36	32
3	Etanol	3	10	2,2	2,6	2,4	22	26	24

Ekstraksiya jarayoni natijalariga ko‘ra, Atseton va etanolga nisbatan xloroformda amalga oshirilgan ekstraktsiyada 0.2 gr /0.3 % natija bilan yuqori ko’rsatkich qayd etildi. *Euphorbia milii* o‘simligining bargini ekstraksiya qilish uchun eng yaxshi erituvchi xloroform deb xulosa qilindi. *E.Milii* o‘simligi Farg‘ona tur namunasidan ajratib olingan ekstrakt miqdori tanlangan barcha erituvchilarda boshqa namunalardan yuqoriligi aniqlandi.

2-jadval

Turli erituvchilar yordamida *Euphorbia milii* poyasini ekstraksiya qilish natijalari

№	Erituvchi	Vaqt (soat)	Olingan natija miqdori gr	Ajratib olingan ekstraksiya kiqdori					
				gr			%		
				1	2	3	1	2	3
1	Atseton	3	20	5.2	5.6	5.4	52	56	54
2	Xloroform	3	20	6.4	7.2	6.4	64	72	64
3	Etanol	3	20	4.4	5.2	4.8	44	52	48

Ekstraksiya jarayoni natijalariga ko‘ra, Atseton va etanolga nisbatan xloroformda amalga oshirilgan ekstraktsiyada 1.6 gr /1.6% natija bilan yuqori ko’rsatkich qayd etildi.

Xulosa: *Euphorbiaceae oilasiga mansub* o’simliklarining polifenollari tarkibini va biologik faolliklarini aniqlash va Euphorbiaceae oilasi o‘simliklarining flavonol va tanninlari birmuncha chuqurroq o‘rgangan holda, yangi bakteriya va viruslarga qarshi samarali vosita sifatida yangi biotexnologik namuna ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.

2. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.
3. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.
4. Saatov T. et al. Study on antioxidant and hypoglycemic effects of natural polyphenols in the experimental diabetes model //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2018. – Т. 56.
5. Tuychiboyev J. I. et al. Gipotireoz modelida kalamush antioksidant tizimiga e vitamin va kurkuminning korreksiyalovchi tasiri //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-236.
6. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.
7. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.
8. Mustafakulov M. et al. Determination of antioxidant properties of l-cysteine in the liver of alloxan diabetes model rats //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 47-54.
9. Saatov T. et al. Neurodegeneration type and severity have linkage with plasma insulin in DM patients //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – Т. 81.
10. Mustafakulov M. A. et al. Aptamers and their use in biology and medicine aptamers and their applications in nanotechnologies, virology and biology //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 509-515.
11. Abduvalievich M. M. et al. Determination of HEPATOTROPIC effects of certain substances in experimental toxic hepatitis //Global Scientific Review. – 2022. – Т. 10. – С. 160-162.
12. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – С. 82-86.
13. Мустафакулов М. А. и др. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев isatis tinctoria L //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – С. 40-44
14. Мустафакулов М. А. и др. Исследование влияния липосомальной формы кверцетина на отдельные биохимические параметры ткани мозга животных с экспериментальной моделью нейродегенеративного состояния //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 1-1 (103). – С. 33-39.
15. Saatov T. et al. Correction of oxidative stress in experimental diabetes mellitus by means of natural antioxidants //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2021. – Т. 73.

DORIVOR NA’MATAK (*ROSA CANINA* L.) NING XALQ TABOBATIDA QO‘LLANIShI VA UNING ZANG ZAMBURUG‘LARI

Xolmuradova T.N.[1], O‘ralov A.I [2]., G‘afforov Yu.Sh.[1], Teshaboeva Sh.A.[1], I.Yu. O‘rinboev[3]
[1]O‘zR FA Botanika instituti,Toshkent
[2]O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
[3]O‘zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti
t_kholmurodova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada *Rosa canina* dorivor o‘simligining inson salomatligini yaxshilashda qo‘llanilishi va o‘simlikda parazitlik kiluvchi zang zamburug‘lari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Rosa canina*, dorivor o‘simlik, zang, mikromitset.

O‘zbek xalq tabobatining tarixiy an’analaridan foydalangan holda inson kasalliklarini oldini olish, davolash, shuningdek, boshqa tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning samaradorligini oshirish hozirgi kunda Respublikamizda tibbiyot va farmasevtika sohalarining oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi 4668-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida ham bir qator bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar va vazifalardan biri xalq tabobatiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan qomusiy olim, sharq tabibi Abu Ali ibn Sinoning bizga qoldirgan me’rosini o‘rganish va uni zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyasini ta’minlash muhimligi keltirilgan.

Ushbu ilmiy maqolada tibbiyotimizning buyuk allomasi, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida keltirgan dorivor na’matak o‘simligi yordamida ko‘pgina kasalliklarni davolashga oid ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish, shuningdek, ushbu o‘simlikning zamburug‘larini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Na’matak (*Rosa* L.) Ra’nodoshlar oilasiga mansub bo‘lib, ushbu turkumning dunyoda 100-250 turi tarqalgan. Markaziy Osiyoda 39 ta, O‘zbekistonda na’matakning 17 ta turi tarqalgan. Balandligi 2 m gacha bo‘lgan buta, uning poyasi va barglari tikan bilan qoplangan. Na’matak gullari qizg‘ish tusli ochiq pushti, sariq, oq rangga ega. O‘simlikning mevalari yorqin qizil, go‘shtli. *Rosa* turkum turlarining hayotiy shakli butasimon bo‘lib, ular dorivorlik xususiyatlarining borligi bilan xalq va zamonaviy tibbiyotda ishlatiladi. *Rosa* turkumining keng tarqalgan va dorivor o‘simlik sifatida foydalaniladigan turlaridan biri bu na’matak ya’ni *Rosa canina* L. turi bo‘lib, qadimdan xalq tabobatida dorivor o‘simlik sifatida ishlatib kelingan. Bizga ma’lumki, na’matak mevasida askorbin kislotasi ya’ni vitamin C ko‘p bo‘lib, shuningdek, mikroelementlar: kaliy, magniy, kalsiy va natriy kabilarni o‘z ichiga oladi [1-2].

Na’matakni yer ustki va yer ostki qismlari dorivor vosita sifatida ishlatiladi. Misol uchun na’matak mevasining damlamasi inson organizmi immunitetini oshirish bilan bir qatorda, qon tomirlarini mustahkamlaydi, yurak ishini barqarorlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi, hazm qilish jarayonini me’yoriga keltiradi, xolesterin

darajasini pasaytiradi, barcha a’zolarning regeneratsiyasini rag‘batlantiradi. O‘t xaydovchi, jigar kasalliklarini davolashda Abu Ali ibn Sino tomonidan keng ishlatilgan.

Na’matak mevasidan tayyorlangan sirop asosan jigar xastaliklarida xolesistit, o‘t haydovchi vosita va virusli gepatitlarni davolashda qo‘llaniladi. Na’matak o‘simligi gulining hidi yurakni kuvvatlashda, quloq shang‘illashini yo‘qotish, bosh og‘rig‘ini davolashda ishlatilgan. O‘simlikning tanasi va barglaridan tayyorlangan qaynatmasi oshqozon kasalliklari, dizenteriyada ishlatiladi.

Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino na’matak to‘g‘risida “Na’matak o‘simligining barcha turlari tozalovchi, suyultiruvchi hamda turli tiqilmalarni ochuvchi, tomoqdagi va bodomsimon bezlardagi shishlar uchun foydalidir, qusishni va hiqichoqni to‘xtatadi.

Bizga ma’lumki, o‘simliklar zararkunanda va kasalliklar oqibatida ularning o‘sishi, rivojlanishi hamda xosildorligini kamayishiga olib keladi. Shunday o‘simliklardan Ra’noguldoshlar oilasi vakillaridan biri bu na’matak turlari hisoblanadi. Respublikamizda patogen va saprotrof zamburug‘lar uchrashi bizga ma’lum. O‘zR FA Botanika instituti Mikologiya va algologiya laboratoriyasi xodimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki keyingi yillarda ko‘pgina dorivor o‘simliklarni patogen mirkoorganizmlar bilan zararlanishi oqibatida ularda turli zamburug‘ kasalliklarining keskin tarqalishiga olib keldi.

Ayniqsa, dorivor *Rosa* turkum turlarida juda ko‘p mikromitsetlar tarqalgan bo‘lib, bular orasida zang kasalligini keltirib chiqaruvchi *Basidiomycota* bo‘limiga mansub *Phagmidium* turkum vakillari keltirib chiqaradi. Zang zamburug‘lar asosan gulli o‘simliklarda parazitlik qilib, ularni o‘sishi va rivojlanishiga katta ziyon yetkazadi [3-4].

Respublikamizning turli mintaqalaridan yig‘ib kelingan *Rosa canina* o‘simligida zang zamburug‘ belgilariga ega na’munalarni mikologik tahlil qilganimizda *Phragmidium* turkumidan *Ph. mucronatum* (Pers.) Schltdl. va *Ph. tuberculatum* Jul. Müll. turlarining uchrashi aniqlandi (1-rasm). *Phragmidium* turlari o‘simlikda zang kasalligini keltirib chiqaradi. Kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘ vakillari dastlab o‘simlik barglarining ostki va ustki qismida och-sariq dog‘ hosil qilib, vaqt o‘tgan sari barg plastinkalarini egalab boradi. Ayniqsa, kasallik kuchli zararlanganda ular o‘simlikning yosh novdalari va mevalarigacha tarqalib borib, barglar sekin asta tukilib boradi va natijada yosh o‘simliklarning qurishiga olib keladi. Ushbu zang kasalligini qo‘zg‘atuvchi *Ph. mucronatum* va *Ph. tuberculatum* turlari o‘simliklarda dastlab bahor faslining aprel-may oylarida paydo bo‘la boshlaydi. Asosan zang kasalligi namatakda yoz faslida keng tarqalib uni rivojlanishiga yoki umuman qurishiga olib keladi.



1-rasm. Namatakda (*Rosa canina*) zang kasalligi (*Phragmidium tuberculatum* Jul. Müll.) va mikroskopik ko‘rinishi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sharq tabibi Abu Ali ibn Sinoning bizga qoldirgan me’rosini insonlar salomatligini yanada yaxshilash yo‘lida davom ettirishimiz va dorivor o‘simliklarda kasallik keltirib chiqaruvchi patogen zamburug‘larni o‘rganish orqali, o‘simliklarni ximoya qiluvchi mutaxassislar uchun kasalikka qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirishiga kerakli ma’lumotlar berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бердиев Э.Т. Наъматак табиий витаминлар хазинаси. – Тошкент, 2018. – С. 19.

2. Мурдахаев Ю.М. Лекарственные растений Узбекистана. – Тошкент: Фан, 1984. – 186 с.

3. Пидопличко Н.П. Грибы паразиты культурных растений определитель. В 3-х т. – Киев, Наукова Думка, 1977. – Т.1. – С. 96-127.

4. Ғаффоров Ю. Ш. Микромицети сосудистих растений Наманганской области: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 2004. – 21 с

GENETIK ALGORITMLAR

Mixliyev Ramazon Razzoq o‘g‘li,
Abdug‘afforov Akbarjon, Boybo‘riyev Diyorbek
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
mixliyev@jbnuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada genetik algoritmlarni amalaga oshirish usullari haqida so‘z boradi. Genetik algoritmlar tabiy tanlanish jarayonini taqlid qiladi , ya'ni atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslasha oladigan turlar omon qolishi va ko'payishi va keyingi avlodga o'tishi mumkinligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Genetik algoritm (GA), populyatsiya, xromosoma, Gen, fitness bal, Tanlash operatori, Krossover operatori, Mutatsiya operatori.

Genetik algoritmlar (GA) evolyutsion algoritmlarning katta qismiga tegishli adaptiv evristik qidiruv algoritmlaridir. Genetik algoritmlar tabiy tanlanish va genetika g‘oyalariga asoslanadi. Bu qidiruvni yechim maydonida yaxshiroq ishlashga yo‘naltirish uchun tarixiy ma’lumotlar bilan ta’minlangan tasodifiy qidiruvlardan oqilona foydalanish[1]. Ular odatda optimallashtirish muammolari va qidiruv muammolari uchun yuqori sifatli yechimlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.


Genetik algoritmlarni oddiy so‘zlar bilan aytganda, ular muammoni hal qilish uchun ketma-ket avlodlar orasida “Eng kuchlilarning omon qolishini” taqlid qiladilar. Har bir avlod individlar populyatsiyasidan iborat bo‘lib , har bir shaxs qidiruv maydonidagi nuqtani va mumkin bo‘lgan yechimni ifodalaydi. Har bir shaxs belgilar butun float bitlar qatori sifatida ifodalanadi[2]. Ushbu qator xromosomaga o‘xshaydi.

Genetik algoritmlar populyatsiya xromosomalarining genetik tuzilishi va xatti-harakatlari bilan o‘xshashlikka asoslangan. Quyida ushbu analogiyaga asoslangan GA asoslari keltirilgan[3].

1. Populyatsiyadagi shaxslar resurslar va juftlik uchun raqobatlashadilar
2. Muvaffaqiyatli (eng kuchli) odamlar boshqalarga qaraganda ko‘proq nasl yaratish uchun juftlashadilar
3. “Eng kuchli” ota-onaning genlari avlod davomida tarqaladi, ya’ni ba’zida ota-onalar ota-onadan yaxshiroq bo‘lgan avlodni yaratadilar.
4. Shunday qilib, har bir keyingi avlod o‘z muhitiga ko‘proq mos keladi.

Jismoniy shaxslar populyatsiyasi qidiruv maydonida saqlanadi. Har bir shaxs berilgan muammo uchun qidiruv maydonida yechimni ifodalaydi. Har bir shaxs komponentlarning cheklangan uzunlikdagi vektori (xromosomaga o‘xshash) sifatida

kodlangan[4] . Ushbu o‘zgaruvchan komponentlar Genlarga o‘xshashdir. Shunday qilib, xromosoma (individual) bir nechta genlardan (o‘zgaruvchan komponentlardan) iborat.



1-rasm

Fitness balli har bir shaxsga beriladi, bu shaxsning “raqobat” qobiliyatini ko‘rsatadi . Optimal fitnes baliga (yoki optimalga yaqin) ega bo‘lgan shaxs qidiriladi [5].


GA n ta individ populyatsiyasini (xromosoma/eritmalar) va ularning fitnes ballari bilan birga saqlaydi. Fitnes ballari yaxshiroq bo‘lgan shaxslarga boshqalarga qaraganda ko‘payish imkoniyati beriladi. Fitnes ballari yaxshiroq bo‘lgan shaxslar tanlanadi, ular ota-onalarning xromosomalarini birlashtirish orqali juftlashadi va yaxshiroq nasl beradi. Aholi soni statik, shuning uchun xona yangi kelganlar uchun yaratilishi kerak. Shunday qilib, ba’zi odamlar vafot etadi va ularning o‘rnini yangi kelganlar egallaydi, natijada eski populyatsiyaning barcha juftlashish imkoniyati tugasa, yangi avlod paydo bo‘ladi.

Har bir yangi avlod oldingi avlodlarning individual (yechimi) dan o‘rtacha ko‘proq “yaxshiroq genlarga” ega. Shunday qilib, har bir yangi avlod oldingi avlodlarga qaraganda yaxshiroq “qisman yechimlarga” ega[6]. Oldingi populyatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan nasldan sezilarli farq qilmasa, populyatsiya birlashadi. Algoritm muammoning yyechimlari to‘plamiga yqinlashtirilgan deb aytiladi.

Dastlabki avlod yaratilgandan so‘ng, algoritm quyidagi operatorlar yordamida avlodni rivojlantiradi.


1) Tanlash operatori: g‘oya yaxshi fitnes ballariga ega bo‘lgan shaxslarga ustunlik berish va ularning genlarini keyingi avlodlarga o‘tkazish imkonini berishdir.

2) Krossover operatori: Bu shaxslar o‘rtasidagi juftlikni ifodalaydi. Tanlash operatori yordamida ikkita shaxs tanlanadi va krossover saytlari tasodifiy tanlanadi. Keyin ushbu krossover joylaridagi genlar almashinadi va shu bilan butunlay yangi shaxs (nasl) hosil bo‘ladi [7]. Masalan:



2-rasm.

3) Mutatsiya operatori: Asosiy g‘oya erta konvergentsiyani oldini olish uchun populyatsiyadagi xilma-xillikni saqlash uchun naslga tasodifiy genlarni kiritishdir [8]. Masalan –



3-rasm.

Butun algoritmni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Populyatsiyalarni tasodifiy ishga tushirish
2. Populyatsiyaning yaroqliligini aniqlash
3. Konvergentsiya takrorlanmaguncha:

a) Populyatsiyadan ota-onalarni tanlash
b) Krossover va yangi populyatsiya hosil qilish
c) Yangi populyatsiyada mutatsiyani amalga oshirish
d) Yangi populyatsiyaga yaroqliligini hisoblash

Genetik algoritmlar yordamida misol muammosi va yechimi

Maqsadli qatorni hisobga olgan holda, maqsad bir xil uzunlikdagi tasodifiy qatordan boshlab maqsadli satrni ishlab chiqarishdir [9]. Quyidagi amalga oshirishda quyidagi o'xshashliklar amalga oshiriladi -

- AZ, az, 0-9 belgilar va boshqa maxsus belgilar genlar sifatida qabul qilinadi.
- Ushbu belgilar tomonidan yaratilgan qator xromosoma eritma Individual deb hisoblanadi.

Fitness ball - bu ma'lum bir indeksdagi maqsad qatoridagi belgilardan farq qiluvchi belgilar soni. Shunday qilib, fitness qiymati past bo'lgan shaxsga ko'proq ustunlik beriladi[10].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ramazon M., Abdusattor B. MIKROSKOP YORDAMIDA HUJAYRALARDAGI QON VA OQ QON HUJAYRALARI SONI BO‘YICHA BEMORLARNING SOG‘LIG‘INI ANIQLASH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 133-137.
2. Эшонкулов Т., Михлиев Р. Тестовые алгоритмы для решение задачи таксномии //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 150-153.
3. Boboyarov A., Mixliyev R. R. BLOOD CELL SEGMENTATION IMAGES FROM MICROSCOPIC BLOOD IMAGES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 71-79.

4. Ketchum DJ. Real-time image enhancement techniques.Proc SPIE/OSA: 1976;74:120–125. 8. Lewis R. Practical Digital Image Processing. West Sussex, UK: Ellis Horwood; 1990.
5. Low A. Introduction to Computer Vision and Image Processing. UK: McGraw-Hill; 1991.
6. Javlon, K., & Erali, M. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 136-141.
7. Мустафоев, Е., & Холматов, Ж. (2023). Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 23-27.
8. Mustafoyev, E. M., & Maydonova, Z. N. (2023). MOBIL ILOVA YARTISHDA FOYDALANILGAN ONLAYN APP INVERTOR PLATFORMASIDAN FOYDALANISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(6), 23-28.
9. Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.
10. Tanib olish modullarini dasturiy amalga oshirish А Мамараимов, Г Чорёркулов, Н Норматов Информатика и инженерные технологии 1 (2), 38-44.

TABIIY TASVIRLAR SIFATINI OSHIRISH USULLARI

Mixliyev Ramazon Razzoq o‘g‘li,
t.f.n., dots. Eshonqulov Tirkash
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
mixliyev@jbnuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabbiy tasvirlar sifatini oshirish usullari haqida so‘z boradi. Tabbiy tasvirlar tanlanish jarayonini shunda kerakli tasvir xususiyatlarini insonning vizual tizimi uchun idrok etish osonroq bo‘ladi yoki avtomatlashtirilgan tasvirni tahlil qilish tizimlari tomonidan aniqlanishi mumkinligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli tasvirni fazoviy signalning haqiqiy, uzluksiz intensivlik taqsimotini ifodalovchi ikki o‘lchovli raqamlar majmuasi sifatida qaraladi. Uzluksiz fazoviy signal muntazam oraliqlarda tanlab olinadi va intensivlik chegaralangan darajalar soniga kvantlanadi. Massivning har bir elementi aprior elementi yoki piksel deb ataladi.

Tasvirni yaxshilash usullari ma’lum bir tasvirni yaxshilash uchun qo‘llaniladi, shunda kerakli tasvir xususiyatlarini insonning vizual tizimi uchun idrok etish osonroq bo‘ladi yoki avtomatlashtirilgan tasvirni tahlil qilish tizimlari tomonidan aniqlanishi mumkin[1].Tasvirni yaxshilash kuzatuvchiga asl tasvirda darhol kuzatilmaydigan tasvirlardagi tafsilotlarni ko‘rish imkonini beradi. Bu, masalan, ma’lumotlar va displeyning dinamik diapazoni mutanosib bo‘lmaganda, tasvir shovqin darajasi yuqori bo‘lsa yoki kontrast etarli bo‘lmaganda bo‘lishi mumkin .

Asosan, tasvir sifatini oshirish- bu bir tasvirni boshqasiga o‘zgartirish yoki xaritalashdir [2]. Bu transformatsiya bittaga-bitta bo‘lishi shart emas, shuning uchun sifat yaxshilangandan so‘ng ikkita turli kirish tasviri bir xil yoki o‘xshash chiqish tasviriga aylanishi mumkin. Odatda, berilgan tasvirning bir nechta takomillashtirilgan naqllarni yaratish mumkin. Bu jihat, shuningdek, yaxshilash texnikasi qaytarib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Ko‘pincha tasvirlarda ma’lum xususiyatlarning yaxshilanishi istalmagan effektlar bilan birga keladi. Yuqori bahoga ega tasvir ma’lumotlari yo‘qolishi yoki yaxshilangan tasvir asl nusxani yomon ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, takomillashtirish algoritmlari asl tasvirda mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etishini kutish mumkin emas. Agar tasvirda yaxshilanadigan xususiyat bo‘lmasa, shovqin yoki boshqa keraksiz tasvir komponentlari foydalanuvchiga hech qanday foyda keltirmasdan, tasodifan kuchaytirilishi mumkin.

Raqamli tasvirni fazoviy signalning haqiqiy, uzluksiz intensivlik taqsimotini ifodalovchi ikki o‘lchovli raqamlar majmuasi sifatida qaraladi. Uzluksiz fazoviy signal muntazam oraliqlarda tanlab olinadi va intensivlik chegaralangan darajalar soniga kvantlanadi. Massivning har bir elementi aprior elementi yoki piksel deb ataladi. Raqamli tasvir fazoviy taqsimlangan intensivlik signali sifatida aniqlanadi *f(m, n)*, bu erda *f* - pikselning intensivligi va *m* va *n* odatda gorizontal va vertikal sifatida aniqlangan bir juft ortogonal o‘q bo‘ylab pikselning o‘rnini belgilaydi. Tasvirda *M* satr va *N* ustun bor, raqamli tasvir esa *0* dan *P - 1* gacha bo‘lgan qiymatlar bilan *P* kvantlangan intensivlik darajalariga (kulrang darajalarga) ega deb faraz qilanadi[3].

Tasvirni yaxshilash va tasvirni tavsiflashda keng qo‘llaniladigan tasvirning gistogrammasi har bir kulrang darajadagi tasvirdagi piksellar sonini o‘z ichiga olgan vektor sifatida aniqlanadi. Gistogramma, *h(i)* quyidagicha belgilanishi mumkin:

$$h(i) = \sum_{m=0}^{M-1} \sum_{n=0}^{N-1} \delta(f(m,n) - i), i = 0,1,\dots,P-1$$

bu yerda,

$$\delta(w) = \begin{cases} 1, w = 0 \\ 0, w \neq 0 \end{cases}.$$

Tasvir sifatini oshirish qo`llaniladigan amallar bu yadrolar deb ham ataladigan lokal operatorlar yordamida konvolyutsiyadir. Yadro $w(k,l)$ ni $(2K+1 \times 2L+1)$ koeffitsientlar massivi deb hisoblanadi, bunda nuqta $(k,l) = (0,0)$ yadro markazidir, tasvirning konvolyutsiyasi: yadro tomonidan aniqlanadi.

$$g(m,n) = w(k,l) * f(m,n) = \sum_{k=-K}^{K} \sum_{l=-L}^{L} w(k,l) \bullet f(m-k, n-l)$$

bu erda $g(m,n)$ – konvolyutsiya qo`llanilgan chiqish tasvirining natijasi. Tasvirni yadro bilan birlashtirish uchun yadro tasvir pikseliga *(m,n)* markazlashtiriladi, yadro koeffitsientlari va mos keladigan tasvir piksellarining nuqtama-nuqta mahsuloti olinadi va bu natijalarning keyingi yig’indisi sifatida foydaniladi. To‘liq chiqish tasviri *g(m, n)* bir xil amalni dastlabki tasvirning barcha piksellarida takrorlash orqali

olinadi [4]. Muayyan yaxshilash operatsiyasini bajarish yoki tasvir xususiyatlarini o‘zgartirish uchun tasvirga konvolyutsiya yadrosi qo‘llanilishi mumkin. Bu odatda kerakli atributlarning kuchayishiga va kiruvchi xususiyatlarning bostirilishiga olib keladi. Yadro koeffitsientlarining o‘ziga xos qiymatlari istalgan takomillashtirishning har xil turlariga bog’liqdir.

Yadro qismlari kiritilgan tasvirdan tashqariga sohadagi tasvir chegaralariga e’tiborga olish kerak. Yondashuvlardan biri oddiygina yadroning kirish tasviri bilan qoplangan qismini ishlashdir[5]. Biroq, bu yondashuv chiqish tasvirining chegaralarida artefaktlarga olib kelishi mumkin.

f(m, n) tasvirning Furye almashtirishining *F(u, v)* quyidagicha aniqlanadi:

$$F(u,v) = \frac{1}{MN}\sum_{m=0}^{M-1}\sum_{n=0}^{N-1} f(m,n)e^{-2\pi j(\frac{um}{M}+\frac{vn}{N})},$$

$$u = 0,1,2,\dots,,M-1, v = 0,1,2,\dots,N-1$$

bu yerda *u* va *v* fazoviy chastota parametrlari. Furye almashtirish tasvirning spektral tasvirini beradi, uni istalgan xususiyatlarni yaxshilash uchun o‘zgartirish mumkin[6]. Fazoviy domen tasvirni teskari Furye almashtirishning bilan spektral-domen tasviridan olish mumkin:

$$f(u,v) = \frac{1}{MN}\sum_{m=0}^{M-1}\sum_{n=0}^{N-1} F(m,n)e^{2\pi j(\frac{um}{M}+\frac{vn}{N})},$$

$$m = 0,1,2,\dots,,M-1, n = 0,1,2,\dots,N-1$$

Oldingi ta’riflar bilan to‘g’ridan-to‘g’ri hisoblangan $N\times N$ tasvirining to‘g’ridan-to‘g’ri yoki teskari Furye almashtirishi N^2 ga proportsional bir qator murakkab ko‘paytirish va qo‘shimchalarni talab qiladi[7]. Ifodalarni bo`laklash va ortiqcha narsalarni yo‘q qilish orqali Furyeni tez almashtirishi (FFT) algoritmi *Nlog2N* tartibidagi amallar soniga teng bo`ladi [8]. *FFT* ning hisoblash ustunligi N ortishi bilan ortadi. *N=64 bo‘lsa*, operatsiyalar soni kattalik tartibiga, *N=1024* bo‘lsa, ikki darajaga kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ramazon M., Abdusattor B. MIKROSKOP YORDAMIDA HUJAYRALARDAGI QON VA OQ QON HUJAYRALARI SONI BO‘YICHA BEMORLARNING SOG‘LIG‘INI ANIQLASH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 133-137.

2. Эшонкулов Т., Михлиев Р. Тестовые алгоритмы для решение задачи таксномии //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 150-153.

3. Boboyarov A., Mixliyev R. R. BLOOD CELL SEGMENTATION IMAGES FROM MICROSCOPIC BLOOD IMAGES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 71-79.

4. Мустафоев, Е., & Холматов, Ж. (2023). Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 23-27.

5. Mustafoyev, E. M., & Maydonova, Z. N. (2023). MOBIL ILOVA YARTISHDA FOYDALANILGAN ONLAYN APP INVERTOR PLATFORMASIDAN FOYDALANISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(6), 23-28.

6. Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.

7. Tanib olish modullarini dasturiy amalga oshirish А Мамараимов, Г Чорёркулов, Н Норматов Информатика и инженерные технологии 1 (2), 38-44

8. Babakulov B. UNİVERSİTET TALABALARİ UCHUN CHUQUR O'RGANİSHGA ASOSLANGAN YUZNİ ANİQLASHDAN FOYDALANGAN HOLDA AVTOMATİK DAVOMAT TİZİMİ //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 74-76.

MOBIL ALOQA TAYANCH STANSIYASI ELEKTR TA'MINOT TIZIMLARIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

PhD., dots. Matyokubov O‘tkir Karimovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Muradov Muhammad Murod o‘g‘li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti doktoranti

Annotatsiya: Tayanch stantsiyalar mobil aloqa tizimlari energiya istemol qilishda muhim o‘rin tutadi. Tayanch stansiyalar mobil aloqa tizimlari umumiy energiya iste’molining 58% ini istemol qiladi. Bunda asosiy istemolchi signal tarqatuvchi va qabul qilivchi antennalar hisoblanadi. Mobil aloqa tizimlarining energiya iste’moli tarmoqdan foydalanayotgan foydalanuvchilar soni va trafik yukiga bog‘lik. Mobil tarmoqlardagi trafik yuki ish yoki dam olish kunlarida sezilarli darajada o‘zgarib turishini inobatga olgan holda, bu o‘zgarishlarning tayanch stansiyaning quvvat sarfiga ta’sirini aniqlash kerakligini ko‘rsatadi. Biz bu maqolada O‘zbekistonda joylashgan tayanch stansiyalar energiya ta’minotidagi muammolarni ko’rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: GSM, UMTS, LTE, energiya iste’moli, mobil aloqa texnologiyalari.


Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab elektr energiyasining taxminan 4-6 % yoki 1160-1740 TVt/soat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tomonidan iste’mol qilinadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilga kelib AKT uchun energiya iste’moli 1700 TVt/soatgacha oshishi kutilmoqda[1]. Olimlar tomonidan AKT sektorining energiya sarfini kamaytirish va shu tariqa telekommunikatsiya tizimlarining tabiatga zararini kamaytirish bo‘yicha yangi yechimlarni topish zarur bo‘lib bormoqda. Mobil aloqa tarmoqlari AKT sektorining muhim qismini tashkil qilganligi sababli, mobil aloqa tarmoqlari iste’molini kamaytirish butun AKT sektorining energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi.

Mobil telekommunikatsiya sohasida yangi va ishonchli xizmatlarga qiziqish ortib borayotgani va hududlarni to‘liq aloqa bilan ta’minlash maqsadida butun dunyo bo‘ylab o‘rnatilgan tayanch stansiyalari (TS) sonining ko‘payishiga olib keldi. Bundan tashqari, TSni joylashtirishning an’anaviy kontseptsiyasi istalgan joyda va istalgan vaqtda xizmat ko‘rsatish sifatini kafolatlash uchun uzluksiz ishlashni nazarda tutadi. Ushbu ikkala sabab ham so‘nggi o‘n yillikda uyali aloqa operatorlari TS tomonidan iste’mol qilinadigan umumiy energiyaning sezilarli darajada o‘sishiga olib keldi. Ma’lumki, uyali mobil tarmoqlarda energiya iste’molining asosiy manbai TS bo‘lib, umumiy tarmoq iste’molidagi ulushi 58% dan ortiq [2]-[4]. Shu sababli, uyali aloqa tarmoqlarida asosiy energiya iste’molchilari sifatida TSlarning energiya samaradorligini oshirish va mobil aloqa tizimlari ishonchliligini oshirish hozirda muhim tadqiqot mavzusiga aylanmoqda.

1. **Mobil aloqa texnologiyalari**

GSM, UMTS va LTE uchta mobil aloqa texnologiyasi bo‘lib, ular butun dunyo bo‘ylab ko‘p sonli mobil tarmoqlarga uyali ulanishni ta’minlaydi. GSM va UMTS birinchi bo‘lib Yevropada qo‘llanila boshlagan bo‘lsada, ular hozirda LTE bilan bir qatorda butun dunyo bo‘ylab yetakchi mobil aloqa texnologiyalari hisoblanadi.

GSM, UMTS va LTE mobil tarmoqlarning ikkinchi (2G), uchinchi (3G) va to‘rtinchi (4G) avlodlarini ta’minlovchi uyali texnologiyalardir. GSM FDMA va TDMA dan foydalanadi, UMTS WCDMA dan foydalanadi va LTE OFDMA va SC-FDMA dan foydalanadi[5]-[6]. O‘tkazish qobiliyati GSM da 200 kHz, UMTS da 5 MGts va LTE da 1,4 dan 20 MGts gacha.



1-rasm. Mobil aloqa multipleksorlash texnologiyalari: a) FDMA, b)TDMA, c) CDMA, d) OFDMA.

2. O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan mobil aloqa texnologiyalari.


Hozirda O‘zbekistonda to‘rt xil uyali aloqa texnologiyalarining TSlari foydalanuvchilarni mobil aloqa bilan ta’minlamoqda: GSM 900, GSM 1800, UMTS va LTE. Hozirda LTE(4G) ma’lumotlar almashish uchun qo‘llanilmoqda va 5G texnologiyasi O‘zbekistonda to‘liq sinovdan o‘tmaganligi sababli barcha hududlarda foydalanilmayabdi[7]. TS shkafi faqat sayt jihozlarini saqlash uchun mo‘ljallangan himoyalangan xona ichida joylashgan. Antenna liniyalari har bir TS xonasini binoning tepasida joylashgan tegishli antennalar bilan bog‘laydi. Hududda xizmat ko‘rsatayotgan mobil aloqa operatorining imkoniyatiga qarab, TS gigabitli switch orqali optik tolali kabelar yordamida magistral tarmoqqa ulangan, ba’zi aloqa operatorlari TSlarida faqat uzel TS magistral tarmoqga optik kabellar bilan qolganlari esa uzel TS orqali magistral tarmoqga ulangan. Agarda uzel TSda biror bir uzilish bo‘lganda shu uzel orqali magistral tarmoqga ulangan TSlarda ham aloqa uziladi va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsata olmaydi[8].

TSlarni elektr energiyasi bilan ta’minlashda birlamchi manba sifatida 2 va 3 fazali elektr tomog‘i orqali 220 va 380 volt kuchlanishli mahalliy elektr energiya tarmog‘idan foydalaniladi[9]. Agarda mahalliy elektr energiyasida uzilishlar bo‘lsa qo‘shimcha energiya bilan ta’minlash uchun akkumulatorlar va dizel generatorlaridan foydalaniladi. Tayanch stansiyalardagi akkumulatorlar to‘liq ishchi holatda bo‘lsa va unda abonentlar soni maksimal bo‘lsa 5 soat davomida elektr energiya bilan ta’minlash imkoniyatiga ega. Agarda akkumulatordagi elektr energiya ham tugasa, elektr energiya bilan ta’minlash uchun dizel generatoridan foydalaniladi.

3. O‘zbekistonda mobil aloqa tizimlariga talab oshishi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistondagi mobil telekommunikatsiya bozori so‘nggi bir necha yil ichida sezilarli darajada o‘sdi. Mobil aloqa bilan ta’minlangan abonentlar soni 34,2 milliondan ko‘proqni tashkil etadi. Shundan 28,8 million nafari aholida qayd etilgan. Aholining mobil aloqa bilan ta’minlanganligi har 100 kishi hisobiga 79 birlikni tashkil etadi.


Yillar kesimida har 100 doimiy aholiga to‘g‘ri keladigan abonentlar soni 1-rasmda keltirilgan (2024-yil, 1-yanvar holatiga).



2-rasm. Yillar kesimida har 100 doimiy aholiga to‘g‘ri keladigan abonentlar soni.

Mobil aloqa abonentlari va tayanch stansiyalar sonining tez o‘sishi tayanch stansiyada trafik yuki va quvvat sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Undan tashqari tayanch stansiyalardagi ma’lumotlar uchun optimal

marshrut tanlanganda ham energiya sarfi kamayadi[10]-[11]. 2023-yil avgust xolatiga ko‘ra O‘zbekistondagi tayanch stansiyalar soni 53,6 mingdan ko‘proqni tashkil qiladi. Yillar kesimida 2-rasmda ko‘rish mumkin.



3-rasm. Yillar kesimida tayanch stansiyalar sonining o‘sishi

Tayanch stansiyalar va foydalanuvchilar soni sezilarli darajada oshishi energiyaga bo‘lgan talabni ham oshiradi. [12]dagi tadqiqotlardan 3 ta texnologiya qo‘llanilayotgan bitta tayanch stansiya o‘rtacha 3,5 kW quvvat iste’mol qilishi aniqlangan. Aniqlangan o‘rtacha quvvat iste’molini O‘zbekistondagi tayanch stansiyalar ham iste’mol qiladi deb taxmin qilib jami tayanch stansiyalarni energiya istemolining taxminiy qiymatini hisoblash mumkin. Statistika agenligi ma’lumotlariga asosan jami tayanch stansiyalarni 53 600 ta va ularning barchasida 3 ta texnologiya qo‘llanilayapdi deb hisobga olsak, ularning energiya iste’moli 187,6 MW ekanligi kelib chiqadi. Yuqoridagi energiyani olish uchun o‘rtacha 38846.332 kg CO_2 gazi miqdorida tabiatga zarar keltiradi. Albatta bu qiymatlar aniqligini oshirish uchun real vaqtda O‘zbekistondagi tayanch stansiyalarda ham o‘lchashlar olib borish kerak. Xozirda mobil aloqa tizimlariga talab kundan kunga oshmoqda. Xududlarda tayanch stansiyalar sonini sezilarli darajada oshirish orqali foydalanuvchilarni uzluksiz aloqa bilan ta’minlash mumkin. TSlar oshishi albatta energiya iste’molini hamda CO_2 gazini oshishiga olib keladi. Tarmoqni loyihalashda CO_2 gazinining tabiatga ta’sirini kamaytirish muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun olimlar energiyadan samarali foydalanish va loyihalashda qayta tiklanuvchan energiyadan foydalanish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib bormoqda. Undan tashqari tayanch stansiyalarni uzliksiz energiya bilan ta’minlash hududdagi foydalanuvchilarni uzliksiz aloqani va xizmat ko‘rsatish sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada mobil aloqa tayanch stansiyalari energiya ta’minot tizimidagi muammolar ko’rib chiqildi. Tahlillardan ma’lumki TS energiya ta’minoti tizidagi muammolarni bartaraf qilish uchun real vaqtda TSlar energiya iste’molini o’lchash va real o’lchashlar natijasida qayta tiklanuvchan energiya manbalari hamda aqilli energiya boshqarish tizimidan foydalanish va TSlar yangi energiya saqlash tizimlarini qo’llash kabi bir qator usullarni ko’rib chiqish kerak. Mobil aloqa tizimida energiya samaradorligini oshirish orqali tarmoq xizmatlari narxining pasayishi, tabiatga keltiriladigan zararlarni kamaytirish, iqlim o’zgarishlariga ta’sirni kamaytirish kabi bir qator avfzalliklarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. CISCO. The Cisco R Visual Networking Index (VNI) Global Mobile Data Traffic Forecast; CISCO: San Jose, CA, USA, 2017.
2. U. K. Matyokubov, M. M. Muradov and O. B. Djumaniyozov, “Analysis of Sustainable Energy Sources of Mobile Communication Base Stations in the Case of Khorazm Region,” 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146885.
3. Deruyck, M.; Joseph, W.; Tanghe, E.; Martens, L. Reducing the power consumption in LTE-Advanced wireless access network by a capacity based deployment tool. Radio Sci. 2014, 49, 777–787.
4. O‘.Matyokubov, M.Muradov. (2021). Mobil aloqa tayanch stansiyalari energiya manbalarining tahlili. Elektr ta’minoti tizimining dolzarb muammolari. 351-352 b.
5. G. Gu and G. Peng, "The survey of GSM wireless communication system," 2010 International Conference on Computer and Information Application, Tianjin, China, 2010, pp. 121-124, doi: 10.1109/ICCIA.2010.6141552.
6. U.K.Matyokubov, D.A.Davronbekov, “The Impact of Mobile Communication Power Supply Systems on Communication Reliability and Viability and Their Solutions”, International Journal of Advanced Science and Technology, vol. 29, no. 5, pp. 3374 – 3385, 2020.
7. Matyokubov U.K., Davronbekov D.A Increasing energy efficiency of base stations in mobile communication systems // Scientific-technical journal Turin polytechnic university in Tashkent. Vol. 1, No. 1, 2020, pp. 22-27.
8. D.A.Davronbekov, U.K.Matyokubov, M.I.Abdullaeva, “Evaluation of reliability indicators of mobile communication system bases”, Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies, vol. 3, Article 1, 2020.
9. U.K.Matyokubov, D.A.Davronbekov, “The use of supercapacitors to stabilize the power supply system of the base station of mobile communication”, vol. 25, no. 1, 2021, pp. 6-19.
10. O‘.Matyokubov, M.Muradov. "ENHANCING THE ENERGY EFFICIENCY OF WIRELESS SENSOR NETWORKS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Vol. 1. No. 05.05. 2023.
11. U. K. Matyokubov and M. M. Muradov, "Comparison of Routing Methods in Wireless Sensor Networks," 2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE), Novosibirsk, Russian Federation, 2023, pp. 1780-1784, doi: 10.1109/APEIE59731.2023.10347799.
12. A. Kwocan, Muhammed Dahiru Buhari, Kelechi Ukagwu John, and Jonathan Serugunda, “On-Site Energy Utilization Evaluation of Telecommunication Base Station a Case Study of Western Uganda”, IJASCFRT, vol. 18, no. 1, pp. 42–63, Apr. 2023.

MASHINALI O‘RGANISH JARAYONIDA ENG YAXSHI QO‘SHNILAR ALGORITMINI QO‘LLASH

Mustafoyev Erali Muhiddin o‘g‘li,
Dustbekova Mohinur Ulug‘bek qizi,
Kamolova Dilshoda Naimjonovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
mustafoyev.erali96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda mashinali o‘rganish jarayonida Eng yaqin qo‘shnilar (KNN) algoritmini qo‘llash bo‘lib**,** uning qo‘llanilishi va bu algoritmlardagi o‘ziga xosliklar, ularda uchrab turadigan qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etish uchun foydalanadigan vositalar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Mashinali o‘rganish, Evklid masofasi, KNN algoritmi, Ma’lumotlarni tahlil qilish.

Mashinali o‘rganish jarayoni. Mashinali o‘rganish, yoki ingliz tilida "Machine Learning", bir nechta ma’lumotlardan o‘rganishning avtomatik usuli sifatida taniladi. Eng yaxshi qo‘shnilar algoritmi esa bu o‘rganish jarayonida o‘zgaruvchanlikni minimallashtirish uchun yaratilgan bir algoritmdir[1].

Eng yaxshi qo‘shnilar algoritmi, ma’lumotlar orqali o‘rganish jarayonida modelning ustunliklarini oshirish uchun o‘zgaruvchanlikni optimallashtiradi. Bu algoritm, ma’lumotlar to‘plamini o‘rganish va sinash vazifalari uchun qo‘llaniladi. Ushbu algoritm, modelning obyektiv funktsiyasini optimallashtirishda yordam beradi, masalan, minimallashtirish yoki maksimallashtirish. Eng yaxshi qo‘shnilar algoritmi, gradientni hisoblash va optimallashtirish uchun foydalaniladi[2]. Bu algoritm, modelning parametrlarini yangilash orqali funktsiyani minimallashtiradi. Ushbu algoritm ma’lumotlar to‘plamida gradientning yo‘nalishiga qarab bajariladi, ya’ni funktsiyadagi o‘zgarishni aniqlaydi va optimallashtirish jarayonida o‘zgaruvchanliklarni yangilaydi.Eng yaxshi qo‘shnilar algoritmi, ma’lumotlar to‘plamini bir necha bosqichda o‘rganish uchun qo‘llaniladi[3]. Ushbu bosqichlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Ma’lumotlarni tahlil qilish: Ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish, ulardan asosiy xususiyatlarni tanlash va ulardan foydalanishning qo‘shnilarini aniqlash uchun birinchi bosqichdir.

2. Modelni tuzish: Ma’lumotlardan foydalanib, modelni tuzish bosqichida qo‘shnilar algoritmini qo‘llash kerak. Bu algoritm, modelning asosiy parametrlarini belgilab, uning to‘g‘ri ishlashi uchun ma’lumotlarni o‘rganishga imkon beradi.

3. Modelni o‘rganish: Modelni tuzishdan so‘ng, ma’lumotlar to‘plamini o‘rganish jarayoniga kirib keladi. Bu bosqichda algoritm ma’lumotlarni modelga kiritadi va modelning ta’lim jarayonida o‘zgaruvchanliklarni optimallashtirishga yordam beradi.

4. Modelni baholash va yangilash: Modelning natijalari baholanganidan so‘ng, algoritm modelni yangilab, uning ishini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu


bosqichda algoritm ma’lumotlarni sinash jarayonida o‘zgaruvchanliklarni yangilaydi va modelni optimallashtiradi.

K-Eng yaqin qo‘shni (KNN) algoritmi

K -Yaqin qo‘shnilar (KNN) algoritmi tasniflash va regressiya muammolarini hal qilish uchun qo‘llaniladigan boshqariladigan mashinani o‘rganish usulidir. Evelyn Fix va Jozef Xodjs 1951 yilda ushbu algoritmni ishlab chiqdi, keyinchalik uni Tomas Cover kengaytirdi.

KNN - bu mashinani o‘rganishda eng asosiy, ammo muhim tasniflash algoritmlaridan biri. U nazorat ostidagi o‘quv domeniga tegishli bo‘lib , naqshni aniqlash, ma’lumotlarni qidirish va tajovuzni aniqlashda intensiv dasturni topadi . U real hayot stsenariylarida keng qo‘llaniladi, chunki u parametrik bo‘lmagan, ya’ni u ma’lumotlarning taqsimlanishi haqida hech qanday asosiy taxminlar qilmaydi (berilgan ma’lumotlarning Gauss taqsimotini nazarda tutadigan GMM kabi boshqa algoritmlardan farqli o‘laroq). Bizga koordinatalarni atribut bilan aniqlangan guruhlarga tasniflaydigan ba’zi bir oldingi ma’lumotlar (shuningdek, o‘quv ma’lumotlari deb ataladi) beriladi.

Misol sifatida, ikkita xususiyatni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar nuqtalarining quyidagi jadvalini ko‘rib chiqing:



1-rasm. KNN Algoritmining ish grafigi

Endi, boshqa ma’lumotlar nuqtalari to‘plamini (shuningdek, sinov ma’lumotlari deb ataladi) hisobga olgan holda, mashg‘ulotlar to‘plamini tahlil qilish orqali ushbu nuqtalarni guruhga ajrating. E’tibor bering, tasniflanmagan nuqtalar "Oq" deb belgilangan[4].

KNN algoritmining orqasida sezgi.

Agar biz ushbu nuqtalarni grafikda chizsak, biz ba’zi klasterlar yoki guruhlarni topishimiz mumkin. Endi, tasniflanmagan nuqta berilgan bo‘lsa, biz uning eng yaqin qo‘shnilari qaysi guruhga tegishli ekanligini kuzatib, uni guruhga belgilashimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, "Qizil" deb tasniflangan nuqtalar klasteriga yaqin nuqta "Qizil" deb tasniflanish ehtimoli yuqori.

Intuitiv ravishda biz birinchi nuqta (2.5, 7) "Yashil" deb tasniflanishi kerakligini va ikkinchi nuqta (5.5, 4.5) "Qizil" deb tasniflanishi kerakligini ko‘rishimiz mumkin[5].

KNN - algoritmi ko‘p qirrali va keng qo‘llaniladigan mashinani o‘rganish algoritmi bo‘lib, u asosan soddaligi va amalga oshirish qulayligi uchun ishlatiladi. Bu asosiy ma’lumotlarni taqsimlash haqida hech qanday taxminlarni talab qilmaydi. Shuningdek, u raqamli va toifali ma’lumotlarni qayta ishlay oladi, bu uni tasniflash va regressiya vazifalarida har xil turdagi ma’lumotlar to‘plami uchun moslashuvchan tanlovga aylantiradi[6]. Bu ma’lum ma’lumotlar to‘plamidagi ma’lumotlar nuqtalarining o‘xshashligi asosida bashorat qiladigan parametrik bo‘lmagan usul. K-NN boshqa algoritmlar bilan solishtirganda o‘zgarib turadigan ko‘rsatkichlarga nisbatan kam sezgir.


K-NN algoritmi Evklid masofasi kabi masofaviy metrikaga asoslangan ma’lumotlar nuqtasiga eng yaqin K qo‘shnilarini topish orqali ishlaydi. Keyin ma’lumotlar nuqtasining klassi yoki qiymati K qo‘shnilarining ko‘pchilik ovozi yoki o‘rtacha ovozi bilan aniqlanadi. Ushbu yondashuv algoritmga turli naqshlarga moslashish va ma’lumotlarning mahalliy tuzilishi asosida bashorat qilish imkonini beradi[7].

Evklid masofasi

Bu tekislik giperplanda joylashgan ikki nuqta orasidagi kartezian masofadan boshqa narsa emas. Evklid masofasini hisobga olinadigan ikkita nuqtani birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq uzunligi sifatida ham ko‘rish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich bizga ob'ektning ikki holati o‘rtasidagi aniq siljishni hisoblashda yordam beradi[8].

$$distance = (x, X_i) = \sqrt{\sum_{j=1}^{d} (x_j - X_{i_j})^2}$$

K-Yaqin qo‘shnilar (KNN) algoritmi o‘xshashlik printsipi asosida ishlaydi, bu erda u o‘quv ma’lumotlar to‘plamidagi K eng yaqin qo‘shnilarining teglari yoki qiymatlarini hisobga olgan holda yangi ma’lumotlar nuqtasining yorlig‘i yoki qiymatini bashorat qiladi.



2-rasm. KNN ishlash grafigi

KNN qanday ishlashini bosqichma-bosqich tushuntirish orqali amalga oshiriladi:

1-qadam: K ning optimal qiymatini tanlash.

K bashorat qilishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan eng yaqin qo‘shnilar sonini bildiradi.

2-qadam: Masofani hisoblash.

Maqsad va o‘quv ma’lumotlar nuqtalari o‘rtasidagi o‘xshashlikni o‘lchash uchun Evklid masofasidan foydalaniladi. Ma’lumotlar to‘plamidagi har bir ma’lumot nuqtasi va maqsad nuqtasi orasidagi masofa hisoblanadi[9].

3-qadam: Eng yaqin qo‘shnilarni toppish.

Maqsadli nuqtaga eng kichik masofaga ega bo‘lgan k ma’lumot nuqtasi eng yaqin qo‘shnilardir.

4-qadam: Tasniflash uchun ovoz berish yoki regressiya uchun o‘rtachani olish.

Tasniflash masalasida sinf belgilari ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi. Qo‘shnilar orasida eng ko‘p uchraydigan sinf maqsadli ma’lumotlar nuqtasi uchun taxmin qilingan sinfga aylanadi[10].

Regressiya muammosida sinf yorlig‘i K eng yaqin qo‘shnilarning maqsadli qiymatlarining o‘rtacha qiymatini olish yo‘li bilan hisoblanadi. Hisoblangan o‘rtacha qiymat maqsadli ma’lumotlar nuqtasi uchun bashorat qilingan natijaga aylanadi[11].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Javlon, K., & Erali, M. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 136-141.

2. Мустафоев, Е., & Холматов, Ж. (2023). Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 23-27.

3. Mustafoyev, E. M., & Maydonova, Z. N. (2023). MOBIL ILOVA YARTISHDA FOYDALANILGAN ONLAYN APP INVERTOR PLATFORMASIDAN FOYDALANISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(6), 23-28.

4. Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.

5. Kamoliddin o‘g‘li N. N. et al. ERWIN DASTURI YORDAMIDA IDEF0, IDEF3 VA DFD STANDAT DIAGARAMMALARIDAN FOYDALANIB TIZIM SIFATIDA YARATILGAN UNIVERSITETNING MONITORING BO ‘LIMI LOYIHASI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 378-386.

6. Norqo‘ziyev , Q. (2023). MOBIL ROBOTLAR UCHUN YO‘LNI REJALASHTIRISH ALGORITMI. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/746

7. Чорркулов Г., Норматов Н., Мамараимов А. Роль анализа текстовых связей в электронных документах в информационной безопасности //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 67-71.

8. Ramazon, Mixliyev, and Babayarov Abdusattor. "MIKROSKOP YORDAMIDA HUJAYRALARDAGI QON VA OQ QON HUJAYRALARI SONI BO‘YICHA BEMORLARNING SOG‘LIG‘INI ANIQLASH." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 133-137.

9. Abduvalieva, Z. and Ergashev, S., 2023. ALGORITHM FOR CLASSIFYING DOCUMENTS OF A SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL ORGANIZATION USING MACHINE LEARNING METHODS. International

Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), pp.103-111.

10. Jamshid S. ENTROPY EVALUATION CRITERION IN DECISION TREE ALGORITHM EVALUATION //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 236-239.

11. Kamoliddin o'g'li N. N., Maqtagʏl A. AN INTELLECTUAL SYSTEM FOR LEARNING, MONITORING AND EVALUATING KNOWLEDGE //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 6. – С. 94-102.

КВАНТОВОЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЕ ФУРЬЕ ИЗОБРАЖЕНИЙ

д.т.н., проф. Мухамедиева Дилноз Тулкуновна,
Собиров Рузимбой Атабекович,
Файзиев Воҳид Орзумурод угли,
Нажмиддинов Аҳлиддин Сирожиддин угли
Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»
dilnoz134@rambler.ru

Аннотация: В данной статье представлен подход к применению квантового преобразования Фурье (QFT) для обработки изображений с использованием квантовых вычислений. Применение квантовых вычислений для анализа и обработки изображений становится все более актуальным в современной науке и технологиях. В статье представлены основные шаги QFT и их применение к вектору состояния, представляющему интенсивности пикселей изображения. Мы исследуем влияние квантового преобразования на структуру изображения и представляем результаты в виде графиков и визуализаций.

Ключевые слова. Квантовые вычисления, преобразование Фурье, обработка изображений, квантовая схема.

1. Введение. С развитием квантовых технологий появляются новые возможности для решения вычислительных задач, в том числе и в области обработки изображений [1]. Традиционные методы обработки изображений часто сталкиваются с ограничениями в скорости и эффективности, особенно при работе с большими объемами данных. В этом контексте применение квантовых вычислений для обработки изображений представляет собой перспективный направление исследований. Квантовые алгоритмы, такие как квантовое преобразование Фурье (QFT) [2], могут обеспечить более эффективную обработку данных за счет использования принципов квантовой механики. С развитием квантовых вычислений и расширением области их применения возникают новые возможности в сфере обработки данных [3]. Одним из увлекательных направлений в исследованиях является применение квантовых методов к обработке изображений. Традиционные методы, несмотря

на свою эффективность, часто сталкиваются с ограничениями, особенно при работе с большими объемами информации [4].

Целью данной работы является рассмотрение и анализ применения QFT к изображениям с использованием квантовых вычислений. Мы исследуем ключевые шаги квантового преобразования в контексте обработки изображений и рассматриваем влияние этого метода на структуру изображений. Также представляем новый аспект в виде вывода квантовой схемы QFT для наглядной демонстрации алгоритма. Эта работа призвана расширить понимание возможностей квантовых вычислений в области обработки изображений и внести вклад в развитие новых методов анализа данных с использованием квантовых технологий.

2. Материалы и методы.

Для проведения исследования выбрано цифровое изображение, представляющее интерес для анализа. Изображение может быть как монохромным, так и цветным, чтобы рассмотреть влияние квантового преобразования на различные типы данных. Изображение конвертируется в формат, пригодный для обработки, например, черно-белый. Размер изображения также может быть уменьшен до ближайшей меньшей степени двойки для удобства применения квантового преобразования Фурье (QFT). Каждый пиксель изображения преобразуется в интенсивность, и формируется вектор состояния. Этот вектор подготавливается для применения на квантовой схеме [5]. Реализуется квантовая схема для применения QFT к вектору состояния изображения. Для этого используется библиотека Qiskit для языка программирования Python. Каждый элемент вектора состояния представляет собой амплитуду вероятности на соответствующем кубите.

Изучаются воздействие QFT на структуру изображения. Анализируются векторы состояния до и после преобразования, а также полученные изображения. Используется визуализация результатов для более наглядного понимания процесса. Для наглядного представления алгоритма QFT в квантовой схеме, используется библиотека Qiskit. Выводится квантовая схема с учетом применения QFT к входным данным. Эксперимент проводится с различными вариантами изображений и параметров QFT для выявления особенностей и влияния квантового преобразования на структуру входных данных

Для реализации квантовой схемы в программе используется библиотека Qiskit, предоставляющая возможность работы с квантовыми схемами в языке программирования Python. Создаются квантовые биты, которые будут использоваться для представления входного вектора состояния изображения. Количество кубитов равно ближайшей меньшей степени двойки к размеру изображения (например, если размер изображения 64x64, то используется 6 кубитов). Квантовая схема, представленная в данной программе, выполняет преобразование Фурье на квантовых битах (квантовых кубитах). Преобразование Фурье - это математическое преобразование, которое находит применение в различных областях, включая классическую и квантовую информатику.

3. Результаты. Квантовая схема использует квантовые биты которые являются квантовыми аналогами классических битов. Кубиты могут находиться в линейной комбинации состояний $|0\rangle|0\rangle$ и $|1\rangle|1\rangle$ из-за явления квантового вмешательства. Преобразование Фурье в данном контексте выполняется на квантовых битах. Это преобразование является квантовым аналогом классического преобразования Фурье, которое применяется к последовательности значений. В схеме используются квантовые вентили, такие как вентили Адамара H, управляемые фазовые вентили Rϕ), и контролируемые вентили C (Рис.1).




Рис.1. Квантовая схема преобразования Фурье в состояние кубита

Начальное состояние квантовой системы инициализируется изображением, а затем выполняется квантовое преобразование. После этого производится измерение квбитов, чтобы получить классическую информацию. Результаты квантового преобразования визуализируются с помощью графиков, позволяя увидеть как изменяется вектор состояния и изображение после преобразования (Рис.2).




Рис.2. Вектор состояния до и после QFT

Такая квантовая схема может использоваться для исследования квантовых преобразований на изображениях и в контексте квантовых алгоритмов обработки данных.

4. Заключение. В данной работе был проведен анализ применения квантового преобразования Фурье (QFT) в контексте обработки изображений. Результаты экспериментов показывают, что квантовое преобразование способно воздействовать на структуру изображений, приводя к изменению амплитуд пикселей. Эффективность квантового преобразования оценивалась на примере изображений с использованием различного числа квантовых битов. Увеличение числа битов приводило к более высокой детализации преобразования, однако требовало больших ресурсов вычислений.

Гистограмма амплитуд после QFT может служить индикатором важных характеристик изображения. Однако необходимо учитывать, что результаты могут сильно зависеть от самого изображения и параметров квантовой схемы. Также были выделены области применения, где квантовые методы обработки изображений могут быть наиболее полезными, такие как выделение особых точек и шаблонов. Однако следует отметить, что квантовые методы обработки изображений имеют свои ограничения, и эффективность таких подходов может быть улучшена с учетом дальнейших исследований и оптимизаций. Эти результаты подчеркивают перспективность использования квантовых подходов в обработке изображений, предоставляя новые возможности для анализа и изменения визуальных данных. Дальнейшие исследования в этой области помогут оптимизировать параметры квантовых схем и расширить область их применения в практических задачах обработки изображений.

Литература:

1. Potapov V., Gushanskiy S., Polenov M. The Methodology of Implementation and Simulation of Quantum Algorithms and Processes, 11th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT). Institute of Electrical and Electronics Engineers, 2017, pp. 437-441.

2. Boneh D., Zhandry M. Quantum-secure message authentication codes, In Proceedings of Eurocrypt, 2013, pp. 592-608.

3. Potapov V., Gushansky S., Guzik V., Polenov M. Architecture and Software Implementation of a Quantum Computer Model, Advances in Intelligent Systems and Computing. Springer Verlag, 2016, Vol. 465, pp. 59-68.

4. Bennett C.H., Shor P.W., Smolin J.A., Thapliyal A.V. Entanglement-assisted Capacity of a Quantum Channel and the Reverse Shannon Theorem, IEEE Transactions on Information Theory, 2002, Vol. 48, pp. 26-37.

5. Kleppner D., Kolenkow R. An Introduction to Mechanics (Second ed.). Cambridge: Cambridge University Press, 2014, 49 p

RAQAMLI IQTISOD VA INNOVATSION AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALAR TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNI DOLZARB MASALALARI

Nizametdinov Ali
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Xojiboqiyeva Nigina O‘tkir qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Maqola mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotga alohida urg‘u berilganligi va bu ishlarni ijrosini ta’minlashda davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritildi. “Raqamlashtirish” atamasi yangi atama bo‘lishiga qaramay hozirgi kunda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarning ham bir bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Raqamlashtirilgan har bir soha zamirida esa aynan mana shu sohaning kelgusida jamiyat taraqqiyoti uchun samaradorligini oshirish va albatta “xufyona iqtisodiyot”ning salmog‘ini pasaytirishdir.

Kalit so‘zlar: Texnogiya, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, Innovatsion, YaIM, segment, Ekspert, internet, kommunikatsiya, xufyona iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, lean production, biznes, integratsiya, elektron savdo, elektron hukumat.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador texnogiyalar hayotimizga shiddat bilan kirdi va insonlarning ko‘plab mushkullarini oson qilib, shu bilan birga ularning ahamiyati ham ortib bormoqda. .”Raqamlashtirish” atamasiga ko‘p duch kelyotgan bo‘lsakda aslida bu atama biz uchun yangi atama. Innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o‘laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – trakzaksion sektorning o‘sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko‘rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi.[1] Ekspertlarning fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o‘rni axborot-texnologiyalari yordamida yaratiladi.Xususan davlatimiz raxbari ham kelgusi 5 yilda raqamli iqtisodiyotga o‘tish oldimizdagi dolzarb masalalar sirasida deb belgiladi.[2] “O‘zbekiston-2030” davlat dasturida ham belgilangan masalalarni ijrosini ta’minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o‘ta muhim vazifalar qo‘yildi. Raqamli iqtisodiyot dastlabki navbatda korrupsiyadan holi jamiyat tuzish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham biz uni “xufyona iqtisodiyot”ning kushandasi deya olamiz. Chunki raqamlar barcha ma’lumotlarni ayniqsa budjet ma’lumotlarini vaqti bilan va aniq ravishda saqlab qoladi hamda kerak bo‘lgan vaqtda taqdim eta oladi. Bunday sharoitda esa biron ma’lumotni o ‘zgartirish va berkitish ilojsiz. Bu ayniqsa soliq

tizimida juda asqotadi va soliqlarni to‘g‘ri hisoblanib kerakli ijtimoiy sohalarda ya’ni sog‘lomshtirish, dam olish maskanlari, shifoxonalar, maktablar va yo‘llar uchun ishlatilishiga zamin yaratadi Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», addiktiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog‘liq bo‘lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko‘lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. [5] Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko‘rsatilmoqda:

➢ axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish;

➢ yangi texnologik avloddagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);

➢ o‘ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g‘oyalarni amalga oshirish;

➢ autsorsing, o‘zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ‘ib qilish;

➢ muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi. Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to‘lovlar va boshqalarga tegishlidir. Mamlakatimizda 2019-yil noyabr oyidan boshlab “Bir million O’zbek dasturchilari” loyihasi ishga tushurilgani ham yurtimizda Axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirishga tashlangan yana bir katta qadam bo’ldi desak mubolag’a bo’lmaydi[4]. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi IT-parkning shahar va tumanlardagi filiallari tomonidan 200 dan ortiq maktablarda axborot-kommunikatsiyasi texnologiyasiga chuqurlashtirib o’qitiladigan kurslar tashkil etilishi ham muhim yangililardan biridir. Raqamli texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi.Bundan tashqari xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalarida ham muvafaqqiyat kaliti desak ham bo‘ladi [6] . Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlarning o'sishi bilan bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlaming hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish kerak [7]. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o'zgaruvchan voqelikni aks ettirish uchun o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yurtimizda yirik loyihalarga start berilgani Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida raqamli

texnologiyalarning hayotimizdagi o‘rni va rolini, ularning yurtimiz bo‘ylab qamrovini jadal sur’atda oshiradi [8]. Tizim muntazam rivojlanyapti, keng ko‘lamli va kompleks loyihalar amaliyotga joriy etilmoqda. Shu bilan birga, hali oldimizda bajaralishi zarur bo‘lgan muhim vazifalar turibdi. Zero, O‘zbekistonning taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning barcha soha va tarmoqlarga joriy etilishi va qo‘llanishiga uzviy bog‘liqdir[9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Rahmonov. X.Tolibjonov. Raqamli iqtisodiyot va Sanoat 4.0 da ilg’or davlatlar. “O’zbekiston umidli yoshlari” konfirensiya.2021.2-mart.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. http//www stat.uz
3. Хакимова Х.Х. “Экономика и образование” “Коммуникативные подходы к управлению компетенциями в высшем образовании”: 23 (2022), 290-294 https://doi.org/10.55439/eced/vol23_iss5
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF60-sonli Farmoni//www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
5. Nizametdinov A., Abdulhamidov A. FIZIOKRATIZM IQTISODIY TA’LIMOTINING VUJUDGA KELISHI VA FRANSUA KENE ASARIDA MERKANTILIZMNING TANQIDI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 52-58.
6. Petrovna S. M., Nizametdinov A., Mansurov S. FINANCIAL CRISES AND THEIR IMPACTS ON THE ECONOMY //SPAST Abstracts. – 2023. – T. 2. – №. 02.
7. Nizametdinov A., Usmonova V., Abdusattorov D. OZIQ-OVQAT MUAMMOSI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 139-143.
8. Luna A., Nizametdinov A., Xudayarov R. KORXONALAR FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING CHORA TADBIRLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 34-40.
9. Nizametdinov A. A. OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 58-60.

IMPLEMENTING MOBILE ROBOT WALKING PATH CONTROL AND TRACKING IN C# WINDOWS FORM APPLICATION

Norqo‘ziyev Quvonchbek Komiljon o‘g‘li,
Aynakulov Toxir Turg‘un o‘g‘li,
Mahkamov Shohruh Sarvar o‘g‘li,
Sodiqov Diyorbek Sodiq o‘g‘li
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
quvonchbek9535@gmail.com

Abstract: This article explores the implementation of mobile robot walking path control and tracking within a C# Windows Form application. Mobile robots are integral across various industries, necessitating efficient navigation methods. The article begins by guiding readers through the setup of Visual Studio and the creation of a Windows Forms Application project. Subsequently, it delves into the design of a user interface conducive to user interaction, encompassing components such as textboxes, buttons, and canvas. Path planning algorithms, including A*, Dijkstra's, and RRT, are discussed for generating waypoints crucial for robot movement.

Keywords: Mobile Robot,Path Control, Path Tracking, C# Programming, Windows Form Application, Robotics, Path Planning Algorithm, Kinematics, Dynamics, Feedback Control, Sensor Integration, Obstacle Avoidance, PID Controller, User Interface (UI) Design, Simulation Environment, Waypoints, A* Algorithm, Dijkstra's Algorithm, Rapidly-exploring Random Trees (RRT), Sensor Data Processing.

Introduction: Mobile robots play a crucial role in various fields such as manufacturing, healthcare, and logistics. One of the fundamental tasks in mobile robotics is path planning and control, where the robot navigates through its environment efficiently while avoiding obstacles. In this article, we will explore how to implement mobile robot walking path control and tracking in a C# Windows Form application.[1]

Setting Up the Environment: Before diving into the implementation, ensure you have Visual Studio installed on your system. Create a new Windows Forms Application project in Visual Studio and name it accordingly.[1]


Designing the User Interface: Design the user interface (UI) to provide controls for setting the robot's destination and initiating the path tracking process. Include components such as textboxes, buttons, and a canvas for displaying the robot's movement.[2]

Implementing the Path Planning Algorithm: Choose a suitable path planning algorithm based on your requirements and implement it in C#. Popular algorithms include A*, Dijkstra's algorithm, and Rapidly-exploring Random Trees (RRT). This algorithm should generate a sequence of waypoints that the robot will follow to reach its destination while avoiding obstacles.[3]

Simulating Robot Movement: Create a simulated environment where the robot can move within the UI canvas. Define the robot's kinematics and dynamics to

simulate its movement accurately. You can represent the robot as a simple point or a more complex shape depending on your application.

Integrating Path Control and Tracking: Integrate the path planning algorithm with the simulated robot movement. Implement a control loop that continuously updates the robot's position based on the planned path. Ensure the robot follows the path smoothly and adjusts its trajectory to avoid collisions with obstacles.[1]



Implementing Feedback Control: To enhance tracking accuracy, implement feedback control mechanisms such as PID controllers. These controllers adjust the robot's speed and direction based on feedback from sensors or the environment. Fine-tune the controller parameters to achieve optimal performance.[2]

Handling Sensor Data (Optional): If your robot is equipped with sensors such as LiDAR or cameras, integrate sensor data processing into your application. Use sensor data to update the robot's position, detect obstacles, and refine the path planning in real-time.[3]

Testing and Optimization: Test the application thoroughly to ensure the robot can navigate complex paths accurately and efficiently. Optimize the code for performance and reliability, considering factors such as computational resources and real-time constraints.[2]

Xulosa qilib aytilganda, “*raqamli*” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni bildiradi. Ananaviy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurslar xisoblansa, raqamli iqtisodiyotda esa qayta ishlab chiqiladigan hamda uzatiladigan ma’lumotlar xisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda bank sektori va to’lov xizmatlari o’rtasida o’zaro aloqani o’rnatish, iqtisodiyotning turli sohalarida tegishli ma’lumotlarni har kunlik monitoring qilish va tahlil qilish, xalqaro tajribani o’rganish, elektron tijorat sub’ektlarining milliy reestrini joriy etish, shuningdek ular bilan o’zaro aloqalarni o’rnatish bugungi kunnig muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hubballi N., Swarnkar M., Conti M. BitProb: Probabilistic Bit Signatures for Accurate Application Identification. IEEE Transactions on Network and Service Management, vol. 17, no. 3, 2020, pp. 1730
2. Poullis, C., & Bellekens, X. (2018). Deep Packet Inspection in Software-Defined Networks: Threats, Challenges, and Opportunities. IEEE Access, 6, 38221-38235. Link
3. Matyakubov A.S., Tadjiyev R.N. “Method of intercepting outgoing and incoming packets in computer networks” Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (2021 йил 15-17 Ноябрь). Фарғона давлат университети, 2021. 16 б.
4. Matyakubov A.S., Tadjiev R.N., Esonmurodov S.Q. The role of information technology in modern medicine. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 3 No. 7 (2022): wos https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2199/2093
5. Matyakubov A, Tadjiyev R. Komilov R., Kiruvchi va chiquvchi tarmoq trafigini deep packet inspection (dpi) yordamida kiruvchi va chiquvchi trafiklarni teran tahlil qilish. Urganch, 29-30 aprel 2022y xalqaro ilmiy-amaliy anjumani Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch Filiali 2022, 89-91 b.


INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA MOBIL ILOVA

Ulashev Asrorjon Nasriddinovich,
Norqo‘ziyev Quvonchbek Komiljon o‘g‘li,
Kayumova Nazokat Rashitovna,
Nizametdinov Adxamjon Ibroxim o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
ulashevasror8@gmail.com

Ingliz tilini o‘rganish uchun mobil ilova - bu, telefon yoki planshet orqali o‘rganishga yordam beradigan dastur yoki mobil ilova. Bu ilovalar o‘qitish materyallari, interaktiv darslar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quvchi baholash vositalari va boshqa funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘rganishni qulay va qiziqarli qilish uchun interaktiv vosita sifatida xizmat qiladi.

Ingliz tilini o‘rganish uchun lug‘atni yodlash uchun qulay mobil ilova yaratdim. Buni yordamida foydalanuvchilar o‘zbek va ingliz tillarini eshitib, ularni o‘rganishlari va kelajakda ularni ishlatishlari mumkin bo‘ladi.

Asosiy funksiyalar va interfeys: Mobil ilovani nomi Dictionary Essential, google play marketda joylanganhavolasi[3]:



1-rasm. Asosiy oyna

Bu bo‘lim jadval ko‘rinishida bo‘lib, unda qaysi kitob va qaysi mavzu bo‘lsa tanlanadi va shu mavzudan lug‘atlar akslanadi.




2-rasm. Kard metodi bo‘limi oynasi

Bu bo‘limda so‘zlarni eshitib o‘zbekchadan inglizchaga yoki inglizchadan o‘zbekchaga qilib yodlash mumkin. Ushbu to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri topganiga qarab bajarganlik darajasi aniqlanib ketadi[5].



3-rasm. Test metodi bo‘limi oynasi

Test metodi bo‘limida testni bajarishda har bir so‘z o‘z tilida eshitilib turadi va xato va to‘g‘ri javoblar ajratilgan ranglarda ko‘rsatiladi va keyingisiga o‘tish tugmasini bosasiz[4].



4-rasm. Audio metodi bo‘limi oynasi

Bu oynada faqat eshitib yodlash uchun imkoniyatlar yaratilgan. Double – belgilangan vaqtda so‘zlar 2 marta takrorlanadi. Loop – belgilangan vaqtda audio yakunlangandan so‘ng yana boshidan boshlanadi. Random – belgilangan vaqtda doim so‘zlar aralash keladi. RESTART tugmasi qaytadan boshlaydi. STOP tugmasi to‘xtatadi. START davom ettiradi[3].


Dastlab dasturni yaratishda shu yo‘ldagi kamchiliklar o‘rganildi va turli hil metodlar o‘rganib chiqildi, bulardan tovush eshitish, gapirish, o‘qish va yozish. Bularni an’anaviy uslubda bajarib, yangi inglizcha so‘zlar yodlab ko‘rildi va shunday to‘xtamga kelindiki, buni elektron ilovasini yaratganda bizning ishimiz anchagina osonlashishi aniqlandi.

Ilovani yaratishdan oldin undagi ma’lumotlarni yig‘ish boshlandi, bunda asosiy essential dictionary web ilovasi uchun parser yozdim, bunda 6 ta kitobini 30

ta mavzusi har bittasi web page bo‘lgani uchun parser har bir sahifani yuklab oldi. Beautifulsoup yordamida yuklab olingan barcha sahifalardan suratlar va so‘zlarni saqlab oldi[1].


Android studioda java dasturlash tilida yaratilgan, Chaquopy kutubxonasidan foydalanib python dasturlash tilida ishlatilgan va bunda o‘zbek tilida matnlarni tovushga aylantiruvchi kutubxona ishlatilgan[3].

Qo‘llanma bo‘limida video qo‘llanma ko‘rsatilgan.



5-rasm. Qo‘llanma bo‘limini ko‘rsatilgan


Test qilish va natijalar



6-rasm. Turli metodlarni tanlab tamomlagandagi natijalar oynasi.

Nechta so‘z so‘ralgan va nechtasi to‘g’ri topilganligi haqida ma`lumot aks ettiriladi.

Qo‘shimcha tafsilotlar



7-rasm. Ma`lumotlar paneli.

Bu panelda 3/40 nechta savoldan nechtasiga javob berildi, -0/+2 bunda 0 ta xato va 2 ta to‘g‘ri javob 100.00% bu to‘g‘ri javob berganlik darajasi.

Essential english words 2 – kitob nomi, Unit 20 – mavzu tartib raqami. Xato topilmaganda bosiladi.

Yashirin matn yordam olmoqchi bo‘lsa yoki javobni bilmoqchi bo‘lsa bosiladi.

Ingliz tilini o‘rganishda lug‘at yodlash mobil ilovasini yaratdim unda yangi so‘zlarni yodlash uchun turli metodlar berilgan, undan foydalanib o‘ziga qulay uslubda yangi so‘z yodlash mumkin va bu juda samarali.

Play Console hisobini sotib olindi va ingliz tili lug‘atiga joylandi. Bundan tashqari bu ilovani yaratishda turli xil ma’lumotlar to‘plashga to‘g‘ri keldi va bunda qo‘llanilgan texnologiyalar haqida hujjatda keltirib o‘tildi. Ilovani yaratishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar keltirib o‘tildi[8].

Ilovani foydalanuvchilar taklifiga binoan takomillashtirib borildi va yanada rivojlantirish uchun foydalanuvchilarni kuzatib borilmoqda.

Ilovani katta tizim ko‘rinishiga keltirish uchun taklif va murojaatlarni kutamiz, bu tilni o‘rganishimizda foydali tizim bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Head First Программирование для Android” - Griffits Devid, Griffits Don(2-e izdanie, 2018)
2. Nasriddinovich, Ulashev Asrorjon, and Ulashev Abror Nasriddinovich. "GORIZONTGA BURCHAK OSTIDA OTILGAN JISM HARAKATI VA DASTURIY TAMINOTI." *Scientific Impulse* 1.8 (2023): 437-444.
3. Toxir, A., & Lobar, A. (2023). MOBIL ILOVALAR ORQALI YOSH BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 906-911).
4. Tojiyev, A., Ulashev, A., & Abdualimov, B. (2023, May). WINDOWS FORM ILOVASIDA MATEMATIK FUNKSIYALAR GRAFIGINI YASASH. In *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*.
5. Nasriddinovich U. A. et al. C# DA WEB KAMERA ORQALI QR KOD YASASH VA O ‘QISH TEXNOLOGIYASI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 30-34.
6. Ulashev, Asrorjon, and Alisher Tojiyev. "METHODS FOR PREPARING GEOMETRIC OBJECTS USING FLASH SOFTWARE." *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*. 2023.
7. Oybek Kayumov, Obid Kayumov, & Isoqov Adham, Meliyeva Mohira. (2023). ELECTRONIC PLATFORM FOR RECOGNITION AND TEACHING OF SIGN LANGUAGE PICTURES BASED ON UZBEK GRAMMAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 263–268. Retrieved from https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/587

CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORK (CNN) BASED APPROACH FOR BRAILLE BLOCK RECOGNITION WITH IMPROVED NOISE REDUCTION

Ulugmurodov Shokh Abbos Bakhodir ugli
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
ushohabbos@gmail.com

Abstract: This paper proposes a Convolutional Neural Network (CNN) based approach for Braille block recognition with a focus on improved noise reduction. Braille images are susceptible to various noise sources that can hinder character recognition accuracy. This work introduces a novel denoising pre-processing stage utilizing a dedicated CNN architecture designed to remove noise while preserving Braille cell features. The pre-processed images are then fed into a separate CNN for Braille block recognition [1]. The proposed approach is evaluated on a publicly available Braille image dataset and compared with existing methods. The results demonstrate that the denoising pre-processing stage significantly improves Braille block recognition accuracy compared to traditional pre-processing techniques and other CNN-based approaches [2].

Keywords: Braille Recognition, Convolutional Neural Networks, Image Denoising, Pre-processing, Assistive Technology.

1. Introduction

Braille, a tactile writing system for visually impaired individuals, relies on raised dots arranged in rectangular cells to represent characters and punctuation. Automated Braille recognition systems play a crucial role in converting Braille documents into accessible formats for visually impaired users. Convolutional Neural Networks (CNNs) have emerged as a powerful tool for image recognition tasks, demonstrating promising results in Braille character recognition [3]. However, the performance of CNN-based Braille recognition systems can be significantly impacted by noise present in Braille images. Noise sources like uneven lighting, shadows, scanner artifacts, or physical damage on the Braille document can distort Braille cell features, leading to recognition errors.

This paper proposes a CNN-based approach for Braille block recognition with a dedicated pre-processing stage for improved noise reduction [4-5]. The pre-processing stage utilizes a separate CNN specifically designed to remove noise while preserving the essential features of Braille cells. The denoised images are then fed into a second CNN for Braille block recognition. The proposed approach aims to achieve superior recognition accuracy compared to existing methods by mitigating the effect of noise on Braille image analysis.

2. Methods

2.1. Dataset

The proposed approach is evaluated on a publicly available dataset of Braille images, such as the UNIMIB Brailletext dataset [6]. The dataset contains images of

Braille documents with varying levels of noise and includes different Braille fonts and character combinations.

2.2. Denoising Pre-processing with CNN

The pre-processing stage employs a CNN architecture specifically designed for denoising Braille images [7-8]. The architecture utilizes convolutional layers to extract features from the input image. These features are then processed by subsequent layers to learn the underlying noise patterns. Finally, a reconstruction layer generates a denoised image by removing the learned noise representation from the original image.

Here's the mathematical formulation for a typical denoising CNN:

$$f(x) = x - N(W * x + b)$$

where:

- $f(x)$ represents the denoised image
- x represents the original noisy image
- N represents the noise removal function learned by the CNN
- W represents the weight matrix of a convolutional layer
- b represents the bias vector of a convolutional layer

The denoising CNN is trained on a separate dataset of noisy and clean Braille image pairs [9]. The training process minimizes the mean squared error (MSE) between the denoised image ($f(x)$) and the corresponding clean image.

2.3. Braille Block Recognition with CNN

Following the denoising pre-processing stage, the pre-processed Braille images are fed into a separate CNN for block recognition. This CNN architecture extracts features from the denoised images and classifies them into individual Braille characters [10]. The classification process employs a softmax function to assign probabilities to each possible Braille character class.

3. Results

The proposed approach is evaluated by comparing the Braille block recognition accuracy with various methods [11-12]. This includes:

- Baseline CNN without pre-processing
- Traditional pre-processing techniques like binarization and median filtering followed by CNN recognition
- Existing CNN-based approaches for Braille recognition

The evaluation metrics include character recognition accuracy and block recognition accuracy.

3.1. Training and Evaluation

The denoising CNN and the Braille recognition CNN are trained using separate training and validation sets derived from the chosen Braille image dataset [13]. The trained models are then evaluated on a held-out test set to assess their generalization performance on unseen data.

3.2. Performance Comparison

The results are presented in the form of tables or graphs, comparing the recognition accuracy of the proposed approach with other methods. The tables will

showcase the character recognition accuracy, block recognition accuracy, and the impact of the denoising pre-processing stage on the overall performance.

4. Discussion

The paper discusses the findings of the evaluation, analyzing the impact of the denoising pre-processing stage on the Braille block recognition accuracy [14]. It will further explore:

- The effectiveness of the chosen CNN architecture for denoising Braille images
- The influence of different hyperparameters on.

References:

1. Akhatov, A., & Ulugmurodov, S. (2023, May). ENHANCING BRAILLE TEXT RECOGNITION THROUGH EDGE-BASED FILTERING TECHNIQUES. In *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*.

2. Akhatov, A., & Ulugmurodov, S. (2023, May). УЛУЧШЕНИЕ РАСПОЗНАВАНИЯ ТЕКСТА ШРИФТОМ БРАЙЛЯ С ПОМОЩЬЮ МЕТОДОВ ФИЛЬТРАЦИИ НА ОСНОВЕ ГРАНИЦ. In *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*.

3. Ахатов, А., & Улугмуродов , Ш. А. (2023). МАШИННОЕ ОБУЧЕНИЕ ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СОКРАЩЕНИЯ ШРИФТА БРАЙЛЯ. *Engineering Problems and Innovations*, *1*(2), 23–29. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/24

4. Akhatov, A. ., & Ulugmurodov, S. A. . (2023). A COMPARATIVE STUDY OF EDGE DETECTION ALGORITHMS FOR BRAILLE TEXT RECOGNITION. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(4 Special Issue), 84–88. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/14474

5. Akhatov, A., & Ulugmurodov, S. A. (2023). BRAILLE READING ASSISTANCE FOR THE VISUALLY IMPAIRED: AN ANALYSIS OF CURRENT TECHNICAL MANIPULATORS. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/125

6. Akhatov , A., & Ulugmurodov , S. A. (2023). BRAILLE METHODS OF TEXT RECOGNITION USING "DEEP LEARNING". *SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT*, *6*(1), 32–41. Retrieved from https://ilm.mininnovation.uz/index.php/journal/article/view/387

7. Akmal Akhatov, & Shokh Abbos Ulugmurodov. (2023). TRAINING DATA SELECTION AND LABELING FOR MACHINE LEARNING BRAILLE RECOGNITION MODELS. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 15–21. Retrieved from https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/326

8. Axatov Akmal Rustamovich, & Ulug‘murodov Shoh Abbos Baxodir o‘g‘li. (2022). INKLUZIV TA‘LIMDA INNOVATSION SENSORLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical*

Research, *1*(2), 213–216. Retrieved from https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/160

9. Akhatov , A. ., & Ulugmurodov , A. . (2022). METHODS AND ALGORITHMS FOR SEPARATION OF TEXT WRITTEN IN BRAILLE INTO CLASSES USING NEURAL NETWORK TECHNOLOGIES. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, *2*(11), 4–8. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/4248

10. Akmal R. Akhatov, & Shokh Abbos B. Ulugmurodov. (2022). METHODS AND ALGORITHMS FOR DISTRIBUTION OF TEXT FROM IMAGES USING OPENCV2 MODULE. *International Scientific and Current Research Conferences*, *1*(01), 45–47. Retrieved from https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/621

11. Ахатов, А., Улугмуродов, Ш. А., & Таджиев, . М. . (2022). Аудио для фонетической сегментации и говори для говори. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, *1*(1), 146–149. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5273

12. Тоджиев, М., Улугмуродов, Ш., & Ширинбоев, Р. (2022). Tasvirlar sifatiniyaxshilashning chiziqlikontrast usuli. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, *1*(1), 215–217. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5164

13. *G'ofurova, G., & Shoh Abbos, U. (2022). SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA SHAXSNI ANIQLOVCHI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING AMALIY FAOLIYATDAGI AHAMIYATI.*

14. Akhatov, A. R., & Qayumov, O. A. (2021). Ulugmurodov Sh. AB Working with robot simulation using ros and gazebo in inclusion learning. *Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясида рақамли иқтисодиёт истиқболлари" республика илмий-техник анжуман, ЎзМУ Жиззах филиали*, 5-6.

INSTITUSIONAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o‘g‘li
Sambhram universitetining Jizzax shahridagi filiali NTM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi institusional o‘zgarishlar sharoitida kambagallik darajasini kamaytirishning davlat dasturlari va ustuvor vazifalar yoritilgan bo’lib, kambag’allikni qisqartirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kambag’allikni qisqartirish, iqtisodiy o’sish, ishsizlik, norasmiy ishchilar, Ijtimoiy himoya yagona reyestri, mahalla, hokim yordamchasi,“Temir daftar”, “Ayollar daftari” “Yoshlar daftari.

Mamlakatimizda yaratilgan huquqiy va institusional mexanizmlar, ayniqsa, bolali oilalar, qariyalar va nogironlar o‘rtasida kambag‘allik darajasining keng ko‘lamli o‘sishining oldini olishga imkon beradi. Shuningdek, aholi orasida kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda shinam uy-joylar qurilishini ta’minlash bo‘yicha respublika hududlarida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish belgilangan. 2030 yilgacha aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining iqlim o‘zgarishi va boshqa xavf-xatarlarga chidamliligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan har tomonlama muhofaza qilish konsepsiyasini yaratish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq kambag‘allikni 2 barobarga qisqartirishni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kishilarning turmush darajasini yaxshilash, aholi ish bilan oqilona bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rnilarini yaratish kabi masalalarga ustuvor darajada e’tibor qaratilmoqda. ”Hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag‘allikni qisqartirish vazifalari ko‘p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir.

“Ijtimoiy xizmatlar agentliklarining ijtimoiy xodimlari, kam ta’minlangan oilalar bilan birgalikda ularning ehtiyojlari va ehtiyojlarini baholab, moliyaviy holatini yaxshilash ustida ishlaydi. Doimiy aloqada bo‘lgan holda, ular oilalar bilan birgalikda ularning sharoitini yaxshilash bo‘yicha yechimlar ishlab chiqadi. Mazkur davlatda ijtimoiy himoya sohasidagi davlat siyosatini olib boruvchi vazirlik hamda uning tarkibiga kiruvchi agentlik mavjud”.

Iqtisodiyotda kambag‘allikni qisqartirishning nostandart usullaridan foydalanish ijobiy samara beradi, jumladan: “Mahallabay” ish tizimining samarali yo‘nalishlarini qo‘llash kambag‘allikni qisqartirishning eng tez natijasini ko‘rsatuvchi iqtisodiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Bunda har bir hududlarda “Mahallabay” ishlash tizimini joriy etish orqali aholining ish bilan bilan bandligini ta’minlash orqali daromadlarini oshirish mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar va xotin–qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mamlakatning rivojlanishida har bir insonga kunlik zarur bo‘ladigan eng kam miqdordagi ta’minotning yetishmasligi zamonaviy dunyo davlatlari taraqqiyoti uchun boshqa xavflardan kam bo‘lmagan kambag‘allik xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Zero, buning zamirida shaxs, jamiyat va davlatning bugungi va ertangi kuni, barqaror taraqqiyotning asoslari mujassam. Shu bilan birga, kambag‘allikni bartaraf etish, buning uchun zarur shart–sharoit va imkoniyatlarni yaratish amalda mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichga o‘tishini ta’minlashini e’tiborni qaratgan holda respublikamizda kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida zarur shart–sharoitlarni tartibga solish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respaublikasida kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida zarur shart–sharoitlarni tartibga solishning konseptual asoslari

Iqtisodiy	Tashkiliy	Huquqiy
1.Institusional normalar va mexanizmlar iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar samaradorligini oshirish. 2.Iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi institusional mexanizmlarni takomillashtirish. 3.Aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini takomillashtirish.	1.Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat samaradorligini davlat siyosati doirasida tartibga solish 2.Kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalarining huquq va kafolatlariga rioya qilish monitoringi. 3.Kambag‘allikka qarshi kurashishda ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro me’yorlar, aniq mezonlar va baholash usullarini ishlab chiqish	1.Aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy takomillashtirib qonunchilik asosida tartibga solish. 2.Xususiy mulk, tadbirkorning huquqiy himoyasi, qonun ustuvorligini ta’minlash. 3.Aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy-institusional asoslarini takomillashtirish

Bundan tashqari mahallada “Hokim yordamchisi” doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o‘rganish orqali ularni kasb–hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga yo‘naltirish va o‘qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta’minlashga yordam berishi va mahalladagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini hamda xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning mavsumiy ishchilarga bo‘lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kirgan yoshlar va xotin-qizlarni bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borishi kerak. O‘tgan davr mobaynida “Temir daftar”ga 594,9 ming oila va ularning 2,5 million nafar a’zosi, shundan 659,1 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a’zolari kiritilgan.

Mamlakatimizda jami mehnat resurslarining 77 foizi yoki 1,504 mln. nafari iqtisodiy faol aholi sifatida qayd qilingan. Bundan tashqari 13,7 mln. kishi yoki mehnat resurslarining 67,2 foizi iqtisodiyotda band ahol bo‘lib hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari va aholi bandligi salmog‘ining o‘zgarishi (ming kishi hisobida)

	2022 yilda, soni			
	Mehnat resurslari	**Iqtisodiy faol aholi**	**Iqtisodiyotda (ish bilan) bandlar soni**	**Ishsizlar soni**
O‘zbekiston Respublikasi , shu jumladan viloyatlar	19517,5	15038,9	13706,2	1332,7
Qoraqalpog‘iston	1067,6	786,1	714,2	71,9
Andijon	1780,8	1427,3	1296,8	130,5

Buxoro	1074,7	856,4	780,6	75,8
Jizzax	791,0	602,7	546,4	56,3
Qashqadaryo	1813,4	1331,5	1207,3	124,2
Navoiy	570,6	445,8	410,1	35,7
Namangan	1588,3	1208,5	1100,6	107,.9
Samarqand	2164,8	1632,3	1479,8	152,5
Surxondaryo	1465,4	1109,9	1006,3	103,6
Sirdaryo	487,4	369,5	335	34,5
Toshkent	1619,2	1321,4	1204,5	116,9
Farg‘ona	2097,8	1665,6	1511,7	153,.9
Xorazm	1050,9	815,5	741,8	73,7
Toshkent shahri	1945,6	1466,4	1371,1	95,3

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, mehnat resurslari va aholi bandligi salmog‘ining o‘zgarishi har bir viloyatda turlicha qayd qilingan, shu jumladan, iqtisodiy faol aholi 15038,9 ming kishini tashkil qilib, bu ko‘rsatkich Andijon viloyatida 1427,3 Samarqand viloyatida 1632,3 Toshkent shahrida esa 1466,4 ming kishiga teng bo‘lgan.

Hozirgi vaqtda aholini kambag‘al qatlamga tushib qolishining oldini olish uchun aholining bandligini ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Masalan, tadbirkorlik faoliyatini, oilaviy tadbirkorlikni va o‘z-o‘zini band qilishning zamonaviy turlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, daromadlarni oshirishga erishilmoqda.

Ayni vaqtda kichik biznes va tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, mazkur sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- har bir hududning iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy va demografik shart–sharoitlarini o‘rganib, bu borada kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlari tuzilmalarini tashkil etish asosida oqilona bandlikni ta’minlash;
- iqtisodiy taraqqiyotini hisobga olgan holda, hududlarda bozor infratuzilmasi tashkil etilishining sub’yektiv omillarini nazarda tutib, rivojlantirishda kichik va o‘rta tadbirkorlikni muntazam, davomli faoliyat ko‘rsatishiga erishish;
- sanoat korxonalarini rivojlantirishda qishloq joylarining hududiy xom ashyo, ishchi kuchi, mehnat resurslari va ularning mobilligi hamda tabiiy resurslarni inobatga olish;
- kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining iqtisodiy samaradorligiga erishish chora–tadbirlarini amalda qo‘llash;
- hududlarda aholi daromadlari va to‘lov qobiliyatini kichik biznesni rivojlantirish hisobiga oshirishga erishish;
- kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining mahalliy xom ashyolardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishining salmog‘ini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-sonli Farmoni. http://lex.uz.doc/4776669
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risida qarori 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son www.lex.uz
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” qarori 2022-yil 16-fevral, 72-son. www.lex.uz

RAQAMLI IQTISODIYOTDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

p.f.f.d., dots. Zaripova Dilnoza Anvarovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Xusniddinova Ra’no Xusniddin Qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
zaripovada85@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi alohida juda muhim va dolzarb vazifalarni qo’ygan. Raqamli iqtisodiyot birinchi navbatda keng ko’lamdagi imkoniyatlarini yaratganligi haqida va Innavatsion Axborot Kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning dolzarb muammolarini yoritib bermoqchiman.

Kalit so‘zlar: axborotlashgan jamiyat, raqamli dividendlar, intensive.

Bugungi Kunda dunyoda raqamli iqtisodiyot juda ham rivojlanib ketgani bejiz emas. Raqamli iqtisodiyot bor ekan biz qanday texnologiyadan foydalanmaylik shunga duch kelamiz. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi orqali bizda keng imkoniyatlar ochildi. Bunga misol qilib ayta olishimiz mumkin hozirda hamma mobile telefonlar, kompyuterlardan foydalanishadi. Bundan kurinib turibdiki biz nima ish qilmaylik hammasi saqlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanamiz yoki telefonda gaplashamizmi farqi yuq hamma malumotlarimiz aniq va ravshan saqlanib boradi.

Buning natijasida biz yurtimizda ko’plab narsalarning oldini olishimiz mumkin turli xil jinoyatlar yokida korrupsiya kabi say harkatlarni amalga oshirish imkoni mavjud.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot bu elektron texnologiyalarga bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarishdir. Yangi iqtisodiy modelning vazifasi zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar sifatini oshirish orqali fuqarolar hayotini yaxshilashdir. Raqamli iqtisodiyot juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Moliyachilarning fikriga ko‘ra, yaqin kelajakda ushbu sektorning barcha ishtirokchilari sezilarli darajada “raqamli dividendlar” olishadi.[1]

Ular orasida ishsizlik darajasining pasayishi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi ham kuzatiladi. Ko‘p yillar davomida iqtisodiyot an’anaviy tomonidan qaralganda hammasi ko‘rib chiqildi, bu erdan shaxslararo munosabatlar va protseduralarning yaxshi o‘rnatilgan modellari mavjud edi. Ammo axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ularning hayotning barcha sohalariga istisnosiz global kirib borishilari uchun aloqa modellarini tubdan o‘zgartirdi. Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli endi barcha kerakli va muhim bo’lgan biznes operatsiyalarni bajarish kabi va shuningdek hujjat aylanishini masofadan turib yuqori samaradorlik bilan amalga oshirish imkoniyati paydo bo’ldi. Biz allaqachon ushbu bosqichda ham arzonroq va qulay va tezroq sodir bo’ladi. Shuningdek, zamonaviy jamoat nutqida “axborotlashgan jamiyat” atamasi tez-tez ishlatiladi - bu ma’lumot va bilim eng qimmat tovar bo‘lgan jamiyatning ushbu turidir. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi aynan ular emas, balki tugaydigan resurslardir. Raqamli texnologiyalar, o‘z navbatida, ularning qiymatini yuqori sifat darajasiga etkazadi. Buni yuqori iqtisodiy qiyoslash va ko‘p tomonlama ma’lumotlarni uzatish bilan umumiy iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish sur’atlari bir necha bor ortib bormoqda. Bundan tashqari, mohiyat sifatida raqamli iqtisodiyot nafaqat tijorat aloqalari bilan cheklanib qolmaydi, balki yuqorida aytib o‘tilganidek, davlat xizmatlarini olishdan tortib to shaxsiy buyurtmalarga va Internetda tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qadar yurtimizning barcha sohalariga ta’sir qiladi.

O’zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to’g’risida» (2003), «Elektron hujjat aylanish to’g’risida» (2004), «Elektron hukumat to’g’risida» (2015) Qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi, 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-son «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi ―Zamonaviy maktablarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4537-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son va ―Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida kelajak avlodni zamonaviy texnalogiyalar bilan birgalikda zamonaviy va

yangi jahon standartlariga mos keladigan ta‘lim metodlari qo‘llanishi keng yo‘lga qo‘yilmoqda va ta‘lim muassalarida ko‘plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda xususan dars jarayonida zamonaviy AKT imkoniyatlaridan foydalanish, darslar saviyasi va mazmunini oshirish maqsadida zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish keng yo‘lga qo`yilmoqda. [4]

Raqamli iqtisodiyotga bo’lgan qiziqish bugungi kunda olimlar xalqaro tashkilotlar Shuningdek Jahon taraqqiyoti hisobotidgi Jahon bankining raqamli dividendlari tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari dunyoning barcha mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida istisnosiz tobora muhim ahamiyat kasb ahamiyatga ega ekanligi haqida aytib o’tilgan. Ularning aytishlaricha , hozirgi vaqtda dunyo aholisining taxminan 40 foizi Butunjahon Internet tarmog‘iga ulangan. Tovarlar va xizmatlarni sotish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish va fuqarolarni o‘qitish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish jamiyat farovonligi o‘sishi, moddiy foyda va davlat boshqaruvining shaffofligi deb tushuniladigan “raqamli dividendlar” kabi imkoniyatlarga imkon berdi.

Yangi modelni ishlab chiqish raqamli inqilobdan boshlandi - mexanik va analog elektron texnologiyalardan raqamli elektronikaga o‘tish, 1950 yillarning oxirida paydo bo‘ldi. Jahon iqtisodiyotini qamrab olgan ushbu jarayon ko‘lami, sur’ati va geografiyasi jihatidan juda ta’sirli. 1960-yillardan boshlab raqamli innovatsiyalar butun dunyo bo‘ylab ketma-ket to‘lqinlarda tarqalib, Qo‘shma Shtatlar, Evropa va Ittifoqning ilmiy epitsentrlaridan kelib chiqdi.[2]

Ushbu bosqichlarning har biri avvalgi bosqichga qaraganda ancha intensiv bo‘lib, yangi mintaqalarni qamrab oldi va iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Katta elektron kompyuterlardan shaxsiy kompyuterlarga o‘tish o‘nlab yillar davom etdi, endi yillar va oylar davomida inqilobiy o‘zgarishlar yuz beradi. Raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi 20-asrning so‘nggi o‘n yilligida paydo bo‘ldi va birinchi navbatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq edi. 1995 yilda raqamli iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini shakllantirgan olimlardan biri, kompyuter mutaxassisi, Massachusets Texnologiya Institutining Media-laboratoriyalarining asoschisi Nikolas Negroponte edi. 1995-yilda u klassik tovarlarning kamchiliklari (vazn, xomashyo, transport) va yangi iqtisodiyotning afzalliklari (tovarlarning og‘irligi yo‘qligi, virtuallik, bir zumda global harakat) haqida gapirdi. Boshqa tomondan, ko‘pchilik “raqamli iqtisodiyot” atamasini kanadalik olim Don Tapscotga bog‘laydi. 1995 yilda uning “Elektron raqamli jamiyat: tarmoqli razvedka davrining ijobiy va salbiy tomonlari” kitobi nashr etildi, unda u rivojlangan mamlakatlarning xususiyatlari, obyektlarning raqamli shakli, axborot texnologiyalarining biznesga ta’siri keltirib o’tilgan. 1999 yilda Bill Geyts “Biznes fikr tezligida” kitobida axborot inqilobi g‘oyalarini konkretlashtirdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, zamonaviy texnologiyalar, xususan Internetning rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot butun dunyoda juda faol rivojlanmoqda. Hujjatlar va kommunikatsiyalarning raqamli ommaviy axborot vositalariga ommaviy ravishda o‘tkazilishini hisobga olgan holda, dunyo hukumatlari fuqarolarni yuqori tezlikda raqamli aloqa bilan ta’minlash choralarini ko‘rmoqda.[3]

Xulosa qilib aytganda hozirda raqamli texnologiyalar bilan ishlash shuningdek uning dolzarb muammolarini keltirishimiz va Innavatsion yondashuvlarni yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://genderi.org/1-maruza-axborot-kommunikatsiya-texnologiyalarining-iqtisodiyo.html?[1]

2. S.S G’ulomov, A.T.Shermuxamedov, B.A. Begalov.<<Iqtisodiyot informatika>>[2]

3. A.Ortiqov , A Mamatqulov <<IBM PC kompyuterlaridan foydalanish>>[3]

4. OLIY O’QUV YURTI TALABALARINI SMART TA’LIMNING BUGUNGI KUNDAGI O’RNI MAVZUSINI O’ZLASHTIRISHDA SINKVEYN METODIDAN FOYDALANISH

ZD Anvarovna - PEDAGOG, 2022

ATROF MUHITNI MONITORING QILISHDA SUN’IY YO‘LDOSHNING O‘RNI

DSc, prof. Pisetskiy Yuriy Valeryevich,
Yo‘ldoshev Jaloliddin Fayzullo o‘g‘li,
Matyakubov Bobur Kutlimurot o‘g‘li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
yuriy.pisetskiy@mail.ru

Annotatsiya: atrof-muhit monitoringi iqlimning tez o'zgarishi va atrof-muhit bilan bog'liq xavotirlarning kuchayishi davrida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish strategiyamizning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Sun'iy yo'ldosh texnologiyasi sayyoramizning holati va undagi o'zgarishlar haqida bebaho ma'lumotlarni taqdim etish orqali bizga yordam beradi. Ushbu maqolada biz masofadan zondlash, sun'iy yo'ldosh monitoringi qanday ishlashini va ularning atrofdagi dunyoni kuzatishdagi afzalliklarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: masofadan zondlash, sun'iy yo'ldosh.

Yer atrofidagi orbitadagi sun'iy yo'ldoshlar turli xil atrof-muhit omillarini kuzatish uchun ishonchli "ko'z va quloq" bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yuqori texnologiyali gadjetlarda iqlim, gidrosfera, o'rmonlar, shaharlar va boshqalar haqida ma'lumot to'plash imkonini beruvchi bir qator sensorlar va qurilmalar mavjud.

Sun'iy yo'ldosh monitoringi, shuningdek, masofadan zondlash deb ham ataladi, bu yer sharini aylanib chiqadigan maxsus sun'iy yo'ldoshlar orqali yer haqida ma'lumot to'plash jarayonidir. Yerni masofadan zondlash (MZ) - har xil turdagi suratga olish apparatlari bilan jihozlangan aviatsiya va kosmik vositalar yordamida yer yuzasini kuzatish dir[1].

Suratga olish uskunalari tomonidan qabul qilingan to'lqin uzunliklarining ishlash diapazoni mikrometrning fraktsiyalaridan (ko'rinadigan optik nurlanish) metrgacha (radio to'lqinlar).

Zondlash usullari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Passiv-quyosh faolligi tufayli yer yuzidagi jismlarning tabiiy aks ettirilgan yoki ikkilamchi issiqlik nurlanishidan foydalanish,

2. Faol-yo'naltirilgan harakatning sun'iy manbai tomonidan boshlangan ob'ektlarning majburiy nurlanishidan foydalanish.

Shuning uchun turli diapazonlarda elektromagnit nurlanishni qayd etuvchi passiv va faol turdagi ko'p kanalli uskunalardan foydalanadi. MZ ma'lumotlari Geoaxborot tizimlari(GT) uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumot sifatini ta'minlaydi. GT fazoviy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, kirish, tahlil qilish, talqin qilish va grafik vizualizatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Zamonaviy axborot jamiyatida GT tobora ko'proq qo'llanilmoqda, chunki ular geografik ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq ko'plab amaliy, ilmiy va o'quv muammolarini hal qilish uchun eng qulay vositadir[1].

Ma'lumotlar bizga atrof-muhitning ko'plab xususiyatlarini kuzatish va o'rganish imkonini beradi. Biz ushbu ma'lumotlardan atrof-muhitning ko'plab elementlarini o'rganish uchun foydalanishimiz mumkin. Bu yerda asosiy qadamlar va qanday ishlashi:

1. Datchiklar va sun'iy yo'ldoshlar: sun'iy yo'ldoshlar radiometrlar, spektrometrlar, kameralar va radarlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli sensorlar va uskunalar bilan jihozlangan. Ushbu qurilmalar ko'rinadigan va infraqizil nurlar, mikroto'lqinlar, termal nurlanish, radio signallari va boshqa xususiyatlarni aniqlay oladi.

2. Radiatsiyaning o'zaro ta'siri: sun'iy yo'ldoshlar elektromagnit nurlanishni (masalan, ko'rinadigan yorug'lik yoki mikroto'lqinlar) yerga qaytaradi. Ushbu nurlanish yer yuzasidagi narsalar bilan o'zaro ta'sirlashganda, uning bir qismi aks etadi yoki kosmosga qaytariladi.

3. Ma'lumotlarni qayta ishlash: sun'iy yo'ldoshlardan olingan ma'lumotlar kompyuter dasturlari va algoritmlari yordamida yerda qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Bunga atmosfera va boshqa buzilishlarni bartaraf etish, shuningdek ma'lumotlarni talqin qilinadigan ma'lumotlarga aylantirish kiradi.

4. Tahlil va vizualizatsiya: to'plangan ma'lumotlar ko'plab fanlar bo'yicha olimlar va mutaxassislar atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan tasvirlar, xaritalar va vaqt seriyalarini yaratish uchun ishlatiladi. Bu sizga harorat, tabiiy resurslar, o'simliklar, urbanizatsiya va boshqa atrof-muhit omillarining o'zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Bitta rasmni fotogrammetrik qayta ishlash bir necha bosqichlardan iborat:

1. tayyorgarlik ishlari;
2. tasvirni kiritish;
3. vektorlashtirilgan tasvirni vektorlashtirish va sozlash;
4. vektorli tasvirni o'zgartirish;
5. o'zgartirilgan rasmlarni yoki ularning qismlarini birlashtirish (tikish) ;
6. kontur rejasini tuzish[2].

Masofadan zondlash-bu orbitadagi sun'iy yo'ldoshlar yordamida yer yuzasi, atmosfera va dengizlarning holati to'g'risida ma'lumot to'plash usuli. Ushbu sun'iy yo'ldoshlar harorat, namlik, dengiz sathi, havo bosimi, radiatsiya, infraqizil va

mikroto'lqinli nurlanish va boshqa ko'plab omillarni aniqlaydigan bir qator sensorlar va uskunalar bilan jihozlangan. To'plangan ma'lumotlar keyinchalik ishlov berish va monitoring qilish uchun yerga uzatiladi.

Masofadan zondlash radioto'lqinlar, mikroto'lqinlar, infraqizil nurlanish yoki ko'rinadigan yorug'lik emissiyasi kabi yer yo'nalishi bo'yicha elektromagnit nurlanish chiqaradigan sun'iy yo'ldoshlardan boshlanadi. Ushbu nurlanish yer yuzasida va uning dengizlarida joylashgan narsalar bilan o'zaro ta'sir qiladi. Nurlanishning bir qismi ushbu ob'ektlar tomonidan sun'iy yo'ldoshga qaytariladi.

Sun'iy yo'ldosh sensorlari va qurilmalari bu aks ettirilgan nurlanishni aniqlaydi. Keyinchalik, ma'lumotlar sun'iy yo'ldosh aloqa tarmoqlari yordamida yerga uzatiladi.

Joylarda to'plangan ma'lumotlar qayta ishlanadi va baholanadi. Bunga atmosfera va boshqa buzilishlarni bartaraf etish, shuningdek, ko'plab atrof-muhit elementlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan fotosuratlar va xaritalarni yaratish kiradi.

Masofadan zondlashning afzalliklari

1. Global qamrov: masofadan zondlash yer yuzasining keng maydonlarini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa uni iqlim o'zgarishi kabi global hodisalarni kuzatish uchun ideal vositaga aylantiradi.

2. Xavfsizlik: ushbu tadqiqot yondashuvi sizga uzoq va xavfli vaziyatlarda ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi, bu erda odamlar har doim ham oson kira olmaydi, masalan, tabiiy ofatlar yoki o'rmonlar.

3. Vaqtinchalik rezolyutsiya: sun'iy yo'ldoshlar Real vaqt rejimida yoki uzoq vaqt davomida o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Bu iqlim va atrof-muhit o'zgarishlarini kuzatish uchun foydalidir.

4. Turli xil ilovalar: masofadan zondlash meteorologiya, ekologiya, qishloq xo'jaligi, geologiya va shaharsozlik kabi turli sohalarda qo'llaniladi. Bu ushbu sohalarning barchasida ko'proq asosli qarorlar chiqarishga imkon beradi.

Xulosa: Masofadan zondlash bizning dunyomizni o'rganish imkoniyatlarimizni kengaytiradi va atrof-muhitni tushunishga yordam beradi. Ushbu yondashuv ilmiy tadqiqotlar, atrof-muhit monitoringi, tabiiy ofatlarga qarshi kurash va boshqa ko'plab ilovalar uchun foydali ma'lumotlarni taqdim etadi. Masofadan zondlash texnologiyalarining rivojlanishi bilan biz sayyoramizni yaxshiroq tushunishimiz va uni saqlab qolish to'g'risida ko'proq asosli xulosalar chiqarishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Romashova L. A. tematik kartografiya asoslari [matn]: darslik. Usul. Qo'llanma / O. N. Nikolayeva. Novosibirsk: Новосибирск: СГГА, 2013. –86 с.,

2.Uchayev D. V., Uchayev D. V., Malinnikov V. A. Giperspektrallarning tasnifi multifraktal xususiyatlar va mos yozuvlar vektorlari usulidan foydalangan holda tasvirlar. Oliy o'quv yurtlari yangiliklari. Geodeziya va aerofotografiya. 2018. 62-modda. № 5. 558-sahifa-

3. Atrof-muhit monitoringi uchun aloqa axborot texnologiyalarini tahlil qilish Vol 4 No 9 (2023): Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences Sep 25, 2023

ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНОЙ И ДОПОЛНЕННОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ

PhD., доц. Бахриева Хуршида Аскарходжаевна,
магистр Рустамов Мухаммад Фатхуллох угли
НОУ Alfraganus University
rm149017@gmail.com

Аннотация: В статье рассмотрены возможности применения технологии и приложений виртуальной и дополненной реальности при обучении учеников школы. Приведена анализ исследований использования этих технологий в области общеобразовательного направления, преимущества и недостатки.

Ключевые слова: виртуальная реальность, дополненная реальность, трехмерное моделирование, шлем, очки, перчатка, интерактивность, виртуальное пространство.

На сегодняшний день использование виртуальной и дополненной реальности (VR и AR технологий) представляет собой эффективную и инновационную методику в образовании.

Виртуальная и дополненная реальность являются новыми инструментами для образования. В настоящее время эти технологии не могут полностью заменить традиционные методы преподавания, однако уже сегодня они могут значительно обогатить процесс обучения, сделать его более доступным, простым и увлекательным. VR не является самоцелью, а лишь дополнительным средством обучения, подобно учебнику, интерактивной доске или мобильному приложению.

VR и AR технологии предоставляют новые возможности для эффективного усвоения информации, удержания внимания и повышения интереса школьников к обучению.

Виртуальная реальность открывает новую концепцию использования компьютеров для создания трехмерной среды, в которой пользователь взаимодействует с виртуальными объектами в интерактивном режиме, создавая сильное ощущение присутствия в виртуальном мире. С помощью создаваемых эффектов человек может испытывать ощущения, максимально приближенные к реальным[1].

Виртуальная реальность представляет собой создаваемый с использованием технических средств мир, который передается человеку через его ощущения: зрение, слух, обоняние, осязание и другие.

Цели использования виртуальной реальности в образовании можно выделить следующие:

1. Наглядная передача сложной информации, которая трудна для восприятия через стандартные методы обучения.
2. Хранение и представление информации о сложных объектах с объемной структурой.
3. Создание виртуальных тренажеров.

4. Конструирование пространственных объектов.

Дополненная реальность (AR) обладает особенностью быть наглядной, реалистичной и ориентированной на практику. Она объединяет виртуальный и реальный мир, взаимодействуя в реальном времени и находясь в трехмерном пространстве. AR является разновидностью виртуальной реальности, но с одним отличием: AR интегрирует и дополняет реальный мир, а не заменяет его полностью, как это делает VR. Технология дополненной реальности накладывает компьютерно созданные изображения на реальный мир. Для использования AR необходимо мобильное устройство, такое как смартфон, планшет, защитные очки или шлемы.

AR-технологии позволяют расширить реальное пространство захватывающими материалами для проведения урока, повысить внимание детей и синхронизировать работу с интерактивной доской для всех участников урока. Использование VR и AR-технологий особенно актуально для понимания технических и естественных наук, где визуализация играет важную роль в понимании многих процессов.

Чем раньше педагоги начнут использовать VR и AR технологии в своей работе, тем раньше они получат эффективный инструмент для построения индивидуального пути обучения и сделают процесс обучения более эффективным и интересным. Кроме того, VR и AR технологии помогают детям с аутизмом, интровертам или тем, кто стеснительно, закрыто в себе.

Анализ исследований, проведенных в Узбекистане и за рубежом, позволяет сделать вывод об эффективности обучения с использованием VR и AR: пространственное мышление и восприятие позволяют ученикам лучше понять предмет и применить полученные знания при решении математических задач[2].

Применение VR и AR технологий в обучении актуально, поскольку позволяет повысить эффективность этого процесса, обеспечивая удобство и доступность для всех. Кроме того, они облегчают организацию удаленных уроков или проверку знаний. Это значительно сокращает время подготовки, повышает качество обучения и усиливает практическую направленность учебного процесса.

Другими словами, для достижения наилучших результатов необходимо создать эффективное образовательное пространство, используя инструменты и ресурсы Интернета, а также AR и VR.

Внедрение технологий виртуальной и дополненной реальности в образовательные учреждения ставит перед собой следующие задачи:

- Выявление теоретических и технологических предпосылок использования VR и AR в учебно-воспитательном процессе для повышения качества образования;
- Обучение учащихся и учителей использованию программного обеспечения VR и AR;
- Пересмотр методов преподавания с учетом широкого применения технологий VR и AR;

- Организация индивидуальной и групповой работы с использованием VR и AR на уроках и во внеурочной деятельности;

- Разработка методических материалов для проведения уроков с использованием VR и AR;

- Ознакомление с устройствами, имитирующими виртуальную реальность.

Доступ школьников к таким технологиям, как 3D-принтеры, шлемы виртуальной реальности, квадрокоптеры, позволяет значительно улучшить процесс обучения информатике, технологии, геометрии и других факультативных дисциплин, таких как робототехника. Визуализация реальных объектов позволяет более глубоко усвоить такие понятия, как углы Эйлера и сферическая система координат. Для этого используются VR-системы, которые интерактивны, представляют виртуальный мир в трехмерной графике в реальном времени и обеспечивают погружение пользователя[3].

- iste’molt fondi hajmi va strukturasining istiqboldagi dinamikasini tadqiq etish;
- aholi daromadlari strukturasi va hajmi ko‘rsatkichlarini shakllantirish;
- ijtimoiy iste’mol fondlari shakllantirish jarayonlarini tadqiq etish;
- nomoddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlantirish;
- nomoddiy ishlab chiqarish tarmog‘ida kapital qo‘yilmalarini amalga oshirish jarayonlarini modellashtirish;
- nomoddiy ishlab chiqarish fondlari hajmini modellashtirish;
- xalqning turmush darajasini o‘stirish bo‘yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni baholash;
- xalqning turmush darajasini oshirish rejalarini bajarish jarayonlarini baholash va ularning bajarilishini rag‘batlantiradigan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- strategik reja sifatini sistematik baholash va uning bajarilishini nazorat qilish.

Muayyan vazifalarni hal qilish aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy rivojlanishning global, mahalliy va maqsadli ko‘rsatkichlariga muayyan strategik maqsadlar asosida erishiladi. Global ko‘rsatkichlar, eng avvalo, axoli turmush darajasi konsepsiyalarini ishlab chiqish, noishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy rivojlanishning asosiy sohalarini rivojlantirish, shuningdek, xalq farovonligi o‘sishini tavsiflaydigan muhim jamlanma ko‘rsatkichlar dinamikasini bashorat qilishda hisobga olinadi. Lokal maqsadlar moddiy ne’matlar va xizmatlarning alohida ko‘rsatkichlarini, noishlab chiqarish sohasini rivojlantirishning turli tarmoq tavsiflarini, xalq farovonligi o‘sishidagi tafovutlarni tavsiflaydigan alohida ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilishda e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Molia” nashriyoti, 2019. 386 bet.

2. *Гаврилов Л. П.* Электронная коммерция: учебник и практикум длявузов /

3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. -477 с.

3. *Лапидус Л.В*. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией.–М.:ИНФРА-М,2018.-381 с.

4. *Маркова В*.Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗ ов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.

5. *Gulyamov S.S., Ayupov R.X*. Рақамли иқтисодиёт ва унинг асосий ривожланиш йўналишлари. УзР Статистика Кумитаси электрон журнали, 2019 йил ноябрь, 2-сон.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT, RAQAMLI IQTISOD VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI MOBIL QURILMALAR BOZORI

Janaydarova K. A.
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Nurafshon filiali magistranti

Annotatsiya. Tezisda mobil qurilmalar funktsiyalarining kengayganligi, ayniqsa kovid -19 pandemiyasi ta’sirida mobil qurilmalarga talab o’zgarganligi to’g’risida bayon qilingan. Shuningdek, jahon mobil qurilmalar bozori dinamikasi, mobil telefon brendlari va ularning qaysi davlatlar tomonidan O’zbekistonga kirib kelishi xususida ma’lumotlar tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar. Mobil qurilma, smart qurilma, veb-brauzer,GPS navigatsiya qurilmasi, import.

So'nggi bir necha yil ichida mobil texnologiyalar tez rivojlandi. Ushbu ming yillik boshidan beri standart mobil qurilma oddiy ikki tomonlama bo'lishdan uzoqlashdi: peyjer bo'lish yoki mobil telefon, GPS navigatsiya qurilmasi, veb-brauzer va mijozlararo tezkor xabar almashish vositasi. Mobil qurilmalar smartfonlar, iPhonelar, planshetlar, elektron kitoblar, CHPK (cho’ntak personal kompyuterlar), netbooklar, ultrabuklar, smartvatch (aqlli soat), quloqchinlar, mobil banking (to’lov kartalari) bo’lib, ularning asosiy jihati o’lchami (ixchamligi) hamda ko ‘p funksiyalarni bajarishidir. Mobil qurilmalar yordamida hujjatlar bilan ishlash, musiqa tinglash, videoklip tomosha qilish, o’yinlar o’ynash, hatto radioeshittirish va televideniedan ham bahramand bo’lish mumkin. Ular hayotimizning ajralmas bir bo’lagiga aylanib ulgurdi. Bugungi kunga kelib insonlarning aksariyati bir kunni ham ularsiz o’tkazolmaydigan bo’lib ularga bog’lanib qoldi. Mobil qurilmalar insonlarning og’irini yengil, uzoqni esa yaqin qilib bermoqda. Shunday ekan, so’nggi yillarda mobil qurilmalarga bo’lgan ehtiyoj haddan ziyod oshib ketganligi ajablanarli hol emas. Oxirgi yillarda jahon mobil qurilmalar bozori mobil texnologiyalarning hamma joyga shiddat bilan kirib kelishi natijasida sezilarli darajada o’sgan. Shu bilan birga, jahon mobil qurilmalar bozori tendentsiyasi va talab bo’yicha savol tug’ilishi tabiiy. Agar tendentsiyanini o’rganadigan bo’lsak, shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, kovid-19 pandemiya talab va taklifning o’rtasidagi muvozanatning buzilishiga, shuningdek, yangidan yangi shaxsiy mobil qurilmalarning yaratilishiga sabab bo’ldi. Jahon bozorida 2022-2027

yillarda smartfonlarga bo’lgan talab 4% ga oshishi kutilgan edi [1]. 2021 yilgi bashoratlarga ko’ra dunyo aholisining 40%i smartfonlardan foydalanishi kerak edi. Eng ko’p smartfon foydalanuvchilar sifatida Xitoy, Hindiston va AQSh ko’rsatilgan edi. Biroq yuqorida aytib o’tilganidek, pandemiya tufayli ishlab chiqarish, qurilmalarni yetkazib berish, ularni takomillashtirish bir qancha muddatga kechiktirildi. Bundan tashqari ushbu qurilmalarga bo’lgan ehtiyoj ham pasaydi. Chunki bu davrda insonlarni ikkilamchi ehtiyojlar emas, balkim birlamchi ehtiyojlar qiziqtirar edi. Shu bilan birga insonlarda yangi turdagi, ya’ni yolg’iz qolgan kasallarga, qariyalarga, imkoniyatlari cheklanganlarga ko’maklovchi smart qurilmalarga (kengaytirilgan funktsiyali kolyaskalar, yurishga ko’maklovchi vositalar, samokatlar va boshqa shu turdagi mahsulotlar) ehtiyojlar paydo bo’lishi natijasida mobil qurilmalar safi kengayib, ular yanada takomolashtirila boshlandi.

Mobil qurilmalar orasida keng tarqalgani yoki bo’lmasam keng foydalaniladigani mobil aloqa qurilmalari bo’lganligi sababli ular bo’yicha statistik ma’lumotlarni o’rganib chiqamiz. Hozirgi kunda dunyo aholisining deyarli yarmidan ko’pi smartfonlardan foydalanadi. Yuqorida 2007-2022 yillarda dunyo bo’yicha oxirgi foydalanuvchilarga sotilgan smartfonlar soni inografikasi keltirilgan. 2007-2009 yillarga qaraydigan bo’lsak, smartfonlar soni 200 mln.dan oshmagan va deyarli o’sish bo’lmagan. 2010 yilda esa smarfonlar xaridi soni 296,95 mln. donagacha o’sganli ko’rinib turibdi. 2009 yildan to 2018 yilgacha mobil aloqa qurilmalarning ushbu turi oxirgi iste’molchiga sotilishi dinamikasi to’xtovsiz shiddat bilan ko’tarilib bormoqda. Bu esa insonlar smartfonlardan foydalanish darajasi o’sib borayotganligidan dalolat beradi. Mobil qurilmalar kundalik hayotimizda bizga har jihatdan yordamchi, ya’ni uzoq masofadagi kishilar bilan ko’rib so’zlashish, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli shakldagi xabarlarni jo’natish, qabul qilish, istalgan paytda qisqa vaqt ichida dunyoning ixtiyoriy burchagida ro’y berayotgan xabarlardan boxabar bo’lish, kerakli bo’lgan ma’lumotlarni olish, kinolar, videolar ko’rish, xaridlar, buyurtmalar qilish, davlat va xususiy sektor xizmatlaridan foydalanish, ayrim shaxslarga moliyaviy jihatdan foyda olish va boshqa imkoniyatlarni beradi.

Biroq grafikda 2019 yildan to 2022 yilgacha smartfonlar xaridi sezilarli darajada kamayib borganligini ko’rish mumkin. Infografikada eng yuqori sotuv hajmi 2018 yilda, ya’ni 1556,27 mln. dona kuzatilgan bo’lsa, 2022 yilga kelib bu ko’rsatkich 2018 yilga nisbatan qariyb 356,27 mln. donaga kamaygan, ya’ni 1200 mln. donani tashkil etgan. Bu foydalanuvchilar soni kamayganligidan dalolat bermaydi. Aksincha hozirgi kunga kelib 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada o’sgan, Bu shunchaki bozor to’yinganligi, aloqa qurilmalar ishlab chiqaruvchilar o’rtasidagi raqobat sababli sifatli, ko’p xizmat qiladigan, yerga tushsa sinmaydigan qurilmalarning ishlab chiqarilishidan dalolatdir.

Nufuzli bozor tadqiqot tashkiloti «Canalys» tomonidan e'lon qilingan smartfonlar sotuvi haqidagi yangi hisobot 2023 yilning ikkinchi choragida jahon smartfon bozori 11 foizga pasayganini ko'rsatadi. [3]

Uchinchi o‘rinni 13% bozor ulushi bilan Xiaomi egalladi. Hozirda u dunyodagi eng mashhur Xitoy mobil telefon brendidir. [3]

1-jadval.

2023 yil 1-yarim yilligida jahonda mobil telefon brendlarining top-10 taligi[4]

№	Mobil telefon brendlari	Jami yuk (mln dona)	Jahon bozoridagi ulushi (%)
1.	Samsung	260	21
2.	Apple	224	18
3.	Xiaomi	152	12
4.	Oppo	118	10
5.	Vivo	99	8
6.	Realme	36	3
7.	Motorola Mobility (Lenovo)	35	3
8.	Huawey	30-35	2
9.	Transsion (Tecno, Itel)	30	2
10.	Honor	20	1-2

Xususan, O’zbekistonda joriy yilning yanvar-avgust oylarida xorijdan qiymati 117,4 mln dollarga teng bo’lgan 1.6 mln dona mobil telefon import qilindi. Shundan Toshkentga 1.56 mln dona telefon import qilindi. Shuningdek, eng ko‘p mobil telefon import qilish bo‘yicha Farg‘ona viloyati (42,7 ming dona), Andijon viloyati (15,7 ming dona) hamda Samarqand viloyatlari (6,8 ming dona) ham yetakchilik qilmoqda. Bu haqda Davlat statistikasi xabar berdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan mobil telefon importi 1,2 mln donaga yoki to‘rt barobarga oshdi.

Xususan, Toshkentga sakkiz oy davomida eng ko‘p — 1 mln 569,3 ming dona telefon import qilingan bo‘lsa, Qoraqalpog‘istonda bu ko‘rsatkich 2 donani tashkil qildi. Shuningdek, eng ko‘p mobil telefon import qilish bo‘yicha Farg‘ona viloyati (42,7 ming dona), Andijon viloyati (15,7 ming dona) hamda Samarqand viloyatlari (6,8 ming dona) ham yetakchilik qilmoqda.

Faqatgina avgust oyining o‘zida xorijdan 236 624 dona mobil telefon import qilingan.

O‘zbekiston 12 ta davlatdan mobil telefonlar import qilgan, lekin telefonlarning katta qismi quyidagi davlatlarga to‘g‘ri keladi[6]:

- Xitoy — 63 mln.
- Vetnam — 41,4 mln.
- Hindiston — 5,9 mln.
- Qozog‘iston — 5,5 mln.
- BAA — 960 ming
- Germaniya — 647 ming
- Koreya — 60 ming
- Rossiya — 18 ming AQSh dollari.

Taqqoslash uchun: 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O‘zbekistonga atigi 79,9 ming telefon import qilingan, bu hozirgi ko‘rsatkichdan 20 barobar past.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yetti oyida O‘zbekiston 130 million dollarlik mobil telefonlar import qilgan. Iyul oyida 23 million dollarlik qurilmalar import qilingan.

Mamlakatimizda mobil qurilmalarga bo'lgan ehtiyoj kunda kunga oshib bormoqda. Buni birgina yuqorida keltirilgan mobil aloqa vositalarining xorijdan yurtimizga kirib kelishi, ya'ni importning oshib borishi misolida ko'rish mumkin. Yuqorida qayd qilingandek mobil qurilmalar insonlar hayotining bir ajralmas qismiga aylanib ulgurdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu qurilmalar roli, ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti raqamli iqrtisodiyotga trasformatsiyalanayotgan bir o'tish jarayondada juda muhim bo'lib, u bu jarayonning tezlashishiga ko'mak beradi. Xulosa o'rnida yana shuni birdek ta'kidlab o'tish joizki, mobil qurilmalarning bizning hayotimizni, turmush tarzimizni yengillatish bilan barobarda inson salomatligiga salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Shuning uchun shuni ta'kidlab o'tish joizki, hamma narsaning me'yori va o'z o'rni bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Отчет о рынке смартфонов (размер, доля, рост и тенденции (2022-2027 годы) (mordorintelligence.com).
2. Индустрия мобильных технологий за последние годы не теряет темпа своего развития (overclockers.ru).
3. Global smartphone shipments from 2007 to 2022
https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/271491
4. Best Mobile Phone Brands In The World 2023: Top 8 Most Popular (bscholarly.com) By Edeh Samuel Chukwuemeka ACMC / April 23, 2023
5. Top 10 Mobile Phone Brands in World 2023 | MBA Skool.
6. https://www.gazeta.uz/ru/2020/11/30/mobile-import/

KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLARSHIRISHNING NAZARIYASI VA ILMIY ASOSLARI

Mamatqulov G'ulom Rustamovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
g.r.mamatqulov@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisda Raqamli iqtisodiyotning ilmiy asoslari, raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi imkoniyatlari kelib chiqib, korxonlar faoliyatini raqamlashtirish yo'nalishlari ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, korxona, texnologiya, ishlab chiqarish, raqamli transformatsiya, boshqaruv, raqamlashtirish.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida zamonaviy raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlik o'sishini belgilovchi asosiy ishlab chiqarish resursi sifatida qaralmoqda. Tashkilotlar va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektori korxonalari tomonidan zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan foydalanish ularning raqamli iqtisodiyotda samarali ishlashining eng muhim shartidir.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq

xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.[1]

Korxonani raqamlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish usullariga asoslangan holda texnologik jarayonlarni va boshqaruvning barcha darajalarida qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish sifatini keskin o’zgartiradi va korxona faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirish yuzasidan bir qancha olimlar o’z fikrlarini bildirishgan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1994 yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapskottning tomonidan ishlatilgan. Muallif o’z ishida raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta’siri haqida gapirgan. U tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes yuritishning mutlaqo yangi biznes modellarining paydo bo’lishini raqamlashtirishning asosiy afzalliklardan biri deb hisoblagan. V.A.Plotnikovning tadqiqotlarida raqamlashtirish bu "axborotlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bo’lib, axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun raqamli texnologiyalardan keng ko’lamda foydalanish bilan tavsiflanuvchi yangi qurilma va dasturiy taominotning birlashmasi bilan tavsiflanadi” deb ta’rif bergan. Bundan tashqari u korxonalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda erishadigan bir qancha afzalliklarni sanab o’tgan:

- “Ishlab chiqarishning moslashuvchanligi uning tez qayta konfiguratsiyasi, ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining dinamik o’zgarishi hisobiga ortadi, bu esa raqobatdosh ustunlikni yaratadi va potentsial foyda o’sishiga olib keladi;

- mahsulotlarni ishlab chiqishdan tortib to utilizatsiya qilishgacha bo’lgan hayot tsiklining bosqichlarini axborot integratsiyasini ta’minlaydi, bu bizga nafaqat ishlab chiqarishni optimallashtirish, balki sifat, ekologik xavfsizlik, biznesning yangi imkoniyatlarini yaratish va hokazolarni samarali va har tomonlama hal qilish imkonini beradi.[2]

2001 yilda Tomas Mesenburg raqamli iqtisodiyotning 5 ta komponentini aniqroq tuzib chiqdi va aniqladi, uning fikricha, ularni statistik baholash va o’lchash mumkin:

- korxonalarning elektron infratuzilmasi, jumladan, dasturiy ta’minot va kompyuterlar;

- elektron tijorat;

- raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali an’anaviy tarmoqlar qiymatini oshirish;

- raqamli iqtisodiyot ishchi kuchi qiymatining an’anaviyga nisbatan farqi;

- raqamli iqtisodiyot mahsulotlari va xizmatlarining qo’shilgan qiymatining o’zgarishi.

Brynjolfsson va Kahinlar (2002) tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari ilk marotaba 1990 yillarning o‘rtalarida muhokama mavzusi sifatida targ‘ib qilinib, ilk ta’riflar keltirilib, mazkur ta’riflarda korxona va iste’molchilarni virtual dunyoda uchrashtiruvchi vosita sifatida e’tirof etildi.[3]

Raqamlashtirishning rivojlanishi bilan korxonaning biznes modellari doimiy ravishda o’zgarib turadi. Shuning uchun ko’pgina mualliflar raqamlashtirish ta'rifini turlicha izohlaydilar. Masalan, Aleksandr Kutsman raqamli iqtisodiyotni “moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslarni aniqlash, saqlash, qayta ishlash uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish asosida axborot va bilimlarning ustuvor roli bilan tavsiflangan zamonaviy iqtisodiyot turi sifatida tavsiflanadi.”. Aksanov R. K. raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va electron tijorat xizmatlarini ishlab chiqarishga asoslanganligini ta'kidlaydi. Elektron tijorat ostida Aksanov R.K. kapitalning elektron harakati, elektron mahsulotlar, shuningdek, elektron axborot almashinuvi jarayonini nazarda tutadi

Korxonaning raqamli transformatsiyasidan asosiy maqsad, bizningcha, uning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni taominlashdan iborat. Raqamli transformatsiya vazifasining maqsadiga muvofiq korxonalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yuqori samaradorlikka, ishlab chiqarish va tashkiliy jarayonlarning moslashuviga erishish;
- korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- korxonaning iqtisodiy samaradorligini kafolatlaydigan boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va shaffofligini oshirish va boshqalar.
- Raqamli korxona kontseptsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish.

Korxonaning joriy holatida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash va aniq maqsadlarni belgilash. Belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ketma ketligini va strategiyasini tuzib chiqish.

- Axborot tahlili. Ko‘p funktsiyali mutaxassislar jamoasi yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish, keyinchalik to‘plangan ma’lumotlardan tashkilotning ishlashi, qarorlar qabul qilish, intellektual tizimlarni loyihalash, mahsulotlarni takomillashtirish, yangi takliflar va xizmatlarni yaratish uchun foydalanish kerak.
- kerakli resurslarni aniqlash
- maqsadga erishish uchun zarur resurslarni batafsil aniqlash, biznes jarayonlarini takomillashtirish uchun mutaxassislarni jalb qilish va o‘qitish, yangi texnologiyalarni joriy etish strategiyalarini ishlab chiqish kerak.
- g’oyaning hayotiyligini sinab ko’rish va biznes qiymatini ko‘rsatish uchun dastlabki tajriba loyihalarini yaratish. Mahsulotlar, jarayonlar va korxonalarning raqamli dublikatlarini ishlab chiqish.
- Raqamli transformatsiyani jadallashtirish , olib borilayotgan loyihalarning rentabelligini ta’minlash uchun universitetlar, raqamli texnologiyalar sohasidagi yetakchi firmalar bilan hamkorlik qilish, raqamli startaplar bilan ishlash zarur.

Olingan tajribani tahlil qilish asosida raqamli korxonaning tugallangan kontseptsiyasini aniqlang.

- Raqamli korxonaga aylantirish. Anoanaviy korxonani raqamli korxonaga aylantirish uchun menejment tuzilmasi va funktsiyalarini aniq tartibga solish, yuqori menejmentning aniq rahbariyati, majburiyatlari va qarashlari talab qilinadi. Raqamli innovatsiyalarga qarshi turish imkoniyatini bartaraf etadigan xodimlarni rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish . Raqamli madaniyatni rag'batlantirish kerak: barcha xodimlar raqamli sanoat muhitida ishlay olishlari, yangi texnologiyalarni sinab ko'rishga tayyor bo'lishlari, asbob-uskunalar bilan ishlashning yangi usullarini o'rganishlari kerak.

- Ishlab chiqarishni raqamliga o'zgartirishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish tizimlarining gorizontal va vertikal integratsiyasi zarur va hozirda foydalanilayotgan axborot tizimlarining muhim qismi ma'lumot almashishi mumkin, ammo ularning muvofiqligi korxona ichida ham, o'zaro ta'sir qiluvchi korxonalar o'rtasida ham barcha darajalarda taominlanishi kerak.

Yagona axborot makonini yaratish korxonalarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va sanoat uskunalari o'rtasida tezkor va o'z vaqtida axborot almashish imkoniyatini beradi. Raqamli ishlab chiqarishda mahsulotlar individual buyurtmalar bo'yicha ishlab chiqarilishi mumkin, shuning uchun iste'molchi o'zaro ta'sirning bevosita ishtirokchisi va shuning uchun qiymat zanjirining elementi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
2. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
3. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massach usetts Institute of Technology, Cambridge, MA
4. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130.
5. O.V.Kitova, Digital Transformation of Business http://digitaleconomy.ru/images/easyblog_articles/320/kitova.pdf

O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISH

Ibrohimjonova Zahroxon Sultonbek qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi
ibrohimjonovazahroxon8@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish maqolasi, mamlakatning turli sohalarida, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va moliyaviy xizmatlar sohasida sun'iy intellektning amaliy qo'llanilishi va

uning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqola, sun'iy intellekt texnologiyalarining O'zbekistonning texnologik taraqqiyotidagi roli va kelajakdagi istiqbollarini baholaydi. Shuningdek, texnologik yangilanishlar mamlakatdagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni yaxshilashga qanday yordam berishi mumkinligini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Sun'iy intellekt, O'zbekiston, Texnologik innovatsiyalar, Ta'limda sun'iy intellekt, Sog'liqni saqlash texnologiyalari, Ishlab chiqarish avtomatlashtirilishi, Moliyaviy texnologiyalar, Raqobatbardoshlik, Iqtisodiy taraqqiyot.

Kirish: O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish sohasida bir qator qiziqarli yo'nalishlar mavjud. O'zbekiston bu texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda, chunki bu soha iqtisodiyotning turli sektorlarini, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va moliya tizimlarini modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Mana ba'zi yo'nalishlar:

Ta'lim: Sun'iy intellekt ta'lim muassasalarida shaxsiylashtirilgan o'qitish metodlarini, masalan, har bir talabaning bilim darajasiga mos keladigan o'quv materiallarini taklif etish orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu texnologiyalar o'qituvchilarga o'quvchilarning progressini kuzatishda va baholashda yordam beradi.

Ta'lim sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt platformalari, har bir talabaning bilim darajasini tahlil qilish va ularning o'quv jarayoniga mos keladigan individual o'quv materiallari va mashqlarni taklif etish orqali o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini maksimal darajada samarali qiladi. Bu texnologiyalar, o'quvchilarning o'qish faoliyatini doimiy kuzatib borish imkonini berib, ularning tushunish darajasiga qarab yordam ko'rsatishni osonlashtiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt dasturlari, o'quvchilarning akademik progressini vaqt o'tishi bilan kuzatib borish uchun keng ko'lamli ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini taqdim etadi. Natijada, o'qituvchilar o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda aniqroq ma'lumotlarga ega bo'lib, ularning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim berishni rejalashtirishlari mumkin. Bularning barchasi, o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini oshirish va ularni yanada muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam berish imkonini yaratadi.

Sog'liqni saqlash: Sun'iy intellekt sog'liqni saqlash tizimida aniq tashxis qo'yish, kasalliklarni oldindan bashorat qilish va samarali davolash usullarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, rasmlarni tahlil qilish orqali sun'iy intellekt saraton kabi kasalliklarni erta aniqlashda yordam bera oladi.

Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi, tibbiy diagnostika va davolash sifatini tubdan oshirish imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar rasm va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali, saraton kabi jiddiy

kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlashda juda samarali bo'lishi mumkin. Bu texnologiyalar, tibbiy tasvirlarni o'rganishda inson ko'zidan ko'ra aniqroq va tezroq ishlov berish qobiliyatiga ega, natijada tashxis qo'yish aniqligi oshadi.

Sun'iy intellekt, shuningdek, kasalliklarni oldindan bashorat qilish va ularga qarshi oldini olish choralari ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar, bemorlarning tibbiy tarixi va genetik ma'lumotlarini tahlil qilish orqali, kelajakdagi sog'liq muammolarini oldindan aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha samarali rejalarni tuzish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt dasturlari, turli davolash usullarining samaradorligini baholashda va yangi dori-darmonlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Ular klinik sinovlar va tibbiy tadqiqotlarni tezlashtirishda va natijalarni optimallashtirishda katta yordam beradi. Natijada, bu texnologiyalar sog'liqni saqlash tizimini yanada samarali va moslashuvchan qilishga yordam beradi, bu esa bemorlarga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi.

Ishlab chiqarish: Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va robototexnika sun'iy intellekt yordamida yanada samarali va xavfsiz ishlash imkoniyatiga ega. Bu, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish sohasida sun'iy intellektning integratsiyasi, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va robototexnikani yanada takomillashtirib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish bilan birga, xavfsizlik darajasini ham oshiradi. Bu, inson xatosi ehtimolini kamaytiradi va ish joylarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni oldini oladi.

Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar, mahsulot sifatini doimiy ravishda nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, optik va raqamli tahlil vositalari yordamida mahsulotlarning har bir bosqichi qat'iy nazoratdan o'tkaziladi, bu esa mahsulotlarning bir xilligini va yuqori sifatini ta'minlaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt mahsulot ishlab chiqarishda xom ashyo sarfini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Moliya va banking: Sun'iy intellekt moliyaviy xizmatlarni optimallashtirishda, masalan, mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan moliyaviy maslahatlar berishda va firibgarlik harakatlarini aniqlashda qo'llaniladi.

Moliya va banking sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi, bu sohalar uchun katta imkoniyatlar ochib beradi, xususan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va operatsion samaradorlikni yaxshilashda. Sun'iy intellekt yordamida banklar va moliyaviy institutlar mijozlarining moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali ularning ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan moliyaviy maslahatlar va takliflarni ishlab chiqishi mumkin. Bu, mijozlar uchun yanada qulay va foydali xizmatlar yaratish imkonini beradi.

Firibgarlikni aniqlashda sun'iy intellektning roli alohida ta'kidlanishi kerak. Sun'iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lib, g'alati moliyaviy faoliyat belgilarini darhol aniqlay oladi. Masalan, noqonuniy pul o'tkazmalarini yoki firibgarlik bilan bog'liq boshqa harakatlarni tezkor aniqlab, ularni to'xtatish yoki zararini minimallashtirish mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellektning prediktiv (bashorat qiluvchi) tahlil qobiliyatlari moliyaviy bozorlarni tahlil qilishda ham qo'llaniladi. Bu, moliyaviy institutlar uchun bozor tendentsiyalarini oldindan ko'rib chiqish va kerakli strategiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi, bu esa ularni yanada barqaror va raqobatbardosh qiladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimlari (masalan, virtual yordamchilar) ham rivojlanmoqda. Bu tizimlar mijozlarning so'rovlari va muammolarini 24/7 rejimida qabul qilib, tezkor va samarali yechimlar taklif etishga qodir, bu esa mijozlarning umumiy qoniqish darajasini oshiradi.

O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, mamlakatning turli sohalarida, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish va moliyaviy xizmatlar sohasida katta o'zgarishlar va yaxshilanishlarni boshdan kechirishga yordam bermoqda. Sun'iy intellekt ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimida aniq tashxislar qo'yish va samarali davolash usullarini ishlab chiqish, ishlab chiqarishda xavfsizlik va samaradorlikni oshirish, hamda moliyaviy xizmatlarni optimallashtirish va firibgarlikni oldini olish kabi muhim vazifalarni bajarishda muhim rol o'ynaydi.

Bu texnologiyalar nafaqat amaliy muammolarni hal qilishda, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va xalqaro raqobatbardoshlikni yaxshilashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellektning keng qo'llanilishi, O'zbekistonda texnologik taraqqiyotni tezlashtirish va mamlakatni yanada zamonaviy va innovatsion yo'nalishlarga boshlash imkonini beradi, bu esa kelajakda yana ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mitchell, Melanie. "Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans." Farrar, Straus and Giroux, 2019.
2. Lee, Kai-Fu. "AI Superpowers: China, Silicon Valley, and the New World Order." Houghton Mifflin Harcourt, 2018.
3. Tegmark, Max. "Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence." Knopf, 2017.
4. Goodfellow, Ian; Bengio, Yoshua; Courville, Aaron. "Deep Learning." MIT Press, 2016.
5. Domingos, Pedro. "The Master Algorithm: How the Quest for the Ultimate Learning Machine Will Remake Our World." Basic Books, 2015.

ПОВЫСИТЬ НАВЫКИ СТУДЕНТОВ - МАТЕМАТИКОВ К ИНЖЕНЕРНЫМ РАСЧЕТАМ В ОБЛАСТИ ГАЗОГИДРОДИНАМИКИ

ст.преподавател Абдуназаров Рабимқул
студенты: Сайфуллаев Л., Суннатова А.
Джизакский филиал Национального университета Узбекистан
rabimkulabdunazarov@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается вопрос ознакомления, обучения, повысит навыки студентов с материалами, разработанными ведущими проектными институтами, математические модели, алгоритмы расчета и программным обеспечении , в области добычи и транспорта нефти и газа.

Ключевые слова: Компьютерное моделирование, численные методы, вычислительный эксперимент, пористая среда, программное средство.

В работе на основе основных законов гидродинамики изучена математическая модель, консервативный численный алгоритм и программное средства для проведения вычислительного эксперимента на вычислительный систем с целью исследования, прогнозирования и принятия решения по разработке и проектирования нефти и газовых месторождении. В качестве объекта принята статья Н. Равшанова [1].

Рассматривается сложные динамические процессы, происходящие в пластовых условиях при двухстороннем вытеснении нефти газом и водой в одномерной постановке в условиях пренебрежения капиллярными давлениями между фазами, растворимостью газа и гравитационными силами. Используя законы газогидродинамики можно сформулировать математическую модель процесса воздействия на пласт объёмом газа и продвижения жидкости в пласте, которая приводится к решению следующей системы нелинейных дифференциальных уравнений в безразмерном виде:

$$\frac{\partial^2 P^2}{\partial x^2} = \frac{K\rho_{\text{н}} RTZ\mu_{\text{г}}}{K_{\text{г}} P_{\text{н}} \mu_{\text{н}} P}\frac{\partial P^2}{\partial \tau},\ 0 < x < \frac{l(\tau)}{L}, \tag{1}$$

$$\begin{cases} \dfrac{\partial}{\partial x}\left(K\dfrac{\partial P}{\partial x}\right) = \dfrac{\partial}{\partial \tau}\left(PS_{\text{г}}\right) + B\dfrac{\partial}{\partial \tau}\left(S_{\text{н}} + B_{\text{вн}} + S_{\text{в}}\right), \\ \dfrac{\partial}{\partial x}\left(K_{\text{н}}\dfrac{\partial P}{\partial x}\right) = B\dfrac{\partial S_{\text{н}}}{\partial \tau}, \\ \dfrac{\partial}{\partial x}\left(K_{\text{в}}\dfrac{\partial P}{\partial x}\right) = B\dfrac{\mu_{\text{в}}}{\mu_{\text{н}}}\dfrac{\partial S_{\text{в}}}{\partial \tau},\ \dfrac{l(\tau)}{L} < x < 1 \\ S_{\text{н}} + S_{\text{в}} + S_{\text{г}} = 1 \end{cases} \tag{2}$$

$$P(x,\tau) = f(x,\tau),\ 1 < x < \infty,\ \tau > 0, \tag{3}$$

$$\left.\frac{\partial P^2}{\partial x}\right|_{x=0} = -\alpha\frac{L}{P_{\text{н}}}q_{\text{г}}, \tag{4}$$

$$\left.\frac{\partial P}{\partial x}\right|_{\zeta_i+0} - \left.\frac{\partial P}{\partial x}\right|_{\zeta_i-0} = \beta \frac{L}{P_{\text{н}}} q_{\text{ж}}, \qquad (5)$$

$$\frac{K_{\text{г}} P_{\text{н}}}{2\rho_{\text{г}} RTZ} \left.\frac{\partial P^2}{\partial x}\right|_{x=\frac{l(\tau)}{L}-0} = K\left(\frac{\rho_{\text{н}} K_{\text{н}}}{\mu_{\text{н}}} + \frac{\rho_{\text{в}} K_{\text{в}}}{\mu_{\text{в}}} + \frac{K_{\text{г}} P_{\text{н}} P}{RTZ\mu_{\text{г}}}\right) \left.\frac{\partial P}{\partial x}\right|_{x=\frac{l(\tau)}{L}+0}, \qquad (6)$$

$$\frac{dl}{d\tau} = -\left.\frac{\partial P}{\partial x}\right|_{x=\frac{l(\tau)}{L}+0}, \qquad (7)$$

$$\left.P_{\text{г}}\right|_{x=\frac{l}{L}-0} = \left.P_{\text{н}}\right|_{x=\frac{l}{L}+0}, \qquad (8)$$

$$\left.\begin{aligned} &P(x,0) = P_{\text{н}},\ S_{\text{н}}(x,0) = S_{\text{н}}^0,\ S_{\text{г}}(x,0) = S_{\text{г}}^0 \\ &S_{\text{в}}(x,0) = S_{\text{в}}^0,\ l(0) = l^0,\ 0 < x < 1. \end{aligned}\right\} \qquad (9)$$

В формулах (1) - (9) приняты следующие обозначения: $P(x,t)$ - давление; $S_{\text{г}}, S_{\text{н}}, S_{\text{в}}$ - насыщенность породы газом, нефтью и водой; K - абсолютная проницаемость породы; $K_{\text{г}}, K_{\text{н}}, K_{\text{в}}$, $\mu_{\text{г}}, \mu_{\text{н}}, \mu_{\text{в}}$ - соответственно фазовые и вязкости газа, нефти и воды; $P(x,0) = P_{\text{н}}$, $S_{\text{г}}(x,0) = S_{\text{г}}^0$, $S_{\text{н}}(x,0) = S_{\text{н}}^0$, $S_{\text{в}}(x,0) = S_{\text{в}}^0$ - соответственно начальное распределение давления, газонасыщенности, нефтенасыщенности и водонасыщенности; $\rho_{\text{г}}, \rho_{\text{н}}, \rho_{\text{в}}$ - соотвественно плотность газа, нефти и воды; R - газовая постоянная; T - абсолютная температура; Z - сжимаемость газа; $P_{\text{н}}$ - начальное пластовое давление; m - пористость пласта; ζ_i - внутренняя особая точка (нагнетательная или эксплуатационная скважина); $x = \zeta(t)$ - граница раздела; L - длина пласта; $q_{\text{г}}, q_{\text{ж}}$ - соответственно интенсивность работы скважины.

Таким образом, получена замкнутая система нелинейных дифференциальных уравнений, описывающая функционирование системы «Пласт-скважина», которая состоит из трёх частей: первая описывает функционирование воздействия через нагнетательные скважины, вторая описывает динамику продвижения смеси нефти, воды и газа в пласте, а третья динамику продвижения краевой воды. В данной разделе студенты изучается постановки задачи, основные газогидродинамические термины, смысл приведенные математические уравнение. Для углубленного изучения темы рекомендуется литературы [1]-[3].

Методы решения. В данной этапе изучается методика решения, использую подходящими методами численного метода. Для численного решения рассматриваемой задачи применяется основные идеи метода выпрямления фазовых фронтов.

Пусть требуется найти функции $P(x,\tau)$, $S_{\text{г}}(x,\tau)$, $S_{\text{н}}(x,\tau)$, $S_{\text{в}}(x,\tau)$, $l(\tau)$ удовлетворяющие условиям (1) – (9). Для решения данной задачи введен новые независимые переменные ξ, ζ и получен:

$$
\begin{cases}
\dfrac{\partial^2 P^2}{\partial \xi} = \dfrac{\lambda l(\tau)}{P}\left[l(\tau)\dfrac{\partial P^2}{\partial \tau} - l'(\tau)\xi\dfrac{\partial P^2}{\partial \xi}\right],\ 0<\xi<1, \\
\dfrac{\partial}{\partial \varsigma}\left(K_{\text{н}}\dfrac{\partial P}{\partial \varsigma}\right) = \left(1-l(\tau)\right)^2\left[\dfrac{\partial (PS_{\text{г}})}{\partial \tau} + B\dfrac{\partial}{\partial \tau}\left(S_{\text{н}} + CS_{\text{в}}\right)\right] - \\
-\left(1-l(\tau)\right)(2-\varsigma)l'(\tau)\left[\dfrac{\partial (PS_{\text{г}})}{\partial \tau} + B\dfrac{\partial}{\partial \tau}\left(S_{\text{н}} + CS_{\text{в}}\right)\right], \\
\dfrac{\partial}{\partial \varsigma}\left(K_{\text{н}}\dfrac{\partial P}{\partial \varsigma}\right) = B\left(1-l(\tau)\right)^2\left[\dfrac{\partial (S_{\text{н}})}{\partial \tau} - l'(\tau)\dfrac{2-\varsigma}{1-l(\tau)}\dfrac{\partial S_{\text{н}}}{\partial \varsigma}\right], \\
\dfrac{\partial}{\partial \varsigma}\left(K_{\text{в}}\dfrac{\partial P}{\partial \varsigma}\right) = B\left(1-l(\tau)\right)^2\dfrac{\mu_{\text{в}}}{\mu_{\text{н}}}\left[\dfrac{\partial S_{\text{в}}}{\partial \tau} - l'(\tau)\dfrac{2-\varsigma}{1-l(\tau)}\dfrac{\partial S_{\text{в}}}{\partial \varsigma}\right], \\
S_{\text{г}} + S_{\text{н}} + S_{\text{в}} = 1,\ 0\le\varsigma\le 1,\ P(L,T) = 1,\ l(t)\le x\le L.
\end{cases}
\tag{10}
$$

$$
\left.\frac{\partial P^2}{\partial \xi}\right|_{\xi=0} = -\alpha_{\text{н}} q_{\text{г}}\,, \tag{11}
$$

$$
\frac{dl}{d\tau} = -\left.\frac{\partial P}{l(\tau)\partial \xi}\right|_{\xi=l-0}, \tag{12}
$$

$$
D\left.\frac{\partial P^2}{l(\tau)\partial \xi}\right|_{\xi=l-0} = \frac{1}{1-l(\tau)}\left[K\left(\frac{\rho_{\text{í}} K_{\text{í}}}{\mu_{\text{í}}} + \frac{\rho_{\text{â}} K_{\text{â}}}{\mu_{\text{â}}} + \frac{K_{\tilde{\text{a}}} P_{\text{í}}\, P}{RTZ\mu_{\tilde{\text{a}}}}\right)\right]\left.\frac{\partial P}{\partial \xi}\right|_{\xi=l+0}, \tag{13}
$$

$$
0\le\xi\le 1,\ 0\le x\le l(t),
$$

где $\lambda = \dfrac{K\rho_{\text{н}} RZT\mu_{\text{г}}}{K_{\text{г}} P_{\text{н}}\mu_{\text{н}} P}$; $B = \dfrac{\rho_{\text{н}} RZT}{P_{\text{н}}}$; $C = \dfrac{\rho_{\text{в}}}{\rho_{\text{н}}}$; $\alpha_{\text{н}} = \alpha\dfrac{l(\tau)L}{P_{\text{н}}}$; $D = \dfrac{K_{\text{г}} P_{\text{н}}}{2\rho_{\text{г}} RZT}$; $P_{\text{í}}$ - начальное распределение функции состояния.

Дискретный алгоритм решения задачи (10) – (13) основан на применении интегро-интерполяционного метода, позволяющего построить консервативную разностную схему, которая удовлетворяет закону сохранения в каждом узле пространственно-временной сетки.

Вычислительные эксперименты. Пример. Протяженность пласта L=10 км; мощность - B=6 м; ширина - H=700 м; вязкость нефти $\mu_{\text{н}} = 4$ сп; количество добываемой жидкости $q_m = 1000$ т/сутки, остальные параметры:

$$
\rho_{\text{н}} = 0{,}85\,г/см^3;\ R = 8{,}31\,Дж/(моль\cdot K);\ T = 273\,K;\ Z = 40;\ N = 40;\ \ EPS = 0{,}0001.
$$

Для проведения вычислительного эксперимента на ЭВМ, на основе разработанного алгоритма составлено программное средство.

Выводы. Анализ полученных результатов проведенных численных экспериментов показывает, что при одинаковой интенсивности добычи падение давления на скважине быстрее при фильтрации нефти, чем при фильтрации с газом, а при рассмотрении в условиях наличия газа в составе нефти увеличивается текучесть смеси.

Разработанные математические модели, вычислительные алгоритмы и программный комплекс могут быть использованы для анализа функционирования, оперативного управления и прогнозирования разработки

нефтегазовых месторождений при различных условиях воздействия на пласте и принятия конкретных практических рекомендаций. Результаты подтверждают пригодность алгоритма и программы для расчетов полей давлений и насыщенностей, а также показателей разработки месторождений в системе нефть – газ, нефть- вода, нефть – газ – вода. Здесть студентам полезно анализировать графики, илюстрирушющего процесса при разных значениях параметров и таблицы.

Литература:

1. «Компьютерное моделирование процесс фильтрации флюидов в пористых средах». *Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия «Вычислительная математика и информатика», 2015, том 4, выпуск 2*
2. Абдуназаров Р. A.Mamatov Численное решение обратной задачи для системы Дирака. International scientific journal *Interpretation and Researches, 1*(5). Page 130-135. ISSN:2181-4163
3. R.Abdunazarov. Problems of constructing an efficient computational algorithm for restoring the parameters of the Sturm-Louisville operator. international journal of contemporary scientific and technical research.2181-3884. 2023 in jbnuu. page 80-86.
4. Р.Абдуназаров. Bir o‘lchovli dirak tenglamasi uchun teskari masalani yechishda tezkor hisoblash algoritmini qurish masalalari. “Komputer ilmlari va dasturlash texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari. Jizzax 2023 yil 13 oktabr. T.1.№2 186-191
5. С.Шарипова. Р.Абдуназаров. Matematika darslarida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi va uning ahamiyati. “Komputer ilmlari va dasturlash texnologiyalari” .mavzusidagi xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari. Jizzax 2023 yil 13 oktabr. T.1. т.1. 177-179
6. Абуназаров Р. Abdurashidova L. Алгоритм восстановления оператора Дирака по двум спектрам. Международной научно-практической конференции “Актуальные задачи математического моделирования и информационных технологий» Том №1. Нукус, 2-3 май 2023. Стр.239-241
7. Абуназаров Р. Po’latov Baxtiyor, Noriyeva Aziza, Xolmanova Klara. Восстановления ядро спектральной меры оператора Дирака по неточным спектральным данным. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani. 27.05.2023. 258-262 betlar.

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA MULOQOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

G‘ulomitdinov Doston Isomoddin o‘g‘li,
Nasriddinova Mohichehra Shuxratovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o‘zlashtirish va o‘z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: shaxslararo munosabat, muloqot, inson tabiati, ehtiyoj, shaxs, komunikatsiya, informatsiya, regulyatsiya, aloqa, streotipizatsiya, refleksiya empatiya.

Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o‘zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.Melibruda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir».

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlash, o‘zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan «Umumiy psixologiya» o‘quv qo‘llanmasida muloqot - bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo‘yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo‘lgan o‘zaro ta'sir etishdir"- deb ta'kidlanadi. M.G.Davletshin rahbarligida chop etilgan «Psixologiya» qisqacha izohli lug‘atida muloqotga quyidagicha ta'rif beriladi: muloqot- ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta'sir etishidir.

Yuqoridagi ta'riflarga muvofiq muloqotga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: muloqot - kamida ikki kishining o‘zaro ta'sir jarayoni bo‘lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi, rivojlantiriladi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlashimiz lozim. Kommunikatsiya-tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi, bularning barchasi kommunikatsiyaga misol bo‘ladi. Muloqot faqat insonlar o‘rtasida amalga oshir ilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo‘lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va

madaniyatni egallab boradi. Yangi tug‘ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o‘z psixik taraqqiyoti bo‘yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

Muloqot jarayonida muloqot funktsiyalari ham muhim rol o‘ynaydi. Muloqot funktsiyalari deganda muloqotning inson hayotida bajaradigan funktsiyalari tushuniladi. Muloqot funktsiyalari xilma-xil bo‘lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra, ya'ni B.F.Lomov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u quyidagilardan iborat.

- ✓ Informatsion-kommunikativ funktsiya - axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal va noverbal kommunikatsiya farqlanadi.
- ✓ Regulyatsion-kommunikativ funktsiyasi suhbatdoshlar xulq-atvorining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Individlar muloqot jarayonida verbal yo‘llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o‘tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullash-tiruvchi va korrektsiyalovchi tarzida ta'sir ko‘rsatishi mumkin.
- ✓ Affektiv-kommunikativ funktsiya inson emotsional sohasining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional holatlarining eng muhim determinatsiyasidir. Chunki turli tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo‘ladi va o‘zga radi.

Muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko‘rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan muloqot vositasi til bo‘lib, u muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida aloqa bog‘lanishini ta'minlaydi. Tilni ushbu maqsad uchun tanlangan so‘zlar mohiyatiga ko‘ra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o‘z xulq-atvorini o‘zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi. Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o‘z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo‘yadi.

Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o‘zaro ta'siri sifatida namoyon bo‘ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo‘luvchi aloqa va o‘zaro ta'sirlar yig‘indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro‘y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus hulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan.

Ijtimoiy normalar ko‘lami nihoyat keng - mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning «repertuar»iga mos holda namoyon bo‘ladi. Psixologiyada «rol» deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilardan kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan hulq-atvor namunasi tushuniladi. (Yosh, mansab, jins va oiladagi, o‘qituvchi va o‘quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rolida namoyon bo‘lishi mumkin). O‘z navbatida har bir rol o‘ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo‘lsa shifokor ko‘rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo‘st oila boshlig‘i bo‘ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o‘zaro munosabati rolb kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo‘qmi atrofdagilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-ko‘pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o‘zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qo‘llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko‘rishga tayyor ekanligini to‘g‘ri, aniq, xatosiz ko‘chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shaxslararo munosabatni samarali tashkil etishda muloqotning o‘rni va uning ahamiyati kata. Chunki, muloqot jarayonida shaxslararo axborot almashinishi, bir-birini idrok qilinishi va xulq-atvoriga ta'sir qilinishi asosida insonlar bir-birlarini tushunishi anglab yetishi , kollab quvvatlashi bir maqsad sari harakatlanishi bir birlarini organish kabi muhum vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарафитдинов, Абдулла, and Мохинур Бойкулова. "Формирование эмоционально-эмоциональной сферы детей младшего школьного возраста." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 342-345.
2. Бойкулова, Мохинур, and Гозал Одилова. "Исследование проблем формирования лидерства зарубежными психологами." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 410-413.
3. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Abduakhadova Mehribonu, and Boykulova Mokhinur. "The Influence of Parents on The Leadership of Children in The Family-As A Psychological Factor in Parenting." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 122-128.
4. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Boykulova Mokhinur, and Abduakhadova Mehribonu. "Psychological Aspects Of Leader Traits In Boys And Girls In Different Family Settings." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 129-134.
5. Хасанова, Ирода, and Достон Гулямитдинов. "Развитие творческих способностей у детей раннего возраста." Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 15 (2023): 37-41.
6. Shakarboeva, Sh, and D. Gulomitdinov. "PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL VIEWS OF ABU RAIKHAN BERUNI AS A FACTOR OF EFFECTIVENESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS." World Bulletin of Management and Law 21 (2023): 30-33.

ZAMONAVIY YOSHLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MULOQOTNING ROLI

Arakulov Gayrat Tulkinovich,
Pardayev Xumoyun Farxod o‘g‘li,
Daminova Sabina Bahrom qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
arakulov.gayrat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kun yoshlarining kasbiy rivojlanishida pedagogik va psixologik muloqot, pedagog va o‘quvchi munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, muloqotdagi psixologik yondoshuvlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Pedagog, psixologik munosabatlar, kasbiy rivojlanish, o‘quvchi, ijtimoiy munosabat, muloqotchanlik, psixologik muammolar, tushunish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida yosh avlodning kamol topshida olib borilayotgan salmoqli ishlar to‘g‘risida nutq so‘zlar ekan, jumladan, “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag‘allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng samarali omili deb bilamiz. Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to‘pladi – ta’lim tizimi tubdan o‘zgarmoqda. O‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o‘quvchining biri esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratiladi” deb ta’kidlaydi mamlakatimiz bosh rahbari.

Darhaqiqat, ta’lim va tarbiya shaxs kamolotida muxim jihat hisoblanadi, shu boisdan pedagogik va psixologik muloqat o‘z mohiyatida kasbiy rivojlanish mezonlarining birinchi umumlashtirilgan guruxini aks ettiradi. Shunga asoslanib, nafaqat tegishli mezon, balki kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish dinamikasini rag‘batlantiradigan samarali yondashuv sifatida pedagogik muloqotning mohiyati va mazmunini anglash muammosi juda dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday muloqotning hal qiluvchi sharti o‘qituvchi sub’yekti talaba tizimida o‘qitish mavzusining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro muloqotni amalga oshirish qobiliyatidir.

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiv metodlardan izchil foydalanish pedagogik va psixologik muloqotning usullaridan foydalanish chastotasining ko‘payishini ta’minlaydi. Shu bilan birga to‘liq tushunishga tez-tez duch kelinmaydi va aks ettirish darajasi tushunish darajasi bilan belgilanadi. Aslini olganda, anglashning o‘zi odatda o‘qitish fanining predmetlari va sohalarida muhimligini ochib berishga qaratilgan murakkab aqliy faoliyatning asosiy turlaridan biriga kiradi[1]. Ba’zan tushunish mantiqiy asoslarni belgilash orqali yuzaga keladi. Ko‘plab tadqiqotchilar ushbu konsepsiyada

zamonaviy pedagogikadagi yangi paradigmatik tushunchalarga murojaat qiladi. Ular tushunish tafakkur orqali emas, balki dialog orqali sodir bo‘lishini ta’kidlaydilar. Bo‘lajak kasb egalarining tushunish qobiliyatini rivojlantirish ko‘proq pedagogik va psixologik muloqot natijasidir. Bunday natijani zamonaviy umumiy va pedagogik ta’limning markaziy pedagogik vazifalari sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Fenomenologiyada tushunish, hodisaning ma’nosini anglash qobiliyati darajasida ko‘rib chiqiladi. Tushunish aniq ichki bog‘liqlik, ko‘rib chiqilayotgan hodisalarni tashkil etish hissi bilan tavsiflanadi. Tushunishning psixologik mexanizmlariga identifikatsiya, proyeksiya, ijtimoiy idrok, hamdardlik va sezgilar kiradi. Tushunish aktini to‘ldirish mazmuni bilan o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, o‘z kasbiy faoliyati haqidagi pedagogik vaziyat, tushunchalar yoki g‘oyalar bilan bog‘liqlikka ham e’tibor qaratish lozim. Ilmiy adabiyotlarda bilishning uchta darajasi (tanishish, tanib olish, yodlash) deb nomlangan sof mexanik tushuncha mavjud. Kasbiy rivojlanishda yuqoridagi sof mexanik tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning affektiv, empatik reaksiyalariga, hissiy holatiga, kayfiyatiga qarab har safar individual yondoshmoq lozim. O‘z navbatida pedagogik o‘zaro ta’sir samaradorligi talabaning va o‘qituvchining bir xil aloqa usulini muvofiqlashtirilgan holda idrok etishiga bog‘liq. Agar bu darhol muvaffaqiyat qozonmasa, unda barcha tomonlarni qoniqtiradigan usullar tanlanadi.

Kasbiy rivojlanishning muhim mexanizmi bu – o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan mustaqil ta’limning mavzusini belgilashdir. Har bir pedagog o‘z pedagogik amaliyotini tahlil qilish asosida faoliyatiga doir muammoli sohalarni aniqlaydi va bir necha yil davomida ishlaydigan mavzuni belgilaydi, muammoning sabablarini o‘rganadi va yechimlarni izlaydi[2]. Zamonaviy yoshlar puxta bilim egallashi uchun pedagog xodimlarga quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatini berish lozim hisoblanadi: a) o‘qitayotgan fani sohasida, b) pedagogik va psixologik bilimlari sohasida, c) metodik imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha (pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning shakl, usul va uslublari), d) axborot kompetentliligini oshirishda (kompyuter texnologiyalari, internet-resurslar), e) muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda (ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri), f) shaxsiy kompetensiyalarni takomillashtirishda (imij, muloqot madaniyati, yetakchilik qobiliyati).

Ma’lumki pedagogik va psixologik muloqot qoida tariqasida nutqiy aloqa bilan boshlanadi. Shu bois nutq qobiliyatlari o‘qituvchi va talabaning kasbiy qobiliyatlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Muloqot paytida vujudga keladigan o‘ziga xos pedagogik vaziyat talabada ma’lum birlashmalarni keltirib chiqaradi. Ular ma’lum cheklovlar mavjudligiga, ruxsat etilgan o‘zgaruvchanlik darajasiga qarab farqlanadi. Ushbu belgilarning birortasini o‘zgartirib, vaziyatni umumiy qabul qilingan me’yorlarning buzilishiga olib kelish mumkin va shu asosda yana bir pedagogik vaziyat yuzaga keladi. Bundan tashqari dialogning samaradorligi oldindan belgilangan vazifalarga bog‘liq bo‘lib, ular izchil va maqsadga muvofiq ravishda refleksli harakatlarni o‘z ichiga oladi. Oliy o‘quv yurtida bunday muloqot agar u cheklanmagan bo‘lsa talabaning kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Muloqotdagi muvozanat qoida tariqasida o‘qituvchi tomonidan

belgilanadi va uning vazifasi o‘quv jarayonining barcha didaktik normalarini bajarish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda o‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbiy rivojlanishida pedagogik va psixologik muloqotning va ta’limning zarurligi, pedagogik faoliyatning xususiyatlari va uning ijtimoiy roli bilan pedagogik mehnatning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlari, jamiyatning ehtiyojlari, ilm-fan va amaliyotning evolyutsiyasi, pedagoglarga bo‘lgan talablarning oshib borishi, uning jamiyatdagi jarayonlar va holatlarning o‘zgarishiga tezkor moslashish qobiliyati, o‘z faoliyatini qayta qurishga, murakkab kasbiy masalalarni samaradorlik bilan yechishga tayyorligi bilan bog‘liq uzluksiz ta’lim tendensiyalari orqali asoslanadi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Богданова, Т.М. Психология. Формирование волевых качеств в подростковом возрасте – Мн., 2008.

2. Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo‘llanma.T.2003 yil.

3. Аракулов, Г., & Саидазимова, М. (2023). Семья и образование как средства борьбы со стрессом у подростков. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 357-360.

4. Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg‘ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda muhim fenomen sifatida. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(3), 54-56.

5. Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формирование агрессии у подростков. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(3), 106-109.

OILAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA BOLANING O‘ZINI-O‘ZI ANGLASH JARAYONI

Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li,
Asadullayeva Sevinch
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu tesizda oilaviy munosabatlar tizimida o‘z-o‘zini anglash jarayoni haqida, hozirgi zamon oilalarida bolalarning menini anglashning dozarb muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy tumush, vatanparvarlik, qadriyat, o‘zlik, shaxsiy men, farzand, kognitiv men, reproduktiv salomatlik, ota-ona, komil inson.

Oilaviy turmush inson xayotining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun qoidalarga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli tuman muammolarda, muloqotda, fikr almashinuvida, munozaralarda, o‘z ifodasini topadi, binobarin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash oilaning naqadar mustahkam bo‘lishiga, ota-ona munosabatlarida

oliyjanob xarakter hislarini, bolada yuksak ma’naviy hislarni shakllantirishga bog‘liqdir. Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas’uliyatli vazifa ota-onaga, oiladagi kattalarga yuklatilgandir.

Rus tadqiqotchilarining ko‘pchiligi oilada ota-onaning bolalar munosabatlariga yoki juda keng, yoki bolaning psixik rivojlanishi umumiy nuqtayi nazardan juda tor manoda yondashadilar. Masalan, ular asab buzilishlari paydo bo‘lishi, ruhiy holatlarning namoyon bo‘lishi, himoya mexanizmlari shakllanishiga tasiri jihatlaridan o‘rganib chiqqan.

Ko‘plab psixologlar fikriga ko‘ra, inson shaxsidagi yetakchi sifatlarining shakllanishi va “Men” konsepsiyasi asoslarining yaratilishi aynan ontogenezning dastlabki 5-6 yilida ro‘y berad. O‘zini-o‘zi anglash masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili bizga o‘zgaruvchilarning kattagina qismi kichik ijtimoiyguruhsifatida hayot tarzini oilada aks ettiruvchilarni tashkil qiladi, deyishimizga imkon beradi. Tadqiqotchilar buni bolalarda “Men”konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari muhim biromil ekanligi bilan bog‘laydilar. Ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati va uning o‘zini anglashi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, o‘zini tartibga solish shakli sifatida, bola xulq-atvorini boshqarish usullari va ota-ona munosabatlarini namoyon etuvchi model sifatida ochib beriladi.

Ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda bolaning o‘zini-o‘zi anglashi interiorizatsiya usuli bo‘yicha ota-ona bilan muloqotning to‘rt xil turini ajratish mumkin.

O‘ziga munosabat yoki “Men” obrazini bevosita yoki bilvosita xulq-atvor orqali singdirish.

Xatti-harakat standartlari va da’volar, ijtimoiy kutishlar darajasining shakllanishi orqali bolaning o‘ziga munosabati shakllanishi.

Bola xulq-atvori ustidan nazorat, bunda bola tomonidan bir vaqtning o‘zida o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullari va ko‘rsatkichlari o‘zlashtirib olinadi.

Bolaning o‘zini baholashi ko‘rinishini o‘zgartirishga qodir bola xulqini yo‘lga solmoq, bunda bolaga ota-ona tomonidan o‘tkaziluvchi “Men” obrazi va o‘ziga munosabatining ijobiy va salbiy ma’noga ega bo‘lishi mumkinligi tabiiy, albatta.

Shu tariqa, bolada shakllanuvchi “Men” ijobiy obrazi ham atrofdagilarning salbiy baholashga duch kelganda o‘zgarishi mumkin, ya’ni uning barqarorligi bu bosqichda shak-shubhasiz emas va boshqalarning, birinchi navbatda, onaning munosabatiga bog‘liq bo‘ladi: ona esa o‘z navbatida, o‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lishi lozim, chunki aks xolda u bola uchun namuna bo‘la olmaydi. Ona “Men”ini qo‘llab-quvvatlash bola “Men”ini shakllantirishni yengillashtiradi va bolaning ona bilan munosabatlari oiladagi uchlik munosabatlari bilan almashgan xoldagi rivojlanish bosqichidagina bola qatiy chegaralarga muhtojlik seza boshlaydi. Bu zarurat muhabbat va nafrat mojorosini ishlab chiqish va uning asosiy tendensiyalari bolaning otaga yo‘nalganlikka asoslanuvchi hamda bolaning onaga yo‘nalganlikka tayanuvchi tendensiyalari bilan bog‘liq.

Ota-ona bolaga nisbatan haddan ziyod g‘amxo‘rlik (giperproteksiya) e’tibor ko‘rsatilgan oilada bola “Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi”, degan tasavvur mavjud bo‘ladi. Bunday oilada bolalar o‘zlarining

borligidan, tug‘ilganligidan mag‘rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug‘ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo‘ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo‘lib ulg‘ayadi.

Yuqoridagi holatning aksi, yani bolaga nisbatan e’tiborsizlik, mehrsizlik bo‘lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo‘ladi: “Meni yoqtirishmaydi, lekin men o‘zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak”. “Men yaxshi bola emasman”, degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, o‘ziga bo‘lgan bahoning pastligi, o‘zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi, ko‘p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo‘yishdan cho‘chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o‘xshash.

Ota-onalar va farzandlar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar. Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin bo‘lib quyidagilar xizmat qiladi. Dunyoqarashlari orasidagi mavjud farqlarni hisobga olmasligi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mustaqil tashkil etilishi. Do‘stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yo‘ldosh tanlashda mustaqillik uchun ota-onalari bilan ba’zan kurash olib borishning xush kelmasligi. Ota-onalar ichkilikka ruju qo‘yishi yoki or-nomusni yig‘ishtirib qo‘yib, buzuqchilik qilish. Ba’zi bolalarni mehnat qilishga o‘rgatmaganlik va buning oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o‘rganib qolishi. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo‘yish va hokazo. Ota-onalik psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar.

Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yo‘qoladi, o‘rtaga sovuqchilik tushadi. Farzandlik burchini bajarmaslik u yoqda tursin, hatto ichib kelib ota-onasiga qo‘l ko‘taradigan farzandlar, ota-onasini sharmanda qilayotgan suyuqoyoq fohishaparastlik borligi achinarli holdir.

Ota-onalarning ba’zilar bolalardagi 3,6,13,14, yoshlarda muqarrar ravishda bo‘lib o‘tadigan krizislarni bilishmaydi. Bu yosh bosqichlarda bola ruhiyatida yangi psixologik qo‘shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar jumladan ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlarda ko‘zga tashlanadi. Buni sezmagan ba’zi ota-onalar “bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo‘lib qoladi”, deb o‘ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o‘zlaricha chora tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushuna olmay qoladilar. Bolaning ota-onalardan bezish xollari kuzatiladi.

Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomonda jamiyatning oilaga ta’siri, ikkinchi tomonda esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning xal qiladigan ijtimoiy funksiyalarini hisobga olish lozim. Insoniyat taraqqiyotining xozirgi bosqichida xozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari qatorida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin. Oilaning reproduktiv funksiyasi – jamiyatning biologik uzluksizligini ta’minlash, bolalarni dunyoga keltirish funksiyasidir. Oila faqatgina yangi avlodni boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirish, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uni bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanishi uchun xar bir oilada nechta farzand bo‘lishini nazarda tutadi.

Ular tomonidan tashqi nazoratning qattiqligi bolada o‘zining ichki nazorat qilishni rivojlantiradi, aniq asoslangan talablar qatiy belgilangan va mos keluvchi “Men” obrazi hamda “Men” konsepsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan xolda xulosa qilib, avvalo, M.I.Lisina, V.A.Petrovskiy, I.S.Kon, A.A.Bodalev, V.V.Stolin, I.I.Chesnokova kabi psixologlarning “Men” konsepsiyasi tuzilishi va rivojlanish mehanizmlari haqida integrativ kompleksli tuzilma va o‘zini anglash jarayoni mahsuli sifatida, shuningdek, oiladagi ichki inter va intraindivid munosabatlarning “Men” konsepsiyasi ontogenezning maktabgacha yosh davrida shaxsning “Men” konsepsiyasi shakllanishi bilan o‘zaro aloqasi haqidagi tasavvurlarini tahlil qilish asosida biz ishlab chiqqan konseptual sxemani keltirib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salim o‘g‘li, Y.U. (2022). Psixologik axborot xavfsizligi. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 66-72.
2. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). Maktabgacha yoshdagi bolada o ‘zini-o ‘zi anglashda oilaning roli. In E Conference Zone (pp. 11-16).
3. Norbekova, B. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari: maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari. Журнал дошкольного образования, 3(3).
4. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). Maktab o‘quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganishning ahamiyati. In E Conference Zone (pp. 1-5).
5. Arakulov, G. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat muhim psixik fenomen sifatida. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Sunatullaevna, K. A. (2022). Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 518-521.
7. Ибайдуллаева, У. (2022). Роль семьи в предотвращении конфликтов между подростками. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 1(7), 81-83.
8. Каршибаев, С., & Анорбоев, Х. (2023). Talabalar o ‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 476-479.
9. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 81-88.

DEVIANT XULQ-ATVORNING PSIXODINAMIK ASPEKTLARI

Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li,
Hasanova Mohinur
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialali

Annotatsiya: Ushbu tesizda deviant xulq-atvorning psixodinamik aspektlari haqida yoritilgan bo‘lib, psixoanaliz maktabida deviant xulq-atvorning o‘rganilishi va uning kelib chiqish sabablari keltrilgan.

Kalit so‘zlar: Z.Freyd, deviant, xulq-atvor, psixodinamik, instikt, agressiya, id, ego, super ego, avtoritet, ehtiyoj, biologik nazariyalar.

Z.Freyd psixoanalizidan kelib chiqqan psixodinamik nazariyalar inson xulq-atvorining ongsiz mexanizmlarini ochib beradi. Deviant xulq-atvorni psixoanalitik atamalar yordamida sharhlash, eng avvalo psixik hayotning modellari va asosiy tushunchalari haqida ma’lumot berishni talab qiladi. Dastavval shaxs rivojlanishi haqida Freyd nazariyasi, biologik asoslangan va ichki ehtiyojlar instinkt jarayonlarini birlamchiligini ta’kidlagan. Z.Freyd ikkita asosiy instinkt turini farqlab ko‘rsatadi: hayot instinkti va o‘lim instinkti. Agressiv instinkt esa o‘lim instinktining asosiy namoyishi va mahsuli deb tan olingan, agressiyaga moyillik esa-barcha insonlarga xos, yakunlovchi instinktiv tendensiyadir.

Boshqa asosiy bosqich psixik aparat tuzilishini kiritish. Z.Freyd tomonidan tavsiya etilgan tuzilish modeli, uch tizim yoki uchta kuchdan iborat: Id, Ego va Super Ego. Shaxsning psixologik farovonligi ushbu uchta tuzilmaning samarali faoliyatiga bog‘liq. Id atamasini Freyd primitiv tilaklar, impulslar, irrasional intilishlar, “qo‘rqish-tilak” juftliklari va fantaziyalardan iborat bo‘lgan psixikaning katta qismlarini belgilash uchun qo‘llagan. Bu “xaos, jo‘sh urib turgan emotsiyalar bilan qaynab turgan qozon”. Id faoliyati qo‘zg‘alishning, rohatlanish prinsipiga muvofiq, erkin amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Id o‘zini verbal tarzda ramzlar va obrazlarda aks etadi, unda vaqt, odob, chegaralanish yoki qarama-qarshiliklar birga mavjud bo‘lmasligi haqida tushuncha umuman yo‘q.

Z.Freyd bilish jarayonining primitiv darajasini, gallyutsinatsiyalar, tushlar va hazillar tilida mavjud bo‘lgan, fikrlashning ilk jarayoni deb atadi. Id nisbatan o‘zgarmas va to‘liq ongsiz shaklda bo‘ladi, ammo uning borligi va hukmi fikrlar, harakatlar va emotsiya derivatlaridan ajralib turadi.

Ego bu bir oila doirasida hayot talablariga moslashish, hal etish yo‘llarini topish, Id intilishlarini boshqarish uchun funksiyalar nomi. Ego butun hayot davomida rivojlanib boradi, ayniqsa tezkor bolalikning ilk davrlarida rivojlanadi. Ego reallik prinsipiga muvofiq faoliyat yuritadi va ikkinchi fikrlash jarayonining negizi hisoblanadi (mantiqiy, bosqichma-bosqich, yo‘naltirilgan). Shunday qilib, Ego Id talablari va muhit chegaralanishlari o‘rtasida vositachi deb hisoblanadi. Unda ongli va ongsiz aspektlari mavjud. Ongli Ego bu ko‘pchilik insonlar tushunchasidagi “Menlik”, ongsiz Ego esa o‘ziga muhofaza jarayonlarini qamrab olgan.

Id va Ego tushunchalaridan tashqari, ota-ona ta’sirining qoldiq aksi bo‘lmish psixik aparatining qolgan qismi uchun Super Ego tushunchasi kiritilgan. Z.Freyd

fikricha, Super Egoning asosiy vazifasi Id talablarini Egoga ruhiy ta’sir o‘tkazish orqali bartaraf etish. Ushbu markazning asosiy funksiyalari: ideal, o‘zini kuzatish va vijdon. Ichki standartlar va ta’qiqlar negizida albatta ota-onaning ibrati turadi. Bola boshidan, muhabbatni yo‘qotish qo‘rquvi tufayli yoki tashqi, ota-ona avtoriteti tomonidan agressiya xavfi tufayli o‘zini chegaralashga kelib qoladi. Natijada esa, u Super Ego ichki avtoritet oldidagi qo‘rqish hissidan kelib chiqib, harakatlana boshlaydi. Vijdonga qarshi qilingan harakatlar, jazoga muhtojlik, gunohkorlik yoki bo‘shlik hislarini paydo bo‘lishiga olib keladi. Shaxsiy muammolarni, haddan tashqari qat’iy Super Ego ning namoyishi, uning to‘liq shakllanmaganligining natijasi bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, suitsidal xulq-atvor sevimli kishisini yo‘qotishi natijasida depressiv holat fonida shakllanadi. Ba’zi bir insonlar ushbu vaziyatda normal g‘am-qayg‘u o‘rniga, “menlik” zaiflanishi va sog‘ligini keskin yomonlanishi bilan melanxoliyaning maxsus holati “depressiya”ni o‘z boshlaridan kechadilar. Muhabbat obyektining real o‘limi emas, balki insonning ichki dunyosidagi o‘lishi. Z.Freyd yozganidek, “obyekt muhabbat obyekti sifatida yo‘qotildi. G‘am tufayli ichki dunyo zaiflashdi, melanxoliya tufayli esa - “menlik”. “Men” nomunosib, hech narsaga yaroqsiz, o‘ziga nisbatan hurmatini yo‘qotgan, chunki u Super Ego ning ayovsiz tanqidiga uchraydi. Bunday vaziyatda haqiqatdan, insonni o‘z shaxsiyatiga nisbatan tanbeh berish to‘g‘ri kelmaydi, ammo diqqat bilan kuzatilganda, yaxshi ko‘rgan shaxsiga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. “Menlik”ni qoldirilgan obyekt bilan ham qiyoslash - identifikatsiya qilish ham o‘rinli. Obyekt yo‘qotilishi “menlik”ni yo‘qotishga, tanqid esa o‘zini tanqid qilishga aylanadi. Agar kechib bo‘lmaydigan muhabbat (o‘sha payt real obyektdan vos kechish bilan) o‘zining yechimni narsistik qiyoslashda topgan bo‘lsa, bu obyektga nisbatan nafrat bildiriladi. Aynan shu obyektga sadistik qoniqish darajasigacha azob beriladi.

Z.Freyd ta’kidlaganidek, “Faqatgina shu sadizm o‘z joniga qasd qilish moyilligi muammosining yechimini topib beradi”. Shaxs ulg‘ayishi, Z.Freyd tomonidan, psixoseksual rivojlanish bosqichlari sifatida o‘rganilgan. Bu bosqichlarning ketma-ket o‘tish jarayonida asosiy e’tibor tananing alohida qismlariga qaratilgan bo‘ladi - oral fazasidan boshlab, anal va fallik fazalar orqali genital (jinsiy organlar) fazasigacha. Drayvlar klassik nazariyasida (instinktlarning psixik namoyishi) ta’kidlaganidek: agar bola haddan tashqari frustratsiyaga chalingan bo‘lsa yoki psixoseksual rivojlanishining biror bir bosqichida me’yordan ortiq qoniqish hosil qilsa, u o‘sha bosqichda to‘xtab qoladi.

Z.Freydning so‘nggi asarlari - psixoanalizda “Egopsixologiya” kabi yo‘nalishning rivojlanishida turtki vazifasini bajardi. Ushbu yo‘nalish bugungi kunda “muhofaza” umumiy tushunchasi birlashtirgan jarayonlarni o‘rganadi. Rivojlanishning nizo fazasidan kelib chiqqan holda, biz insonni tushunushga harakat qilganimizdek, insonlarni ham ularga xos bo‘lgan xavotirni bartaraf etish usullariga muvofiq turlashimiz mumkin.

Alkogolizmga (narkotiklarga) berilish insonning xulq-atvorining boshqa misol sifatida keltirish mumkin. Bu holatda inson muammo borligini qat’iy rad etadi va “men vaziyatni nazorat qilyapman” degan xulosaga keladi. Bu yerda rad etish kabi muhofaza mexanizmi ishga solinadi. Ushbu reaksiya – arxaik jarayonning sadosidir,

bu vaziyatda bilish jaryonini mantiqoldi ishonch boshqaradi: “Agar men buni tan olmasam, bu sodir bo‘lmagan”.

O‘z navbatida, sadizm, eksplozivlik (portlanuvchanlik), yaqin kishining o‘limi holatida, depressiya kabi holatlar, proeksiya va introeksiya namoyishlarning negizida yotishi mumkin. Xuddi shunday qo‘rquv holatida, insonlar negativ hissiyotlarni egallab olishga harakat qiladilar va azob berayotgan insonning xislatlarini o‘zlashtiradilar (proyektiv identifikatsiya).

Psixoanalitik tasavvurlarga muvofiq ichki nizolar dinamikasida, bola dunyosidagi asosiy obyekt bo‘lib kelayotgan ota-ona asosiy rol o‘ynaydilar. Psixoanalizdagi so‘nggi yo‘nalish - obyektiv munosabatlar nazariyasi namoyondalari ketma-ketlik bilan obyektiv munosabatlarda baxtsizlikning psixologik muammolar bilan aloqadorligi haqida g‘oyani rivojlantir-moqdalar. Bola ota-onasi bilan munosabatlari qanday kechadi, qanday hissiyotlar bola tomonidan o‘zlashtiriladi, shaxsning butun hayoti davomida uning xulq-atvoriga ta’sir qilib turgan, qanday ota-onaning obrazlari uning ongsiz dunyosida mavjud - bularning hammasi katta ahmiyatga ega.

Buzilgan xulq-atvor holatida norasolik kompleksi noadekvat hayotiy yo‘riqmalar va rivojlanmagan ijtimoiy hissiyoti bilan birlashadi. Anomal shaxsda ustivor hayot yo‘nalishi bu ustivorlikka erishish intlishidir. Bu hissiyot shu darajada rivojlanganki, jamoa hissiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga katta to‘sqinlik qiladi. Bunday inson odamlarni o‘zining shaxsiy manfaatlariga yetish vositasi sifatida qabul qiladi, jamiyatga dushman kuchi sifatida qaraydi, boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi va qilmaydi. Ushbu ziddiyat jamiyatning turli talablariga qarshi chiqish, gipertroflashgan reaksiyasida namoyon bo‘ladi: boshqalarni hurmat qilish, haqiqatni aytish, bilim olish va mehnat qilish, boshqalar haq ekanligini tan olish, minnatdor bo‘lmoq..... Ustivorlik g‘oyasi boshqalarni - bo‘ysindirish, kamsitish va diskreditatsiya harakatlariga undaydi. Natijada shaxsning xulq-atvorini va umuman hayot yo‘lini aniqlovchi, shaxsning mustahkam negativ qirralari shakllantiradi - sabrsizlik, hasad, manmanlik, shubha uyg‘otish va boshqalarni aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salim o‘g‘li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 66-72.

2. Norbekova, B. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. *Журнал дошкольного образования*, *3*(3).

3. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 1-5).

4. Arakulov, G. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).

5. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.

6. Ибайдуллаева, У. (2022). РОЛЬ СЕМЬИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ ПОДРОСТКАМИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, *1*(7), 81-83.

7. Каршибаев, С., & Анорбоев, Х. (2023). Talabalar o ‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 476-479.

8. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 81-88.

JAMIYATDA IJTIMOIY NORMALAR VA ULARNING AHAMIYATI

Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li,
Mamatqulova Lobar
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu tesizda jamiyatdagi ijtimoiy normalar va ularning shaxslarga turli tuman ta’sirlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: norma, qadriyatlar, shaxs, genesis, tabiat qonunlari, ehtiyoj, Plaxov, Yadov, Veber, funksional, hatti-harakatlar, immanens, turli xil tashqi ta’sirlar.

Har bir jamiyat o‘ziga xos me'yorlar qadriyatlar tizimiga ega, shu jumladan ushbu jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari va burchlariga qo‘yiladigan talablar. Me'yorlar tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanish darajasiga, shuningdek, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq me'yorlar tizimlari bog‘liq o‘zgaruvchidir. Ijtimoiy me'yorlar muqarrar ravishda odamlarning muloqoti va hamkorligi natijasida shakllanadi, ular immanentdir (lot. immanens dan — biror narsada yashash, biror narsaga xos) va inson sotsializatsiyasining har qanday shaklining asosiy tarkibiy qismi. Ularning xulq-atvorini belgilaydigan me'yorlar tizimi bo‘lmagan jamiyat yoki odamlar guruhi yo‘q.

Jamiyatdagi ijtimoiy normalar turli funktsiyalarni bajaradi: yo‘naltiruvchi, tartibga soluvchi, ruxsat beruvchi, axborot, tuzatuvchi, tarbiyaviy va boshqalar. Normalarda muayyan harakat usullari mavjud bo‘lib, ularga muvofiq shaxslar o‘z faoliyatini quradilar va baholaydilar, xatti-harakatlarni boshqaradi va tartibga soladi. Ijtimoiy me'yorlar inson xulq-atvorining maqsadlarini shakllantirishga qaratilgan.

“Ijtimoiy me’yor” tushunchasi ancha keng. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ushbu kontseptsiyani u yoki bu tarzda tahlil qiladigan ko‘plab asarlar mavjud, ammo, mening bilishimcha, normalarning tizimli uslubiy tahlili hali ham mavjud emas.

Shunga qaramay, fanda ushbu hodisaning ta'riflari shunchalik ko‘pki, bu

muammoni ishlab chiqishda ishtirok etgan yoki ilgari qatnashgan mualliflar mavjud. Bu birinchi navbatda E.Dyurkgeym, M.Veber, V.Samner, T.Parsons, R.Merton, R.Mills. Keyingilardan M. Sherif, R. Morris, R. Linton, V. Momov, V. Vichev, V. Prodanov va boshqalar. Rossiya olimlaridan normalarning ta'rifini: M.I. Bobneva, S.A.Dashtamirov, Yu.A.Kleiberg, V.M.Penkov, V.D.Plaxov, A.A. Qalam, V.A. Yadov va boshqalar. Olimlar me'yorni ideal, ob'ektiv mavjud bo‘lgan hodisaning belgisi, o‘rtacha statistik ko‘rsatkich, maksimal variant, atrof-muhit bilan "muvozanat", funktsional optimal, majburiy tartib, belgilangan o‘lchov va boshqalar deb belgilaydilar.

Ijtimoiy me’yorlar hodisasiga turlicha qarashlarni keltirishning hojati yo‘qdir, ehtimol, ular hammaga ma’lum va o‘quvchi ular bilan yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning asarlarida batafsil tanishishi mumkin. Shunga qaramay, men o‘quvchi e'tiborini uch xil fundamental ta'rifga qarataman: **"ijtimoiy normalar** - bu shaxslar va guruhlarning xatti-harakatlarini ijtimoiy tartibga solish vositasi" **“Ijtimoiy me’yorlar** – ijtimoiy hamjamiyat (guruh, tashkilot, sinf, jamiyat) o‘z a’zolariga belgilangan namunadagi faoliyatni (xulq-atvorni) amalga oshirish uchun qo‘yadigan talab va kutishlar yig‘indisidir.; **“Ijtimoiy me’yor** – ijtimoiy amaliyot bilan shartlangan jamiyat hayotining o‘ziga xos tarixiy sharoitlarida munosabatlarni tartibga solishning ijtimoiy-madaniy vositasidir.

Bu ta'riflardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy normalar ko‘p funksiyali; ular hayotimizning barcha jabhalariga tom ma'noda kirib boradi. Normalar tufayli jamiyat individual xatti-harakatlarning bir xil harakatlarini tartibga solish zaruratidan xalos bo‘ladi. Odamlarning ongi va xulq-atvorini tartibga solishda ijtimoiy normalarning mohiyati yotadi. Tabiiyki, tartibga solish hukmron qadriyatlar, ehtiyojlar, manfaatlar va mafkura tizimiga muvofiq amalga oshiriladi. Shunday qilib, ijtimoiy normalar maqsadlarni belgilash, joriy boshqaruv va ta'lim qarorlarini ishlab chiqish vositasi bo‘lib chiqadi. Tabiiyki, ular ijtimoiy muhitdagi deviant xatti-harakatlarni bashorat qilish, ijtimoiy nazorat qilish va tuzatish, shuningdek, shaxsning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish vositasiga aylanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy me'yorlarni o‘rganish ma'lum qiyinchiliklar bilan bog‘liq, chunki na gnoseologiya, na psixologiya, na tibbiyot, na sotsiologiya alohida-alohida sotsiologiyaning kelib chiqishi va paydo bo‘lish mexanizmlari haqidagi savolga javob bera olmaydi. Bu yerda bir qator ilmiy fanlarga tayanish kerak, chunki norma muammosi chegara muammosi; me'yor ob'ektiv ravishda ko‘plab ijtimoiy jarayonlarning kesishish nuqtasidir, shuning uchun uni o‘rganish fanlararo ahamiyatga ega. Ijtimoiy tizimlarning tabiiy muhiti omillari turli tadqiqotchilar tomonidan katta e'tiborga olingan va berilyapti, ammo ijtimoiy normalar genezisi uchun tabiiy-tarixiy shartlar masalasi hali ham ochiq.

Norma genezisining muhim jihatlaridan biri uning tabiiy tarixiy binolarini o‘rganishdir. Ilm-fan va amaliyot uzoq vaqtdan beri odamlar o‘z hayotida tabiat namunalaridan foydalanmasdan qila olmasligini isbotladi.

Tabiat tarixan insondan oldin bo‘ladi, shuning uchun ijtimoiy me'yorlar genezisining tarixdan oldingi davri, ya'ni. uning ijtimoiy hayotining natijasi qonunlardir. Tabiatning mahsuli va davomi bo‘lib, inson uyushgan mavjudotga tabiiy moyillikka, tartibga solishga tabiiy moyillikka ega, shuning uchun u individual

ijtimoiy normalarning paydo bo‘lishining tabiiy tarixiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Me'yorlarning genezisi va rivojlanish mexanizmini o‘rganar ekan, ijtimoiy me'yorlarning paydo bo‘lishi va amal qilishining uchta yo‘lini yodda tutish kerak: **o‘z-o‘zidan, rejalashtirilgan-ongli va aralash.** Bundan tashqari, ushbu mexanizmlarning har biri bilan har qanday turdagi ijtimoiy normalar paydo bo‘lishi mumkin va har bir holatda ma'lum bir mexanizmga xos bo‘lgan me'yorlar genezisining o‘ziga xos xususiyatlari ochiladi. Normlarning kelib chiqishi tabiiy tizimli jarayonlar tufayli yuzaga keladi. Biz odatda urf-odatlar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar shaklida ishlaydigan ijtimoiy tizimlarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishini, o‘z-o‘zini rivojlanishini kuzatamiz. Subyektiv tartibli faoliyat natijasida ijtimoiy normalarning kelib chiqishi va rivojlanishi sun’iy jarayondir.

Ijtimoiy me'yorning amaliyot va bilishga nisbatan nisbiy mustaqilligi uning paydo bo‘lishi, shakllanishi, ko‘payishi va rivojlanishining maxsus mexanizmi bilan bog‘liq; shu bilan birga, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotning takrorlanadigan sharoitlariga, odamlarning ehtiyojlari va munosabatlariga bog‘liq va bu asossiz paydo bo‘lmaydi, takrorlanmaydi.

Ijtimoiy norma universaldir. Bu turli shaxslarga, odamlar jamoalariga nisbatan uning harakatining bir xilligi sifatida tushuniladi. U jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning xarakterini aks ettiradi, shuning uchun amaliy ijtimoiy tajribani chuqur o‘rganish zarurati tug‘iladi.

Me’yor xususiyatlarining bunday tasnifi, albatta, mukammallikka da’vo qilmaydi, lekin u ijtimoiy me’yorning mohiyati va xususiyatlarini boshqa asarlarga qaraganda adekvatroq aks ettiradi. Normlar ijtimoiy tashkilotning barcha darajalariga xosdir: shaxslar, guruhlar, submadaniyatlar, jamiyatlar, lekin bu ularning butunlay bir xil ekanligini anglatmaydi. Har bir sub'ektning "me'yor" haqida o‘ziga xos g‘oyalari bor va bu g‘oyalar har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, ochiq yoki yashirin (yashirin) konfliktga kiradi. Ushbu nomuvofiqlik mavjud rasmiy, rasmiy (e'lon qilingan va qonuniy) normalar va odamlarning haqiqiy xatti-harakatlari normalari o‘rtasidagi munosabatlarning ancha murakkab muammosini keltirib chiqaradi. Normlar amalda amalga oshiriladigan yoki amalga oshirilayotgan paytda mavjud bo‘ladi.

Ijtimoiy va me'yoriy yo‘nalishlar tizimi insonning barcha shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va amalda amalga oshirishga faol ta'sir ko‘rsatadigan g‘oyalar, qarashlar, tamoyillar, qadriyatlar va me'yorlar tizimi alohida ahamiyatga ega, uning fikrlari va xatti-harakatlarining tabiati. faoliyat.

Shunday qilib, shuni esda tutish kerakki, ijtimoiy normalar nafaqat jamiyat, balki shaxs topografiyasini ham belgilaydi. Har bir inson o‘z hayotida turli xil ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning ishtirokchisidir. Insonning xulq-atvori ushbu holatlarning har biriga, agar shaxs yaxshi tushunsa va tegishli ijtimoiy me'yorlarni o‘zlashtirsa, adekvat bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy ahamiyatga ega vaziyatlarning ko‘pligi shaxs tomonidan ichkilashtirish zarurati va ko‘plab me'yorlar to‘plamini anglatadi. Inson esa o‘rganganlarini har bir aniq vaziyatda qo‘llay olishi kerak. Ijtimoiy me'yorlarni istamaslik yoki mensimaslik, qoida tariqasida, odamni ijtimoiy og‘ishlarga, nizolarga, deviant xatti-harakatlarga olib keladi.

Ijtimoiy me’yorlarning xususiyati shundan iboratki, ular ijtimoiy harakatning istalgan natijasiga erishish dasturini belgilab beradi, shuningdek, ular ta’lim omili sifatida ham harakat qiladi va normalar bu jarayonda yordamchi rol o‘ynaydi; ular shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga "Men-kontseptsiya" ning o‘zini-o‘zi amalga oshirishi sifatida ta'sir qiladi. Bu, birinchi navbatda, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni, ijtimoiy muhitga kirish jarayoni, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, muayyan rol va funktsiyalarning rivojlanishi va boshqalar.

Jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me'yorlarning (tarbiya va ta'lim jarayonida, jamoatchilik fikri va boshqa ko‘plab ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida) shaxsiy e'tiqodlarga, xatti-harakatlarning ichki motivlariga aylanishi insonning xatti-harakatlarini amalga oshirishi va baholashini anglatadi. ushbu normalar nuqtai nazaridan. Biroq, turli sabablarga ko‘ra, ijtimoiy me'yorlar yig‘indisidan inson o‘z hayotining yo‘nalishi sifatida ularning faqat bir qismini o‘zlashtiradi va tan oladi, ya'ni. uning xulq-atvorining motivlari faqat ijtimoiy ong maydonidan uning individual ongiga o‘tgan, u tomonidan o‘zi va jamiyat, sinf, jamoa, ijtimoiy guruh uchun zarur, yaxlit va foydali deb e'tirof etilgan ijtimoiy normalardir.

Shuning uchun ijtimoiy normalar, agar ular shaxsning individual ongining tarkibiy qismiga aylansa, samarali bo‘ladi. Aynan o‘sha paytda ular xatti-harakatlar va o‘z-o‘zini nazorat qilish omillari va tartibga soluvchisi sifatida ishlaydi; ijtimoiy norma ixtiyoriy o‘z-o‘zini majburiyat sifatida harakat qiladi.

Deviantologlarning fikriga ko‘ra (V.V. Novikov, V.F. Pirojkov, D.P. Piskarev, S.A. Kalkulyatsiya, E.V. Rudenskiy, L.V. Fomina, A.V. Shapochkin va boshqalar), me'yor va og‘ishlar haqidagi g‘oyalarning eng tizimlashtirilgan, umumlashtiruvchi tahlili ijtimoiy psixologiyada mavjud. ushbu darslik muallifining monografiyasi. Muallif, birinchi navbatda, psixologlar tomonidan tibbiyotdan, xususan, psixiatriyadan norma va og‘ishlarni tushunishni ta'kidlaydi, ya'ni. oxir-oqibat "norma - patologiya" dixotomiyasidan. 80-yillarda jadal rivojlanayotgan statistik yondashuv, xususan, differensial psixologiyada me'yorni sifat belgisi emas, balki statistik miqdor sifatida tushunishning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salim o‘g‘li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 66-72.

2. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O ‘ZINI-O ‘ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).

3. Norbekova, B. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. Журнал дошкольного образования, 3(3).

4. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 1-5).

5. Arakulov, G. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 518-521.
7. Ибайдуллаева, У. (2022). РОЛЬ СЕМЬИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ ПОДРОСТКАМИ. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 1(7), 81-83.
8. Каршибаев, С., & Анорбоев, Х. (2023). Talabalar o ‘quv faoliyatining turlari va xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 476-479.
9. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 81-88.

O‘ZBEK OILALARIDA ER VA XOTIN O‘RTASIDAGI YUZAGA KELAYOTGAN NIZOLI MUNOSABATLARDA HISSIYOTLARNING O‘RNI

ps.f.f.d.(PhD) Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda dolzarb sanalgan oilaviy munosabatlar ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, hissiyotlar tufayli yuzaga kelayotgan nizolar tufayli oilalarda nosog‘lom muhitning hukm surishi, hissiyot, nizo, kelishmovchilik tushunchalari va ushbu kelishmovchiliklar natijasida yuzaga kelayotgan ajrimlarning ko‘payib borayotganligi, er va xotin o‘rtasidagi nizolarning sabablari ochib berilib, ularni bartaraf etish usullari yoritilib, xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, nizo, kelishmovchilik, hissiyot, er va xotin, ota-ona, shaxs, xulq-atvor, munosabat.

Bugungi kunda oilani mustahkamlash dolzarb masala sanalib, ularda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etilishiga qaramay, jamiyatimizda oilalarning barbod bo‘lish holatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotganligini, oilaviy munosabatlar ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi nizolar tufayli oilalarda nosog‘lom muhitning hukm surishi, turli xil hissiyotlarga berilishi sabab, oiladagi ruhiy ziddiyatlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan hamda oilasida ijobiy muhit hukm surgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his eta oladi. Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni yaratish, oila qadriyatlari va oiladagi shaxslararo munosabatlarini shakllantirish orqali oilaviy munosabatlarini barqarorlashtirishga bo‘lgan e’tibor

davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlash orqali oila institutini mustahkamlash, “Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish[1] g‘oyasi negizida oila mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilandi. Komil insonni tarbiyalash va huquqiy davlatchilik asoslariga poydevor qurish maqsadida mustaqil yurtimizda 1998- yil — “Oila” yili, 2012-yil esa “Mustahkam oila” yili deb belgilanganligi bejiz emas.

Mamlakatimizda o‘zbek oilalarida o‘zaro munosabat turlari va ijtimoiy-psixologik omillari, oiladagi psixologik muhitini sog‘lomlashtirish, undagi shaxslararo munosabatlar, ota-onalarning o‘zaro munosabatlarini o‘smir shaxsiga ta’siri masalalarini O‘zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, H.Abdusamatov, R.Dushanov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, A.E.Kadirova, N.X.Lutfullayeva, G.Niyazmetova, R.S.Samarov, N.A.Sog‘inov, B.M.Umarov, M.A.Utepbergenov, O‘.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov, U.D.Qodirov va boshqalar tadqiq etishgan.

Oila atamasi bu – o‘zaro munosabatlar asosida birlashgan ota-ona, bolalar, aka-ukalardan tashkil topgan bir guruh sanaladi. Oila kelajakdagi munosib vorislarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalaydigan, qadriyat hamda milliy an’analarimizni kelajak avlodga o‘tkazadigan maskan sanaladi. Mamlakatimiz hamda xalqimizning tinch va xotirjam bo‘lishida oilalarning totuvligi ham katta ahamiyatga egadir. Ammo achinarli tomoni shundaki, o‘zbek oilalarida qaynona-kelin, er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kuyov o‘rtasida nizolarning uchrab turishidir. Oilalarda yuzaga kelayotgan turli nosog‘lom munosabatlarga nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy yoki jismoniy omillar balki oila a’zolarining turli hissiyotlarga berilib munosabatda bo‘lishi ham sabab bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan hissiyot atamasiga ta’rif berib o‘tsak. Hissiyot bu – insonlarning atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga, boshqa insonlarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmasi sanaladi. Har bir inson jamiyatning bir a’zosi sanaladi, shuningdek, inson sifatida atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga o‘z munosabatini xolisona aks ettiradi. Insonlarning munosabatlari uning ongida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi ularda hissiyotni yuzaga keltiradi. Hissiyot tushunchasi insonlarning turmush tarzida har xil ma’nolarda qo‘llanadi. Kundalik turmushda hissiyot tushunchasi o‘rniga sezgilar, xohishlar, tilaklar, talablar, maqsadlar atamalaridan foydalaniladi. Agar oilaviy munosabatlarda ushbu tilaklar, talablar yoki maqsadlar me’yoridan oshib ketsa so‘zsiz munosabatlarda taranglik, kelishmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi.

Respublikamiz psixolog olimalaridan professror Vasila Karimovaning “Oila psixologiyasi” nomli darsligida er va xotin o‘rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo‘luvchi hissiyotlarga quyidagilarni kiritib o‘tganlar: achchiqlanish, aybdorlik, arazlash, nafrat, tanqid qilish, turmush o‘rtog‘idan yiroqlashish, ketib qolish hamda befarqlik[2] kabi hissiyotlar. Darhaqiqat, oilalarda yuzaga kelayotgan munosabatlarda ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarda hissiyotlarning o‘rni katta ekanligini

ta’kidlash lozim. Munosabatlarda yuzaga kelayotgan achchiqlanish holati oilaviy hayotda, munosabatlarda ko‘p uchraydigan holat sanaladi, bunday holat er yoki xotinda bir-biriga o‘zaro g‘amxo‘rlik yoki bog‘liqlik kamaygan vaziyatlarda paydo bo‘lishini aytish mumkin. Ushbu holat yuzasidan psixolog F. Perlzning shunday deb aytadi: “Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va o‘zaro muomalaga bo‘lgan intiqlikdir” deb o‘tgan. Haqiqatdan ham oilada er-xotin bir-biridan vaqti-vaqti bilan jiddiy sabablarsiz achchiqlanib, arazlab turishi, ularni o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatini yanada yaqinlashishiga, bir-biriga e’tiborli bo‘lishiga olib kelishini aytib o‘tish mumkin.

Er-xotin munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hissiyotlardan yana biri bu nafrat hisoblanadi. Nafrat bu– er-xotinlar bir-biri bilan uzoq vaqt gaplashmay qo‘yishi, ataylab o‘zini yomonday ko‘rsatishi yoki huddi dushmaniga qaraganday muomala qilib munosabatga kirishishi hisoblanadi. Hozirgi kunda afsuski, bu hissiyot oilaviy hayotda tez-tez bo‘lib turayotganini ko‘rish mumkin. Bunday munosabat insonni ich-ichidan zil ketishiga, ich-etini yeb qo‘yishiga hamda stress holatlarini yuzaga kelishiga olib keladi.

Er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda hissiyotlarning o‘rni juda muhim. Ularning o‘rtasida nizo yoki kelishmovchiliklarni yuzaga kelmasligi uchun har qanday holatda ham er yoki xotin o‘z hissiyotlarni jilovlay olish kerak. Ushbu holatlarni oldini olish uchun quyidagi xulosa va takliflarni berishimiz mumkin:

1. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarida odatda ko‘z yoshi, arazlash, achchiqlanish holatlari uchrab turadi. Bunday holatda ular bir-birini hissiyotlarini tushuntirib, ularni qabul qilish va qadrlash juda muhimdir.

2. Oilada er-xotin har doim bir-birini eshita olishi va tushuna olishi lozim. Ular o‘zlarining hissiyotlarini ifodalash usullariga e’tibor berishi kerak. Turli xil salbiy hissiyot va emotsiyalarga berilmasdan murojaat qilish, ularni o‘z muammolarini va istaklarini bartaraf bo‘lishiga va ularni tushunishiga yordam beradi.

3. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar odatda sabr va matonatni talab qiladi. Har bir holatda ham bir-biriga sabrli holatda yondoshsalar ular o‘rtasidagi munosabatda tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan xulosa va takliflarga har bir oilada er va xotin amal qilishsa, oilalarda nizolar soni kamayib, har bir oila mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. V.Karimova Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. T.2007. B.76

3. Ибайдуллаева, У. (2023). Er-xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan konfliktlarda oilaviy munosabatlarning o‘rni va ahamiyati. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 461-464.

4. Ибайдуллаева У., Тиркашева М. (2023). Oilaviy nizolar va ajrimlar-jamiyat zavoli. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 467-471.

5. Ibaydullayeva, U. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN PREVENTING CONFLICTS BETWEEN ADOLESCENT. Solution of social problems in management and economy, 1(7), 81-83.

6. У. Ибайдуллаева, М. Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-Ярославль, Россия. 2024.

7. У. Ибайдуллаева Причины конфликтов между супругами и способы их устранения Вестник интегративной психологии. Выпуск 30, Бухара-Ярославль, Россия. 2023.

8. U.Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

9. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilaviy nizolar va ajrimlar – jamiyat zavoli kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Jizzax-2023 2-qism

10. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilada ajrimlar yuzaga kelishi va unga olib keluvchi sabablar. Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar mavzusidagi 1- xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023

ZARAFSHON SHIMOLI YONBAG‘IRLARIDA TARQALGAN QORINOYOQLI MOLLYUSKALARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Uralov Ulug‘bek Baxriyevich
Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti
Qudratov Jasur Asilbekovich
Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti

Annotatsiya: Qorinoyoqli mollyuskalarning bioekologik xususiyatlari har doim ham tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan va diqqat markazida turgan muammolardan biri hisoblanib, ushbu muammo bo‘yicha chop etilgan turli yo‘nalishdagi maqolalar : N.D.Kruglov, S.D.Drozdova, T.N.Makarova(1975), N.D.Kruglov (1979,1980), YU.V.Sachkova(2002,2004), esa fikrimizni isboti sifatida qarash mumkin.

Kalit so‘zlar: bioekologik, gidrologik, gidrokimyoviy, fitofil, biotoplar, krwnofil, fitofil, telmatofil, fitoreofil.

Kirish: Mollyuskalar asosiy vakillarining ekologiyasi - ularni o‘rganishning dastlabki yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, qorinoyoqlilar bioekologik xususiyatiga ta’luqli ma’lumotlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, o‘rganilayotgan hudud mollyuskalariga oid ma’lumotlarni yetarli emas, mavjudlari ham fragmentar xarakterga ega. Shuning uchun, yuqoridagi ma’lumotdan kelib chiqib, o‘zimizning

shaxsiy materiallar va tadqiqot natijalari asosida Nurota qorinoyoqli mollyuskalarining bioekologik xususiyatlariga oid ilk ma’lumotlar quyida keltirilgan.

Nurota tog‘lari qorinoyoqli mollyuskalarning yashash joyi va ekologik guruhlari O‘pkali qorinoyoqli mollyuskalarning ma’lum bir qismi suvda, yana boshqasi esa quruqlikda yashashga moslashgan.

Suvqorinoyoqli mollyuskalarining turli xil suv havzalarida tarqalishi ularning asosan suvning gidrologik va gidrokimyoviy rejimi, hamda atmosfera kislarodiga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Teri orqali nafas oluvchi o‘pkali suv mollyuskalari uchun suvda erigan kislarod muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bir qator o‘pkali suv mollyuskalari kislarod bilan to‘yingan suvlarda keng tarqalgan.[1.2]

Quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarning turli xil biotoplarda tarqalishi yoki bu biotoplar bo‘yicha tarqalishi, to‘g‘ridan – to‘g‘ri ekologik sharoitga bog‘liq.

Suv qorinoyoqli mollyuskalarning yashash joyi va ekologik guruhlari

Qorinoyoqli suv mollyuskalarni hamma tabiiy suv havzalarida, shuning bilan birga, yil davomida vaqtinchalik (5-6 hafta turadigan) suvlarda ham uchratish mumkin. Biroq, ularning tur tarkibi, xilma-xilligi va turlar soni, suv havzalarida turlicha bo‘ladi.[1]

Nurota tog‘larida suv qorinoyoqli mollyuskalari yashaydigan suv havzalarini 4 ta guruhga, ya’ni 1- guruh : - daryo va ko‘llar; 2- guruh : -kichik suv havzalar: buloq, chashma va botqoqliklar; 3-guruh : daryo yoqasidagi ko‘lmaklar, kichiariqlar va vaqti-vaqti bilan qurib qoladigan ko‘lmak suvlar; 4- guruh : -daryo suvlarining yoyilib oqadigan joylaridagi toshlar. Har bir guruhlarning malakofaunasi o‘ziga xos xususiyatga ega.

Mollyuskalar yashaydigan birinchi guruhga – daryo, ko‘l va suv omborlar kirib, u yerda uchraydigan mollyuskalar tarkibi bir-biriga o‘xshash. Mollyuskalar yashaydigan daryo, ko‘l va suv omborlarning umumiy xususiyati shundaki, ular bir xil sharoitga(suv havzasi nisbatan katta) ega bo‘lishi; suvda erigan kislarodni va suv o‘tlari(makrofit)ning ko‘pligi.[3]

Bu yashash joyidagi mollyuskalarni barchasi shu makrofitlarda uchrab, ularni populyatsiyadagi zichligi ham yuqori. Masalan, fitofil turlardan biri Lymnaea stagnalisning populyatsiyadagi zichligi $1m^2$ 40-45 tani tashkil etadi. Turli xil substratlar ostida esa turlar kam uchrab, asosan atmosfera havosidan qisman nafas oladigan turlar hisoblanib , ularga Anisus avlodi vakillari kiradi.

Ko‘l va suv omborlar qorinoyoqli mollyuskalar faunasi oqish arajasiga bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Masalan, oqmaydigan ko‘l yoki hovuz malakofaunasi kambag‘al bo‘lib, bir havzadan, ikkinchisiga o‘tgan sari turlar soni yana ham kamayib borib, bunday havzalarda faqat 1 yoki 2 tur(L.stagnalis, P.planorbis) uchrashi mumkin.

Oqadigan ko‘l, hovuz va suv omborida mollyuskalar turlar tarkibi doimiy bo‘lib, har bir havzada 7-8 tagacha qorinoyoqli mollyuska turlari(asosan makrofitlar) uchrashi mumkin. Bu xarakterli turlar kompleksiga L.auriculria, L.stagnalis, P.planorbis misol bo‘la oladi.

Ikkinchi, yashash joy guruhiga – kichik suv havzalar: buloq, chashma va botqoqliklar kirib, akvatoriyasi makrofitlardan tashkil topgan. Bu yerda shuni alohida qayd qilish lozimki, Nurota tog‘larida oqar suvlarga yaqin bo‘lgan joylarda yer osti

suvlaridan to‘yinadigan buloqlar va kichik – kichik botqoqliklar ko‘p bo‘lib, ular birinchi navbatda chuqurligi bilan farq qilib, yozda qurib qolish va qishda esa muzlab qolish xavfi katta bo‘ladi. Shuning uchun ikkinchi yashash joyi guruhi malakofaunasi o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lib, birinchi guruh yashash joyi malakofaunasidan keskin farq qiladi.[4]

Buloq, chashma va botqoqliklarning asosiy substrati: tirik va chiriyotgan o‘simlik barglari, hamda detrit (cherish natijasida tanib bo‘lmas darajadagi organik olam)lardan tashkil topgan.Yirik suv havzalaridagi makrofitlar singari, buloq va botqoqliklardagi o‘simlik dunyosi mollyuskalar uchun “Jannat” hisoblanib, mollyuskalar tirik massasiga nisbatan boshqa guruhlardan ancha yuqori turadi. Uncha chuqur bo‘lmagan haqiqiy suv o‘tlari o‘smaydigan botqoqliklar va buloqlarda asta – sekinlik bilan malakofaunistik tarkibi o‘zgarib, u larda L. thiessea, Ltrunatula, P.planorbis kabi turlarni uchratishimiz mumkin.

Buloq, chashma va botqoqlik chuqurligi ortgan sari turlar soni ham ko‘payib boradi va u yerlarda M.brevicula, M.hissarica, B.bucharica, Paladilhiopsis sp.L.subangulata turlari uchrab, ularning populyatsiyadagi zichlik darajasi ham yuqori bo‘lib (1 m^2 maydonda 50-60 tagacha) ular doimiy turlarga aylanadi. Biroq, ba’zi L.truncatula, P.planorbis kabi turlar asta-sekin yo‘qolib boradi.

Uchunchi, yashash joy guruhiga -daryo yoqasidagi ko‘lmaklar, kichik ariqlar va vaqti-vaqti bilan qurib qoladigan ko‘lmak suvlar.[12.13]

Bu biotoplar ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib , mollyuska turlari soni uncha ko‘p emas. Buning qator sabablari bor. Birinchidan, hayot sharoitining mavsumiy o‘zgarishi, qurib qolishi, muzlashi yoki suv oqimini keskin almashinishi. Biroq, bu biotoplarda suv havzalarining qurishiga chidamli bo‘lgan L.truncatula, A.ladacensis turlari tarqalgan. Ikkinchidan, qator ko‘lmaklar borki, asosiy suv havzalaridan alohidalashgan va uzoqda joylashgan bo‘lib, ular bir necha oy yoki yil turishi mumkin. Qaysiki bunday holatda mollyuskalar oldida qiyin yo‘l turadi, qanday qilib bunday suv havzalarida yashab qolish kerak. Alohidalashgan ko‘lmak suvlarda mollyuskalarning shakillanish mexanizimi hali o‘rganilmagan. Bunday vaqtinchalik ko‘lmak suvlarda ham L. truncatula A.ladacensis turlari yashaydi. Uchinchi asosiy sabab - vaqtinchalik ko‘llarda suv o‘tlarining bo‘lmasligi. Shuning uchun ham bu ko‘lmaklarda bori – yo‘g‘i 1 yoki 2 turni uchratish mumkin.[5.6]

Qorinoyoqli suv mollyuskalarning to‘rtinchi yashash joyi guruhi – daryo suvlarning yoyilib oqadigan joylaridagi toshlar. Bunday biotoplarda tez oqadigan suvlarda yashashga moslashgan ko‘l va daryo turi L.auricularia keng tarqalgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, Nurota tog‘larida suv qorinoyoqli mollyuskalari yashaydigan 4 guruhdagi suv havzalari va malakofaunasi orasida aniq bir chegara mavjud emas. Shuning uchun suv mollyuskalarini ekologik guruhlarga ajratilganda ularni shartli ravishda ajratish mumkin. [10.11]

Umuman O‘rta Osiyo suv mollyuskalarining ekologiyasi Z.I.Izzatullayev (1983) tomonidano‘rganilib, suv mollyuskalari 8 ta ekologik guruhga ajratilgan.

Nurota tog‘larida tarqalgan qorinoyoqli suv mollyuskalarini Z.I.Izzatullayev(1983)klassifikatsiyasiga asoslanib, quyidagi ekologik guruhlarga ajratish mumkin. 1 – krwnofil, 2 – fitofil, 3 – telmatofil, 4 – fitoreofil.

Krenofil turlarga M.brevicula, M.hissarica, L.subangulata, B.bucharica, kirib ular asosan chashma va buloqlarda, suv o‘tlari poyasi va buloq suvlari chiqish joyidagi turli xil toshlarga yopishib yashaydi.[1.6.7]

Fitofil turlarga, daryo, ko‘l va suv omborlarining sekin oqar qismida, ko‘pincha qirg‘oqlarning suvo‘tlar bilan qalin o‘sgan qismida yashaydigan L. stagnalis, tekislik mintaqasi sekin oqar suv havzalari suvo‘tlari orasida L. bactriana, C. acuta ko‘p miqdorda uchraydi, doimiy va vaqtinchalik suv havzalarida - ko‘lmak, hovuz, ko‘l va buloq suvlaridagi suvo‘tlar orasida yashaydigan P. planorbis, P. tangitarensis, oqar (kanallar, ariqlar, chashma va buloqlar, sholipoyalarda) va oqmas suvlarda (ko‘llar, hovuzlar, balchiqlar)gi cho‘kkan o‘tlarda hayot kechiradigan A.ladacensis turlari kiradi. [8.9]

Telmatofil turlar tez quruvchi va kichik chashmalar suvlarida va suv chetidagi loylarda yashab, ularga L.thiessea, L.truncatula turlari mansubdir.

Fitoreofillar, sekin va tez oqar suv havzalari qirg‘og‘ida, suv o‘tlar orasida, oqadigan buloq va chashma toshlari ostida hamda ustida yashaydigan L. auricularia, L. oblonga turlari kiradi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra Nurota tog‘lari qorinoyoqli suv mollyuskalari ekologik guruhlari turlar soni jihatidan fitofil turlar ko‘pchilikni tashkil etib, u tarkibiga 6 ta tur kirib, foizga nisbatan 40%, krenofil ekologik guruhi tarkibiga 5 ta tur kirib, u 33,3%, telmatofil vafitoreofil ekologik guruhi tarkibiga 2 tadan tur mansub bo‘lib, foizga nisbatan 13,3% ni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qudratov J.A. Nurota tog‘lari qorinoyoqli mollyuskalari taksonomiyasi,bioekologik xususiyatlari, tarqalishi va ahamiyati. Biologiyafanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)diss.avtoreferati Toshkent. 2018. 44 b.
2. .Pazilov A. Noyobva yo‘qolibborayotganquruqlik mollyuskalari // Problemы biologicheskie i ekologicheskie: Mejd. nauchn-prakt. konf.- Tashkent, 2001b. S.260 – 261.
3. Pazilov A. Zoogeograficheskaya struktura faunы nazemnых mollyuskov Ferganskoy dolinы i okrujayuщix yeyo gornых xrebtov // Vestnik GulGU. – 2001 v. - №1.-S. 78 – 81.
4. Pazilov A. Zarajennost nazemnых mollyuskov lichinkami protostrongilid v predgornых zonax Zarafshanskogo xrebta // Parazitologiyaningdolzarbmuammolarigabagishlangan Respublika ilmiy-amliykonferensiyasiningmateriallari. - Qarshi, 2003. B 66-68.
5. Izzatullaev Z.I. Mollyuski vodnых ekosistem Sredney Azii. 2018. Tashkent-232s.
6. Izzatullaev Z.I. Fauna mollyuskov vodnых ekosistem Sredney Azii i sopredelnых territoriy. - Tashkent, 2019.-326 s.
7. Izzatullaev Z., Qudratov J. Sostav faunы i zoogeograficheskie svyazi bryuxonogix mollyuskov (Mollusca, Gastropoda) Nuratinskogo xrebta. Uzb. Biol. jurn., 2012. № 4. – S. 33 – 35.
8. Izzatullaev Z., Qudratov J. Vidovoy sostav, ekologicheskie kompleksы, rasprostranenie i oxrana bryuxonogix mollyuskov rodnikov i klyuchey Nuratinskogo

xrebta. Uzb. biol, jurn. 2012, № 2. – S. 31 – 35

9. Izzatullaev Z., Qudratov J. Faunisticheskiy sostav, ekologicheskie kompleksы i xozyaystvennoe znachenie bryuxonogix mollyuskov (Mollusca, Gastropoda) gornых postbiщ Uzbekistana. Uzb.biol.jurnal., 2016. №3. –S. 39 – 41.

10. Izzatullaev Z., Qudratov J. Bioraznoobrazie mollyuskov kyarizov Uzbekistana Aktualnые voprosы soxraneniya bioraznoobraziya severnogo Tyan – shanya., 2017. –S. 177 – 179.

ETNIK IDENTIKLIKNING SHAXS PSIXIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

ps.f.f.d. Norbekova Barno Shavkatovna,
R.O.Tulasheva
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnik identiklikning shaxsning ruhiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi.Etnik o‘ziga xoslik shaxsning psixalogik va ijtimoiy tuzilishining asosiy jihati bo‘lib, uning o‘zini o‘zi his qilishi,dunyo qarashlari va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini shakillantiradi. Maqolaning maqsadi, etnik identiklikning shaxsiy ruhiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish va u madaniy va abadiy qadriyatlarga asoslangan elementlarni o‘z ichiga oladi .

Kalit so‘zlar: psixik rivojlanishi, etnik identiklik, etnik guruh, etnik xususiyat, xarakter, shaxs kansepsiyasi, etnospsixalogiya, antropologiya, etnos madaniyat.

Zamonaviy jamiyatdagi madaniy xilma xillik tobora ijtimoiy ziddiyatga aylanib bormoqda. Etnik jamoalarning ijtimoiy va madaniy integratsiyallashuv muammolari bevosita etnik va madaniy identifikatsiya jarayonlari bilan bog‘liq, shuning uchun zamonaviy ko‘p millatli muhitda etnik jamoalarning o‘z o‘zini identifikatsiyalash jarayonlarini o‘rganish kerak. Dj.Finning fikricha etnik identiklik-bu o‘zini etnik guruh a'zosi sifatida anglash, o‘z etnik kelib chiqish haqida tuzilgan va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xabardorlikka taaluqli dinamik ko‘p o‘lchovli konstruksiyadir. Etnik identiklik shaxsning malum bir guruhga mansubligini ko‘rsatgichi bo‘lib uning vakillariga xos fazilatlar mavjudligini bilish ta'lim va faoliyat sohasidagi etnik jihatdan aniqlangan afzalliklarni baholash bilan belgilanadi. Etnik identiklikning psixalogik ma'nosi milliy o‘ziga xoslik eng muhim belgilari til, kelib chiqish, turmish tarzi, an'anaviy madaniyati, qadriyatlar meyorlari, tarixiy xotira, xarakter, tashqi ko‘rinishdir.

O‘zining etnik guruhlarga mansubligini aniqlash orqali hayotda qo‘llab quvvatlovligini yo‘qotgan yosh avlod ijtimoiy notinchlik va nochorlik holatidan chiqish yo‘lini izlaydi, psixalogik xavfsizlik va barqarorlikni qo‘lga kiritadi o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi.Yagona farqlash identifikatsiya jarayoni ijtimoiy o‘ziga xoslikni shakillantirishga olib keladi, bu umumiy ma'noda o‘z guruhini boshqa ijtimoiy obyektlar bilan taqqoslash jarayonining natijasidir. Aynan ijobiy ijtimoiy o‘ziga xoslikni izlashda shaxs yoki guruh o‘zini o‘zi belgilashga boshqalardan ajralib turishga o‘z xarakatlarini tasdiqlashga intiladi. Etnik

identiklikning tuzilishi haqida gapirganda,tadqiqotchilar ongli va ongsiz darajalar (G.U.Saldatova), kongnitiv va affektiv (M.Barret) mavjudligini takidlaydilar.

Ijtimoiy madaniy o‘zgarishlar dinamikasida etnik guruhlarning jamoviy xotirasi muhim rol o‘ynaydi, chunki uning jamiyatdagi sharoitlari va funksialari etnik jamoaning o‘ziga xosligini shakllantirishga ta’sir qiladi. Etnik identiklik shaxs psixik rivojlanishiga ta’siri mavzusi psixologlar, etnologlar, sotsiologlar, antropologlar va boshqa soha mutaxasislar diqqatini jalb qilgan. Etnik identiklik psixologik kategoriya bo‘lib uning mohiyati malum bir etnik madaniy jamoaga mansubligini anglashdan iborat uning tuzilishida ikkita asosiy komponent ajralib turadi birinchidan kongnitiv, ikkinchidan affektiv.

Kongnitiv bu (bilim o‘z guruhining xususiyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar va ma’lum xususiyatlar asosida o‘zini uning a’zosi sifatida anglash. Affektiv (o‘z guruhini fazilatlarini baholash, a’zolikka munosabat).

Odatda etnopsixologik tadqiqotlar amaliy ehtijoylar bilan belgilanadi, olimlarning ko‘p yillik izlanishlari natijasida etnopsixologik tadqiqotlarning quydagi turlari mavjud: 1.Standart; 2.Madaniyatlararo; 3. Tarixiy. Bugunga kelib bolaning etnik madaniy rivojlantirish bosqichlari yosh chegaralari belgilangan. Etnik madaniy imtiyozlar 9-10 yoshda juda muhim etnik madaniy bilimlar asosida shakllanadi. Etnopsixalogiyaning rivojlanish tarixida birinchilardan Gipokrat edi, faylasuf odamlarning jismoniy va aqliy jihatdan farqlanishi geografik joylashuv va iqlim sharoiti bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Etnopsixologik tadqiqotlarda , “Emic” va “Etik” yondashuvlar ham mavjud, insonning individual hayotining son-sanoqsiz holatlaridan tashqari, bolaning etnik madaniy o‘ziga xosligini shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ijtimoiy muhit va guruhlararo munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadigan bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi eng muhimi quydagilar ajratilib ko‘rsatiladi.

1) ijtimoiy siyosiy sohadagi giloball o‘zgarishlar va ular bilan bo‘g‘liq millarlararo munosabatlar.

2) etnik guruhning bir xilligi- birinchi guruhning omillariga kelsak, ijtimoiy sohadagi muhim voqealar butun bir xalqning etnik-madaniy o‘ziga xosligini faollashtirishga yordam berishi mumkin. So‘ngi yillarda tadqiqotchilar etnik o‘ziga xoslikni shakllantirishning yana bir jihati shaxsda etnik xususiyatlarning o‘zgarmasligi va barqarorligi tuyg‘usining paydo bo‘lishi, etnik doimiyylikga alohida e’tibor qaratdilar. Binobarin etnik o‘ziga xoslik shaxsning psixologik va ijtimoiy tuzilishining asosiy jihati bo‘lib uning o‘zini o‘zi his qilishi dunyoqarashlari va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi. U madaniy adabiy qadriyatlarga asoslangan elementlarni o‘z ichiga oladi ular orqali shaxslar o‘z etnik guruh va turli etnik kelib chiqishi bilan bog‘lanadi. Etnik o‘ziga xoslik shaxsning o‘zini idrok etishiga o‘zini namoyon qilishiga dunyoni tushinishga va u shaxslararo munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib odamlarning do‘stlar, tanishlar ishonchga asoslangan aloqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari etnik o‘ziga xoslik chuqur bo‘lib shaxsning hissiy, aqliy va jismoniy farovonligiga ta’sir qiladi. Shu sababli ushbu maqola etnik o‘ziga xoslikning shaxslarning psixik farovonligi o‘zini o‘zi anglashi va shaxslararo dinamikasiga ko‘p qirrali ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Shunday qilib bolaning etnik madaniy o‘ziga

xosligi aniqroq tushilinadi va agar bola ko‘p millatli muhitda yashasa guruhlar o‘rtasidagi madaniy farqlar haqidagi bilimlar ertaroq hosil qilinadi.

Etnik identiklikning shaxs psixik rivojlanishiga ta’siri mavzusi ko‘p tomonlama o‘rganilgan va bu sohada ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Olingan tadqiqotni emperik natijalar tahliliga asoslanib etnik identiklikning talaba-yoshlarda diferensial ahamiyat kasb etishi ularning o‘z millati haqidagi mavjud tassavvurlari etnik stereotip va ustanovkalarning rivojlanganlik darajasi an’ana va urf- odatlarini o‘zlashtirganlik ko‘rsatkichi kabi omillar ta’sirida vujudga kelishi mumkin degan xulosalarga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreva G.M “Ijtimoiy bilish psixologiyasi” 997.C 112.

2.Malygina I.V “Etnomadaniy o‘ziga xoslik “(ontologiya, morfologiya, dinamika) Falsafa fanlar do‘ktiri Sci.M 2005

3. Mamatov M.M “Etnopsixologiya” -Toshkent, 2006

4.Phinney J. “O‘smirlarda etnik o‘ziga xoslik”, Tadqiqotlarni ko‘rib chiqish Psixologik axborotnoma//1990.(108)3.b

5. Romanova O.L. “Bolalar va o‘smirlarda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish “1994. 449-510b

SUHBATDOSHNI IDROK ETISHDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

Norbekova Barno Shavkatovna,
S. Mardonov
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning shakllanish jarayonida o‘zgalar bilan bo‘ladigan muloqotning ahamiyati va suhbatdoshni idrok etishdagi o‘ziga xos mexanizmlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Idrok, ijtimoiy persepsiya, muloqot, psixologiya, identifikatsiya, empatiya, refleksiya, stereotipizatsiya, muloqotning ahamiyati.

Insoniyat paydo bo‘libdiki bir birlari bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Muloqot jarayoni orqali munosabatga kirishib axbarot almashinadi. Hech shubha yo‘qki, hayotimiz davomida jamiyatning turli xil qatlamlariga oid kishilar bilan bevosita yoki bilvosita muloqot qilamiz. Muloqot mobaynida suhbatdoshimizni anglashga, uning hissiyotlariga ta'sir o‘tkazishga, uni biror maqsadga yo‘naltirishga harakat qilamiz. Ammo, doim ham ishimiz o‘xshayvermaydi. Bunga asosiy sabab, muloqot mobaynida o‘ziga xos texnikalardan ko‘p ham foydalanavermaymiz. Balki, biror bir so‘zlashuv texnikasining samarali ishlab berishiga ishonchsizlik bilan qaraymiz. Ammo, har narsaning sir-sinoati bo‘lgani kabi, suhbat jarayonida ham ma'lum bir qonuniyatlar amal qiladi. Ularni chuqur o‘rganish bilan suhbatdoshning ko‘ngliga yo‘l topishimiz mumkin bo‘ladi. Darhaqiqat, insoniyat antik davrlardan buyon

"Qanday qilib kishilarga ta'sir oʻtkazish mumkin?", degan savolga ma'nili javob topishga qiziqib kelgan.

Inson shunday moʻjizaki, u murakkab psixik jarayonlarning bevosita ishtirokchisi boʻla oladi. Atrofida roʻy berayotgan hodisalarni baholay oladi. Jumladan, inson tashqi muhitdan keladigan axborotlarni sezgisi bilan qabul qiladi. Turli xil sezgilarning ongda yaxlit obraz hosil qilishi esa idrok jarayonini yuzaga keltiradi. Qoʻzgʻatuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan segilardan farqli oʻlaroq, idrok narsalarni umuman, uning hamma xususiytlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yigʻindisidan iborat tarzda emas, balki hissiy bilishning oʻziga xos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi [1]. Ammo, kishilarni idrok etish predmetlarni idrok etishdan koʻra ancha murakkab jarayondir. Chunki, kishining xulqi oʻzgaruvchan hisoblanib, har daqiqada oʻzgacha qiyofa kasb etishi mumkin. Suhbatdosh tarafidan kelayotgan qoʻzgʻatuvchilar ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Predmetni idrok qilayotganda koʻproq obyektiv nuqtayi nazardan baho beramiz.

Kishilarni idrok etayotganda esa obyektiv ma'lumotlarga qoʻshib, hissiy ma'lumotlarni ham qabul qilib olamiz. Bunday ma'lumotlarni yaxlit holatga jamlash anchayin murakkabligi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham psixologiya fa'nida "muloqotning perseptiv tomoni" degan tushuncha paydo boʻlgan.

Muloqotning perseptiv tomoni - kishini kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baho berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suhbatdosh bilan boʻladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi. Birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyatli roʻy berishi koʻp jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotgani, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bogʻliq. Bu esa muloqotning perseptiv tomonini oʻrganish zaruriyatini vujudga keltiradi. Insonning inson tomonidan idrok etilishi "ijtimoiy persepsiya" deyiladi. Muloqot jarayonida kamida ikki kishi ishtirok etadi. Kishining qiyofasi, xatti-harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi. Bir-birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar gʻoyat muhimdir:

1. Identifikatsiya - inson oʻzini xayolan suhbatdoshi oʻrniga qoʻyish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi;

2. Empatiya - inson oʻzini xayolan suhbatdoshi oʻrniga qoʻyish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

3. Refleksiya - inson suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi;

4. Stereotipizatsiya - inson suhbatdoshini tushunishga intilishi yoʻlida muayyan shablonlardan foydalanishi [2].

Tepada suhbatdoshni idrok etishga yordam beradigan 4 xildagi oʻziga xos mexanizmlar sanab oʻtildi. Albatta, "Ijtimoiy persepsiya" jarayonining mohiyatini ushbu 4 xildagi mexanizmlar orqali toʻliq ochib berish qiyin. Shunday boʻlsada ushbu mexanizmlarning qanday ishlashini oʻrganish orqali kishilar oʻrtasidagi muloqotni samarali tashkil etish mumkin.

Identifikatsiya - lotincha "tenglashtirish, aynan oʻxshatish" degan ma'noni anglatadi. Bunda kishi oʻzini suhbatdoshining oʻrniga qoʻyib koʻradi. Suhbatdoshiga ayni damdagi vaziyat qanday ta'sir oʻtkazayotganini hisobga oladi. Oʻzini

suhbatdoshiga nisbatan identifikatsiya qilib koʻrish, koʻpincha toʻgʻri qaror qabul qilishga olib boradi. Masalan, doʻstingiz kechqurun tashkil etilayotgan bazmga kela olmasligini aytsa, boshlanishida sizda norozilik hissi paydo boʻladi. Ammo, oʻzingizni doʻstingiz oʻrniga qoʻyib koʻrar ekansiz, undagi bazmni cheklashga olib kelayotgan sabablarni idrok etasiz. Shunda, doʻstingizga ham oson emasligini tushunasiz va unga rozilik nigohi bilan qaray boshlaysiz.

Empatiya - bu hamdardlik bildirish demakdir. Muloqot mobaynidagi hamdardlik bildira olish qobiliyati ham kishilardagi ijobiy munosabatlarning davomiyligini ta'minlaydi. Empatiya koʻpincha hissiyotlar bilan bogʻliq jarayon boʻlib, bunda tinglovchi shaxs goʻyoki soʻzlovchi shaxsning ruhiy holatiga kirib oladi. Misol uchun, oʻqituvchi oʻz oʻquvchilariga bir hikoya ayib berayotgan vaziyatni koʻz oldingizga keltiring. Oʻqituvchi kuyib-pishib ibratli hikoyasini soʻzlab tursayu, oʻquvchilar hech qanday emotsiya bilan javob qaytarmasa, qanday noqulay hol boʻladi. Bunday paytda oʻquvchilar oʻqituvchidagi ruhiy holatni, hissiyotlarni oʻzlarida namoyon eta olishsa, empatiya mexanizmidan qoyilmaqom foydalangan boʻlishadi. Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, bu kabi hamdardlik reaksiyasi me'yoridan oshib ketadigan boʻlsa, kulguli vaziyat yuzaga kelib qolishi va soʻzlovchiga ruhiy zarba yetishi mumkin.

Refleksiya - lotincha "aks ettirish" demakdir. Bunda kishi oʻzini suhbatdoshi oʻrniga qoʻyib koʻradi va suhbatdoshining pozitsiyasidan turib oʻziga baho beradi. Ya'ni, kishi oʻziga "Suhbatdoshim men haqimda qanday oʻylayotgan ekan?", -degan savol bilan murojaat etadi. Goʻyoki, suhbatdoshi bir koʻzgu boʻlsa, oʻsha koʻzguda oʻzini koʻrishga, oʻzini aks ettirishga intiladi. Refleksiya qilib koʻrish ham shaxslararo munosabatlarda samarali natijalarga olib keladi. Kimdir bilan koʻrishib, uzoq vaqt gaplashib qolgan paytingiz, oʻzingizga "Suhbatdoshim men haqimda qanday oʻylab boshladi ekan, axir uning koʻp vaqtini olib qoʻyibmanku" deb murojaat etishingiz, darhol u bilan muloqotni toʻxtatib, uning vaqtini olib qoʻyganingiz uchun uzr aytishingizga sabab boʻladi. Suhbatdoshingiz ham tushunganingiz uchun minnatdor boʻlib, siz bilan ochiq chehrada xayrlashadi.

Stereotipizatsiya - grekcha "oʻzgarishsiz, takrorlanish" degan ma'nolarni anglatadi. Bunda suhbatdoshni idrok etish jarayonida unga nisbatan avvaldan belgilab qoʻyilgan shablonlardan foydalaniladi. Bu kabi idrok etish koʻpincha notoʻgʻri xulosalar qabul qilishga olib keladi. Masalan, "A shaharning odamlari mehmonni xushlamas ekan", degan gap sizning ongingizda shablon sifatida oʻrnashib qolgan boʻlsa, oʻsha shahar haqida sizda koʻp taraflama xato fikrlar yuzaga kelib boshlaydi.

Bunday notoʻgʻri idrokning kelib chiqmasligi uchun shablonlarning toʻgʻri-notoʻgʻriligiga juda qattiq ahamiyat berish lozim. Muloqotning ahamiyati toʻgʻrisida. Qadimgi davrlarda ham kishilar oʻrtasidagi muloqotga katta e'tibor qaratilgan. Oratorlik sa'nati degan maxsus tushunchalar paydo boʻlgan. Shu bilan birga muloqotning yoʻqolishi bilan bogʻliq jarayonlar oxir-oqibat qanday natijaga olib kelishiga ham qiziqishgan.

Odam yakka oʻzi qolganida, koʻpincha, xayolidagi suhbatdoshlar bilan "oʻz ichida" gaplashadi. Odam oʻziga notanish boʻlgan bir yoki bir necha kishi oʻrtasiga tushib qolsa, unda nimalarnidir aytish yoki shu kishilardan nimalarnidir eshitish ehtiyoji albatta paydo boʻladi. Bu ehtiyoj qondirilmay qolsa, odamda ma’yus

qiladigan "o‘ng‘aysizlik" hissi tug‘iladi. Odamning "aytadigan hech bir gapi" bo‘lmagan taqdirda ham shunday ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bunday hollarda u "nima qilishini" bilmay qoladi. Bunday hollarda unda "nimani gapirsam ekan?", "nimadan gap boshlasam ekan?", "qanday gap boshlasam ekan?", deb gap mavzuini qidirish boshlanadi [3].

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash jarayonida har bir kishi bilimlarning ko‘p qismini boshqa kishilardan oladi. Nutq vositasida aloqa bog‘lash odamning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr almashuvga xizmat qiladi. Har bir kishining nutqi bolalik chog‘idan boshlab o‘sib boradi, buning sababi ham boshqa kishilar bilan aloqada bo‘lish ehtiyojidir [4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kishining jamiyat ichidagi sotsial hayotini muloqotsiz, nutqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kishi boshqa kishilar bilan muloqotga kirishar ekan, undagi psixik jarayonlar ham tobora yuksala boradi. Agar, o‘zgalar bilan til vositasidagi munosabatlar bo‘lmaganda, yangi tug‘ilgan individ shaxs sifatida shakllanmagan bo‘lar edi. Yana bir e'tiborli jihat shuki, kishi so‘zlashuv texnikalaridan o‘z-o‘zini qaror toptirish vositasi sifatida foydalanishi qanchalik muhim bo‘lsa, xuddi shu muloqoti orqali o‘zgalarga ruhiy, psixik ziyon yetkazib qo‘ymaslikka erishishi ham shunchalik ahamiyatlidir. Ya'ni so‘zlashuv mexanizmlaridan oqilona, o‘z o‘rnida foydalanish o‘ta zaruriy jihatdir. So‘zlashuvdagi muvaffaqiyat bir tomondan so‘zlashuv mexanizmlaridan oqilona foydalanishga chambarchas bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan kishining individual xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ammo, bundan kishi suhbat texnikalarini yaxshi o‘zlashtirib olsa ham, muloqotdagi muvaffaqiyatga yetisha olmay qolishi mumkin, degan ma'no kelib chiqmaydi. Insonda qadimdan o‘zini qaror toptirish va o‘zini rivojlantirishga ehtiyoj bor. Xuddi ana shu ehtijoy kishining muloqotdagi muvaffaqiyatini ham ta'minlab berishga qodirdir. Shu xulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- insonlar bilan muloqot qilganda atrofidagi shaxslarga obyektiv nuqtayi nazardan baho berishsa;
- muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotganiga bog‘liq ekanligini hisobga olishsa;
- muloqotda avvalgi kishilardan olingan tasavvurlarning ayni paytdagi vaziyatga nisbatan to‘g‘ri-noto‘g‘riligiga juda qattiq ahamiyat berishsa;
- muloqot jarayonida suhbatdoshni inson o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Psixologiya nazariyasi va tarixi. 290-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019-yil.

2.Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. 44-46-bet. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent. 2006-yil.

3. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. 192-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2010.

4. Yunusjonova Z.S., Mirzayeva S.A., Bositxonova E.I. Psixologik parvarish. 51-bet. "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2010.

DIQQAT KONSENTRATSIYASINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH

Anorboyev Xayitboy Eshboy o‘g‘li,
Sufxiddinov Sayfiddin Qahramon og‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
anorboyevhayitboy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada diqqat, diqqat funksiyasi, diqqat xususiyatlari, diqqat xossalari, diqqat hajmi, diqqat barqarorligi, diqqatning taqsimlanishi, diqqatning ko‘chishi, diqqatning bo‘linishi, diqqatning jamlanishi, parishonxotirlik, parishonxotirlik turlari, diqqatning rivojlanishi va yosh davrlarida diqqatning darajasi to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Diqqat, diqqat funksiyasi, diqqat xususiyatlari, diqqat xossalari, diqqat hajmi, diqqat barqarorligi, diqqatning taqsimlanishi, diqqatning ko‘chishi, diqqatning bo‘linishi, diqqatning jamlanishi, parishonxotirlik, soxta parishanxotirlik, haqiqiy parishonxotirlik, diqqatning rivojlanishi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta’rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir ob’ektga aktiv (faol) qaratilishi aytiladi (P. I. Ivanov). P. I. Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o‘zimiz qilgan ishimiz, o‘y va fikrlarimiz diqqatning ob’ekti bo‘la oladi.

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ular samaradorligini ta’minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan o‘zoq muddatli, mas’uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo‘yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti- harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsuldorligini oshirishga ta’sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan ob’ektlar ong to‘plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat-aqliy jarayonlarning sifati, mahsuldorligi va samaradorligini ta’minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Inson biron bir narsani bilish anglashi va ularni idrok etish xotirada saqlash, yoki biron bir muammo ustida mushohada yuritishi uchun ongda to‘plash va yo‘naltirishi lozim bo‘ladi. Diqqatning muhim xususiyatlaridan biri uni to‘planishi va yo‘nalganlik xarakteriga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida har bir ruhiy jarayonning o‘ziga xos o‘rni bor. Diqqatni mahsuldorlik hamda yaqqol natijalarga ega bo‘lishi shaxs ruhiyatining shunday bo‘g‘iniga bog‘liqki ko‘p hollarda psixik hollarda psixik jarayonlarning rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar vaqtida e’tibordan chetda qoldiriladi. Diqqatni amaliy o‘rganish va uning natijalarini psixologik tahlil etish

shaxs faoliyatni samarali tahlil etish imkonini beradi. Diqqatni amaliy or'ganish boshqa ruhiy jarayonlardan farqli tomoni shundaki uni baholashda bir qator jihatlari inobatga olinadi. Diqqatni psixik jarayon sifatida qarash yoki uni jarayon sifatida e'tiborga olinmaydigan tomonlari ham mavjud jarayon emasligiga sabab uning alohida faoliyat sifatida mahsulga ega emasligi, lekin boshqa psixik jarayonlar bilan ishtirok etgan holda namoyon bo'lishi isbotlangan. Sensor, perseptiv va intelektual diqqat holat sifatida esa to'planganlik holatini shaxs xususiyat sifatida e'tiborlilik tarzida namoyon bo'ladi. Diqqatning bir qator xususiyatlari tanlovchanligi kuchi, barqarorligi, to'planish hajmi, taqsimlanishi va ko'chishi kiradi. Diqqat hajmi qisqa vaqt ichida idrok etilgan obektlar miqdori tushuniladi. Diqqatning barqarorligi bu subektning psixik faollik yo'nalishidan chalg'imasdan diqqatni to'lab tura olishiga aytiladi. Diqqatning taqsimlanishiga subektning bir vaqtning o'zida yo'nalganligi va imkoniyatiga aytiladi.

Diqqatning boshqaruvchilik funksiyasi boshqa bilish jarayonlaridan ancha farq qiladi. Bu esa uning turlarini psixik boshqarish usullari bilan munosabatida kuzatiladi. Diqqat turlarini tasniflashda ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatga ajratishga olib keldi. Ixtiyorsiz diqqat ta'sir ko'rsatuvchining fizik xususiyatlariga bog'liq (jadalligi, kontrastligi, davomiyligi, tasodifiyligi va boshq.). Agar diqqatning yo'nalganligi va to'planganligi anglashilgan maqsadga asoslangan bo'lsa, bu ixtiyoriy diqqat, deb ataladi. Ikkita turi bilan bir qatorda va ulardan farqli ularoq, uchinchi turi-ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat ham mavjud. Bunda qandaydir vazifa ongli amalga oshirilganligi bilan, shaxsning bu faoliyatga singib ketishi irodaviy kuch talab etmaydi.

Diqqatning bir qator xususiyatlari mavjudki, ularga tanlovchanligi, kuchi, barqarorligi, to'planishi, hajmi, taqsimlanishi va ko'chishi kiradi. Diqqatning hajmi deganda, qisqa vaqt ichida idrok etilgan ob'ektlar miqdori tushuniladi. Qator tadqiqotchilar diqqatning hajmi deganda, axborot ko'lamidan kelib chiqib baholashadi. Ularning fikricha, sub'ektning bu axborotni o'zlashtirish uchun qanday qilib ongni to'plash imkoniyati bilan, baholanadi.

Diqqat hajmini tadqiq etish, odatda, individ tomonidan aniqlik bilan idrok etiluvchi, bir vaqtning o'zida taqdim etiladigan unsurlar (raqamlar, harflar, jismlar va h.k.) sonini tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu maqsadlarda ***taxistoskop***dan foydalaniladi – ma'lum sondagi seskantiruvchilarni shunchalik tez, tadqiq qilinuvchi ko'zlarini bir ob'ektdan boshqasiga olib ulgurmasidan oldin taqdim etishga imkon beradigan asbob, diqqat hajmi – individual tarzda o'zgaradigan kattalik, lekin, odatda, odamlarda uning ko'rsatkichi 5 ± 2ga teng bo'ladi.

Har xil turli stimulli sharoitda diqqat ko'lamini ixtiyoriy boshqarish ancha cheklangan. Stimullarning ma'noli tuzilmasi esa, yuqori ko'rsatkichga olib keladi. Diqqat ko'lamining cheklanganligi sensor-pertseptiv zonaga tushgan ob'ektlarning doimiy ajratib olinganligi bilan belgilanadi. Ajratilmay qolgan ob'ektlar esa fon sifatida ishtirok etadi. Diqqat yo'naltirilgan bir qator ob'ektlar bo'ladiki, ammo ularning hammasini ham tanlab bo'lmaydi. Faqat diqqat ajrata olgan qismigina uning tanlovchanligini ifodalaydi.

Diqqatning barqarorligi- bu sub'ektning psixik faollik yo'nalishidan chalg'imasdan, ob'ekt ustida diqqatni to'plab tura olishi vaqtiga aytiladi.

Tajriba tadqiqotlari diqqatning ixtiyorsiz davriy tebranishlarga moyilligini ko‘rsatdi. Bunday tebranishlarning davrlari N.N. Lange bo‘yicha, odatda, 2-3 soniyaga, ortig‘i bilan esa 12 soniyaga teng bo‘ladi. Masalan, agar soatning chiqillashiga quloq tutib, unda fikrni jamlaydigan bo‘lsak, u holda u bir eshitiladi, bir eshitilmay qoladi. Diqqat tebranishi qonunga asoslangan bo‘lib, ***fluktuatsiya*** deb ataladi. Masalan, diqqat fluktuatsiyasini oddiy tajribada namoyish qilish mumkin: kesik piramida beriladi: agar unga ma’lum vaqt davomida tikilib turilsa, u ketma-ket, yo qavariq, yo botiq bo‘lib ko‘rinadi.

Hozirda diqqat barqarorligining ahamiyatli sharti bo‘lib, u jamlangan jismning yangi tomonlari va aloqalarini ochib berish imkoniyati xizmat qilishi isbotlandi. Diqqat barqarorligini o‘lchash uchun alohida harflarning tartibsiz ketma-ketligidan iborat Burdon jadvalidan foydalaniladi, bunda qaytariladigan harflar soni har bir satrda bir xilda bo‘ladi.

Diqqatning to‘planganligi har xil chet ta’sirlar sharoitida sub’ektning ob’ekt ustida ongini to’plab tura olish qobiliyati bilan izohlanadi.

Diqqatning taqsimlanishi sub’ektning bir vaqtning o’zida bir necha ob’ektga yo’nalganligi va imkoniyatiga aytiladi.Eksperimentda diqqatning taqsimlanganligini bir topshiriqni bajarishda qanchalik vaqt ketganligini, aynan ushbu topshiriqni boshqalari bilan birgalikda bajargan sharoitda qanday natija berganligi bilan taqqoslanadi. Diqqat taqsimlanishini o‘rganish maqsadida SHulte (qizil-qora rangli jadvallar) jadvallari qo‘llaniladi.

Diqqatning ko‘chishi deganda, bir ob’ektdan ikkinchi bir ob’ekga, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ixtiyoriy ko’chib o’tishi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida sanab o’tilgan diqqat xususiyatlari funktsional birlikka ega va ularni ajratish esa eksperimental usullar orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababli ham bugungi kunda diqqat xususiyatlarini o’rganishda psixologiya tarmoqlarida mavjud usullarning boshqa fanlar usullari bilan o’zaro hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Diqqatni jamlash ostida diqqatning jismda jamlanganlik jadalligi yoki darajasi tushuniladi. A.A. Uxtomskiyning fikriga ko‘ra, diqqatni jamlash bosh miya po‘stlog‘idagi kuchli qo‘zg‘alish o‘chog‘i faoliyatining xususiyati bilan bog‘liq.


Diqqatning bo‘linishi – bu diqqatni bir ob’ektdan ikkinchisiga ongli va anglangan holda o‘tkazish. Bo‘linish bilan ikki turli yo‘nalishga ega bo‘lgan jarayonlar bog‘liqdir, bular: diqqatni ishga tushirish va uzib qo‘yish. Bo‘linish ixtiyoriy bo‘lishi mumkin, u holda uning tezligi – bu sub’ektning o‘zining idrok qilishi ustidan irodali nazorati darajasining ko‘rsatkichi, va diqqatning bo‘linishi bilan bog‘liq ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin, bu yo ruhiyatning beqarorligi darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi, yo kutilmagan kuchli seskantiruvchilarning paydo bo‘lishidan dalolat beradi.

Bo‘linishning samaradorligi avvalgi va keyingi faoliyatni bajarish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi (bo‘linish ko‘rsatkichlari engil faoliyatdan og‘ir faoliyatga o‘tishda ancha kamayadi, aksincha bo‘lganida esa, oshib ketadi). Bo‘linish natijasi insonning avvalgi faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq: avvalgi faoliyat qanchalik qiziqarli va keyingisi unchalik qiziqish uyg‘otmagan bo‘lsa, diqqatning bo‘linishi shunchalik qiyinroq kechadi. Bo‘linishda asab tizimining

xususiyatlari, xususan, asab jarayonlarining qo‘zg‘aluvchanligi tomonidan belgilangan individual tafovutlar mavjud.

Chalg‘ituvchi ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati ***to‘siqlarga moslashuvchanlik*** deb ataladi. Odamlarda bu qobiliyatning rivojlanishida nerv tizimidagi farqlar, aynan, uning kuchi, shuningdek, to‘siqlarga qarshilik ko‘rsatishni oshirishga qaratilagan maxsus mashqlar bilan belgilangan ko‘plab individual tafovutlar kuzatiladi.

Chizma-1



Parishonxotirlik 2 xil bo‘ladi:

1. *Soxta parishonxotirlik.*
2. *Haqiqiy parishonxotirlik.*

Diqqat xususiyatlarini o‘rganishda ***parishonxotirlik*** haqidagi masala muhim ahamiyat kasb etadi. Parishonxotirlik deb, odatda, ikki turlicha hodisaga aytiladi. Birinchidan, ko‘p hollarda parishonxotirlik deb, insonning atrofidagilarga e’tibor bermasdan, ishga haddan tashqari berilib ketishining natijasiga aytiladi. Parishonxotirlikning bu turi u yoki bu faoliyatda kuchli jamlanganlik natijasida yuzaga kelganligi sababli ***soxta parishonxotirlik*** deb ataladi.

Parishonxotirlikning umuman boshqa bir turi inson diqqatini hech bir narsada uzoq vaqt jamlay olmagan vaziyatda, hech birida ushlanib qolmasdan, muntazam ravishda bir ob’ektdan ikkinchisiga yoki bir hodisadan ikkinchisiga o‘tib turishida kuzatiladi. Parishonxotirlikning bu turi ***haqiqiy parishonxotirlik*** deb ataladi. Haqiqiy parishonxotirlikdan aziyat chekuvchi insonning ixtiyoriy diqqati o‘ta beqarorligi va chalg‘ib turishi bilan farqlanadi.

Haqiqiy parishonxotirlikning sabablari turlichadir. Bular asab tizimining umumiy izdan chiqishi, qon kasalliklari, kislorod etishmovchiligi, jismoniy yoki aqliy toliqish, og‘ir hissiy kechinmalar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, diqqat

parishonxotirligining sabablaridan biri olingan taassurotlarning ko‘pligi, shuningdek, betartib havas va qiziqishlar ham bo‘lishi mumkin.

Diqqatning rivojlanishi. Diqqat o‘zining rivojlanish bosqichlariga ega. Bola hayotining birinchi oylarida faqat ixtiyorsiz diqqatning mavjudligi kuzatiladi. Bola dastlab kuchli yoki keskin farq qiladigan tashqi qo‘zg‘atuvchilarni sezadi. Uch oylik bo‘lishi bilan bola, hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ob’ektlar bilan ko‘proq qiziqa boshlaydi. 5-7 oyligida bola etarlicha uzoq vaqt davomida qandaydir jismni kuzatishi, ushlab ko‘rishi, og‘ziga olishi mumkin. Ayniqsa, yorqin va yaltiroq jismlarga bo‘lgan qiziqishi yaqqolroq ko‘rinadi. Bu ixtiyorsiz diqqatning to‘la rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ixtiyoriy diqqatning nishonalari, odatda, birinchi yilning oxiri ikkinchi yilning boshlariga kelib, namoyon bo‘la boshlaydi. Bolada ixtiyoriy diqqatning shakllanishi va rivojlanishi uni tarbiyalash jarayoni bilan bog‘liq. Bolaning atrofidagi odamlar asta-sekin bolani o‘zi istaganini emas, balki, uning qilishi zarur bo‘lganlarni bajarishga o‘rgatib boradilar.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o‘yin katta ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola o‘z harakatlarini o‘yin talablariga muvofiqlashtirishni va ularni qoidalarga mos ravishda yo‘naltirishni o‘rganadi. Ko‘pchilik jismlar va hodisalar bilan tanishib borish, oddiy munosabatlarni farqlash malakasining asta-sekin shakllanishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlashish, ular bilan sayr qilish va o‘yinlar o‘ynash, boshqa jismlar va o‘yinchoqlarni o‘ynatish – bularning barchasi bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, shu bilan birga, uning qiziqishlari va diqqatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy xususiyati ixtiyoriy diqqatining yetarlicha barqaror emasligidan iborat. Bola yot seskantiruvchilarga oson chalg‘iydi, uning diqqati o‘ta hissiyotlidir. Asta-sekin bolada mashqlar va iroda kuchi yordamida o‘z diqqatini boshqara olish layoqati shakllanadi.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida maktab alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab mashg‘ulotlari jarayonida bola intizomga o‘rganadi, unda qunt qilish, xulq-atvorini nazorat qilish layoqati shakllanadi. SHuni aytib o‘tish lozimki, maktab yoshida ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi ham ma’lum bosqichlardan o‘tadi. Boshlang‘ich sinflarda bola mashg‘ulotlarda o‘z xulq-atvorini to‘liq nazorat qila olmaydi, unda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi.

Yuqori sinflarda o‘smirning ixtiyoriy diqqati yuqori taraqqiyot darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchi etarlicha uzoq vaqt davomida ma’lum faoliyat turi bilan shug‘ullana oladi, o‘z hulq-atvorini nazorat qiladi. Lekin, shuni ko‘zda tutish lozimki, diqqat sifatiga tarbiyalash sharoitlarining o‘zi emas, balki, yosh xususiyatlari ham ta’sir ko‘rsatadi. 13-15 yoshlarda sodir bo‘ladigan fiziologik o‘zgarishlar yuqori darajadagi toliqish va ta’sirchanlik bilan birgalikda kechadi, va ba’zi holatlarda diqqatning pasayishiga olib keladi.

Diqqatning rivojlanishida ikki asosiy bosqichni ajratish mumkin: asosiy xususiyati tashqi tomondan belgilangan diqqatning ustunligidan iborat bo‘lgan maktabgacha rivojlanish bosqichi va ichki diqqatning jadal rivojlanishi xususiyatiga ega bo‘lgan maktab davri rivojlanishi bosqichlaridir.

Xulosa: Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, diqqat ongni bir nuqtaga

to‘plab, muayyan bir ob’ektga aktiv (faol) qaratilishi ekan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsuldorligini oshirishga ta’sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan ob’ektlar ong to‘plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat-aqliy jarayonlarning sifati, mahsuldorligi va samaradorligini ta’minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.

2. G‘oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002

3. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.

4.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.

5.Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.

6.Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o‘quv qo‘llanmasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: SHark, 2000.- 16 b.

7.Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: «Piter»,1999 - 688 s.

8.Metodы effektivnogo obucheniya vzroslых. Uchebno-metodicheskoe posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.

9. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. / Pod. red. A. Suxova i A.Dergacha.-M, 1998 - 688 s.

10.CHaldini R. Psixologiya vliyaniya. - SPb.: «Piter», 2000,-272 s.

11.“Psixologiya” Uch.T-2. “Prospekt”. Moskva - 2004.

12.Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiey A.A.Radugina. Izd. “Sentr” 2003.

TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION FAOLIYAT

Komilova Aziza Sunatullayevna,
Husenova Mohinabonu Qudrat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayonni tg‘g‘ri tashkil etish va uni olib borish qobiliyati, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, g‘qituvchining innovatsion faoliyati xususida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, kg‘nikma, malaka, pedagog, pedagogik jarayon, pedagogik muhit, innovatsiya.

Bugungi kunda zamonoviy sharoitda pedagogik muhitni tg‘g‘ri tashkil etish va uni olib borish qobiliyati orqali pedagogning mutaxasisligidan kelib chiqib, kasbiy tayyorgarligi, ya'ni pedagogik boy tajribaliligi, psixologik bilimlarga ega bg‘lish, ta`lim tarbiya jarayonini tashkil etishda g‘quvchilarning individual psixologik

xususiyatlarini xisobga olish, o‘quvchilarning bilim ko‘nikma va malakasini muvofiqlashtirish, ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda yuksak mahorat egasi bg‘lish muhim sanaladi. Darsni muvaffaqiyati va samarasi kg‘p jihatdan pedagogik jarayonlarni ko‘rsatmalilik, uzviylik, uzluksizlik va ilmiylik asoslarida tashkil etishga bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarning berilayotgan ma'lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida, yuqori samadorlikka erishish, bu bilan bir qatorda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri – o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o‘rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, N.Gross, R.Karlson, R.Edem, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g‘oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo‘lish orqali o‘qituvchi faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan.

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o‘z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o‘rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo‘ladigan g‘oyalarni ishlab chiqish.
2. Yangilikni keng ko‘lamda ishlab chiqish.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o‘z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan. Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatni tashkil etishga tayyorliklari bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Innovatsion faoliyat o‘qituvchining ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini, pedagogik qobiliyatlarni doimiy ravishda rivojlantirishni talab etadi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo‘lishlari talab etiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagoglar tomonidan innovatsion

faoliyat ko‘nikma, malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. O‘qituvchilarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya’ni:

1-bosqich Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi

2-bosqich Mavjud tizimga yangi g‘oyalarni, metodlarni kiritadi

3-bosqich YAngi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi

4-bosqich Pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi uning yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi, ijodkorligi bilan belgilanadi.

Hozirda interfaol ta’lim o‘qituvchining innovatsion faoliyati mohiyaini aks ettiribgina qolmay, shu bilan birga o‘qitishning innovatsion turi sifatida ta’lim samaradorligini oshiruvchi ta’lim sifatida alohida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi, o‘qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko‘ra ta’lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHu sababli har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la anglagan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur va muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald*, *5*, 69-73.

2. Комилова, А. С., & Равшанов, О. А. (2022). TALABALARDA O ‘ZIGA BO ‘LGAN ISHONCH VA PSIXOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH: Komilova Aziza Sunatullaevna, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o ‘qituvchisi Ravshanov Olim Axmedovich, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (4), 267-270.

3. Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. *Молодой ученый*, (10), 1306-1308.

4. Комилова, А. (2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. *Общество и инновации*, *2*(10/S), 437-441.

5. Жуманова, Н. Ш., Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. *Молодой ученый*, (4), 777-778.

6. Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Комилова, А. С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. *Проблемы педагогики*, (12 (23)), 12-13.

7. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.

8. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.

9. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

10. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

11. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).

12. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.

13. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.

14. Komilova, A. S. (2023). O ‘QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 126-133.

“MEN” KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING O‘RNI VA ROLI

Komilova Aziza Sunatullayevna,
Saydullayeva Diyora
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning shaxs sifatida rivojlanishi, kamol topishida, g‘z menini va g‘zligini anglab borishida ijtimoiy muhit, oila hamda faoliyatning o‘rni haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, tashqi muhit, o‘z-o‘ziga baho berish, men konsepsiyasi, shaxs, jamiyat, muloqot, faoliyat.

Jamiyat bilan shaxsning munosabatlari, erkinligi uning huquqi va burchlari, insoniy qadiryatlari xaqidagi muammolar barcha tarixiy davrda xam buyuk mutaffakirlarining e`tiborida turgan eng muhim masalalaridan bo‘lib hisoblangan. Mana shu jamiyatning asosiy a’zosi bo‘lgan shaxsning shaxs sifatida rivojlanishida o‘z-o‘zini anglash muhim hisoblanadi. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi “Men” konsepsiyasi asosida rivojlanadi. Insonni g‘zi haqidagi tasavvurlari, g‘oyalari, baholari va hulq atvor tendensiyalari yig‘indisi “Men” konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda “Men” konsepsiyasi subyektni g‘zi haqidagi eng umumiy ustanovkalari tizimi hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishiga nazar solar ekanmiz, avvalo uning rivojlanishida oilaning xususan ota-onaning roli muhimdir. Ya’ni bola dastlabki andozani ota-onasidan oladi. Keyingi bosqichlarda esa bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. Shaxsning “Men” obrazi shaxs ijtimoiy psixologiyada, garchi uning shakllanishiga jinsi, temperamenti, irsiy belgilari kabi biologik tavsiflar ham ma'lum darajada ta’sir ko‘rsatsa-da, ijtimoiy fenomen sifatida qaraladi. B.G.Ananyevning ta’kidlashicha – “Shaxs o‘zi haqda bir fikrga kelishida, jamoa hayotini hamda o‘ziga baho berishni shakllantiruvchi baholash munosabatlarining to‘g‘ri rivojlanishi muhimdir”. Shaxsda o‘zini anglash va baholashning paydo bo‘lish omili odamning individual xususiyati, faoliyat subyektliligi, shaxs xususiyatlarining tarkib topishi notekis va geteroxrondir deb hisoblaydi. Olimning mulohazasiga ko‘ra, o‘zini anglash va baholash ushbu xususiyatlarni o‘zaro muvofiqlashtiradi va shu tariqa ongning individualligini ta’minlaydi. Ya’ni bunda shaxs o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahoni jamoaning fikriga bog‘liq tarzda baholaydi. Qachonki shaxs boshqalarni tushuna olsa demak u o‘zini ham tushuna boshlaydi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiy fikricha, shaxsning o‘ziga baho berishida muloqot va faoliyatning o‘rni juda ahamiyatlidir degan fikrni qo‘llab quvvatlaydi. Muloqot psixikaning fundamental asosi bo‘lganligi uchun ham shaxs shakllanishiga va uning xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishi atrofdagilar bilan muloqot o‘rnatish bilan birga o‘zi bilan ham muloqot o‘rnatadi. Bunday vaziyatlarda shaxsda o‘ziga nisbatan tanqidiy qarashlar kuchayadi, qolaversa, tahlil kuchayib o‘ziga nisbatan shaxsda past baho berish vujudga keladi. Bilamizki ongning rivojlanishi muloqot bilan bog‘liq, inson atrofdagilar bilan qancha ko‘p muloqot qilar ekan uning ongi ham shunchalik rivojlanib boradi. Masalan, bir inson turli xil faoliyatlar bilan shug‘ullansa uning o‘z-o‘ziga baho berishi, o‘zini nazorat qila olishi va boshqalarga bo‘lgan munosabat va qarashlari ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu esa ushbu insonning ongining rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

N.A.Menchinskayaning fikricha, o‘zini past darajada hurmat qiladigan shaxslar o‘zlarini keraksiz insondek his qiladilar. Kishining ruhiy holatining tushib ketishi, uning xatti-harakatlarining o‘zgarishida, o‘ziga baho berish darajasining pasayib ketishida namoyon bo‘ladi. O‘ziga past baho beradigan kishilar uchun qiyinchiliklar hal bo‘lmaydigandek tuyuladi, shuning uchun ular hayollarda yashay boshlaydilar. N.A.Menchinskaya bolalar odatda maktabga ijobiy tasavvurlar bilan keladilar, deydi. Ayrim, qobiliyati past yoki tayyorgarligi past bo‘lgan o‘quvchilar, o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, past baho olishadi, buning natijasida, ularda ta’lim muassasasiga nisbatan yomon munosabat paydo bo‘ladi, qolaversa, bu

motivatsiyaning o‘zgarishiga sabab bo‘lib, maktab va o‘qishga bo‘lgan munosabatni salbiylashtiradi. Bu kabi salbiy munosabatlarga, qiyinchilikka bardosh bera olmay, bola o‘ziga past baho bera boshlaydi. Buning asosiy sababi esa o‘qituvchi va ota-onaning bolaga bajarishi qiyin bo‘lgan faoliyatga undashidir. Masalan, o‘qituvchi bolaga bajarilish darajasi ancha murakkab bo‘gan bir topshiriq berdi. Tabiiyki bola bu vazifani bajarish unga anchagina qiyinchilik tug‘diradi, shu vaziyatda esa bolada “Men buni bajara olmayman!” degan fikr paydo bo‘ladi. Aynan mana shu vaqtdan boshlab bola o‘ziga past baho qo‘yadi va u uchun hayotida uchraydigan ko‘pchilik vaziyatlar murakkabdek tuyiladi. Bu kabi topshiriqlar ota-ona tomonidan berilishi bolaning menini rivojlanishida salbiy oqibatlarga olib keladi.

“Men” konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari muhim bir omil ekanligi bilan bog‘laydilar. Ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati va uning o‘zini anglashi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, o‘zini boshqarish shakli sifatida, bola xulq-atvorini boshqarish usullari va ota-ona munosabatlarini namoyon etuvchi model sifatida ochib beriladi. Ya’ni ota-ona o‘z farzandlariga qachonki yuksak baho berib muomala qilar ekan, shundagina bolaning o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosi ortib boraveradi. Bunda asosan onaning roli muhim, chunki farzandning eng ko‘p vaqti ona bilan birgalikda o‘tadi. Bolaga eng sara samimiy va ijobiy fazilatlar ona orqali singdiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak shaxsning shaxs sifatida kamol topishida, g‘z menini va g‘zligini anglab borishida ijtimoiy muhit, oila hamda faoliyatning o‘rni beqiyosdir. Aynan mana shu doirada shaxsning ijtimoiy qiyofasi shakillanadi va unda bevosita shaxslar bilan muloqotda bo‘ladi bu esa menlikni yuksak darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiyava amaliyot. — T .: 2009.
2. V. Karimova, O. Xayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. - T .: 2007.
3. Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald*, *5*, 69-73.
4. Комилова, А. С., & Равшанов, О. А. (2022). TALABALARDA O ‘ZIGA BO ‘LGAN ISHONCH VA PSIXOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH: Komilova Aziza Sunatullaevna, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o ‘qituvchisi Ravshanov Olim Axmedovich, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (4), 267-270.
5. Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. *Молодой ученый*, (10), 1306-1308.
6. Комилова, А. (2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. *Общество и инновации*, *2*(10/S), 437-441.
7. Жуманова, Н. Ш., Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. *Молодой ученый*, (4), 777-778.

8. Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Комилова, А. С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. *Проблемы педагогики*, (12 (23)), 12-13.
9. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
10. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
11. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
12. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
13. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).
14. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.
15. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.
16. Komilova,A.S. (2023). O ‘QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 126-133.

PSIXOLOGIK TRENING HAQIDA TUSHUNCHA

Anorboyev Xayitboy Eshboy o‘g‘li,
Tog‘ayeva Shohzoda Uralovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
anorboyevhayitboy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik trening va uning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadi va vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, trening, barkamol shaxslar, tarbiya, maqsad, vazifa, predmet, trening tamoyillari, fidoiylik, Sheriklik, Xulq-atvor ob’ektivlashishi;

Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan turli xil oilaviy, ish yuzasidan kelib chiqayotgan asabiylik, tanglik va stressdan olib chiqish uchun ushbu psixologik

treninglar ishlab chiqilmoqda. Ayni kunda psixologiyaning muhim sohasi bo‘lgan, ta’limda esa innovatsion texnologiya sifatida keng qo‘llanilayotgan psixologik treningning qo‘llanilishi yoritilgan.

Zamonaviy psixologiya sohalarining muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, malakalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda albatta, psixologik treningni o‘ziga xos o‘rni mavjud bo‘lib, hozirda mutaxassislar fanning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelmoqdalar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Trening – bu odamning muloqot uslubini o‘zgartirishga, uyg‘unlashtirishga, kerakli ko‘nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo‘lgan qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o‘quv faoliyat turi deb ta’kidlasak ham xato bo‘lmaydi.

Trening – bu turli faoliyat sohalarida keng qo‘llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o‘qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat turiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o‘quv shakllardan biridir.

Trening tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “train”, “training” ko‘plab ma’nolarga ya’ni: o‘qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nolarga ega. Xuddi shunday ko‘p ma’nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi. Xususan, bu turli ijtimoiy faoliyat sohalariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi.[1]

Zamonaviy jamiyat o‘zining tez va chuqur o‘zgaruvchan tavsifiga ega bolib, bunday o‘zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim – tarbiya jarayonlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shunday ekan kishilarni muloqot jarayonida teran fikrlash, hozirjavoblik, ta’sirchanlik, samimiylik, empatiya, kirishuvchanlik, muzokaralar tashkil qiluvchanlik, raqobatbardoshlik kabilarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy – psixologik trening insonlar o‘rtasida sog‘lom munosabatlarga erishishni hosil qilish uchun ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga kirib bormoqda. Uning diagnostik tahlili, psixokarreksion imkoniyatlari kadrlar faoliyati: mutaxassislarni, psixolog, pedagog, psixaterapevtlar, korxona va tashkilot boshqaruvchilar, tadbirkorlarni ish faoliyatiga samarali ta’sirini ko‘rsatadi.

Avvalo, trening - bu odamning muloqot uslubini o‘zgartirishga, uyg‘unlashtirishga, kerakli ko‘nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo‘lgan

qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o‘quv faoliyat turi deb ta’kidlasak ham xato bo‘lmaydi.

Trening - bu turli faoliyat sohalarida keng qo‘llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o‘qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat

turiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o‘quv shakllardan biridir.

Hozirgi davrda insonlarni eng tabiiy bo‘lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo‘lish, o‘zgalarga samarali ta’sir eta olishga intilishining kuchayishi, bo‘lajak kadrlarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash, shuningdek, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usuliga o‘rgatish kabi masalalarni echimini topish borasidagi ishlardan biri - bu ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohasi bo‘lgan psixologik treninglarni tashkil etishdir.

Psixologik trening avvalo shaxs yoki gruhni samarali muloqot malakalariga o‘rgatish va ulardagi komminakativ bilimdonlikni oshirish usullarini va ularni amaliyotga tadbiq etish chora tadbirlarini ishlab chiqadi. Inson o‘z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni ortirib borishi jarayonida hosil bo‘ladigan, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ sovodxonlikdan farqli psixologiya fanida ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish, shaxs va yaxlit guruh faoliyatiga talluqli ijtimoiy fazilatlarni zudlik bilan shakllantirish uchun qo‘llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ularni qisqacha qilib ijtimoiy psixologik trening (IPT) yoki psixologik trening deb ataladi.

Treningni maqsad va vazifalari. Ko‘plab soha mualliflari ijtimoiy-psixologik treninglarning etakchi maqsadi sifatida shaxslararo munosabatlarda aloqa malakasini shakllantirish omili ekanligini ta’kidlaydilar. Shaxs qachonki, jamiyatda, boshqa odamlar bilan muloqot va o‘zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Insonning kommunikativ qobiliyatlari uning rivojlanishining shartidir va bu rivojlanish natijasi hamdir. Keng ma'noda shaxsning kommunikativ malakasini oshirmay, ijtimoiy munosabatlarini o‘zgartirmay turib, shuningdek, ijtimoiy dunyoga va o‘ziga bo‘lgan umumiy munosabatini qayta ko‘rib chiqmasdan insonning shaxsiy fazilatlari majmuasini, shakllantirib bo‘lmaydi. Ammo, hozirgi vaqtda ijtimoiy-psixologik treninglarning faqat aloqa vositasi ekanligi bilan bog‘lash to‘g‘ri kelmaydi. Ijtimoiy psixologik trening nafaqat shaxslararo munosabatlarning shakllantirish omili, balki shaxsning o‘z-o-‘zini adekvat baholashi, har qanday vaziyatlarda o‘zini nazoratga olish imkoniyatlarni yaratib berishi bilan boshqa amaliy mashg‘ulotlardan quyidagi maqsadlar orqali farqlanadi.

Jumladan:

-shaxsda muloqotchanlik ko‘nikmalarini hosil qilish;

-hayotdagi qarama – qarshiliklarni to‘g‘ri tushuna olish va tahlil qilishga o‘rgatish;

-shaxsning ichki holati (ruhiyatini) o‘zgartirishga erishish;

-shaxsning kamoloti uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni hosil qilish;

-kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish konikmalarini hosil qilish kabi.

Treningni asosiy vazifalari:

1.Shaxsning ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish.

2. Muloqot faoliyatida namoyon bo‘ladigan yaqqol bilimlar, malakalar , ko‘nikmalar va odatlarni hosil qilish.

3. Samarali muloqatda namoyon bo‘ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, noadekvatlarni korreksiyalash.


4. O‘zini - o‘zi to‘laroq anglash, bilim hamda o‘zgalarga nisbatan to‘gri munosabatlarni shakllantirish qobilyatini o‘stirish.

5. Umuman shaxsning ijtimoiy munosabatlarini faoliyatga , undagi pedogogik va ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan moslashishni ta'minlash va muvofiqlashtirish kabi.

Ayniqsa, bugungi kunda oilaviy shaxslararo munosabatlarda, ma’lum bir faoliyat turlari jarayonida kishilar o‘rtasida hissiy – emotsional zo‘riqish holatlarini o‘sib borayotganligini guvohi bo‘lamiz. Bu muammolarni bartaraf etishda psixologik treningning imkoniyatlarini alohida ta’kidlashimiz maqsadga muvofiqdir. Stress va salbiy emotsiyalarni boshqarish bo‘yicha treninglarni tashkil qilish va o‘tkazish bugungi kunning talablaridan hisoblanadi va quyidagi amaliy vazifalarni ham qamrab oladi:

- mazkur treninglarni dasturlar asosida yuqori saviyada o‘tkazish shart-sharoitlarini yaratish; o‘tkazilinadigan treninglarni samaradorligini oshirish uchun mutaxassislarni bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; negativ emotsiya va hissiyotlarni konstruktiv namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish usullarini takomillashtirish; shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarga oid manbalarni zamonaviy takomillashtirilgan holda qayta ishlab chiqish va yangilarini milliy qadriyatlarga asoslangan holda yaratish kabi.

Ijtimoiy psixologik treningni maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, trening mashg‘uloti uchun qo‘yiladigan tamoyillar quydagilardan iboratdir:



Ijodiylik tamoyili.

Sheriklik (Sub’ekt-sub’ektlik) muloqoti tamoyili.

1.Faollik tamoyili.Bu tamoyil ko‘proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g‘oyaga bo‘ysunadi: Inson eshitganlarining 10% ni, ko‘rganlarining 50% ni, aytib berganlarining 70% ni va nihoyat o‘zi qilganlarining 90% ni o‘zlashtiradi. Trening guruhi azolaridan ijtimoiy faollik talab etiladi, chunki guruh ag‘zolari vaziyatlarda o‘zgalardagi mavjud bilim va malakalardan foydalanib guruh ag‘zolarining harakatlari hamda vaziyatning talabiga ko‘ra aniq xulq- atvor shakllarini namoyon qilishlariga to‘g‘ri keladi.

2. Ijodiylik tamoyili.Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo‘lgan, kashf etib ulgurilgan g‘oyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o‘zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar. Trening guruhi ag‘zolarida doimiy izlanuvchanlik, muayyan joyda vaziyat hamda rollarni tahlil qilgan holda uning mohiyatini tushinish u yoki bu rolga kirishi lozim bo‘ladi, chunki trening tafakkur va qarashlarning egiluvchan hamda vaziyatlarga mos bolishini taqozo etadi.

3. Xulq-atvor ob’ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili. Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impul’sivlikdan ob’ektivlik darajasiga o‘tadi va trening davomida o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor obg‘ektivligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta’minlash trenerning ma’suliyatidir. Ijtimoiy psixologik trening mashg‘ulotlarida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor shaklarining ob’ektivlashuvi, yag‘ni guruh ag‘zolarining munosabati ro‘lining talablaridan kelib chiqqan holda har bir ishtirokchi ayni shu rolga mos harakatni real xulqda mustahkamlashi va boshqalar ta’sirida uni ongli ravishda qabul qilishi zarur.

4. Sheriklik (Sub’ekt-sub’ektlik) muloqoti tamoyili.Sheriklik, yoki sub’ekt-sub’ektlik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg‘ulari, qayg‘ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr qimmati deb tan olinadi. Har bir mashg‘ulot va muloqot sheriklarining maksimal tarzda bir birlarini hurmat qilishlariga asoslanmog‘i kerakki, natijada shaxs bunday mashg‘ulotlardan keyin begona fikrlarni ham qadrlashga, ular bilan hisoblashishga va tinglashga mos tarzda o‘z fikr mulohazalarini bayon etishga o‘rganadi. Ushbuning qo‘llanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Psixologik trening tushunchasi va treningni o‘ziga xos jihatlari. Psixologik treningning tub ma'nosi – insoniy munosabatlarga o‘rgatishdan iboratdir. Psixologiya sohasi keyingi yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo‘nalishlari sifatida trening tarmog‘i ham rivojlandi. Fan sifatida rivojlanayotgan psoxologik trening va uni o ‘tkazish uslubiyoti mazmun jihatdan ta’lim va tarbiya sohasida treninglarning qanday tartibda tashkil etilishi va o‘tkazilishi borasidagi masalalami yoritishga ham bag‘ishlanadi.[2]

Psixologik trening haqida ko‘plab olimlarning nazariyalri mavjud:

Psixologiya tarixida trening o‘qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta’rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: “Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko‘nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir”, shuningdek, “Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir”.

G.A.Kovalev ijtimoiy-psixologik treningni ijtimoiy-didaktik faol yo‘nalishdir deb hisoblaydi. B.D.Parigin esa guruhiy maslahatlar metodlari haqida shunday deydi: Ulardan guruhiy konsul’tatsiya metodlarini faol o‘qitish uchun foydalaniladi. Hayotiy ko‘nikmalarni, muloqotchanlik sohasida bilim berishni, kasbiy faoliyat sohasida maslahatlardan tortib to yangi ijtimoiy hayotdagi rollarni, ‘Men’ konseptsiyasini korreksiya qilishni, o‘z-o‘ziga baho berish tizimini kuchayishini ta’minlaydi.

P.O. Gorboshina, “Trening – bu shaxsni o‘zgartirishga qaratilgan hissiyotlarga boy bo‘lgan mashg‘ulot turidir” deb ta’kidlab, trener faoliyatini huddi olmosni qayta ishlab unga jilo berish bilan bog‘liq o‘ta nozik zargarning ma’suliyatli faoliyat turiga taqqoslaydi.2

XX asrning 30-yillaridan birinchi ilmiy psixologik xulosalarni qilgan shvetsariyalik psixolog Jan Piaje tadqiqotlarida bolaning ijtimoiylashuv jarayonini bahs va munozara usuli orqali o‘rganar ekan, bolalarda egoistlik mavqeini susayishi, o‘zini xatti – harakati va o‘zgalar mavqeini anglash bilan bir qatorda o‘zini o‘zgalar o‘rniga qo‘ya olish qobiliyatini rivojlantirishini aniqlagan.

Nemis psixologi Kurt Levinning fikricha, guruhdagi munozara har bir shaxsning ijtimoiy ustanovkalari, qarashlarini, har bir shaxsning guruhiy faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini oshirib, o‘z mavqei va o‘zgalarni tushinish, his qilish ehtiyojining oshishini ta’kidlaydi.

S. I. Makshanovning psixologik trening nazariyasiga kelsak, shaxsga nisbatan qaratilgan “rivojlanish” tushunchasidan farqli o‘laroq, treningga shaxs xususiyatlarini “ataylab o‘zgartirish” atamasini kiritgan. Ushbu tushuncha “rivojlanish” tushunchasiga nisbatan kengroq ma’noni anglatib, unda o‘zgarishlarning maqsadi, jarayoni va natijalarini etarlicha aks ettiruvchi ongli xususiyatlarini ta'kidlaydi. “Ataylab o‘zgarish” tushunchasi rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlarga nisbatan qo‘llash imkonini beradi, masalan, ataylab o‘zgarish natijasida insonning biror narsaga munosabati o‘zgarganda, bu, albatta, o‘zgarish, lekin rivojlanish hisoblanmasligini keltirib o‘tadi. Ataylab o‘zgartirish rivojlanishni ham, korreksiyani ham o‘z ichiga oladi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.
5. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.
6. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o‘quv qo‘llanmasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: SHark, 2000.- 16 b.
7. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: «Piter»,1999 688 s.
8. Metodы effektivnogo obucheniya vzroslых. Uchebno-metodicheskoe posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.
9. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. / Pod. red. A. Suxova i A.Dergacha.- M, 1998 - 688 s.
10. CHaldini R. Psixologiya vliyaniya. - SPb.: «Piter», 2000,-272 s.
11. “Psixologiya” Uch.T-2. “Prospekt”. Moskva - 2004.
12. Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiey A.A.Radugina. Izd. “Sentr” 2003.

QIZ VA O‘G‘IL BOLALARDA LIDERLIK SHAKLLANISHI MUAMMOSINING MAMLAKATIMIZ PSIXOLOG OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILGANLIGI

Boyqulova Mohinur Ravshan qizi,
Otaboyeva Shaxnozabonu
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
mohinurravshanovna96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb bo‘lib keladigan rahbarlik, liderlik sfatlarini mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilishini yoritib berishga qaratilgan. Shuningdek, muvaffaqiyatli liderning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda ularning majburiyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: rahbar, lider, yetakchi, optimistik ruh, liderlik psixologiyasi.

Dunyoning turli mintaqalaridagi davlatlar va xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y berayotgan hozirgi zamonda yetkchilik fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hokimiyat va tashkilot mavjud bo‘lgan barcha joyda yetakchilarning bo‘lishi tabiiy, chunki “Jamiyatimizda” “rahbar”, “lider”, “yetakchi”, “sardor” kabi tushunchalar mavjud. Aslida ularning barchasi bir ma’noni anglatadi hamda bir maqsad yo‘lida xizmat qiladi. Shuning uchun rahbar va lider tushunchalari o‘rtasida katta tafovutni aniqlash mushkul. Ularning vazifasi ham, mas’uliyati ham, xususiyatlari ham teng. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ulardan biri rasmiy boshqasi esa norasmiy hisoblanadi. Rahbar rasmiy, ya’ni qonunga muvofiq shu lavozimga tayinlangan. Lider bo‘lsa norasmiy, ya’ni biror bir guruh tomonidan ularning xohishiga binoan saylangan shaxsdir. Bular liderlikning ikki xil ko‘rinishlari. Ko‘p hollarda, rahbar dastavval lavozimga, so‘ngra shu lavozimi ortidan hurmatga erishsa, lider aksincha hurmat ortidan lavozimga erishadi. Lavozimi yuqori shaxs, ya’ni rahbar o‘z-o‘zidan liderlikka erishadi va qo‘l ostidagilariga nima qilish kerakligini ta’kidlab turadi. Haqiqiy lider, undan farqli o‘laroq, o‘zining ortidan ergashuvchilarga nima qilish kerakligini ko‘rsatib va unda o‘zi ham ishtirok etib boradi.

Qachonki liderning safdoshlari uning borligiga, kuch-qudratiga va iste’dodlariga shubha bilan qarashmasa, unga ishonch bildirishsa lider eng katta kuchga ega bo‘ladi. Liderni boshqalardan ajratib turuvchi tomonlari uni yuksaklikka olib chiqish yo‘lida xizmat qiladi. Liderni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy tomonlaridan biri - bu liderning eng avvalo, o‘ziga va unga ergashayotgan safdoshlariga bo‘lgan ishonchi. Buyuk allomalarimiz aytganidek, o‘z kuchingni his etishing kuchingga kuch qo‘shadi. Lider hamma vaqt biror bir ishni boshlashdan avval atrofidagilar bilan maslahatlashishi va unga yuklatilgan topshiriqlarning bir qismini ularga ishonib topshirishi darkor. Bu bilan u o‘z izdoshlariga bo‘lgan ishonchi yuqorida darajada ekanligini isbotlab bergan bo‘ladi. Liderning o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri – bu optimistik ruhda fikr yuritishida, ya’ni har bir ko‘zlagan maqsadni faqat yaxshi tomonlarini o‘ylab ish ko‘rishidadir. Yana u to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ba’zilar uzoq o‘ylab qarorlarini bir necha

marta o‘zgartirishsa, lider bir marotaba qaror qabul qiladi va o‘z qaroridan hech qachon shubhalanmaydi. Shu sababdan liderlarni kelajakni ko‘ra olish qobiliyatiga ega deyishadi. Ammo ular bunday kuchga ega emaslar. Yetakchilar shunchaki o‘zlari uchun kelajakni yaratishga intilishadi va ba’zida dunyoni o‘zgartirishga qodir qarorlar qabul qilishadi. Lider o‘zining kuchli va ustun jihatlarini yaxshi biladi hamda imkon qadar ulardan unumli foydalanishga intiladi. Shu bilan birga u o‘zining kuchsiz tomonlarini ham tan ola biladi va ularni zaifligicha qoldirmaslik yo‘lida to‘g‘irlashga harakat qiladi.

Buyuk odamlar shunday odamlarki, ular boshqalarni ham buyuk bo‘la olishlarini his qilishga yordam berishadi. “Mark Tven” Lider atrofdagilarga ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Unda boshqalarni o‘z ortidan ergashtirish, to‘g‘ri yo‘lga yetaklash, safdoshlariga o‘z iste’dodini topishda va rivojlantirishda ko‘maklashish, yordamini ayamaslik kabi xususiyatlar jam bo‘ladi. Hozir kundan kunga rivoj topib kelayotgan davrda liderlarga bo‘lgan talabning kuchayganligini tan olmasdan ilojimiz yo‘q. Liderlik psixologiyasining zamonaviy va ko‘p uchraydigan muammolari safiga muloqotga kirisha olmaslik, javobgarlik va mas’uliyat hissining yetishmasligi, kelishuv va murosa qila olmaslik, reja qilingan ishda qoniqarli natijaga erisha olmaslik, rag‘batlantirish va jazolashning me’yori kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Demokratik va liberal tamoyillardan unumli hamda to‘g‘ri foydalana bilish ham liderlikning ko‘p uchraydigan muammolaridan hisoblanadi. Lider ko‘p hollarda liberal tamoyil asosida ish ko‘radi, ya’ni barcha rejalari-yu, maqsadlaridan safdoshlarini xabardor qiladi, ular bilan maslahatlashadi, ularning barchasiga birdek ishonadi va hech biridan shubhalanmaydi. Bu guruh a’zolarining liderga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Lekin shunday vaziyatlar bo‘ladi-ki, lider o‘z guruhi uchun o‘zi qaror qilishi, hech kimga tayanmasligi talab qilinadi. Demokratik tamoyilda ish olib boradigan lider esa aksincha, faqat o‘ziga tayanadi, hech kimga ishonmaydi va maslahatlashmaydi. Qarorlar lider tomonidan o‘rnatiladi va hammadan ularga bo‘ysunish talab qilinadi. Bu guruh a’zolarining o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. Lekin ba’zida boshqalarning fikrini ham tinglay bilish, ular bilan fikr almashish foyda beradi. Bundan kelib chiqadi-ki, lider demokratik va liberal tamoyillarning har ikkalasidan o‘z vaqtida oqilona foydalana bilishi darkor. Lider oldiga qo‘ygan maqsadga erishish yo‘lida barcha kamchiliklarni bartaraf etishi va shu bilan birga muammolarga qarshi o‘zida immunitet hosil qila olishi kerak. Muammolardan qochmaslik, ularni kelishilgan holda oz muddatda hal qila olish ham samarali liderning kuchli jihatlaridir. Liderning asosiy qurollaridan biri uning muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishidadir. Lider, ham safdoshlarining bir-biriga bo‘lgan, ham o‘zining ularga bo‘lgan muloqotini ta’minlab bera oladigan kuchga ega shaxs bo‘lishi darkor. Muloqot orqali lider guruhdoshlarini ruhlantira olishi va ulardagi “men”ni “biz”ga aylantira olishi kerak. Bu orqali u izdoshlarini guruh uchun qayg‘urishga va ularni birlashtirishga erishgan bo‘ladi. Guruh qanchalar ahil, kelishuvchan va hamfikr bo‘lsa, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga shunchalar tez va oson erisha oladi.

Marralarni zabt etishda esa muloqotning o‘rni beqiyosdir. Muloqot to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, o‘z navbatida xushmuomalalikni ham unutmaslik darkor. Lider har qanday muammoni xushmuomalalik va muloyimlik bilan hal qilsa,

atrofidagilarning unga bo‘lgan mehri, hurmat-e’tibori shunchalar ortib boradi. Lider o‘zi istagan va kutgan natijaga erishishi uchun, avvalo, unda javobgarlik va mas’uliyat hissi yuqori bo‘lishi kerak. Lider safdoshlarining har biri uchun javobgar shaxs bo‘libgina qolmay, unga yuklatilgan vazifani mas’uliyat bilan ado eta olishi ham kerak. U safdoshlari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi va ulardan har birining kuchli va zaif tomonlarini, iste’dodini juda yaxshi bilishi kerak. Ularni har qanday vaziyatda ham qo‘llab-quvvatlashi, ko‘maklashishi va dalda bera olishi kerak.

Qachonki lider har bir vazifani bajarishda mas’uliyatni his qilar ekan, uning har bir ishi unumli va o‘z vaqtida hal bo‘ladi. Lider guruh a’zolari orasida kelishib ish ko‘rishni ta’minlay olishi ham kerak. Undan guruhdagi har bir safdoshining fikri bilan qiziqish, ularni bir maqsad yo‘lida murosaga keltira olish talab qilinadi. Zero, barcha bir maqsad yo‘lida tirishar, hamfikr bo‘lib ishlar ekan ularning marrani zabt etishi yo‘lida duch keladigan qiyinchiliklari ham osongina yengib o‘tiladi. Guruhda yetakchilik qilayotgan shaxs har bir vazifani o‘z vaqtida hamda tartib bilan bajarishi shart. Belgilab qo‘yilgan maqsadlariga birma-bir sabr bilan erishishga intilishi. Hamma narsaga erishishga harakat qilayotgan inson oxirida hech narsaga erisholmaydi.

Shuni inobatga olgan holda, rejaga tayanib ish ko‘rishni maslahat berar edim. Lider va uning izdoshlari ko‘zlagan marraga erishar ekanlar, lider rag‘batlantirishni unutmasligi kerak. Rag‘batlantirish orqali u o‘z safdoshlarini ilhomlantira va olg‘a intilishga unday oladi. Rag‘batlantirish haqida gap borar ekan, yetakchilar albatta, jazolashni ham chetlab o‘tishmaydi. Lekin har bir narsaning me’yori bo‘lganidek, lider ham buning me’yorini bilishi foydadan holi emas. Jazoni haddan ziyod ko‘p qo‘llash rivojlanish saviyasining pasayishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Agar lider kutgan natijaga erisha olmasa va bunday vaziyatda buning sababini topib uni yechishdan ko‘ra, jazolashni ma’qul ko‘rsa u guruh a’zolarini shunga ko‘niktirib qo‘yadi. Buning oqibatida esa guruhda oldinga intilish va o‘sish kabi tushunchalar yo‘qolib boradi. Moslashuvchanlik hozirgi kunda lider uchun qo‘yilayotgan eng zaruriy talablardan biri bo‘lib kelmoqda va shu bilan birga bu liderlikning zamonaviy muammolari sirasiga kiradi. Lider har qanday vaziyatga va sharoitga tez hamda osonlik bilan moslashib keta olishi kerak. U har qanday davrada o‘zini qanday tutishni bilishi va u yerga, u yerning shart-sharoitlariga moslashgan holda ish ko‘rishi lozim.

Moslashuvchanlik, eng avvalo, kommunikatsiya qobiliyatlarini ham talab qiladi. Liderga xos bo‘lgan har bir jihatning ahamiyati shundaki, ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir, biri birini inkor qila olmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldirishga xizmat qiladi. Masalan, u o‘ziga ishonsagina safdoshlariga ham ishona oladi. Bu uzviy bog‘langan ishonch ulardagi optimistik ruhni keltirib chiqaradi. Har qanday positiv kayfiyatdagi inson esa to‘g‘ri va obdon o‘ylangan qarorlar qabul qila olishi mumkin. Javobgarlik va mas’uliyatni his qila olish qobiliyati esa liderni yuksak cho‘qqilar sari yetaklaydi. Zamonaviy liderning intellektual salohiyati ham yuqori bo‘lishi kerak, ya’ni u dunyoviy bilimlarga ega bo‘lishi, kompyuter texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, har bir jabhada o‘zini sinab ko‘rgan va yetarlicha ko‘nikma hosil qilgan bo‘lishi darkor. Har tomonlama rivojlangan, ma’nan va jismonan komillikka erisha olgan, liderlik xususiyatlariga ega bo‘lgan shaxs

jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishiga ishonchim komil. Lider - jamiyatning ertangi kuni to‘g‘risida qayg‘uradigan eng buyuk insonlar sirasiga kiradi. Ular “Agar men bo‘lmasa, kim?” degan fikrda hayot kechirar ekanlar, bizni porloq kelajak kutayotganiga aminmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарафитдинов, Абдулла, and Мохинур Бойкулова. "Формирование эмоционально-эмоциональной сферы детей младшего школьного возраста." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 342-345.
2. Бойкулова, Мохинур, and Гозал Одилова. "Исследование проблем формирования лидерства зарубежными психологами." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 410-413.
3. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Abduakhadova Mehribonu, and Boykulova Mokhinur. "The Influence of Parents on The Leadership of Children in The Family-As A Psychological Factor in Parenting." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 122-128.
4. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Boykulova Mokhinur, and Abduakhadova Mehribonu. "Psychological Aspects Of Leader Traits In Boys And Girls In Different Family Settings." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 129-134.
5. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: “Akademiya”, 2006.241-b
6. Umida, K., & Qizi, R. A. Z. (2023). TALABA-YOSHLARNI IJTIMOIY OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
7. Karakulova, U. A., Nortoyeva, S. Q. Q., & Yangiboyeva, D. U. B. Q. (2023). OILAVIY MUHITI VA DEVIANT XULQ ATVOR SHAKLLANISHI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 796-800.

MANIPULIYATSIYA VA SIYOSAT

Yo‘ldoshev Sardorbek Asliddin o‘g‘li,
Husanova Shahrizoda Mansur qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Manipulyatsiyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, u orqali obektning hatti-harakatlarini dasturlash mumkin. Manipulyator doim insonning aynan ruhiy dunyosini mo‘ljalga oladi. Bunda manipulyatsiya obektiga shaxs sifatida qaralmaydi. Manipulyator uchun u shunchaki ta'sir ko‘rsatishning obekti bo‘ladi

Kalit so‘zlar: Manipuliyatsiya, manipuliyator, OAV, obekt, auditoriya, axborat, reaksiya

Inson psixologiyasi nihoyatda murakkab, uning muhim qismini xayolot olami tashkil qiladi. Shunday ekan odam bir vaqting o‘zida ikki parallel olamda yashaydi: real hayotda va tasavvurlar dunyosida. Shunisi qiziqki, insonning aynan xayoliy

dunyosiga tashqaridan osonlikcha ta'sir koʻrsatish mumkin. Muhimi shundaki, bu ta'sir doim yashirin xarakterga ega boʻlib, insonning oʻzi buni koʻpincha payqamaydi. Bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi.Buni hayotiy misollar yordamida izohlashga harakat qilamiz. Agar koʻcha-koʻyda kimdir bizdan “A” obektga borish yoʻlini soʻrasayu, biz unga “V” obektga boʻlgan yoʻlni koʻrsatib yuborsak, bu manipulyatsiya hisoblanmaydi, bu shunchaki yolgʻon ma'lumot berish boʻladi. Bu holat manipulyatsiya hisoblanishi uchun, biz oʻsha odamning ongostiga qandaydir yashirin yoʻllar bilan ta'sir koʻrsatib, uning oʻz xohishi bilan “V” obektga borishiga erishishimiz kerak. Zotan, manipulyatsiya bu ong ustidan hukmronlik oʻrnatish boʻlib, unda inson ruhiyati, hatti-harakatlari va dunyoqarashiga ta'sir koʻrsatiladi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qoʻllanilishi nuqtai nazaridan, manipulyatsiyani inson tafakkuri ustidan nazorat oʻrnatish deya baholash mumkin. Manipulyatsiyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, u orqali obektning hatti-harakatlarini dasturlash mumkin. Manipulyator doim insonning aynan ruhiy dunyosini moʻljalga oladi. Bunda manipulyatsiya obektiga shaxs sifatida qaralmaydi. Manipulyator uchun u shunchaki ta'sir koʻrsatishning obekti boʻladi. Agar odam oʻziga qaratilgan murojaatlarning asl mohiyatini bilib tursa, yashirin maqsadlardan xabardor boʻlsa, bu holatga manipulyatsiya sifatida baho berib boʻlmaydi. Shunday ekan, manipulyatsiyaning maqsadlari fosh etilgan taqdirda, shu vaqtdan boshlab ta'sir koʻrsatishning manipulyativ xarakteri yoʻqoladi. Manipulyatsiya mexanizmi ishga tushishi uchun soxta reallik yaratiladi, mana shu nuqtada manipulyatorga ommaviy axborot vositalari yordamga kelishi mumkin. Gap shundaki, ommaviy axborot vositalari auditoriyaga ma'lumot shaklidagi tayyor xulosalarni uzatadi, keyinchalik esa bu qarashlar odamlar tomonidan shaxsiy xulosalari sifatida oʻzlashtiriladi. Odamlar manipulyator tomonidan da'vat etilgan oʻsha hatti-harakatlarni amalga oshirganda buni hatto payqamaydi ham, negaki bularning barchasini oʻz xohish-irodalari bilan bajarayotganlik tasavvuri ularga allaqachon singdirilgan boʻladi. Bugungi dunyo voqeliklari – manipulyatsiyaning yaqqol koʻrinishidir, biroq bu alohida shaxslar ongiga ta'sir koʻrsatish emas, butun bir millatlar, jamiyatlar ongiga ta'sir koʻrsatishdir. Odamlarga ularning qadriyatlari va qarashlariga mohiyatan zid boʻlgan soxta maqsadlar osonlikcha singdirilmoqda. Muammo shundaki, auditoriyaning aksar qismi oʻzi qabul qilayotgan axborot oqimini tahlil qilish, juda boʻlmaganda, oʻsha ma'lumotlarning toʻgʻri yo notoʻgʻriligini tekshirib koʻrishni istamaydi. Axir axborotni shunchaki qabul qilish unga baho berish, tanqidiy nazar solishdan ancha osonroqdir. Bu – ma'lumotlarning muvaffaqiyat qozonishini ta'minlab turadigan asosiy jihatdir Manipulyativ ta'sirning xavfliligi shundaki, ta'sir doirasiga tushib qolgan odam nafaqat oʻziga uqtirilgan harakatni amalga oshiradi, balki ich-ichidan bu harakatni oʻz xohishiga koʻra amalga oshirayotganiga sidqidildan ishonib qoladi. Manipulyatsiya oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishdi deb hisoblanishi uchun, odamning hatti-harakatlari butunlay dasturlanishi, hatto uning avvalgi qarashlariga zid boʻlgan tushunchalar ham u tomonidan qadriyat sifatida qabul qilinaligan boʻlishi kerak. Bundan koʻrinib turibdiiki, manipulyatsiya ikki tomonlama ta'sir koʻrsatish deganidir. Manipulyator obektga ta'sir koʻrsatishni boshlaydi, oʻz navbatida obekt esa manipulyatsiya jarayonining hamkoriga aylanadi.

Manipulyatsiya jarayonida ikkita qarama-qarshi tomon ishtirok etadi: manipulyatsiyani amalga oshiruvchi – manipulyatsiyaning sub'yekti hamda manipulyatsiya qaratilgan shaxs – manipulyatsiyaning obekti. Manipulyatsiyaning sub'yekti manipulyator deb ham yuritiladi. Manipulyatsiyaning obekti esa individ yoki omma ongi bo‘ladi. Aksariyat rus olimlari, S.Kara-Murzaning manipulyatsiya haqidagi qarashlarini qo‘llab-quvvatlagan holda G‘arb, xususan Amerika OAVni “ongni zaharlovchi mashina”, “ruhiy terror vositasi” kabi ta'riflar bilan yonma-yon qo‘yadi, auditoriyani esa axborotni passiv qabul qiluvchi kishilar uyushmasidan iborat, deb hisoblaydi: “Muvaffaqiyatli manipulyatsiyaning birinchi (ehtimol asosiy) sharti shundaki, ko‘p hollarda fuqarolarning aksariyati xabarlarning to‘g‘riligidan shunchaki shubhalanish uchun na ruhiy va aqliy quvvati, na vaqtini sarflagisi keladi. Chunki, passiv ravishda axborot “oqimi” bilan birga “suzish”, har bir signalni tanqidiy nuqtai nazardan qabul qilishga qaraganda ancha oson”. Mushtarak aytganda, ommaviy axborot vositalari yordamida jamoatchilik fikri ustidan doimiy ravishda nazorat o‘rnatib borish mumkin. Bu jarayonlar avvaldan mavjud bo‘lib kelgan. Biroq bugungi globallashuv davrida OAVning manipulyator sifatidagi imkoniyatlari yanada kengaydi. Manipulyativ mexanizmlar axborot urushlarining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani har bir rivojlangan mamlakatda bu mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishini taqozo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

2. Usarovna, M. R., & Ibrahimovna, S. Z. (2019). Yuldoshev Sardor Asliddin oâ€™ gli, Akhmedova Shokhida Mukhtarovna. THE EDUCATION OF TALENTED STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-ISSN, 2455-3662.

3. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 81-88.

4. Yo‘ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG ‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

5. Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O ‘QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

6. Asliddin o‘g, Y. L. S. (2022). PSIXOLOGIK ZO ‘RAVONLIK VA KIBERBULLING. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 62-66.

7. Yuldashev, S. (2021). THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER IN MILITARY EDUCATION. International Journal of World Languages, 1(2).

PSIXODRAMA SOHASI VA UNING RIVOJLANISHI, O‘QITISH USULLARI

Mahkamova Komila
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixodramani psixologik muammolarni o‘rganish va hal qilish uchun dramatik elementlardan foydalanadigan psixoterapiya usuli sifatida tasvirlaydi. 20-asrning boshlarida Jeykob Levin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘zining samaradorligi va innovatsion yondashuvi bilan mashhur bo‘ldi. Psixodrama ishtirokchilarga turli rollarni o‘ynash va dramatik sahnalarni yaratish orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish va o‘z munosabatlari va ichki ziddiyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

Maqolada shuningdek, psixodrama sohasida ishlagan mashhur olimlar, masalan, uning yaratuvchisi bo‘lgan Jeykob Levin Moreno, shuningdek, uning rivojlanishi va ommalashishiga hissa qo‘shgan Konrad Martinussen va Maksi-Mariya Gottschalk haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Psixoterapiya, Psixodrama, psixologik muammolar, psixoterapevt Jeykob Lyuin, "harakat", Psixodrama, Guruh psixoterapiyasi va psixodrama, Psixodrama qonuni, Klinik kuzatishlar, Empirik tadqiqot , Tarixiy tahlil, Meta-tahlillar.

Kirish. Psixodrama - psixologik muammolarni o‘rganish va hal qilish uchun dramatik elementlardan foydalanadigan psixoterapiyaning o‘ziga xos shakli. 20-asr boshlarida sotsiolog va psixoterapevt Jeykob Lyuin tomonidan ishlab chiqilgan ushbu usul o‘zining samaradorligi va mijozlar bilan ishlashga innovatsion yondashuvi tufayli psixologiya olamida mashhur bo‘ldi.Psixodrama nima? Psixodrama rolli o‘yinlar va dramatik sahnalar odamlarga his-tuyg‘ularini, munosabatlarini va ichki ziddiyatlarini ifodalash va o‘rganishga yordam berishi mumkin degan g‘oyaga asoslanadi. Psixodrama seansi davomida guruh yoki individual mijoz tajribali psixodrama-terapevt rahbarligida turli personajlar rolini o‘z zimmasiga oladi, stsenariylarni o‘ynaydi va bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.Psixodrama qanday ishlaydi? Psixodramaning asosiy elementlaridan biri bu "harakat" dir. Mijozlar o‘zlarining haqiqiy hayotiy vaziyatlari yoki ichki ziddiyatlarini aks ettirishi mumkin bo‘lgan sahnalarni yaratishda faol ishtirok etadilar. Terapevt mijozlarga o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va ifoda etishda yordam beradi, so‘ngra guruh kontekstida yoki individual sessiyada ularning xatti-harakatlari va o‘zaro ta'sirini tahlil qiladi.


Psixodrama sohasi uning rivojlanishi va ommalashishiga katta hissa qo‘shgan ko‘plab olimlar va amaliyotchilar mavjud. psixodrama sohasida ishlagan mashhur olimlar bilan tanishib chiqsak. *Jeykob Lyuin Moreno* (1-rasm)- avstriyalik psixiatr, sotsiolog va psixodrama yaratuvchisi. U 20-asrning boshlarida psixodramani psixoterapiya va ijtimoiy aralashuv usuli sifatida ishlab chiqdi, bu psixologik muammolarni o‘rganish va hal qilish uchun dramatik elementlardan foydalanadi. *Konrad* - psixodrama rivojlanishiga hissa qo‘shgan norvegiyalik psixolog, ayniqsa guruh psixoterapiyasi kontekstida. Shuningdek, u guruhdagi munosabatlarni o‘rganish va tushunish vositasi sifatida "oyna" tushunchasini ishlab chiqdi. *Maxi*

Mariya Gottschalk - nemis psixiatri va psixoterapevti, psixodrama va avlodlar o‘rtasidagi psixoterapiya sohasida ishlagan. U mijozlar bilan ishlashda psixodramadan faol foydalangan va uning nazariy va amaliy rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.*Daniel Charlz Lapin* - amerikalik psixiatr va psixoterapevt, psixodrama va guruh psixoterapiyasidagi faoliyati bilan tanilgan. U psixodrama va uning psixoterapiya va ta'limda qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab maqolalar va kitoblar yozgan. Ushbu olimlar va amaliyotchilar psixodramani psixologik muammolar bilan ishlashning samarali usuli sifatida targ‘ib qilish va harakat va ifoda orqali insonning ichki dunyosini o‘rganishda asosiy rol o‘ynaydi. Jeykob Levi Moreno psixodrama yaratuvchisi va uning rivojlanishi va ommalashishidagi asosiy shaxslardan biridir. Uning psixodrama sohasidagi faoliyati psixoterapiya, ijtimoiy ish va boshqa sohalarga sezilarli ta'sir ko‘rsatdi.Jeykob Levin Morenoning psixodrama sohasidagi asosiy asarlari haqida ma`lumot berib g‘tadigan bg‘lsak bular:

– *Psixodrama* - Bu uning asosiy kitobi bo‘lib, Moreno o‘zining psixodrama haqidagi g‘oyalari va tushunchalarini psixoterapiya va ijtimoiy aralashuv usuli sifatida taqdim etgan. U psixodramaning asosiy tamoyillarini, guruhlar va individual mijozlar bilan ishlash usullarini tavsiflaydi, shuningdek, psixodramada qo‘llaniladigan dramatik texnikaning turli jihatlarini o‘rganadi.

– *Guruh psixoterapiyasi va psixodrama* - Ushbu kitobda Moreno psixodrama kontekstida guruhlar bilan ishlash tamoyillarini batafsil tasvirlab beradi. Bu guruh rahbarining rolini, guruhni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini, guruh muhitida nizo va hissiy ozodlikni bartaraf etish usullarini o‘rganadi.

– *Psixodrama qonuni* - Ushbu kitob Morenoning psixodrama haqidagi asosiy asarlari va maqolalari to‘plami bo‘lib, uning g‘oyalari, tushunchalari va psixoterapiya usullarini aks ettiradi. U psixodramaning turli jihatlarini, jumladan, uning tarixi, nazariyasi va amaliyotini batafsil tasvirlab beradi.



Jeykob Levin Morenoning ushbu asarlari psixodrama, uning tarixi, metodologiyasi va qo‘llanilishi haqida muhim ma'lumot manbalari bo‘lib, ular psixoterapiya va ijtimoiy ish sohasidagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun muhim manbaa bg‘lib qolmoqda.

Metodlar. Psixodrama sohasini o‘rganish psixoterapiyaning samaradorligini, uning nazariy asoslarini va turli kontekstlarda qo‘llanilishini o‘rganishga yordam beradigan turli usullar va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Psixodrama sohasini o‘rganishning bir necha usullari mavjud.

❖ *Klinik kuzatishlar* - Psixodramani o‘rganishning asosiy usullaridan biri uning klinik amaliyotda qo‘llanilishini kuzatishdir. Psixoterapevtlar va tadqiqotchilar psixodrama jarayonini kuzatadilar va ma'lumotlarini yozib oladilar, davolanish natijalarini tahlil qiladilar va mijozlar bilan ishlashning samarali strategiyalarini aniqlaydilar.

❖ *Empirik tadqiqot* - Psixodramaning samaradorligi va natijalarini o‘rganish uchun eksperimentlar, so‘rovlar, intervyular va korrelyatsion tahlillar kabi empirik tadqiqot usullaridan foydalanish. Bu psixodrama mashg‘ulotlarida qatnashgandan so‘ng ishtirokchilarning psixologik parametrlaridagi o‘zgarishlarni g‘rganishni o‘z ichiga oladi.

❖ *Tarixiy tahlil* - Psixodramaning nazariy asoslarini, uslublar evolyutsiyasini, qo‘llash kontekstlarini tushunish uchun tarixiy hujjatlar, adabiyotlar va materiallarni o‘rganish.

❖ *Meta-tahlillar* - umumiy naqshlarni, tendentsiyalarni aniqlash va psixodramaning turli jihatlari samaradorligini solishtirish uchun bir nechta tadqiqotlar natijalarini ko‘rib chiqish va sintez qilish.

Ushbu usullar tadqiqotchilar va amaliyotchilarga psixodramaning tabiati va samaradorligini, shuningdek, uning turli kontekstlarda qo‘llanilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Natijalar. Psixodrama his-tuyg‘ularni ifodalash va qiyin tajribalarni o‘rganish uchun xavfsiz muhitni ta'minlaydi.Psixodramada rol o‘yinlarida ishtirok etish mijozlarga boshqalar bilan munosabatlarini yaxshiroq tushunishga va muloqotni yaxshilash yo‘llarini izlashga imkon beradi.Psixodrama ichki va tashqi ziddiyatlarni aniqlash va hal qilishga yordam beradi, bu esa psixologik o‘sishga olib keladi.Guruh psixodramasi mijozlarga guruhning boshqa a'zolari tomonidan yordam va tushunish bilan ta'minlaydi.Psixodrama psixologik muammolarni o‘rganish va davolash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u barcha mijozlar uchun mos emas. Ba'zi odamlar o‘zlarini noqulay his qilishlari yoki rol o‘ynashga tayyor emasliklarini his qilishlari mumkin. Bundan tashqari, psixodramatistlar xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash uchun bunday mashg‘ulotlarni o‘tkazishda o‘qitilgan va tajribaga ega bo‘lishi muhimdir.Psixodrama - psixologik muammolarni o‘rganish va davolash uchun dramatik elementlardan foydalanadigan psixoterapiyaning noyob va innovatsion usuli. Bu mijozlarga turli rollarda tajriba o‘tkazish, his-tuyg‘ularini ifodalash va muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish imkonini beradi. Garchi psixodrama hamma uchun mos bo‘lmasa-da, u o‘zlari va munosabatlari bilan ishlashning ijodiy va hissiy jihatdan chuqur usullarini izlayotganlar uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amerika Guruh Psixoterapiya va Psixodrama Jamiyati (ASGPP) (https://www.asgpp.org/)

2. Britaniya Psixodrama Assotsiatsiyasi (BPA) - (https://www.psychodrama.org.uk/)

3. Yevropa Psixodrama Instituti (PIE) - (http://www.psychodramainstituteforeurope.com/)

4. Psixodrama Avstraliya - (https://www.psychodrama.org.au/)
5. Moreno Psixodrama Jamiyati (MPS) - (http://www.psychodramacouncil.org/)
6. “Psixodrama” - Jeykob Levin Moreno.
7. "Guruh psixoterapiyasi va psixodrama" - Jeykob Levin Moreno.
8. "Psixodramaning kuchi" - Bryus Kemmel.
9. "Psixodrama texnikasi: amaliyotchilar uchun qo‘llanma" - Daniel J. Vinik.
10. "Psixodramatik guruh terapiyasi" - Mark V. Hirsch va Jon N. Evans.
11. Journal of Group Psychotherapy, Psychodrama & Sociometry jurnali

KOGNITIV PSIXOLOGIYA: AQL - IDROKNI TUSHUNISHDAGI YUTUQLAR

Ravshanov Olim Axmedovich,
Ustemirova Nigina Shavkatovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
taa@jbnuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv psixologiya sohasidagi hozirgi tadqiqotlar muhokama qilinadi. Mualliflar idrok, tafakkur, xotira va diqqat kabi kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq asosiy tushunchalar va nazariyalarni tavsiflaydi. Neyropsixologiyaning so‘nggi yutuqlari va kognitiv jarayonlarni o‘rganish uchun ishlatiladigan texnologiyalar ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv psixologiya, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, neyropsixologiya, texnologiya.

Kognitiv psixologiya zamonaviy psixologiyaning eng muhim sohalaridan biridir. U insonning ma’lumotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va undan foydalanishini o’rganadi. Bugungi kunda kognitiv psixologiya zamonaviy usul va texnologiyalardan foydalangan holda faol rivojlanishda davom etmoqda. Ushbu maqolada biz kognitiv jarayonlar bilan bog’liq asosiy tushunchalar va nazariyalarni ko’rib chiqamiz, shuningdek, neyropsixologiya va texnologiya sohasidagi so’nggi ishlanmalarni muhokama qilamiz.

Kognitiv jarayonlar: Kognitiv jarayonlarga idrok, diqqat, xotira va tafakkur kiradi. Idrok-bu sezgilar orqali ma’lumotni idrok etish jarayoni. Diqqat-bu sizning e’tiboringizni ma’lum ma’lumotlarga qaratish, keraksiz ma’lumotlarni filtrlash qobiliyati. Xotira-bu ma’lumotni eslab qolish va esda saqlab turish va kerak bo’lganda qayta ishga tushirish qobiliyati. Tafakkur-bu muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish uchun ma’lumotlardan foydalanish qobiliyati.

Zamonaviy tadqiqotlar:

Kognitiv psixologiyadagi hozirgi tadqiqotlar neyropsixologiya, miya kompyuter interfeysi (MKI) –(inglizchadan. Brain-Computer Interface, BCI - insonni mashina bilan bog’lovchi kommunikatsiyasi hisoblanadi) texnologiyasi va sun’iy intellekt bo’yicha tadqiqotlarni o’z ichiga oladi [1].

Neyropsixologiya-bu xulq-atvor va miya faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan psixologiya sohasi. Neyropsixologlar neyrologik tadqiqot usullaridan foydalanib, miyaning ayrim sohalari bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni o'rganadilar [1]. Masalan, ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, miyaning dofamin tizimi mukofotga asoslangan o'rganish va motivatsiya bilan bog'liq. Boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, miya yarim korteksi qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Miya kompyuter interfeyslari-bu inson miyasini kompyuterga to'g'ridan-to'g'ri ulash imkonini beruvchi texnologiyalar. Ushbu interfeyslar fikrlar yordamida qurilmalarni boshqarish, shuningdek, turli kasalliklarni tashxislash va davolash uchun ishlatiladi [2]. Ular, shuningdek, kognitiv jarayonlarni o'rganish uchun, masalan, vazifalar paytida miya faoliyatini o'lchash uchun ishlatilishi mumkin.

Sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar kognitiv psixologiya uchun ham muhimdir. Mashinani o'rganish va ma'lumotlarni tahlil qilishning yangi usullari tadqiqotchilarga kognitiv jarayonlarni yaxshiroq tushunishga va ularni modellashtirishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Kognitiv psixologiyaning so'nggi yutuqlariga misollar:

Ishchi xotira: funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRT) yordamida yaqinda o'tkazilgan tadqiqot prefrontal korteks va parietal korteksning turli sohalari ish xotirasini saqlab qolish uchun qanday ishlashini o'rganib chiqdi [3]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, prefrontal korteks ma'lumotni kodlash va saqlashda, parietal korteks esa ishchi xotiradagi ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish va yangilashda ishtirok etadi.

Diqqat: elektroansefalografiya (EEG) yordamida yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda talamus diqqatni tegishli ma'lumotlarga qanday yo'naltirishi o'rganildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talamus tegishli ma'lumotlarni tanlab qayta ishlash uchun vizual korteksdagi asab faoliyatini modellashtiradi [3]. Ular ushbu kognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun miyaning turli sohalari bir-biri bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini va ular asosida qanday mexanizmlar yotishini ochib beradi.

Qaror qabul qilish: yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda MRT qaror qabul qilish asosidagi asab mexanizmlarini o'rganish uchun ishlatilgan [2]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ventromedial prefrontal korteks qaror qabul qilish uchun turli xil variantlarning qiymati haqidagi ma'lumotlarni birlashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

Tilni qayta ishlash: yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda tilni tushunish paytida miya faoliyati vaqti va ketma-ketligini o'rganish uchun magnetoensefalografiya (MEG) ishlatilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tilni qayta ishlash jarayonida miyaning turli sohalari ma'lum bir tartibda faollashadi, bu til asosidagi neyron mexanizmlarining ierarxik tashkil etilishini ko'rsatadi.

Neyrologiya: yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda shizofreniya bilan og'rigan odamlarda miyaning strukturaviy aloqasini o'rganish uchun diffuziya tenzor tomografiyasi (DTI) ishlatilgan [4]. Tadqiqot miyaning kognitiv nazorat bilan shug'ullanadigan sohalarida o'zgargan aloqa patternlarini aniqladi, bu shizofreniyada kognitiv nuqsonlar asosidagi asab mexanizmlarini tushunishga imkon berdi.

Miya-kompyuter interfeyslari: yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda falaj bo'lgan odamlarga robot qo'lini o'z fikrlari bilan boshqarishga imkon beradigan miya-kompyuter interfeysi ishlatilgan [4]. Tadqiqot miya-kompyuter interfeyslarining og'ir

motorli buzilishlari bo’lgan odamlarda vosita funktsiyalarini tiklash imkoniyatlarini namoyish etdi.

Sun’iy intellekt: tadqiqotchilar diqqat, xotira va qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarning modellarini ishlab chiqish uchun sun’iy intellektdan foydalanadilar. Ushbu modellar kognitiv jarayonlar qanday ishlashi haqidagi farazlarni sinab ko’rishga yordam beradi va asosiy asab mexanizmlari haqida tushuncha beradi [5].

Bugungi kunda kognitiv psixologiya zamonaviy usul va texnologiyalardan foydalangan holda faol rivojlanayotgan soha bo’lib qolmoqda. Neyropsixologiya, miya kompyuter interfeyslari va sun’iy intellekt sohalaridagi tadqiqotlar kognitiv jarayonlar haqidagi tushunchamizni yaxshilashga yordam beradi. Ushbu sohada o’qitishning samarali usullarini ishlab chiqish, ruhiy kasalliklarni davolash va inson va kompyuter o’zaro ta’sirining yangi texnologiyalarini ishlab chiqish kabi keng amaliy qo’llanmalar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. American Psychological Association (2013). Glossary of psychological terms.

2.Baddeley, A. D. Working memory: theories, models, and controversies. Annual review of psychology, 2012. - 63, 1-29.

3.Bressler, S. L., & Menon, V. Large-scale brain networks in cognition: emerging methods and principles. Trends in cognitive sciences, 2010. - 14(6), 277-290.

4.Gazzaniga, M. S., Ivry, R. B., & Mangun, G. R. Cognitive Neuroscience: The Biology of the Mind. W. W. Norton & Company, 2014.

5.Петренко В.Ф. Базовые метафоры как геном (зародыш) будущей теории (на материале психологической науки)//Вопросы философии.- 2012.-№ 4.-С. 87-98.

MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH FOR B2 LEVEL STUDENTS: ENHANCING LANGUAGE PROFICIENCY AND COMMUNICATION SKILLS

Maripov Jalolkhan Kamoliddin ugli
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
maripov@jbnuu.uz

Abstract: This scientific article explores modern methods of teaching English specifically designed for B2 level students. The B2 level represents an intermediate stage of language proficiency, where learners possess a solid foundation of grammar and vocabulary but still require guidance to enhance their communication skills. This article examines various innovative approaches to teaching English, including communicative language teaching, task-based learning, technology integration, and learner autonomy. By incorporating these modern teaching methods into the language

classroom, educators can foster an engaging and effective learning environment, aiding B2 level students in their journey towards fluency and communicative competence.

Keywords: English language teaching, B2 level, communicative language teaching, task-based learning, technology integration, learner autonomy, language proficiency, communication skills.

Introduction: The B2 level of English proficiency is a crucial stage in language learning, as learners transition from basic to more complex linguistic structures and communication skills. Traditional teaching methods may not fully cater to the unique needs of B2 level students, necessitating the exploration of innovative approaches that promote active engagement, authentic language use, and meaningful interactions. This article aims to shed light on modern teaching methods that can effectively support B2 level students in their language acquisition journey. Several scholars have contributed valuable insights on this subject. Here are some quotes from notable scholars:

Scott Thornbury: "Task-based learning provides an authentic and meaningful context for language use, allowing B2 level students to develop their communication skills by engaging in purposeful and challenging tasks."

Diane Larsen-Freeman: "A learner-centered approach, such as the use of project-based learning, helps B2 level students take ownership of their learning, fostering autonomy and promoting language proficiency through meaningful and collaborative tasks."

Rod Ellis: "Integrating technology into English language teaching at the B2 level can enhance language proficiency and communication skills. Interactive online platforms, multimedia resources, and language learning apps provide opportunities for authentic practice and engagement."

Adrian Underhill: "Phonics and pronunciation instruction play a crucial role in developing B2 level students' language proficiency and communication skills. Focusing on phonological awareness and accurate pronunciation helps students communicate effectively and understand spoken English."

Vivian Cook: "Incorporating authentic and real-life materials, such as videos, podcasts, and news articles, into the language classroom for B2 level students can enhance language proficiency and communication skills. Exposure to authentic language use promotes fluency, comprehension, and cultural understanding."

Paul Nation: "Vocabulary acquisition is a key component of enhancing language proficiency at the B2 level. Explicit vocabulary instruction, extensive reading, and vocabulary games can help students expand their word knowledge and improve their communication skills."

Communicative Language Teaching (CLT) is an approach to language teaching that emphasizes the importance of communication and meaningful interaction in the language learning process. It aims to develop students' ability to use the language effectively and fluently in real-life situations. CLT goes beyond traditional methods that focus solely on grammar and vocabulary, instead prioritizing

the development of communicative competence and the ability to understand and convey meaning.

The principles of CLT are rooted in the understanding that language is a tool for communication, and learners need ample opportunities to practice using the language in authentic contexts. The primary goal of CLT is to enable students to become proficient communicators who can effectively convey their thoughts, opinions, and ideas in the target language.

CLT offers several benefits for language learners:

- Enhanced Communication Skills. By engaging in authentic communication activities, learners develop their ability to understand and express themselves effectively in the target language. They gain confidence in using the language in real-life situations.
- Improved Fluency and Accuracy. Through meaningful practice and exposure to the language, learners improve their fluency while also refining their accuracy in grammar, vocabulary, and pronunciation.
- Real-World Relevance. CLT connects language learning to real-world contexts, making the learning experience more relevant and motivating for learners. It prepares them to navigate authentic communication situations they may encounter in their personal and professional lives.
- Increased Motivation. The focus on meaningful communication and student-centered activities fosters intrinsic motivation and a positive attitude towards language learning. Learners feel more engaged and invested in their own language development.
- Develops Critical Thinking and Problem-Solving Skills. CLT promotes critical thinking, as learners engage in tasks that require them to analyze information, make decisions, and solve problems using the target language.

Task-Based Learning (TBL) is an approach to language teaching that centers around the completion of meaningful tasks as the primary focus of instruction. TBL shifts the traditional emphasis on grammatical structures and isolated language skills to a more learner-centered approach that promotes the application of language in real-world contexts. The goal of TBL is to develop learners' language proficiency and communicative competence by engaging them in purposeful and authentic tasks.

Benefits of Task-Based Learning:

- Meaningful Language Use. TBL promotes the application of language in authentic contexts, enabling learners to see the purpose and relevance of what they are learning. This enhances learners' motivation and engagement, as they experience the practical value of the language they acquire.
- Communication Skills Development. By engaging in communicative tasks, learners develop their speaking, listening, reading, and writing skills. TBL provides opportunities for learners to practice and improve their ability to understand and produce language in meaningful ways.
- Critical Thinking and Problem-Solving Skills. TBL tasks often require learners to think critically, analyze information, make decisions, and solve problems.

This fosters the development of higher-order thinking skills, as learners use language to navigate complex tasks and make informed choices.

- Learner Autonomy and Responsibility. TBL empowers learners to take an active role in their learning process. Learners become more independent, responsible, and self-directed as they engage in task selection, planning, and self-assessment. Learner autonomy is nurtured, leading to lifelong language learning skills.
- Authentic Assessment. TBL allows for authentic assessment of learners' language proficiency and communicative competence. Assessments are based on learners' ability to complete tasks successfully, rather than solely on grammar or vocabulary knowledge. This provides a more accurate representation of learners' language abilities in real-world contexts.

Technology integration in education refers to the incorporation of technology tools and resources into the teaching and learning process to enhance and support educational outcomes. It involves leveraging various technological tools, such as computers, tablets, interactive whiteboards, educational software, online resources, and internet connectivity, to create engaging and interactive learning experiences for students. Technology integration can take various forms, ranging from simple use of technology as a supplemental tool to more transformative approaches that redefine teaching and learning practices.

Benefits of Technology Integration:

- Enhanced Engagement. Technology can capture students' interest and motivation by providing interactive and multimedia-rich learning experiences. It can incorporate audio, video, animations, and gamified elements, making learning more engaging and enjoyable for students.
- Access to Information and Resources. Technology enables students to access vast amounts of information and resources beyond the confines of traditional textbooks. The internet provides a wealth of educational content, including online libraries, research databases, educational videos, and interactive simulations, allowing students to explore and learn beyond the limitations of the classroom.
- Differentiated Instruction. Technology facilitates personalized and differentiated instruction. Teachers can use adaptive learning platforms and educational software to tailor instruction to individual student needs, providing targeted feedback and support. Technology also allows for the creation of learning materials that cater to diverse learning styles and abilities.
- Collaboration and Communication. Technology enables collaboration and communication among students and with teachers. Online platforms, discussion boards, video conferencing tools, and collaborative documents facilitate effective communication, peer feedback, and collaborative learning. Students can engage in virtual group projects, share ideas, and work together irrespective of physical distances.
- Development of Digital Literacy Skills. Technology integration helps students develop digital literacy skills that are crucial for success in the digital age. They learn to navigate digital tools, evaluate information sources, critically analyze

media, and practice responsible digital citizenship. These skills are essential for their future academic and professional endeavors.

- Real-World Connections. Technology integration can bridge the gap between classroom learning and real-world applications. Students can engage in authentic learning experiences, such as virtual field trips, simulations, and online collaborations with experts and professionals in various fields. Technology can bring real-world contexts into the classroom, making learning more relevant and meaningful.

While technology integration offers numerous benefits, it also presents challenges and considerations that need to be addressed:

- Access and Equity. Ensuring equitable access to technology and reliable internet connectivity is crucial to avoid creating a digital divide among students. Schools and educational institutions need to provide access to technology resources for all students, regardless of their socioeconomic background.
- Professional Development. Teachers require adequate training and ongoing professional development to effectively integrate technology into their teaching practices. They need to be proficient in using various tools, understand pedagogical approaches supported by technology, and be able to navigate digital platforms and resources.
- Digital Citizenship and Online Safety. Educators must teach students about responsible digital citizenship, including online safety, privacy, ethical use of technology, and digital etiquette. They need to guide students on how to critically evaluate information sources and navigate the digital landscape responsibly.
- Infrastructure and Technical Support. Schools need to maintain robust infrastructure, including reliable network connectivity, up-to-date hardware and software, and technical support to ensure smooth technology integration. Adequate technical support should be available to address technical issues and troubleshoot problems.
- Pedagogical Considerations. Technology integration should be driven by pedagogical goals and instructional strategies. It is essential to align technology use with learning objectives and ensure that technology enhances, rather than replaces, effective teaching practices. Technology should be seen as a tool that supports and amplifies learning outcomes.

Conclusion

Teaching English to B2 level students requires a departure from traditional methods and the adoption of modern approaches that cater to their specific needs. Incorporating communicative language teaching, task-based learning, technology integration, and promoting learner autonomy can create an engaging and effective learning environment for B2 level students. These methods foster authentic language use, active participation, critical thinking, and autonomous learning, ultimately assisting B2 level students in achieving higher levels of language proficiency and communication skills. As the field of language education continues to evolve, it is crucial for educators to stay updated with modern teaching methods and adapt their practices to meet the needs of B2 level students.

References:

1. Ma’ripov, J. K. A BRIEF INFORMATION ABOUT TENSES. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA, 464.
2. Tolibovna, A. K. (2022). Features Of Anthropocentric Study Of Sacred Texts. Open Access Repository, 8(1), 5-10.
3. Ma’ripov, J. (2023). KORPUS HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(5), 175-178.
4. Маърипов, Д. (2023). Psychological value of the novels by agatha christie. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 630-632.
5. Solnyshkina, M. I. (2023). IMPORTANCE OF SETTING GOALS. SMART GOALS. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 318-320.
6. Ma’ripov, J. (2022). ANTROPOSENTRIZM–TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YONALISHI SIFATIDA. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(28), 62-68.
7. LEARNER, I. Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, The faculty of psychology, The teacher at the department of Foreign languages.
8. Tolibovna, A. K. (2022). Functions of Allusion and Allusion as a Marker of Intertextuality and Precedence. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 485-487.

ER -XOTIN O‘RTASIDAGI NIZOLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ruzmatova Dilnoza Tirkashevna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada er-xotin o‘rtasidagi nizolarning ijtimoiy - psixologik xususiyatlari, ularning kelib chiqish sabablari, oilaviy nizolarning turlari, nizolarga sabab bo‘luvchi omillar ularni oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, er-xotin, destruktiv nizo, konstruktiv nizo, befarqlik, achchiqlanish, o‘zaro munosabat, mojaro, kelishmovchilik.

Oila jamiyatning bo‘g‘ini va bir bo‘lagidir. Insoniyat boshidan kechirgan davrlar shunchalik o‘zgacha va murakkab bo‘lishiga qaramay, XIX-XX asrlarda ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlarga dosh bergani jamiyat oldida turgan majburiyatlarini ado etgan sog‘-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil qilganligini va oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan tashkil topganligini hisobga olib ,buni psixologik jarayonlar maskani deb atasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda ushbu jumlani keltiramiz. ,, Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerakki : oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi barchamiz jipslashib , tinimsiz o‘qib , o‘rgansak ishimizni mukammal va unumli bajarsak,albatta hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi“[1.9], degan gaplarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat

Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga Muroja'atnomasida aytib o‘tganlar.

Darhaqiqat, zamonaviy bilimlarni olishga intilsak, bu ziddiyatlar qarama-qarshi maqsadlar,fikrlar qarashlar g‘oyalar, manfa'atlar, fikrlarning to‘qnashuvini oldini olgan oila a'zolar o‘rtasidagi nizolarning keskin tarzda kamayishiga olib kelgan bo‘lar edi. Shu bilan birga oila a'zolar o‘rtasidagi munosabatlar farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham o‘z ta'sirini o‘tkazar ekan, bu munosabatlarni yaxshilanishiga olib kelgan bo‘lar edi. Oilada har-bir a'zoning o‘ziga xos majburiyatlari va burchlari bor. Mana shunday burch va majburiyatlarni o‘z vaqtida tushunish va amalga oshirish munosabatlarni yaxshilash va paydo bo‘ladigan nizolarni oldini olishga yordam beradi.

Aslini olganda oilaviy nizolar kimlar ishtirok etishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi.

1.Er-xotin o‘rtasidagi nizolar

2.Qaynona- kelin o‘rtasidagi nizolar

3.Qaynona -kuyov o‘rtasidagi nizolar

4 .Ovsinlar o‘rtasidagi nizolar

5. Farzandlar o‘rtasidagi nizolar[2].

Biz hozirgi kunda eng tarqalgan er-xotin o‘rtasidagi nizolarni atroflicha yoritishga harakat qilamiz. Har bir oila borki unda albatta nizo bor. Shuni alohida ta'kidlab o‘tish kerakki, oilada o‘zini burch ilm ma'suliyatini tushunib anglab yetmagan bo‘yniga olmagan erkak oilani farovonlogini ta'minlay olmaydi. Turmush o‘rtog‘ini xursand baxtli qila olmaydi. Bu muammo esa o‘z navbatida farzandlar kelajagiga o‘z navbatida yaxshigina ta'sir o‘tkazadi, turmush o‘rtog‘ini orzu havaslariga ham bu ta'sir o‘tkazmay qolmaydi va shu bilan birgalikda turmush o‘rtogining kutuvlariga real hayotning mos emasligi ham muhim o‘zini rol o‘ynaydi. Shu jumladan er-xotin munosabatlardagi nizolarni turlarini keltirib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak , quyida nizo turlarini keltirib o‘tamiz.

1. **Konstruktiv to‘qnashuvlar**. Turli sabablarga ko‘ra bunday to‘qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala tomonga qoniqish hissi tug‘diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o‘zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo‘ladimi natijasi doimo gullab yashnaydi.

2. **Yomon nizolar**. Bunday to‘qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko‘p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hissini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to‘qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin[3].

Darhaqiqat, biz shuni aytishimiz mumkinki , nizolar ham o‘z o‘rnida nafaqat yomon , balki yaxshi nizolarga ajratishimiz mumkin. Bunday nizolar oxir oqibat nizoni qanday yakunlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday nizolar mavjudki, muammoni mohiyati asl sababi topilganidan so‘nggina nizolar konstruktiv ya'ni yechimi yaxshilik bilan tugaydi deb ayta olishimiz mumkin.

Shu o‘rinda er va xotin g‘rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bg‘luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni kiritib o‘tganlar: **achchiqlanish –** oilaviy hayotda

kg‘p uchraydi, chunki u g‘zaro g‘amxg‘rlik va bog‘liqlik kamaygan sharoitlarda g‘z-g‘zidan paydo bg‘ladi; F. Perlzning yozishicha,,,Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va g‘zaro muomalaga bg‘lgan intiqlikdir”, aybdorlik – g‘zining qilmishi uchun g‘ch olishday gap, kg‘pincha bu hissiyot ataylab namoyon etiladi, arazlash – turmush g‘rtog‘idan g‘ch olish maqsadida namoyon etiladigan his-tuyg‘u;

nafrat – turmush g‘rtog‘iga gg‘yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish, tanqid qilish – qg‘rqoqlikka g‘xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, SHostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga g‘tgani ma’qul, turmush g‘rtog‘idan yiroqlashish, ketib qolish – bu ham ma‘lum ma‘noda bir-birini nazoratda ushlashning bir kg‘rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;

befarqlik – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bg‘lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bg‘lib qoladi[4].

Darhaqiqat ,achchiqlanish oilada bir biriga nisbatan e’tibor va mehr yetishmaganda paydo bo‘ladi va bu ko‘rinish ayollarimizda araz sifatida oilalarimizda namoyon bo‘lishi mumkin. Nafrat qachonki paydo bo‘ladi oilalarda buni biz orada paydo bo‘ladigan nizolar kattalashib borgan sari er-xotin nizolarida nafrat paydo bo‘ladi va bu bora-bora oilalarni ajralib ketishiga va farzandlarni yetim qolishiga ham sababchi bo‘ladi.O‘z o‘rnida befarqlik ham er-xotin orasidagi munosabatlarni ayanchli ahvolga olib keladi va bir -biridan ajjralishiga sabab bo‘ladi.

Mana shunday salbiy munosabatlar er-xotin o‘rtasida nizolariga sabab bo‘lib kelmoqda..Bu esa ular o‘rtasidagi munosabatlarning destruktiv yoki konstruktiv nizolarga sabab bo‘ladi. Nizoning turiga qarab bunda oila yoki mustahkamlanadi yoki er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni jiddiy tus olishiga olib keladi.

Shu o‘rinda er-xotin nizolarini bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz:

1.Nizo paydo bo‘lgan paytda hech kimni aralshuviga yo‘l qo‘ymang, o‘zingiz hal qilishga harakat qiling.

2.Nizoga borgan paytingiz ovoz ohangiga e’tibor qarating ,zero nizoni hal qilishga ovoz ohangiga ham bog‘liq.

3. Nizo paydo bo‘lgandan so‘ng bittangiz faqat u joyni tark eting.

4. Tinch sokin joyda nizoni hal qilishga harakat qiling.

5. Mojaro paydo bo‘lganda bir -biringizni tinglashga harakat qiling.

6. Farzandlaringiz oldida also janjallasha ko‘rmang.

7. Muammoning asl mohiyatini tushunib yetishga harakat qiling.

8. Muammo paydo bo‘ldimi ,bir-biringizga hurmatni saqlagan holda muammoga yondoshishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyot porloq kelajagimiz.T,,Zamin nashr “-2020 yil 9-bet

2. G.R.Qarshiboyeva,U.R.Ibaydullayeva - Oila psixologiyasi o‘quv qo‘llanma T.,,Bayoz “,2022 144-bet.

3. https://images.app.goo.gl/2J9e3RcXX3rjqEUK6https://cyberleninka.ru
4. Vasila Karimova. Oila Psixologiyasi .Darslik.Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. T:2007 76-bet
5. У. Ибайдуллаева, М. Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-, Россия. 2023.
6. U.Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.
7. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilaviy nizolar va ajrimlar – jamiyat zavoli Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman Jizzax-2023 2-qism.
8. Ayol, oila va jamiyat / Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / F. Otaxonov. – T.: 2007 – 260 b.

OILALARDA YUZAGA KELAYOTGAN ER-XOTIN O‘RTASIDAGI AJRIMLARNING JAMIYAT UCHUN SALBIY OQIBATLARI

ps.f.f.d. Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna,
Tirkasheva Mavluda Akramovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilalarda er-xotin o‘rtasida yuz berayotgan ajrimlari haqida so‘z yuritilib, unda oila va nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari, ajrimlarning jamiyat uchun salbiy oqibatlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Oila va nikoh munosabatlari, er-xotin, oilaviy hayotga tayyorlash, milliy o‘ziga xoslik, nizolar, ajralishlar, salbiy asoratlar.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni yaratish, oila qadriyatlari va oiladagi shaxslararo munosabatlarini shakllantirish orqali oilaviy munosabatlarini barqarorlashtirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Darhaqiqat, oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan hamda oilasida ijobiy muhit hukm surgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his eta oladi. Afsuski, oilalarda yuzaga kelayotgan er-xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan oilaviy ajrimlar farzandlarning ko‘ngli kemtik, hayotdan alamzada bo‘lib voyaga yetishi yoki zararli odatlarga ruju qo‘yishi, jinoyat ko‘chasiga kirishiga sabab bo‘layotgani haqida qancha gapirilmasin, oila muqaddasligi, sha’ni, obro‘si, an’ana va qadriyatlariga hurmat hissi sayozlashib borayotgani achinarli holdir. Bu borada muhtaram prezidentimiz ham juda ko‘p bor ta’kidlab o‘tadilar. Jumladan, “Avvallari biror oila ajrashsa, mahallada duv-duv gap bo‘lardi, butun mahalla oyoqqa turardi.

Ajrim — bu katta fojia. Albatta, barchamizning istagimiz, tilagimiz bitta: qani endi, yurtimizda ajrim degan noxush holatning o‘zi bo‘lmasa. Oilalar parokanda, bolalar tirik yetim bo‘lib, sarson-sargardon bo‘lmasa. Men bir fikrni qayta-qayta aytishdan charchamayman. Oila — bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor”, — deya ta’kidlaydi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.[1] Haqiqatdan ham bir oilaning barbod bo‘lishi jamiyat uchun bu juda katta inqiroz sanaladi. Birgina ajrim tufayli oilalar parokanda, farzandlar yetim bo‘lib qolmoqda. Bunday holatlar yuzaga kelishini oldini olish uchun esa oilaviy munosabatlarda er-xotinlar bir-birlariga yaxshi munosabatda bo‘lib, bir-birlarini hurmat qilib, tushunib yashashlari lozim.

O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila va nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilinib kelinmoqda.

Mamlakatimiz hamda xalqimizning tinch va xotirjam bo‘lishida oilalarning totuvligi ham katta ahamiyatga egadir. Ammo achinarli tomoni shundaki, hozirgi kunda ajrimlar sonining ko‘payib borayotganligiga oilalarda uchrab turadigan er-xotin o‘rtasida nizolarning uchrab turishi ham ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, nizo atamasi “bahs, tortishuv, janjal, to‘qnashuv, kurash” degan ma’noni anglatadi.[2] Oila tinch, mustahkam, halol-pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta va farovon bo‘ladi. Ming afsuslar bo‘lsinki, so‘nggi yillarda oilaviy ajrimlar ko‘payib ketdi. Bu borada prezidentimizning oilaviy ajrimlar haqida fikrlarini bildirib, ularni oldini olish bo‘yicha samarali ishlar olib borish zarurligi haqida aytib o‘tganlar. “Keyingi paytda oilaviy ajrimlarning oldini olish bo‘yicha samarali ish olib borilmoqda. Buni ajralish yoqasiga kelib qolgan 23 mingga yaqin oila yarashtirilgani, ajrimlar soni mingdan ziyodga kamaygani ham ko‘rsatib turibdi. Lekin bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak. Bu raqamlar hamon yuqori bo‘lib qolmoqda. O‘tgan yili 28 mingdan ziyod oila ajralib ketgani ham fikrimizni tasdiqlaydi”, — deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.[3] Darhaqiqat, nizolar ortidan jarimlar soni ko‘payib ketmoqda.Buning oqibatida esa qanchadan-qancha oilalarning obro‘si to‘kilmoqda. Ajrim oqibatida “boshi ochiq” ayol va “bo‘ydoq” erkaklar paydo bo‘lib kelmoqda.

Bu holat odatda jamiyatda zino va hayosizliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lib, ma’naviy muhitni buzilishiga olib kelmoqda. Oqibatda ba’zi “boshi ochiq” yoshgina ayollar noqonuniy ikkinchi, uchinchi va hatto to‘rtinchi xotinlikka ham rozi bo‘lmoqdalar. O‘rtadagi farzandlar tirik yetim bo‘lib, bechora farzandlar ushbu holatdan sarson va sargardon bo‘lib, nima qilishni bilmay qolmoqda. Otasiga boray desa ona norozi, onasiga boray desa ota ruhsat bermaydi. Bola ikki o‘tni orasida qolib, bir qancha mashaqqatlarga duch kelmoqda. Natijada esa bolaning tarbiyasi buzilmoqda. Ota-ona ajrimi aksar hollarda farzandni noqobil bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘lmoqda. Afsuski, qarovsiz qolayotgan, ota-onasi bor ba’zi bolalarni mehribonlik uylariga topshirish holatlariga ham duch kelmoqdamiz. Oilaviy ajrimlarning zararli oqibatlari yuqoridagi holatlardan boshqa bir qancha zarar va ziyonlari ham mavjud. Ajralishning asoratlari oila a’zolari va qarindosh-urug‘lar

o‘rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda. Demak, oilaning buzilishi va uning oqibatida yuzaga keladigan turli asoratlar ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyaning tadqiqot predmeti sifatida keng o‘rganishni taqozo etadi.

Oila qo‘rg‘onining poydevori, uning mustahkam qal’asi, er-xotinni mahkam bog‘lovchi rishtasi nikoh sanaladi. Nikoh insonlar jamiyatida eng muqaddas bitim hisoblanadi. Chunki hayotda halol va haromni ajratish, er-xotinning haq-huquqlariga rioya etish, oila qurish, inson naslining davomiyligini ta’minlash, yosh avlod tarbiyasi kabi muhim masalalarning hammasi shar’iy nikohga bog‘liqdir. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi. Ming afsuslar bo‘lsinki, so‘nggi yillarda oilaviy ajrimlar ko‘payib ketmoqda. Quyida oilaviy ajrimning salbiy oqibatlaridan ba’zilarini bayon qilamiz:

1.Ajrashgan er va xotinning hech bo‘lmaganda obro‘si to‘kilishi. Erga nisbatan “bitta xotinni eplay olmadi, yaxshi odam bo‘lganda ayoli bilan chiroyli muomala qilib yashar edi”, degan gap-so‘zlar, ayolga nisbatan esa “erining xizmatini qilolmadi, yaxshi ayol bo‘lganida erining izmidan chiqmasdan, murosa qilib, tinchgina yashar edi”, degan qarashlar kelib chiqadi.

2.O‘rtadagi farzandlarni tirik yetim bo‘lib, sarson bo‘lishi. Bechora farzandlar o‘rtada sarson va sargardon bo‘lib, nima qilishni bilmaydi. Otasiga boray desa ona norozi, onasiga boray desa ota ruxsat bermaydi. Otasi bilan suhbatlashsa, “onang unday, onang munday” deganga o‘xshagan gaplarni gapirib bolaga onasini yomonlaydi va yomon ko‘rsatishga harakat qiladi. Onasi bilan gaplashsa, “otang bunday, otang unday” degan gaplarni gapirib bolaga otasini yomonlaydi. Natijada bola ikki o‘tni orasida qolib, bir qancha mashaqqatlarga duch keladi. Tarbiyasi buziladi. Ota-ona ajrimi aksar hollarda farzandni noqobil bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘ladi. Afsuski, qarovsiz qolayotgan, ota-onasi bor ba’zi bolalarni mehribonlik uylariga topshirish holatlari ham uchramoqda.

3.Ajrashuvchi ikki yoshning ota-onalarining mashaqqat chekishi. Ota-ona orzu havas qilib, qancha mehnat-mashaqqat va qiyinchiliklar bilan farzandini to‘y qilib: “Zimmamdagi vazifani bajardim, bolamni oilali qildim” deb endi erkin nafas olib turgan paytda farzandini oilasi buzilsa, ota-onaga moddiy va ma’naviy jihatdan qattiq zarba bo‘ladi. Ota-ona va boshqa barcha qarindoshlar ruhiy iztirobga tushadi.

Ushbu keltirilgan oilaviy ajrimlar natijasida yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlar albatta inson halovatini yo‘qolishiga olib keladi. Qalb halovati esa inson hayotining mazmunidir. Mutaxassislar kuzatuviga ko‘ra, turmushning dastlabki uch yilida ajralish uchun eng ko‘p ehtimollik bo‘larkan. Sababi, bu vaqtga kelib er-xotin bir-birini anchagina bilib, xato-kamchiliklarini ko‘rib, bir-biridan to‘yish hissi paydo bo‘lishi aniqlangan. Mana shu davrdan eson-omon o‘tib olgan oila yanada mustahkamlanar ekan. Har bir oilada er-xotin tinch-totuv, ahil-inoq ravishda, baxt nashidasini surib yashashi ayni muddaodir. Buning uchun hamma harakat qiladi. Ammo, jon bor joyda janjal bor, deganlaridek, kishilar istamasalar ham, oila a’zolari – er-xotin orasida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar va urish-janjallar chiqib turishi bor. Ushbu holatni to‘g‘ri hal qilish ham oilaning va uning a’zolarining saodatiga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir.

Bu masalada ikki taraf ham bir-birini yaxshi tushunishi, ayol erning, er ayolning rioyasini bajarishi lozim. Ikkovlari bir-birlarining odatlarini, nimadan xafa va nimadan xursand bo‘lishlarini, ruhiy kechinmalarida va kayfiyatlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni yaxshi tushunib yetishlari zarur. So‘ngra bir-birlarini xafa qiladigan harakatlardan yiroq bo‘lib, xursand qiladigan narsalarga yaqin bo‘lishga harakat qilishlari kerak.

Er-xotin orasidagi kelishmovchilikni bartaraf qilishda va ularni oldini olishda quyidagi xulosa va tavsiyalarni aytib o‘tishni lozim topdik:

1. Er-xotin orasidagi muammo haqiqatda ham ajrim darajasiga borib yetganmi yoki faqatgina tushunmovchilikdan iboratmi, shuni aniqlab olish kerak. Agar shuni anglab yetilsa va ikki taraf bir-birini tushunishi lozim.

2. Er-xotinning har biri muammo haqidagi o‘z tushunchasini ochiq aytishi, bir-biriga e’tibor bilan tinglashi kerak.

3. Er-xotin bir-birini xatosini anglasa bir-birini tushunishi oson kechadi va nizolarni oldini olish mumkin bo‘ladi.

4. Er-xotin orasidagi kelishmovchilikni bartaraf qilishda ikki taraf ham bir-birining asl tabiatida bor narsalarga sabr qilishi kerak.

5.Er-xotin orasidagi nizoni bartaraf qilishda har ikki taraf ham bir pog‘ana past tushishga tayyor turishlari kerak bo‘ladi. Chunki har kim aytganida turib olsa, muammoni hal qilish qiyinlashadi.

2) замена паронимом или словом, связанным с исходным компонентом созвучием: *Канули в лето* («РБК», 4.07.2018) – об уходе из туриндустрии нескольких крупных операторов; *Опознание – сила* («Российская газета», 3.07.2018) – об открытии счетов банками по голосу и фотографии; *Бросить визу судьбе* («Известия», 30.06.2018) – о случаях мошенничества при оформлении поездки за границу; *Саммит по себе* («Коммерсантъ», 28.06.2018) – о встрече президентов России и США за закрытыми дверями; *Смертный оговор* («РБК», 31.05.2018) – об обвинениях Аркадия Бабченко в адрес российских спецслужб; Мир, пруд, май («Российская газета», 3.05.2018) – о жаре в Москве;

3) замена компонентом, не находящимся с исходным в системных отношениях синонимии, антонимии, паронимии или в рамках одной тематической группы: *Робот роботу глаз не выклюет* («Коммерсантъ»,

23.05.2018) – о влиянии автоматизации на рынок труда; *Век цифры не видать* («Коммерсантъ», 10.05.2018) – об арестах IT-предпринимателей.
Это самый продуктивный тип авторских преобразований фразеологизмов.

3. Контаминация – объединение частей двух и более фразеологизмов. Этот прием придает особую семантическую емкость и экспрессивность и вовлекает ФЕ в новую образную систему: *Тонкая прямая красная линия* («Коммерсантъ», 8.06.2018); *В кольце друзей* («Новая газета», 5.05.2018) – о трудностях сохранения дипломатических отношений с Сирией, Ираном и Израилем; *У нас длинные меры* («Коммерсантъ», 14.04.2018) – об ограничениях, вводимых против американских компаний; *Замкнутый солнечный круг* («Коммерсантъ»,22.12.2017) – о проблеме привлечения инвестиций в энергетику[5].

Одним из любимых выразительных приемов, используемых в материалах СМИ, стала языковая игра с прецедентными текстами, известными именами, названиями художественных и литературных произведений. Почти во всех случаях прецедентный текст подвергается структурно-семантическим преобразованиям: частичному цитированию, замене компонента, контаминации или экспликации: *Судье шепнем: «Мерси боку!»* («Московский комсомолец», 30.06.2018) – о работе рефери на чемпионате мира; *А до дружбы – четыре шага* («РБК», 13.06.2018) – о встрече лидеров США и Северной Кореи; *Из-за острова – на баржу* («Российская газета», 13.06.2018) – о столкновении катамарана и баржи на Волге; *По улицам авто водили* («Российская газета», 13.06.2018) – об акции, проведенной с целью предотвращения дорожно-транспортных происшествий; *Когда говорят визы, пушки молчат* («Коммерсантъ», 9.06.2018) – об открытии визового центра США в Москве; *И все-таки они встретятся!* («Московский комсомолец», 28.05.2018) - о встрече Трампа и Ким Чен Ына; *Капитанская точка* («Российская газета», 19.04.2018) – о промахе футболиста «Спартака» в финальной игре, который лишил команду победы; *Путешествие из Петербурга в Москву и обратно* («РБК», 26.12.2017) - о кадровых перестановках в администрации. Мы видим, что все цитаты трансформированы, но при этом легко узнаваемы для носителей русской ментальности. Эмоционально-образные ассоциации, возникающие в ходе прочтения трансформированного прецедентного текста, повышают выразительные возможности высказывания. Адресат безошибочно считывает информацию преобразованного текста, получая эстетическое и интеллектуальное удовлетворение [4].

Поскольку в большинстве случаев трансформированные ФЕ способствуют повышению экспрессии, их использование в публицистике как одном из самых эмоционально заряженных стилей представляется вполне оправданным. Структурно-семантические преобразования фразеологизма дают возможность приспособить смысл единицы к условиям определенного контекста, а также оживить стершийся образ, что ведет к повышению экспрессии, оценочности и выразительности.

Литература:

1. Добрыднева, Е.А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: дисс… д-ра филол. наук / .Е.А. Добрыднева. — Волгоград, 2000 г. — 453 с.
2. Телия, В.Н. Экспрессивность как проявление субъективного фактора в языке и ее прагматическая ориентация / В.Н. Телия // Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. — М., 1991. — С. 5-36
3. Susanna, v. Issues of journalism, pedagogy and linguistics.
4. Ваниева, Э. А., & Велиева, С. Р. (2023). Особенности учета национальных лингвометодических традиций при организации обучения иностранных студентов. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 435-438.
5. Raipovna, V. S., Akramovich, N. A., & Matlab, I. (2022). Semantic modules in the lexical system of the language. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 230-237.
6. Velieva, S. R. (2022). Semantic modules in the language's lexico-semantic system. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *3*(5), 112-

BADIIY ASARLARDA PEYZAJ VA INTERYER TASVIRINING QO‘LLANILISHI

f.f.f.d.(PhD) Sindorov Lutfulla Kurolovich,
Rustamova Dilbar Baxrom qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompozitsion vositalarga kiruvchi peyzaj va interyerning badiiy asarlarda qo‘llanishi, maqsad-vazifalari, farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, badiiy asar shakli, badiiy asar mazmuni, kompozitsiya, kompozitsion vositalar, peyzaj, interyer.

Asarlarda tabiat manzaralarini zamon va makon ko‘rinishini tasvirlashga alohida e’tibor berilishi bejiz emas. Negaki ular kishining kayfiyatiga ta’sir etib, uning harakat, faoliyatini muayyan yo‘nalishiga soladi. Adabiy asarni bir butun qilib ijod etishda, voqealarni o‘zaro bog‘lashda, qahramonlar harakat qiladigan sharoitni qayta hosil etishda yozuvchi turli-tuman yordamchi kompozitsion vositalardan foydalanadi. Kompozitsion vositalar badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma’lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishidir. Kompozitsion vositalar jumlasiga lirik chekinish, qistirma epizod, badiiy qoplash, peyzaj, portret, interyer va boshqalar kiradi.

Peyzaj – *(frans. paysage – mamlakat, joy)* degan ma’nolarni bildiradi. U asardagi badiiy voqelikning muhim unsuri, voqealar kechadigan ochiq makon tasviridir [8.70]. Tabiat tasviri aks etmagan mukammal badiiy asar bo‘lmaydi.

“Badiiy asar tili inson qalbini butun murakkabliklari bilan yo‘g‘rilgan holda tabiat manzaralariga hamohang tarzda aks ettiradi. Peyzajning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati voqea kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur belgilanadi. Tabiat manzarasi orqali goh voqea sodir bo‘lgan faslni bildirishi, goh qahramonlarning kayfiyatini ochishga yordam berishi, goh asar voqealarini bir-biri bilan bog‘lash vazifasini o‘tashi mumkin. Bunga misol qilib, “Yo‘l bo‘yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho‘ltoq supurgiga o‘xshaydi. Havo, kuni bo‘yi zo‘r berib loaqal to‘rttagina qor tashlamaganidan xunob bo‘lganday, qovog‘i soliq. Shuning uchun hali kun botmagani holda, qosh qoraygan. Qisqasi, kishining bahrini ochadigan hech narsa yo‘q” [5.107]. Abdulla Qahhorning “Karavot” hikoyasidagi bu peyzaj tasviri orqali yozuvchi G‘anijonning kayfiyati shu darajada ko‘tarinki ekanligini va bu ob-havo uni hech qanday tashvishga solmayotganligini aksincha shu havoda ham u gasht qilayotganligini tasvirlagan.

O‘.Genrining “Oktabr va iyun” hikoyasida “U bir muddat so‘zsiz qotdi, qorong‘ilik tomon mungli nigohlari bilan tikilib qoldi. Ko‘z oldiga uzoq-uzoqdan qorayib ko‘rinib turgan quyuq daraxtzorlar ortidagi keng, katta maydon ichida, ko‘m-ko‘k dengiz yonida o‘ynab yurgan ko‘k kiyimli bolalarning shodon chehralari ko‘rinib ketdi” [6.38]. Bu yerda ham katta maydon ichida, ko‘m-ko‘k dengiz yonida o‘ynab yurgan ko‘k kiyimli bolalarning shodon chehralari ko‘rinib ketishi orqali yozuvchi kapitanning qora kunlaridan charchab, beg‘ubor bolaligiga qaytishni istaganligini tasvirlagan.

“Tabiat manzaralarini yozuvchi o‘z qahramonlarining taqdiriga ta’sir etuvchi faktor sifatida ham tasvirlashi mumkin”. Yashar Kamolning “Ilonni o‘ldirsalar” asaridagi quyidagi peyzaj orqali “Jayxon daryosining suvi kamayib, kumushday tovlanib oqardi” [9]. Yozuvchi Xasanning umidsizligi, tushkun kayfiyatini suvning kamayishi bilan bog‘lagan.

Said Ahmad “Jimjitlik” romanida Tolibjonning bolalik davrini quyidagi peyzaj tasviri orqali o‘quvchilarga yetkazmoqchi bo‘lgan “Tolibjon bolaligida o‘rtoqlari bilan suv kechib, orolchalarda qumga ko‘milib soatlab osmonga qarab yotardi. O‘sha paytlarda osmon juda ham ko‘m-ko‘k bo‘lardi. Oppoq bulutlar sut ko‘pigidek bo‘lib qishloq ustidan shoshilmay tog‘ga qarab suzib o‘tib ketishardi. Qamishlarning orasidan qurbaqalarning qurillashi, o‘rdaklarning g‘aq-g‘aq tovushlari eshitilib turardi” [1.4]. Bu peyzaj tasviri o‘qigan kitobxon o‘zi sezmagan holda bolaligini xotirlaydi.

Peyzaj voqealar kechuvchi ochiq makon bo‘lsa, uy-joy, xona, saroy, qasr – yopiq makon va undagi bezak, ashyolar interyerdir. Interyer tor ma’noda binoning ichki hududi bo‘lib, o‘z ichiga shu hududga oid narsa-jihozlarni ham oladi. Bunday tasvirlarning hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarda o‘ziga xos o‘rni bor. Misol uchun, Pirimqul Qodirovning “Erk” qissasida Sattorning ishxonasini quyidagicha tasvirlaydi: “U o‘zi ishlaydigan xonada naqadar qog‘oz ko‘pligini go‘yo endi payqayotibdi. Olti loyihachi injener bir xonada ishlaydi. Har birining stoli va chizmakashlik asboblari bor. Hamma stollarning ichi-yu usti turli-tuman loyihalar, qo‘llanmalar, iltimosnomalar, ko‘rsatmalar bilan to‘lib ketgan. Ora-oraga qo‘yilgan javonlarda ham, tumbochkalarda ham muqovalangan, buklangan, taxlangan qog‘ozlar polda ham qog‘oz qiyqimlari, chiqindi uchun qo‘yilgan savatchalarda ham

g‘ijimlangan qog‘oz. Xonadagi havodan ham chang aralash qog‘oz hidi keladi” [2.77]. Yozuvchi bu tasvirni berar ekan u Sattorning ishxonasi tasvirini o‘quvchining tasavvurida gavdalantirish bo‘lgan va yana ba’zi detallar *(chizmakashlik asboblari, loyihalar, qo‘llanmalar va boshqalar)* orqali yozuvchi Sattorning qaysi ishda ishlashini ham mohirona tasvirlagan.

Ahmad Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” romanida “Fotimani bir hovliga tushirdilar. Yangi emas, lekin xarob ham emas. Uch xonasi, bir zali, bog‘i bor. Bog‘cha qarovsiz. Hovli to‘y oldidan yig‘ishtirilganiga qaramasdan, ko‘p vaqtlardan beri ayol qo‘li tegmagani bilinib turardi” [4.29]. Bunda interyerni o‘qiboq o‘quvchi yozuvchi nega uyga ayol qo‘li tegmaganligini bir nechta sodda detallar ya’ni bog‘chaning qarovsizligi, hovli faqat to‘y oldi yig‘ishtirilganligi orqali anglab yetadi.

Shukur Xolmirzayevning “Ko‘ngil” hikoyasida hikoya qahramonining Narzulla degan o‘rtog‘i yashaydigan uy tasvirida *pechka, ko‘rpacha, pech yonidagi po‘stak* badiiy ifodada o‘zaro birlashib, yozuvchi ijodiy niyatini anglashda muhim o‘rin tutadi. Bu tasvirda interyerga daxldor har bir buyumning badiiy-funksional o‘rni mavjud. Narzullaning onasi yakka-yu yolg‘iz farzandining o‘rtog‘iga ko‘rpacha to‘shashi o‘zbek ayollariga xos jonkuyarlik, e’tibor-hurmat, mehmondo‘stlik kabi qadimiy va ibratli xislatlarni ko‘rsatyapti. Onaning pechga ko‘mir solishi, birinchidan, voqeaning qish fasliga tegishli ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, Narzulla va uning ovchi do‘stining tog‘da nihoyatda sovqotib kelganligini bildiradi. Xonaning interyeriga oid navbatdagi ashyo – po‘stak bo‘lib, u milliy-maishiy hayot tarzining o‘ziga xosligini ko‘rsatish masadida badiiy tasvir doirasiga olib kiritilgan [7].

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek Ali Qushchini huzuriga chaqirtirganda Mirzo Ulug‘bekning salomxonasi tasvirida *yerdagi sheroziy gilamlar, shiftdagi oltin qandillarning shamlar bilan to‘laligi, devorlarda esa ov o‘ljalari va ov anjomlari* bilan bezatilganligi aytilgan [3.7]. Bundagi interyer tasvirlarida ham yozuvchining ijodiy niyatini tezda anglab olish mumkin. Xonadagi sheroziy gilam va oltin qandillar salomxonaning shohlarga xos bezatilganligidan darak bersa, ovdagi o‘ljalar va ov anjomlari esa Ulug‘bekning ovga bo‘lgan muhabbati ramzi desak bo‘ladi.

Misollardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy asardagi peyzaj va interyer tasvirlarining mahorat bilan chizilib, o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, qalamga olingan makonga munosabatini yuzaga chiqaradi va asar niyatini belgilashda, to‘laqonli xarakterlar hosil etishda muhim ahamiyatga ega. Izzat Sulton aytgandek, badiiy asardagi tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi [18.113]. Bu esa kitobxonning asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Said Ahmad. Jimjitlik (roman) – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2021. – 384 b.
2. Pirimqul Qodirov. Erk – T.: “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti, 2021.
3. Odil Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi: roman. – T.: “Nodirabegim nashriyoti”.

4. Ahmad Lutfiy Qozonchi (eng sara asarlar) – T.: “Adabiyot uchqunlari”. 2018 – 448 b.

5. Abdulla Qahhor. Adabiyot muallimi – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018. – 128 b.

6. O‘.Genri. Ishbilarmon kishilar – T: “Yangi asr avlodi”, 2017.

7. Murodov G., Shukurova B. Shukur Xolmirzayev ijodida detalning badiiy-funksional o‘rni. “Экономика и социум”.

8. Abdulla Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: (darslik) – T.:“G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2017. – 307 b.

9. Shodmonova D. Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarida aks ettirilishi. Translation forum – 2022.

10. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish:O‘zbekiston Resoubllikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.:“Iqtisod-moliya”, 2007. – 301 b.

11. Lutfulla, Sindorov. "«HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 475-477.

12. Kurolovich S. L., Olimovich K. T. «HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA HARBIY TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 233-236.

13. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 378-383.

14. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. ANALYSIS OF THE CONCEPT, ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 384-388.

15. Kurolovich S. L. SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC" HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 12-20.

16. Abdushukurov B. XI—XIVasr turkiy yozma manbalarda qo ‘llanilgan zoonimlar //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – Т. 1. – №. 1.

17. Синдоров Л. Ҳибат ул-ҳақойиқ достонидаги арабча ўзлашмаларнинг тарихий-этимологик таҳлили //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 610-613.

18. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi: Universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

OYBEKNING «NAVOIY» ROMANI TILIDA QOʻLLANILGAN FORS-TOJIKCHA SOʻZLAR

f.f.f.d., dots. Sindorov Lutfulla Kurolovich
Oʻzbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybekning «Navoiy» romani tilining oʻzlashma leksik qatlamlari, xususan, fors-tojikcha soʻzlar jamlanib, tematik jihatdan tasniflab chiqilgan hamda zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: oʻzbek tili leksikasi, oʻz qatlam, oʻzlashma qatlam, arabcha soʻzlar, fors-tojikcha soʻzlar, tasnif, bilingvizm, soʻz yasash.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari oʻrtasida oʻzaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir boʻladi. Buning natijasida tillarning lugʻat tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi soʻzlar bilan boyib boradi. Darhaqiqat, oʻzbek xalqi bilan hamohang tarzda oʻzbek tili ham oʻzining tarixiy rivojlanishida koʻplab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada boʻldi. Shu bois, oʻzbek tili lugʻat tarkibining ma’lum qismini oʻzlashgan soʻzlar tashkil etadi [12.209].

Boshqa qardosh turkiy tillar singari oʻzbek adabiy tili uchun ham soʻz oʻzlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid manbalarda qoʻllanilgan oʻzlashmalarning kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan oʻzbekchaga qilingan badiiy tarjimalarning roli sezilarlidir. Fors tili bu davrda ma’muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari soʻzlarining oʻzbek adabiy tiliga oʻzlashishida vositachi vazifasini bajargan. Tabiiyki, chet soʻzlarning turli soha leksikasiga oʻzlashish darajasi ham har xil. Jumladan, harbiy terminologiya moʻgʻulcha soʻzlar hisobiga kengaygan boʻlsa, ma’muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa, asosan, arabcha, forsiy oʻzlashmalar orqali boyigan.

Tarixdan yaxshi ayonki, Oʻrta Osiyo hududida azaldan turkiy aholi istiqomat qilgan. Oʻrta Osiyo – ikki daryo oraligʻida qadimdan forsiy tilda soʻzlashuvchi aholi turkiylar bilan birgalikda yashab kelgan. Ular Ahamoniylar hukmronligi davrida (mil.avv. VI-IV asrlar) katta ta’sirga ega boʻlgan boʻlsa, ularning keyingi yirik oqimi Movarounnahr hududlariga arablar bilan birga kirib keldi [16.25-26].

Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urugʻ va qabila tillari, jumladan, oʻzbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. Turkiy urugʻ, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urugʻ tillari bilan aloqasi va qoʻshilishi (qadimiy davrlarda).
2. Oʻzbek tilining forsiy til bilan (IX-X, XI-XV asrlar) aloqasi.
3. Oʻzbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha) [8.105-106].

Darhaqiqat, bu xalqlarning yonma-yon yashashi, oʻzaro munosabatlari va yaqinlashuvi, bir-biriga ta’siri natijasida ikki tillilik yuzaga kelgan [9.168].

Somoniylar davrida (IX-X asrlar) klassik forsiy adabiy til keng tarqala boshladi. Forsiy adabiy tilda bu davrda (VII-VIII asrlarda) fan va adabiyot sohasida,

shuningdek, yuridik sohada hukmronlik qilgan arab tilini siqib chiqara boshlaydi. Bunday kurash dastlab XI asrda fors-tojik tilining arab tilini she'riyatdan siqib chiqarishiga sabab bo‘ladi [15.110].

O‘rni kelganda e'tirof etish kerakki, XIV-XV asrlarda turkigo‘y adiblar fors-tojik tilini yaxshi bilganlar va har ikkala tilda ijod qilganlar. Demak, forsiy so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan:

a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi;

b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;

v) tojik va fors tillarida ijod qilish an'analarining uzoq yillar davom etganligi;

g) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi;

d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik [11.55].

Oybekning «Navoiy» romani tilidagi fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlarni quyidagi leksik-semantik mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Odam va hayvon a'zolari nomi: *aft [7], andom (jussa), bel, chehra, dil, kaft, lab, mo‘ylab, mijja, panja, rujor, siyna, tana, zulf* kabi so‘zlar. Masalan, «U yo‘g‘on charpahil gavdali, dakkam-dukkam qizg‘ish mo‘ylabli» (9-bet).

2. Daraxt va o‘simliklar, ular tanasining qismlari nomi: *anor, barg, changal, daraxt, g‘uncha, giyoh, gul, magiz, nihol, sabzi, xas, zarang* kabi so‘zlar. Masalan, «Shoir bir vaqtlar zavqlanib kezgan saroyda gulzorlarni sog‘inchli nazar bilan tomosha qilib, bosh qasrga borarkan sarvzorlar orasidan Husayn Boyqaro chiqib keldi» (373-bet).

3. Mashg‘ulot va kasb-hunar, ular bilan aloqador tushunchalar nomi: *andoza, bastakor, charh, darvozabon, gaz, go‘lah;, hunar, juvoz, kisavur, kulol, mirob, oshpaz, payvand, sangtarosh, sozanda,tarozu, usta, zardo‘z, zargar* kabi so‘zlar. Masalan, «Qovog‘i ochilmagan sarkor davraga bir ko‘z yugurtirib, oshpazga «Boshlang», deb qichqirdi» (203-bet).

4. Oziq-ovqat, ichimliklar nomi: *boda, burda, charbi, go‘sht, kunjut, lalmi, mastava, may, nabot, non, osh, palov, qand, sharbat, sharob, shira, xom, xurak, yog‘, zog‘ora* kabi so‘zlar. Masalan, «Xilini, ta'mini surishtirmay, duch kelgan sharobni ko‘taradigan Turonbekka ikki kosa may xech kor qilmadi» (28-bet).

5. Shaxs, inson tushunchasi bilan bog‘liq nomlar: *kanizak, kaniz, hamroh;gadoy, hamsuhbat, hamxona, jahon, jonona, juvon, kamina, kampir, mehmon, mezbon, sohib, xushmuomala, xushsuhbat* kabi so‘zlar. Masalan, «Mehmonni laziz ovqatlar bilangina emas, shirin latifalar bilan ham kutmoq kerak» (316-bet).

6. Kiyim-kechak, ular qismlari, matolar hamda tikuvchilik, kashtachilikka oid so‘zlar: *adras, astar, atlas, baxya, beqasam, charm, chit, chok, chopon, choyshab, dakana, doka, jig‘a (toj), joma, kafsh, kallapo‘sh, kamar, kavush, kimxob, kuloh, las, movut, nimcha, po‘stin, qissa, ro‘mol, sarupo, shoyi, tasma, yaktak zar, zarbof* kabi so‘zlar. *Masalan, «Dildor qorga to‘lgan kafshini tushirib, kiyib, Davlatbaxt yashaydigan xonaga yugurdi» (226-bet).*

7. Turar-joy, qurilish va binokorlikka oid so‘zlar: *ark, arra, ayvon, cho‘p, chortoq, dahliz, daricha, darvoza, dasta, devor, g‘isht, g‘ob, gaz, gumbaz, katak,*

ko‘shk, koshona, mehrob, narvon, panjara, paxsa, peshtoq, pona, poydevor, poygacha, poytesha, reja, saroy, ship, sinch, tarnov, taxta, tokcha, toqi, ustun, xobgoh, xoda, xona, xonaqoh, zambil, zina kabi so‘zlar. Masalan, «Poytesha bolta, arralarning sadolari ajoyib bir ohang bilan havoda yangraydi» (201-bet).

8. Uy-ro‘zg‘or buyumlari, asbob-uskunalar nomi: *anjom, barkash, bo‘yra, charh, chelak, chirog‘, dastgoh, dasturxon, dekcha, g‘alvir, g‘ildirak, gilam, jihoz, jom, jomashov, juvoz, kajava, kapgir, ko‘rpa, ko‘za, kosa, kunda, lagan, mola, obdasta, parda, piyola, poyondoz, so‘zana, tandir, ustara, xalacho‘p, xalta, xum, xurmacha, zanjir* kabi so‘zlar. Masalan, «Dasturxonni yozib, nonni ushatdi, do‘stlarini o‘z odati bo‘yicha yemakka qistadi» (19-bet).

9. Qarindoshlik, yaqinlik munosabatiga doir so‘zlar: amaki, amakivachcha, begona birodar, do‘st, dugona, farzand, go‘dak, jigarband, jigargo‘sha, momo, nabira, padar, yor kabi so‘zlar. Masalan, «O‘z qo‘lini nabirasi qoniga bo‘yagan podshohdan nafratlandi» (454-bet).

Tilning so‘z boyligini diaxron aspektda o‘rganish til faktlarining taraqqiy etish usullarini aniqlash uchungina emas, ayni paytda, uni yaratgan xalq tarixini tadqiq qilish uchun ham alohida ahamiyatga ega. Demak, har bir tilning tarixi shu tilga mansub xalq o‘tmishi bilan bog‘liq. Xalq tarixida nimaiki yuz bersa, tilga ozmi-ko‘pmi o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu, eng avvalo, tilning lug‘at boyligida sodir bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, aytish mumkinki, «Navoiy» romani leksikasini mavzuiy guruhlar bo‘yicha tahlil qilish natijasida doston tilida turli mavzuiy guruhga tegishli so‘zlar ishlatilganligi, ularda xalq turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyoti o‘z aksini topganligi ayon bo‘ldi. Ayni paytda, mazkur mavzuiy guruhlarning shakllanishida boshqa tillardan, xususan fors-tojik tilidan kirgan leksemalar ham katta ahamiyat kasb etgan. Asarda hayotning deyarli barcha sohalariga oid narsa-predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi leksemalar uchraydi. Binobarin, so‘zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish til lug‘at tarkibini tizimli o‘rganishning qulay usullaridan hisoblanib, romanda qo‘llanilgan leksik birliklarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, o‘z qatlamga doir so‘zlarning o‘zlashmalar bilan o‘zaro munosabatini hamda ularning qo‘llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdushukurov B. XI—XIVasr turkiy yozma manbalarda qo ‘llanilgan zoonimlar //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – T. 1. – №. 1.
2. Kurolovich S. L. SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC" HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 12-20.
3. Kurolovich S. L., Olimovich K. T. «HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA HARBIY TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 233-236.
4. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. ANALYSIS OF THE CONCEPT,

ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 384-388.

5. Lutfulla S., Abbos S., A'zimjon S. THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 378-383.

6. Lutfulla, Sindorov. "«HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG 'AT TARKIBIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 475-477.

7. Oybek. Navoiy. Roman. / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir ha'yati: Bobur Alimov va boshq. /. – T.: «Sharq», 2004, – 496 b.

8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985. –200 б.

9. Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. –Т.: Фан, 1983. –304 с.

10. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. –186 с.

11. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. –146 б.

12. Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси. –Т.: Фан, 2006. – 212 б.

13. Коркмазова Л. Освоение в русском языке тюркизмов с неясными основами. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Махачкала, 2004. –162 с.

14. Синдоров Л. Ҳибат ул-ҳақойиқ достонидаги арабча ўзлашмаларнинг тарихий-этимологик таҳлили //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 610-613.

15. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида форс-тожикча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон (тўплам) –Т.: Фан, 1968. –Б. 110-128.

16. Яхшиев А. Этногенез, ёзув, тил ва тарих // Жамият ва бошқарув. –Т.: 2006. №4. –Б. 23-26.

SENTENCE STRESS TYPES IN ENGLISH PHONETICS

Parmonova Nasiba Amriddin qizi
Jizzakh branch of National university of Uzbekistan
nasibaparmonova249@jbnuu.uz

Abstract. This article examines the various types of sentence stress in English phonetics, highlighting their functional roles and impact on intelligibility and communication. By analyzing different stress patterns, the study aims to provide

insights into how stress contributes to the rhythmic structure of English and influences listener comprehension.

Key words: rhythmic and melodic aspects of spoken language, sentence stress, pitch, loudness, duration, lexical stress, emphatic stress, contrastive stress, new information stress

Understanding the role of stress in phonetics is crucial for deciphering the rhythmic and melodic aspects of spoken language. In English, stress can significantly alter the meaning of sentences and plays a vital role in ensuring effective communication. This article aims to explore the different types of sentence stress, their characteristics, and their linguistic functions, shedding light on their importance in both native and second-language contexts.

Sentence stress refers to the emphasis placed on certain words within a sentence, which are crucial for conveying meaning. According to Fry, the physical correlates of linguistic stress include variations in pitch, loudness, and duration [2]. Beckman and Edwards further explored these correlates, finding that stressed syllables tend to be pronounced with higher pitch and longer duration [1]. Recent studies have emphasized the role of stress in language acquisition and processing, noting that non-native speakers often struggle with the correct application of stress patterns [3].

This study analyzed recorded speech samples from 30 native English speakers and 30 non-native speakers fluent in English. The sentences used included a mix of declarative, interrogative, and imperative sentences to cover a broad range of stress applications. The speech analysis software Praat was used to measure pitch contours, duration, and intensity of stressed syllables.

Sentence stress includes the following key characteristics:

Content over function: Stress is typically placed on content words (nouns, main verbs, adjectives, and adverbs), which carry the bulk of the semantic load, rather than on function words (prepositions, conjunctions, articles, and auxiliary verbs), which are usually unstressed unless they are crucial to the sentence’s meaning.

Information packaging: Stress helps in marking new information or contrasting information within the sentence. For example, in the question-answer pair:

Q: “What did she see?”

A: “She saw a bear in the woods.”

The stress on “bear” indicates that this is new, important information in the context of the conversation.

Rhythmic function: Sentence stress contributes to the rhythm of English, which is a stress-timed language. This means that stressed syllables tend to occur at roughly regular intervals, with unstressed syllables fitting in between, regardless of their number.

Intonation patterns: Sentence stress is closely tied to intonation, with the stressed syllables often occurring at peaks of intonational contours, which helps to signal the speaker's attitude or the sentence’s pragmatic function.

Example:

In the sentence “I really need to go now,” the adverb “really” and the adverb “now” receive stress to emphasize the speaker’s urgency, whereas less semantically critical words like “I,” “to,” and “go” are generally less stressed.

Based on the information collected after reviewing several literatures the main types of sentence stress are the following ones:

- Lexical stress: This is the basic form of stress that helps distinguish between words in a sentence. For example, in the sentence "I never said she stole my money," the placement of stress can change the meaning of the sentence significantly.
- Emphatic stress: This stress is used to emphasize a particular word or phrase within a sentence, often to contrast with another idea or to strengthen a statement. For instance, "She did not steal the money, she *earned* it."
- Contrastive stress: This form of stress is used to highlight differences or make distinctions. For example, "I said she took the *book*, not the *notebook*."
- New information stress: This type of stress is used to highlight new, important information in a discourse. It is crucial for understanding what part of the information is novel to the listener. Example: “Yesterday, I met the president.” (Stress on “president” signals that meeting the president is the new and significant part of the information.)

Analysis revealed consistent patterns in the use of stress among native speakers, with clear variations in pitch, duration, and intensity on stressed syllables. Non-native speakers, however, showed less consistency, with frequent mismatches between intended and actual stress.

The study also found that different English dialects (e.g., British, American, Australian) apply stress slightly differently, influencing how sentence stress is perceived and produced by speakers of these dialects. First language background also affected stress application, with speakers of syllable-timed languages struggling more with stress timing.

The results suggest that understanding and correctly applying the types of sentence stress is crucial for effective communication in English. This has significant implications for teaching English, especially for ESL learners who need to master the rhythmic patterns of the language to improve their communicative competence.

In conclusion, the study underscores the complexity of sentence stress in English and its importance for both native speakers and learners of the language. Further research is recommended to explore innovative teaching strategies that can help non-native speakers acquire more native-like stress patterns.

References:

1. Beckman, M. E., & Edwards, J. (1990). Lengthenings and shortenings and the nature of prosodic constituency. In J. Kingston & M. E. Beckman (Eds.), *Papers in Laboratory Phonology I: Between the Grammar and Physics of Speech* (pp. 152-178). Cambridge: Cambridge University Press.

2. Fry, D. B. (1955). Duration and intensity as physical correlates of linguistic stress. *Journal of the Acoustical Society of America*, 27(4), 765-768.

3. Schilling, H. (2012). The Role of Prosodic Stress in Communicative Competence. *Journal of Pragmatics*, 44(6-7), 1292-1304.

4. Parmonova Nasiba Amriddin Qizi. (2023). THE CONCEPT OF “TREASURE” IN ENGLISH FOLKLORE. American Journal of Philological Sciences, 3(11), 53–56. https://doi.org/10.37547/ajps/Volume03Issue11-09
5. Solnyshkina, M. I., & Qizi, P. N. A. (2023). EFFECTIVE METHODS TO TEACH INTERCULTURAL COMMUNICATION TO UZBEK STUDENTS. International Journal of Advance Scientific Research, 3(05), 83-87.
6. Rakhmankulovna A. S. THE ROLE OF EDUCATION AND TRAINING IN PROFESSIONAL TRAINING AND THE IMPORTANCE OF FOREIGN LANGUAGES IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 09. – C. 58-62.
7. Buronova Xolida Toshtemirovna, & Tojiboyeva Anora Begmurod kizi. (2023). SOME STYLISTIC FEATURES OF VERBS IN TUNYUQUK INSCRIPTION (BASED ON RELATIONAL FORMS). Open Access Repository, 4(3), 374–377. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/RU8PY

O‘ZBEK ADABIYOTIDA SATIRA JANRI

Sherboeva Nodira
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Satira azaldan o‘zbek adabiyotida muhim janr bo‘lib, ijtimoiy va siyosiy sharhlar uchun kuchli vosita bo‘lib kelgan. O‘zbek satirasi o‘zining mumtoz ildizlaridan tortib to hozirgi zamon ko‘rinishlarigacha rivojlanib, jamiyat va madaniyatning o‘zgaruvchan dinamikasini aks ettirdi. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi satira janrining tarixiy rivojlanishi, asosiy mavzulari va ko‘zga ko‘ringan shaxslari o‘rganilib, uning jamiyat normalarini tanqid qilish va shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek adabiyoti, satira, ijtimoiy tanqid, siyosiy, sharh, Alisher Navoiy, jadidlar harakati, Abdulla Qodiriy.

Boy tarixiy va madaniy rivoyatlardan iborat gobelen bo‘lgan o‘zbek adabiyoti mintaqaning ijtimoiy dinamikasini aks ettiruvchi ko‘plab janrlarni o‘z ichiga oladi. Bu janrlar orasida satira o'ziga xos va muhim o'rin tutadi. O‘zbek adabiyotida satira jamiyatning tanqidiy ko‘zgusi bo‘lib, ijtimoiy, siyosiy va madaniy kamchiliklarni fosh etish va tanqid qilishda hazil, kinoya, hazildan foydalanadi. Bu janrning ta’sirchanligi uning o‘quvchilarni o‘yin-kulgi orqali o‘ziga jalb eta olishida, shu bilan birga fikrni uyg‘otish va islohotlarni rag‘batlantirishdadir.

O‘zbek adabiyotida satira tarixi Markaziy Osiyoning kengroq ijtimoiy-siyosiy manzarasi bilan chuqur bog‘langan. Alisher Navoiyning mumtoz asarlaridan tortib jadidchilik harakatining islohotchi asarlarigacha bo‘lgan davrda o‘zbek satirasi jamiyatning o‘zgaruvchan konturlariga moslashib, rivojlandi. Har bir davr o'ziga xos qiyinchiliklar va kontekstlarni keltirib chiqardi, ular mohirlik bilan tasvirlangan va satira ob'ektivi orqali tanqid qilingan.

Satiraning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni shunchaki o‘yin-kulgidan tashqarida; ijtimoiy va siyosiy sharhlar uchun kuchli vosita bo'ldi. Jumladan, 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida jadidlar davrida satirik adabiyot ta’lim va jamiyat islohotlarini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynadi. Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi yozuvchilar an’anaviy amaliyotdagi bema’nilik va ziddiyatlarni ko‘rsatib, zamonaviylashtirishga intilish uchun kinoyadan foydalanganlar.

Raqamli ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi satirik asarlarning qamrovini kengaytirib, ularga kengroq auditoriyani jalb qilish va jamoatchilik nutqiga yangi usullar bilan ta'sir o'tkazish imkonini berdi.

Ushbu maqola o‘zbek adabiyotida satiraning rivojlanishini o‘rganish, uning tarixiy ildizlarini izlash, asosiy mavzularini o‘rganish, taniqli satirik adiblarning hissalarini yoritishga qaratilgan. O‘zbek adabiyotidagi satira taraqqiyoti va ta’sirini anglash orqali biz O‘zbekistonning madaniy-ijtimoiy tuzilishi haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘lishimiz va satiraning janr sifatidagi bardavom qudratini qadrlashimiz mumkin.

Tarixiy rivojlanish

O‘zbek adabiyotida satiraning ildizlari mumtoz asarlarga borib taqaladi, shoir va yozuvchilar ijtimoiy normalar va siyosiy tuzilmalarni tanqid qilishda hazil va kinoyadan foydalanganlar. Ilk misollardan biri turkiy adabiyotning nufuzli namoyandasi Alisher Navoiy (1441-1501) bo‘lib, uning asarlarida ko‘pincha satirik unsurlar mavjud. Navoiyning chig‘atoy tilida yozilgan she’rlarida o‘z davrining axloqiy-ijtimoiy masalalari nozik tanqid qilingan.

19—20-asr boshlarida o‘zbek satirasi yanada yorqin va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ldi. Madaniy-ma’rifiy islohot harakati bo‘lgan jadidchilik davrida Abdulla Qodiriy va Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi yozuvchilar satira orqali jamiyatdagi illatlarni bartaraf etish, modernizatsiya va islohot tarafdori bo‘lishdi. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va Niyoziy dramasida an’anaviy amaliyotlarning bema’nilik va ziddiyatlari, o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatildi.

O‘zbek satirasida asosiy mavzular

O‘zbek satirasi doimiy ravishda bir qancha takrorlanuvchi mavzularga e’tibor qaratgan:

Ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik: Satirik asarlar ko‘pincha turli ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi nomutanosiblikni tanqid qiladi, quyi tabaqalarning elita tomonidan ekspluatatsiyasi va zulmini fosh qiladi.

Siyosiy korruptsiya: Ko'plab satirik asarlar korruptsiyaga uchragan amaldorlarni va hokimiyatni suiiste'mol qilishni nishonga olib, siyosiy tizimdagi samarasizlik va ma'naviy tanazzulga oydinlik kiritadi.

Madaniy ikkiyuzlamachilik: Satiristlar ko'pincha e'tirof etilgan qadriyatlar va haqiqiy xatti-harakatlar o'rtasidagi tafovutni ta'kidlab, madaniy va diniy me'yorlarga yuzaki rioya qilishni masxara qilishadi.

O'zgarishlarga qarshilik: Takroriy mavzu modernizatsiya va islohotlarga qarshilikni tanqid qilishdir, ayniqsa jadidlar davrida, bu erda an'anachilar ko'pincha taraqqiyotga to'siq sifatida tasvirlangan.

O‘zbek satirasida ko‘zga ko‘ringan siymolar

O‘zbek adabiyotida satira janriga bir qancha yozuvchi va shoirlar salmoqli hissa qo‘shgan:

Alisher Navoiy: Asosan satirik bo‘lmasa-da, Navoiy asarlarida o‘z davrining axloqiy-ijtimoiy masalalarini tanqid qiluvchi satira unsurlari mavjud.

Abdulla Qodiriy: O‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi Qodiriyning “O‘tkan kunlar” satirik romani o‘zbek adabiy merosining tamal toshi bo‘lib qolmoqda.

Hamza Hakimzoda Niyoziy: O‘zbek dramaturgiyasining kashshofi bo‘lgan Niyoziyning pyesalari jamiyat normalarini satirik tarzda yoritgani va islohotlarga qarshilik ko‘rsatishi bilan mashhur.

G‘afur G‘ulom: Sho‘rolar davrida G‘ulomning satirik she’rlari va nasrida ijtimoiy masalalar, sovet jamiyatidagi ziddiyatlar tanqid qilindi, hazil bilan zamonaviy hayotning keskin tanqidi uyg‘unlashtirildi.

Zamonaviy o'zbek satirasi

Hozirgi zamonda o‘zbek satirasi yangi media va zamonaviy mavzularga moslashib, yuksalishda davom etmoqda. Yozuvchilar va hajvchilar hozirgi ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarni hal qilish uchun satiradan foydalanadilar. Raqamli platformalarning yuksalishi, shuningdek, satirik ifoda uchun yangi yo'llarni taqdim etdi, kengroq auditoriyani qamrab oldi va ommaviy nutqni rag'batlantirdi.

Xulosa

O‘zbek adabiyotida satira ijtimoiy qadriyatlar va me’yorlarni aks ettirish va shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutgan. O‘zbek satirasi o‘zining mumtoz ildizlaridan tortib to hozirgi zamon shakllarigacha tanqid va sharh uchun kuchli vosita bo‘lib qolmoqda. Kamchilik va qarama-qarshiliklarni fosh qilish orqali u o‘quvchilarni o‘z jamiyati haqida fikr yuritishga, islohot va takomillashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev, B. (2010). Uzbek Literature and Society in the 19th and 20th Centuries. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.
2. Hodge, A. (2007). The Art of Uzbek Satire. Central Asian Review, 12(3), 45-67.
3. Karimov, R. (2015). Classical Uzbek Literature: Themes and Traditions. Samarkand: Samarkand University Press.
4. Sultanmuratova, G. (2020). Modern Trends in Uzbek Satirical Literature. Uzbek Literary Journal, 27(4), 89-10.

ICHKI ISHLAR XODIMINING TIBBIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Tursunpo‘latov Akmaljon
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari jamoat xavfsizligi va tartibini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, o‘zlarining jiddiy vazifalari bilan bir qatorda, ushbu ofitserlar o‘rtasida mustahkam tibbiy madaniyatni tarbiyalash muhimligi ko‘pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining tibbiy madaniyatini yuksaltirishning bugungi sharoitdagi ahamiyati yoritilgan. U tibbiy bilim va amaliyotlarni huquqni muhofaza qilish organlarining o‘qitish va operatsiyalariga integratsiyalashning ko‘p qirrali afzalliklarini o‘rganadi. Bundan tashqari, u huquqni muhofaza qilish organlarida tibbiy savodxonlikni oshirish, jismoniy va ruhiy farovonlikni oshirish va sog‘liqni saqlashga proaktiv yondashuvni rivojlantirish strategiyalarini muhokama qiladi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat ofitserlarning samaradorligi va xavfsizligini oshiradi, balki ular xizmat qilayotgan jamoalarning umumiy farovonligiga ham hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: tibbiy madaniyat, huquqni muhofaza qilish organlari, ofitserlar farovonligi, sog‘liqni saqlashni o‘qitish, jamoat xavfsizligi.

Zamonaviy jamiyatda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligi haqidagi an'anaviy tushunchalardan ancha uzoqroq bo‘lgan juda ko‘p mas'uliyat yuklangan. Favqulodda vaziyatlarga javob berish va qonunlarni qo‘llashdan ruhiy salomatlik inqirozini hal qilish va giyohvandlikka qarshi kurashishgacha ichki ishlar xodimlarining roli ham xilma-xil va talabchandir. Bunday qiyinchiliklar sharoitida huquq-tartibot idoralarida mustahkam tibbiy madaniyatni tarbiyalash muhimligini ta’kidlab bo‘lmaydi. Ushbu maqola ichki ishlar organlari xodimlarining tibbiy madaniyatini oshirishning bugungi sharoitdagi ahamiyati va uning ofitserlar, mahallalar va butun jamiyat uchun berayotgan ko‘p qirrali imtiyozlarini o‘rganishga qaratilgan.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari ko‘pincha favqulodda vaziyatlarda birinchi bo‘lib tibbiy bilim va ko‘nikmalar hayotni saqlab qolish va jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan vaziyatlarga qarshi turishadi. Baxtsiz hodisa sodir bo‘lgan joyda birinchi yordam ko‘rsatish, zo‘ravonlik qurbonlariga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish yoki ruhiy salomatlik inqirozida odamlarga yordam berishdan qat'i nazar, ofitserlar tez-tez stsenariylarga duch kelishadi, bunda ularning baholash va samarali javob berish qobiliyati hayot va o‘lim

o‘rtasidagi farqni anglatishi mumkin. Shu bois ofitserlarni har tomonlama tibbiy tayyorgarlik va resurslar bilan ta’minlash nafaqat ularning kasbiy salohiyatini oshirish, balki ular xizmat qilayotgan jamiyatlar farovonligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Qolaversa, huquq-tartibot idoralari faoliyatining talabchanligi ofitserlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq soatlar, travma ta'siri va yuqori stressli muhitlar huquqni muhofaza qilish organlarida surunkali kasalliklar, ruhiy kasalliklar va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilishning ko‘payishiga yordam beradi. Kuchli tibbiy madaniyatni tarbiyalash nafaqat ofitserlarni zudlik bilan tibbiy muammolarni hal qilish uchun vositalar bilan ta'minlash, balki ularning farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yish uchun faol choralar ko‘rishni ham o‘z ichiga oladi. Tibbiy bilimlarni huquqni muhofaza qiluvchi kadrlar tayyorlashga integratsiyalash, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va idoralarda sog‘lomlik madaniyatini oshirish orqali biz kasbiy xavflarni yumshatishimiz, chidamlilikni oshirishimiz va ofitserlarning umumiy salomatligi va ish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashimiz mumkin.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining tibbiy madaniyatini oshirishning turli jihatlari ko‘rib chiqiladi. U tibbiy ta'limni huquqni muhofaza qilish organlari o‘quv dasturiga integratsiyalash, sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari bilan hamkorlikni rivojlantirish va agentliklar ichida salomatlik madaniyatini yuksaltirish strategiyalarini o‘rganadi. Ushbu tashabbuslar orqali biz ofitserlarning jamoat xavfsizligi va tartibini saqlashdagi muhim rolini bajarishda tayyorgarligi, chidamliligi va samaradorligini oshirishimiz mumkin.

Huquqni muhofaza qilishda tibbiy madaniyatning ahamiyati:

Huquq-tartibot idoralari xodimlari dinamik va oldindan aytib bo‘lmaydigan muhitda ishlaydilar, ular ko‘pincha baxtsiz hodisalar, tibbiy favqulodda vaziyatlar va ruhiy salomatlik yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan bog‘liq inqirozlar kabi turli xil hodisalarga javob berishlari talab etiladi. Bunday holatlarda ofitserlarning tibbiy bilim va ko‘nikmalarni samarali qo‘llash qobiliyati hodisaning natijasi va ishtirok etganlarning farovonligiga chuqur ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda mustahkam tibbiy madaniyatni tarbiyalash bir qancha sabablarga ko‘ra hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Birinchidan, zudlik bilan tibbiy aralashuvni talab qiladigan favqulodda vaziyatlarda huquq-tartibot idoralari xodimlari tez-tez birinchi bo‘lib voqea joyiga kelishadi. Bu yurak hibsga olingan jabrlanuvchiga yurak-o‘pka reanimatsiyasini (CPR) o‘tkazishmi, travmatik jarohatdan qon ketishini nazorat qilishmi yoki opioidning haddan tashqari dozasini qaytarish uchun nalokson bilan ta'minlashmi, ofitserlar ko‘pincha tibbiy tayyorgarlik hayotni saqlab qolish uchun o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan vaziyatlarga duch kelishadi. Kuchli tibbiy madaniyat zobitlarning bunday favqulodda vaziyatlarda samarali harakat qilish uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rishi va jihozlanishini ta’minlaydi, shu orqali aholi xavfsizligini mustahkamlaydi va og‘ir ahvolda bo‘lgan shaxslarga yetkaziladigan zararni minimallashtiradi.

Ikkinchidan, tibbiy bilimlarni huquqni muhofaza qilish bo‘yicha treningga integratsiya qilish ofitserlarning odatiy vazifalar va maxsus operatsiyalar paytida xavflarni baholash va boshqarish qobiliyatini oshiradi. Umumiy tibbiy holatlarning belgilari va alomatlarini tushunib, ofitserlar duch kelgan odamlar tibbiy yordamga muhtoj bo‘lishi mumkinligini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu nafaqat ofitserlarga muhtojlarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishga imkon beradi, balki vaziyatlarning tibbiy favqulodda vaziyatlar yoki inqirozlarga aylanishining oldini olishga yordam beradi.

Qolaversa, mustahkam tibbiy madaniyat huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining ham farovonligiga xizmat qiladi. Politsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra stressli va talabchan bo‘lib, zobitlar ko‘pincha travmatik hodisalar, zo‘ravonlik va yuqori bosimli vaziyatlarga duchor bo‘lishadi. Bu ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa huquqni muhofaza qilish organlarida surunkali kasalliklar, ruhiy kasalliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilishning ko‘payishiga olib keladi. Ofitserlarga keng qamrovli tibbiy tayyorgarlik, sog‘liqni saqlash resurslaridan foydalanish va ularning jismoniy va ruhiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash orqali agentliklar kasbiy stressning salbiy ta'sirini yumshatishi va o‘z xodimlarining chidamliligini oshirishi mumkin.

Qolaversa, huquq-tartibot idoralari uysizlik, ruhiy kasalliklar va giyohvandlik kabi murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun tobora ko‘proq chaqirilayotgan davrda kuchli tibbiy madaniyat zobitlarga politsiya faoliyatiga yanada mehr-oqibatli va yaxlit yondashuvni qo‘llash imkonini beradi. Ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradigan sog‘liq bilan bog‘liq asosiy omillarni tushungan holda, zobitlar jinoyatchilikning asosiy sabablarini bartaraf etish va jamiyat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash uchun faol strategiyalarni ishlab chiqish uchun tibbiyot xodimlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish agentliklari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining tibbiy madaniyatini yuksaltirish bugungi jamiyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiy bilimlarni huquqni muhofaza qiluvchi kadrlar tayyorlashga integratsiyalash, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va salomatlik madaniyatini yuksaltirish orqali biz ofitserlarning ish faoliyatini oshirishimiz, kasbiy xavflarni kamaytirishimiz va jamoat xavfsizligini mustahkamlashimiz mumkin. Oldinga qarab, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yish va ularning 21-asrda politsiya faoliyatining rivojlanayotgan muammolariga javob berish uchun etarli darajada jihozlanishini ta'minlash uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Betancourt, J. R., Green, A. R., & Carrillo, J. E. (2002). *Cultural competence in health care: Emerging frameworks and practical approaches* (Vol. 576). New York, NY: Commonwealth Fund, Quality of Care for Underserved Populations.

2. Borkowski, N., & Meese, K. A. (2020). *Organizational behavior in health care*. Jones & Bartlett Learning.

OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNI OILAGA MOSLASHTIRISH KONTEKSTIDA G‘AMXO‘RLIK FALSAFASI

Isaqov Ilyos
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar o‘zlarining psixologik, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadigan noyob muammolarga duch kelishadi. So‘nggi yillarda ushbu zaif bolalar uchun har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va tarbiyalash muhitini ta'minlashda oilaga asoslangan g‘amxo‘rlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu maqola ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaga moslashtirish doirasidagi g‘amxo‘rlik falsafasini o‘rganadi, nazariy istiqbollarni, amaliy natijalarni va ushbu muhim sohadagi kelajak yo‘nalishlarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: G‘amxo‘rlik falsafasi, oilaga moslashish, ota-ona qaramog‘isiz bolalar, travmadan xabardor bo‘lgan parvarish, madaniy kompetentsiya.

Kirish: Bolalar jamiyatning eng zaif a'zolaridan biri bo‘lib, ularning jismoniy, hissiy va psixologik farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qiluvchilarga tayanadi. Biroq, turli xil sharoitlar tufayli biologik ota-onalarning qaramog‘i va himoyasisiz qolgan bolalarning bir qismi mavjud. Yetim qolgan, tashlab ketilgan yoki suiiste'mollik yoki qarovsizlik tufayli o‘z uylaridan ko‘chirilganmi, bu bolalar ularning rivojlanishi va kelajak istiqbollariga chuqur ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ko‘plab muammolarga duch kelishadi.

Bu zaif bolalarning ehtiyojlariga javoban, barqarorlikni ta'minlash, tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlashning asosiy vositasi sifatida oilaga asoslangan g‘amxo‘rlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Farzandlikka asrab olish, homiylik, qarindoshlik g‘amxo‘rligi va birlashish kabi jarayonlarni o‘z ichiga olgan oila moslashuvi bu bolalarga juda zarur bo‘lgan sevgi, xavfsizlik va tegishlilik hissini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun oilaviy moslashuv kontekstidagi g‘amxo‘rlik falsafasi ushbu bolalarning turli va murakkab ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy majburiyatni o‘zida mujassam etadi. Bola rivojlanishi, bog‘lanish nazariyasi va inson huquqlari tamoyillariga asoslangan ushbu falsafa bolaning farovonligi va har tomonlama rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadigan tarbiyaviy muhitni yaratish muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu maqola ota-ona qaramog‘isiz bolalarni oilaga moslashtirish kontekstida g‘amxo‘rlik falsafasining nazariy asoslari, amaliy oqibatlari va kelajakdagi yo‘nalishlarini o‘rganadi. Ushbu muhim sohadagi asosiy tamoyillar, muammolar va imkoniyatlarni o‘rganib chiqib, biz ushbu zaif bolalarni davolash, chidamlilik va mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi oila muhitiga tegishli bo‘lish yo‘lida qanday qilib eng yaxshi qo‘llab-quvvatlashni chuqurroq tushunishga hissa qo‘shishni maqsad qilganmiz.

Xizmatning nazariy asoslari:

G‘amxo‘rlik falsafasining markazida bolalarning jismoniy, hissiy, kognitiv va ijtimoiy o‘lchovlarini qamrab oluvchi yaxlit ehtiyojlarini qondirishga intilish yotadi. Rivojlanish psixologiyasi, bog‘lanish nazariyasi va inson huquqlari nuqtai nazaridan tamoyillarga tayangan holda, g‘amxo‘rlik falsafasi bolalarning sog‘lom rivojlanishi va chidamliligini rag‘batlantirishda xavfsiz bog‘lanish, tegishlilik va mazmunli munosabatlarning asosiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Oila moslashuvi:

Oila moslashuvi ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni qayta birlashtirish, farzandlikka olish, homiylik yoki qarindoshlik g‘amxo‘rligi orqali oila muhitini tarbiyalash jarayoniga integratsiyalashuv jarayonini o‘z ichiga oladi. Har bir bola va oilaning o‘ziga xos kuchli va qiyinchiliklarini tan olish, shuningdek, muvaffaqiyatli moslashish va uzoq muddatli farovonlikni ta'minlash uchun moslashtirilgan yordam xizmatlarini ko‘rsatish bu jarayonning markaziy qismidir.

Oila moslashuvida g‘amxo‘rlikning asosiy tamoyillari:

Individual qo‘llab-quvvatlash: Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning turli ehtiyojlari va tajribalarini e'tirof etgan holda, oilani moslashtirish bo‘yicha harakatlar har bir bolaning o‘ziga xos sharoitlari va rivojlanish traektoriyalariga moslashtirilgan individual qo‘llab-quvvatlash rejalariga ustunlik berishi kerak.

Barqarorlik va uzluksizlik: Barqaror va uzluksiz g‘amxo‘rlik munosabatlarini ta'minlash bolalarda xavfsizlik, tegishlilik va ishonch tuyg‘usini rivojlantirish, shu orqali sog‘lom bog‘lanish va hissiy farovonlikni rivojlantirish uchun muhimdir.

Travma haqida ma'lumotga ega bo‘lgan yordam: Travmaning bolalar rivojlanishiga potentsial ta'sirini e'tirof etgan holda, travma haqida ma'lumotga ega bo‘lgan davolash yondashuvlari shifo va tiklanishni qo‘llab-quvvatlash uchun xavfsizlik, imkoniyatlarni oshirish va chidamlilikni oshirish strategiyalariga urg‘u beradi.

Madaniy kompetentsiya: Bolalar va oilalarning madaniy, etnik va diniy xilma-xilligini tan olish oilaviy kontekstda madaniy o‘ziga xoslik, tegishlilik va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Oilaviy g‘amxo‘rlikning muhim ahamiyatiga qaramay, uni amalga oshirishda ko‘plab muammolar, jumladan, resurslarning cheklanganligi, tizimli to‘siqlar va muqobil parvarish choralari bilan bog‘liq stigma mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar va ularning oilalari uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhitni rag‘batlantirishga qaratilgan siyosat islohotlari, salohiyatni oshirish tashabbuslari va jamoatchilikni jalb qilish sa'y-harakatlarini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Xulosa:

Ota-ona qaramog‘isiz bolalarni oilaga moslashtirish kontekstida g‘amxo‘rlik falsafasi har bir bolaning farovonligi, qadr-qimmati va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy majburiyatni ifodalaydi. Individual qo‘llab-quvvatlash, barqarorlik, travmadan xabardor bo‘lgan parvarish va madaniy kompetentsiya tamoyillarini o‘zlashtirib, biz bolalarning rivojlanishi va o‘z potentsialini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga yordam beradigan tarbiyalanuvchi oila muhitini yaratishimiz mumkin. Oldinga qarab, ushbu zaif bolalarning yaxlit ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan

va ularning oila va jamiyat sharoitlariga qo‘shilishi va ishtirokini rag‘batlantiradigan tadqiqot, siyosat va amaliyot tashabbuslarini ilgari surishni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bowlby, J. (1982). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment (2nd ed.). Basic Books.
2. Dozier, M., & Rutter, M. (2008). Challenges to the Development of Attachment Relationships Faced by Young Children in Foster and Adoptive Care. In J. Cassidy & P. R. Shaver (Eds.), Handbook of Attachment: Theory, Research, and Clinical Applications (2nd ed., pp. 698-717). Guilford Press.
3. Selman, P. (2013). The Policy and Practice of Child Placement and Adoption: An International Perspective. Palgrave Macmillan.
4. United Nations General Assembly. (1989). Convention on the Rights of the Child. https://www.unicef.org/child-rights-convention.

XX ASRNING 20-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-MAISHIY INFRASTRUKTURA MUASSASALAR FAOLIYATI TARIXIDAN

t.f.f.d., dots. Nasirov Bunyod Uralovich,
Ortiqov Olim Hamidovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
n.bunyod2020@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy-maishiy infrastrukturalarning inson kundalik hayotida tutgan o‘rni, xorijiy davlatlarda bu masalaga bo‘lgan e’tibor, uning tadqiqotlarda yoritilishi, sovet hukumati yillarida O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmat faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, shu o‘rinda umumiy ovqatlanish tizimidagi ahvol, moddiy-texnik ta’minot, muammolar hamda aholining bu borada ehtiyoji yoritilgan.

O‘zbekiston tarixi bilan shug‘ullangan xorijiy tadqiqotchilar ham ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga alohida e’tibor bergan. G‘arb sivilizatsiyasi ijtimoiy-madaniy tajribasiga ega bo‘lgan xorijiy tadqiqotchilar sovet adabiyotlarida faqat qayta qurish davridagina e’tibor berilgan muammolarni oldindan ko‘ra bildilar.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-maishiy, infrastruktura, sovet hukumati, kadrlar qo‘nimsizligi, umumiy ovqatlanish, Ittifoq.

Hozirgi zamon tarix fanida insonga, uning ehtiyojlariga, ijtimoiy-psixologik holatiga e’tibortobora kuchayib bormoqda. Xorijiy gumanitar fan yo‘nalishlarida ham aholining kundalik hayotini – mehnat va turmush sharoitini, hayot tarzini, moddiy va ma’naviy madaniyati elementlarini tadqiq etuvchi ijtimoiy tarix sohasi kengayib bormoqda. Biz buni bugungi kunda kundalik hayot tarixi muammolari bo‘yicha o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiya va kongresslarda bu masala muhokama predmetiga aylanayotganligida ham ko‘rishimiz mumkin [1].

Umuman, ijtimoiy-maishiy infrastruktura muassasalari rivojlanishi aholining turmush darajasiga va tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aholi turmush darjasining tarkibiy qismi sifatida ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, inson ehtiyojlarini qondirsa, ikkinchidan, inson rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Ammo, sovet hokimiyati yillarida ehtiyojlar shakllanishi, ularni amalga oshirish sharoitlari va mexanizmlari ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli yetarli darajada tadqiq etilmagan. Iste’molga “ishchi kuchi ishlab chiqarish” chorasi sifatida qaragan totalitar tuzum nafaqat insonning ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlariga mensimay qaradi, balki tarixda “inson o‘lchovi”ga ham bepisandlik bilan munosabatda bo‘ldi.

O‘zbekiston SSR tashkil topganidan so‘ng aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida asosan 3 ta tizim – O‘zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi kengashi, Mahalliy sanoat xalq komissarligi hamda O‘zbekiston SSR Nogironlar kooperatsiyasi kengashi tomonidan aholiga xizmat ko‘rsatila boshlandi [2].

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish masalasiga sovet hokimiyatining dastlabki yillarida alohida e’tibor qaratilmadi. Ya’ni, bu soha kommunal xo‘jalik, madaniy muassasalar faoliyatida uchragan muammolar misolida ko‘rib chiqilgan. Sohaga jiddiy e’tibor berilmaganidan u yillar davomida bir necha idoralar tarkibida bo‘lib kelgan, faqatgina 1962 yilda O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashi xuzurida Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish Bosh boshqarmasi, 1966 yilda esa alohida Vazirlik sifatida tashkil etilgan. 1960 yillarda O‘zbekiston SSRda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari 16 ta vazirlik va yuqori idoralar tarkibida amalga oshirilgan [3].

Mazkur salbiy holatlardan kelib chiqib SSSR Vazirlar kengashi 1968 yil 27 avgustda “Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni moddiy-texnik ta’minlashni yaxshilash to‘g‘risida”gi qarorni tasdiqladi. Qarorda Savdo va Yengil sanoat vazirliklari zimmasiga maishiy mashina va uskunalar uchun zarur extiyot kismlar ishlab chiqarish, maishiy korxonalarni ular faoliyati uchun zarur sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, kir yuvish va kimyoviy tozalash korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash vazifalari yuklatildi. Shuningdek, ushbu qaror asosida Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish vazirligi qoshida Moddiy-texnik ta’minlash bosh boshqarmasi tashkil qilindi. Mazkur boshqarma 1969 yil may oyidan faoliyat yurita boshladi va Qoraqalpog‘iston ASSR, Andijon, Namangan hamda Buxoro kabi viloyatlarda uning tarkibiy bo‘linmalari tashkil qilindi [4].

Biroq bu qaror bilan maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarini kerakli uskunalar bilan ta’minlash yaxshilanib qolmadi. 1971 yilda respublikaning qator viloyatlarida mavjud uskunalar o‘rnatilmasdan saqlanayotgani aniqlangan. Xususan, Toshkent shahrida 151 dona, Samarqandda 67 dona va Buxoroda 157 dona uskuna o‘rnatilmagan. Bu kabi holatlar, ayniqsa, Sirdaryo, Namangan va Buxoro viloyatlarida yuqori ko‘rsatkichda bo‘lgan [5].

Umumiy ovqatlanish muassasalari faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, XX asrning 40-yillarida O‘zbekistonda aholiga umumiy ovqatlanish yo‘nalishidagi xizmatlar “O‘zbekhunarkengash”, “O‘znogironlarhunar kengashi”, “O‘zbekbirlashuv”, Mahalliy sanoat xalq qo‘mitasi, Qurilish materiallari xalq qo‘mitasi, harbiy savdo, O‘zmaxsus savdo, bosh savdo, Baliq ovi matlubot uyushmasi, temir yo‘l bufet, daryo floti, matlubot uyushmasi va boshqa ko‘plab idoralar tomonidan ko‘rsatilgan [6].

Keyingi davrda ham aholiga umumiy ovqatlanish [7] yo‘nalishida xizmat ko‘rsatish ishlari bir necha vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirildi. Hukumat tomonidan sohani rivojlantirish oid bir qancha me’yoriy hujjatlar hayotga tadbiq etilgan.

XX asrning 60-yillariga kelib, respublikadagi bir qancha viloyatlarda tizimni rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi binolar barpo etish hamda sohaga oid bir qancha muammolarni muammolarini bartaraf etishda joylardagi mahalliy hukumat rahbarlarining e’tiborsizliklari oqibatida O‘zbekistondagi zavod va fabrikalardagi oshxonalarda bir o‘ringa me’yor bo‘yicha 6 kishi o‘rniga, 11 kishi to‘g‘ri kelgan [8].

Respublikada 1971-1975 yillarda umumiy ovqatlanish sohasini rivojlantirish va holatini yaxshilashga mo‘ljallangan tadbirlar rejasida bir qator holatlar yoritib o‘tilgan. Unda O‘zbekistonda 1970 yillarda aholi uchun oshxona, kafe, restoranlarni hamda tashkilotlar, o‘quv yurtlar, sanoat korxonalarda ham ovqatlanish tizimini qoniqarsiz darajada ekanligi, belgilangan me’yorlar bo‘yicha 1000 nafar ishchiga 180-250 o‘rin to‘g‘ri kelishi lozimligi, ammo ko‘pgina o‘quv yurtlari va korxonalarda bu me’yor talabga javob bermayotganligi qayd etilgan [9]. Ta’kidlab o‘tish lozim, Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutida, pedagogika institutida, rus tili va adabiyoti institutida hamda Farg‘ona politexnika institutlarida -100 o‘rinli, SamDU da -250 o‘rinli va boshqa o‘quv yurtlarida ovqatlanish maskanlari barpo etilishi natijasida, o‘rindiqlar soni 4790 taga oshdi. Lekin, 1000 nafar talabaga me’yor bo‘yicha 180 o‘rindiq emas, balki 98 ta to‘g‘ri kelgan [10]. Tadqiqotlarda ham bu masalaga oid muammolar e’tirof etildi [11].

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Sovet hukumati yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy maishiy muassasalar faoliyati bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- birinchidan, maishiy xizmat ko‘rsatish tizimida amalga oshirilgan o‘zgarishlarda mahalliy aholi ehtiyojlari, iqlimi, tug‘ilish miqdori hamda hududlarning mahalliy o‘ziga xosligi hamma vaqt ham hisobga olinmagan;

- ikkinchidan, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning ba’zi turlari o‘ndan ortiq vazirliklar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday holat maishiy xizmat narxining va xizmat sifatining turlicha bo‘lishiga olib kelgan;

- uchinchidan, turli boshqaruv tashkilotlari yig‘ilishlarida ijtimoiy-maishiy muassasalar muammolari ko‘tarilgan bo‘lsa-da, amalda ushbu qarorlar ijrosi ta’minlanmagan, qator holatlarda muammoni bartaraf etish o‘sha muassasa rahbarining zimmasiga yuklatilgan;

- to‘rtinchidan, umumiy ovqatlanish muassasalarini tashkil etishda aholi va korxonalarda xodimlarning, o‘quv yurtlarida talabalarning miqdoriga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, ularning faoliyati uchun kerakli jihozlar bilan ta’minlash, sanitariya holatlarida kamchiliklar uchrab turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Репина Л.П. Социальнаая история и историческая антропология: новейшие тенденции в современной британской и американской медиевистике //Одиссей. 1990. М.,1990.С.167-181; ва бошқалар.

2. Стасько В.Н. Служба быта- в центре внимания. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С.7.

3. Валиев А. Важные задачи службы быта. // Экономика и жизнь. – Ташкент, 1969. №9. – С.86-88.

4. Собчак А.А. Руководства местных Советов депутатов трудящихся бытовым обслуживанием населения (по материалам УзССР) Дисс…канд.юрид.наук. – Ташкент, 1971. – С.116-117.

5. O‘zR Ilmiy-texnik va tibbiyot hujjatlari MDA, 173-fond, 1-ro‘yxat, 99-ish, 131-varaq.

6. Ўз МА, Р.91- фонд, 11-рўйхат, 10-иш, раqамсиз вараq; ЎзР МДА, Р-91- фонд, 11-рўйхат, 10-иш, 53- вараq.

7. Umumiy ovqatlanish korxonalariga quyidagilar kirgan: fabrika-kuxnya, fabrika- tayyorlov joyi, oshxonalar (tayyorlov, tayyorlashgacha, tarqatuvchi va boshqalar), restoranlar, vagon-restoranlar, umumiy ko‘rinishdagi kafelar, maxsus kafelar (yoshlarniki, bolalarniki, muzqaymoqli, qandolatchilik, kafe avtomat) : umumiy yemakxonalar, maxsus yemakxonalar (kabobli, kotletli, sosiskali, chuchvarali, somsali, osh, cheburekli, pirojkali, quymoqli, ponchikli, buterbrodli) : chayxonalar, choy ichish joylari, barlar (pivoli, vinoli, kokteyl bari, kokteyl xolli, sutli), kafeteriy (magazin qoshidagi kafe bo‘limi), bufetlar, kupe-bufetlar, qandolatchilik magazinlari, yarim mahsulotlar tayyorlashga mo‘ljallangan maxsus sexlar, qandolatchilik, konditerlik va un mahsulotlaridan.

8. O‘z MA, R.91- fond, 11-ro‘yxat, 298-ish, 59 - varaq.

9. O‘z MA, R.91- fond, 11-ro‘yxat, 425- ish, 2-3- varaqlar.

10. O‘z MA, R.91 - fond, 11-ro‘yxat, 922 -ish, 36 - varaq.

11. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – 2021. – Т. 12. – С. 5834-5841.

12. Насиров Б. XX АСРНИНГ 30-80 ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 1.

13. Nasirov B. Catering In Uzbekistan From The History Of The System //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2021. – Т. 3. – №. 02. – С. 11-15.

14. Носиров Б. Совет даврида Ўзбекистонда умумий овқатланиш тизими фаолияти хусусида //Взгляд в прошлое. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

15. Насыров Б. У. История деятельности бань в восточных странах //International scientific review. – 2016. – №. 4 (14). – С. 62-66.

16. Носиров Б., Носирова Ф. СИСТЕМА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ГЕНЕЗИС И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В 60-80 ГОДЫ ПРОШЛОГО ВЕКА) //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 1-4. – С. 41-46.

17. Носиров Б. Механизмы и противоречивое развитие сферы бытового обслуживания в Узбекистане 20-40 годах XX века //Культура. Духовность. Общество. – 2014. – №. 11. – С. 158-163.

18. Носиров Б., Носирова Ф. СИСТЕМА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ГЕНЕЗИС И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В 60-80 ГОДЫ ПРОШЛОГО ВЕКА) //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 1-4. – С. 41-46.

19. Носиров Б. ИЖТИМОИЙ-МАИШИЙ ИНФРАСТРУКТУРАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЭЪТИБОРГА ОЛИНМАГАН ОМИЛЛАР (СОВЕТ ДАВРИДА): Носиров Бунёд, Тариҳ фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 4. – С. 8-12.

20. Nasirov B. HISTORICAL SCIENCES //Главный редактор научно-исследовательского журнала «International scientific review», Вальцев СВ. – 2016. – Т. 4. – С. 61.

21. Nasirov B., Muborak K., Moxina K. ACTIVITY OF CATERING INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN AT THE END OF THE 19TH-EARLY 20TH CENTURY: CHANGES AND ATTITUDES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 230-240.

22. Uralovich N. B. et al. XIZMAT KO ‘RSATISH TIZIMIDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLAR:(XIX asr oxiri-XX asr boshlarida umumiy ovqatlanish tizimi misolida) //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 359-363.

PLATON FALSAFASIDA G‘OYALAR DUNYOSI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g‘li,
Tolliboyev Dilshod Muhammadiyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada faylasuf Platon qarashlaridagi g'oyalar dunyosi tushunchasiga to‘g’risida ma'lumot berilgan. Uning ruh haqidagi fikrlari, shu jumladan jamiyatning ideal mulk turlari va bular haqidagi o'ziga xos klassifikatsiyasi ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Epigramlar, qahramonlik eposi, ontologiya, g'oyalar dunyosi, ruh qismlari, jamiyat mulkka ega bo'lish shakllari.

Platon falsafasining asosiy mohiyati — “g‘oya“ (“eydos“)lar haqidagi ta’limotida bayon etilgan. Uning fikricha, g‘oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo uning soyasidir. Haqiqiy o‘zgarish va taraqqiyot g‘oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi hara-kat esa uning in’ikosidir. G‘oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bila olmaydi. Ularni biladigan zotlar juda kam uchraydi, bu zotlar ulkan akl egalari bo‘ladi. Aksariyat kishilar soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi. Platon g‘oyalar dunyosini narsalar dunyosidan ustun qo‘yadi, chunki

g‘oyalar dunyosi ideal narsalardir. Inson g‘oyalar dunyosi bilan soyalar dunyosi o‘rtasidagi zotdir. Uning ruhi g‘oyalar dunyosiga, jismoniy tanasi soyalar dunyosiga mansubdir. Shuning uchun ruh va tana birligidan iborat odam ikki olamga tegishlidir. Ruh insonning haqiqiy qismidir. Biz hayot deb ataydigak narsa ruh jismoniy tanada yashaydigan vaqtdir. Platonning bilish nazariyasi uning g‘oyalar haqidagi nazariyasiga asoslanadi. Bilish — anam-nesis, ya’ni jonning eydoslar haqidagi xotirasi. Eydosga bo‘lgan muhabbat (eros) ma’naviy yuksalishga undaydigan sababdir.

"Ontologiya - inson, olam va jamiyatning obyektiv-universal mohiyati to'g'risida falsafiy ta'limotdir. Boshqacha aytganda, u borliq to'g'risidagi insonning olamga bo'lgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir"[1]. Aflotun fikricha, g’oya har qanday ob’ektning asl mohiyati, uning ideal holati sifatida tushunilishi kerak. G'oyani anglash uchun his-tuyg'ularni emas, balki aqlni ishlatish kerak. G'oya narsaning shakli bo'lganligi sababli, hissiy bilish uchun emas, u g'ayrioddiydir.

G'oya tushunchasi antropologiya va Platonning poydevoriga qo'yilgan. Ruh uch qismdan iborat:

1. oqilona ("oltin");
2. kuchli irodali boshlanish ("kumush");
3. shahvoniy qism ("mis").

Odamlarga sanab o'tilgan qismlarga ega bo'lgan nisbatlar har xil bo'lishi mumkin. Platon ular jamiyatning ijtimoiy tuzilishining asosini tashkil etishi kerakligini taklif qildi. Va jamiyatning o'zi ideal holda uchta mulkka ega bo'lishi kerak:

1. hukmdorlar;
2. qo'riqchilar;
3. boquvchisi.

Oxirgi mulkka savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlar kirishi kerak edi. Bu tuzilishga ko'ra, jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs faqat o'ziga xos bo'lgan narsani qiladi. Birinchi ikkita mulkda oila va xususiy mulkni yaratish zarurati yo'q. "Ilk borliq shunday borliqki, Undan barcha borliq vujudga keladi. Chindan ham ilk borliqning qay vaqtdan borligidan boshlab, Undan nima yuzaga kelishi barcha borliq inson orasidagi borliqmi?"[2], degan savolga javob topish mushkul, albatta.

Faylasufning ishonchi komil ediki, faqat alohida narsalarni hislar usuli bilan tushunish mumkin, mohiyat esa aql bilan. Bilim na hislar, na to'g'ri fikrlar va na aniq ma'nolardir. Haqiqiy bilim deganda, g‘oyalar olamiga kirib borgan bilim tushuniladi.

Fikr sezgilar tomonidan qabul qilinadigan narsalarning bir qismidir. Sezgi bilimi doimiydir, chunki unga bo'ysunadigan narsalar o'zgaruvchandir.

Bilish haqidagi ta’limotning bir qismi xotira tushunchasidir. Unga ko'ra, inson ruhlari ushbu jismoniy tana bilan birlashgunga qadar unga ma'lum bo'lgan g'oyalarni eslaydi. Qulog‘ini, ko‘zini yumishni, ilohiy o‘tmishni eslashni bilganlarga haqiqat oshkor bo‘ladi.Biror narsani bilgan odam bilimga muhtoj emas. Hech narsani bilmagan odam esa izlagan narsasini topa olmaydi. Platonning bilish nazariyasi anamnezga - eslash nazariyasiga asoslanadi. "Platon fikriga ko'ra, olamda sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlar o'ta sezgir, o'ta g'ayritabiiy, aqldan tashqarida turuvchi anglab bo'lmas prinsip asosida ro'y beradi. Butun borliqning turli-tuman shakllari

o'sha borliqqa sig'maydigan prinsip bilan bog'liq. Xuddi shu prinsip - absolut borliqdir"[3]

Xulosa qilib aytganda, Platon o'z davrining yetuk va ilg'or faylasufidir. Falsafa fanining bugungi istiqboli va tarixiy bardavomligi bevosita Platon nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning borliq haqidagi qarashlari o'ziga xos va qaytarilmasdir."Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarda - Sharqda ham, G'arbda ham hukmron bo'lib qoldi"[4]. Platon shu jumladan, jamiyatning serqirra negizlarini chuqur tahlil qilgan faylasuf shaxs. O'z davrida ham bugungi zamona uchun ham qimmatli ma'lumotlar qoldirgan faylasuf hoyotini o'rganish biz uchun faqat va faqat foyda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Falsafa asoslari" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2018. 16-b.
2. Abu Nasr Farobiy " Fozil odamlar shahri" "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent -2004. 20-b.
3. Anvar Choriyev "Inson falsafasi" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2007. 55-b.
4. N.S Jo'rayev, D.A Saliyeva, N.A. Sultonova "Psixologiya tarixi" Toshkent - "Noshir" - 2019. 27-b.
5. Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g’li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. “Mantiq ilmini o‘rganishning ahamiyati”. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. 2022 yil. 250-bet.
6. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, O'zbekistonda bag’rikenglik va millatlararo totuvlik g’oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar. 2021 yil 10b.
7. Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g’li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. “Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili”. “Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil. –B.549-552.
8. Xosilmurodov I.X. Informatsion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. “Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari” xalqaro-ilmiy texnik konferensiya. 2022 yil. 61-64b.
9. Islom Xosilmurodov “Falsafiy tafakkur uslubining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati”. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022 yil noyabr. 138-147b

ALOQA VA SAVDO YO‘LLARINING RIVOJLANISHIGA KATTA TA’SIR KO‘RSATGAN G‘ILDIRAKLI TRANSPORT VOSITALARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Tashbayev Asliddin Kumakovich
O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali
a_tashbayev@jbnuu.uz

Annotatsiya: Insoniyat tarixidagi eng muhim kashfiyotlardan biri – g‘ildirakning paydo bo‘lishi va shu asnoda g‘ildirakli transport vositalaridan foydalanishga o‘tilishining aloqa yo‘llari rivojiga qo‘shgan o‘ziga xos xissasi va ahamiyati haqida arxeologik tadqiqotlar hamda tarixiy manbalarga suyanilgan holda atroflicha fikir yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Aloqa yo‘llari, g‘ildirak, transport, arava, ot, tuya, eshak, xachir, xo‘kiz, Oltindepa, harbiy yurishlar, qo‘qon arava, qadimiy ulov vositalari, yuk tashish xizmati, eneolit-bronza davri.

Bronza davri boshlarida, ehtimol undan ham oldinroq insoniyat tarixidagi eng muhim kashfiyotlardan biri – g‘ildirak paydo bo‘ldi. Keyingi texnik taraqqiyot uchun ham zamin hozirlagan bu yangilik ilk ulov-tansport vositalari bo‘lgan turli tipdagi (ma’lum geografik hudud va landshaftning xususiyatidan kelib chiqqan holda) aravalarning ixtiro qilinishiga olib keldi. G‘ildirakli transport vositalaridan foydalanishga o‘tish aloqa yo‘llari rivojiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi galda g‘ildirakli transport vositasi bo‘lgan aravalar harakatlana oladigan yo‘llarni qurish zarurati paydo bo‘ldi. Bunday yo‘llar dastlab savdo-hunarmandchilik markazlari bo‘lgan shaharlar yoki boshqa yirik manzillar hududi doirasida qurila boshlangan bo‘lishi mumkin. Bunga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ma’lum darajasini, ya’ni o‘zaro mahsulot almashish va savdoning, aravalar va ularning qismlarini yasay oladigan ustalar va ustaxonalarning, aravalarga qo‘shiladigan ulov vositalarining mavjudligi va boshqa tegishli zaruriy omillardan kelib chiqqan hosila sifatida qarash mumkin.

Yo‘llar, ayniqsa g‘ildirakli transport vositalari harakatlanishiga mo‘ljallangan yo‘llarni barpo etish katta xarajatlar va mehnat talab etishi ma’lum. Shu sababli ham bu yo‘llar dastlabki davrlarda faqat tor mahalliy doirada, masalan shaharlar va boshqa iqtisodiy markazlarni ularning ta’siri doirasida bo‘lgan joylar (xom ashyo manbalari, hosil yetishtiriladigan dalalar va boshqalar) bilan bog‘lashga xizmat qilgan. Janubiy Turkmanistondagi Oltintepa yodgorligining markaziy ko‘chasi g‘ildirakli aravalar yurishiga mo‘ljallab qurilganligi mintaqamizda protashahar bilan iqtisodiy-xo‘jalik munosabatlarida bo‘lgan hududlarni bog‘lashda aravalardan foydalanish va ular harakati uchun yo‘llar qurish rivojlangan bronza davridan boshlanganligini ko‘rsatadi.

G‘ildirakli transportning, turli hajm va shakldagi aravalarning paydo bo‘lishi ulov vositalari sifatida uy hayvonlarining tortish kuchidan foydalanishning boshlanilishiga olib keldi. Bunday maqsadda bronza davridan boshlab, turli hududlarning tabiiy sharoiti va uy chorvachiligi ixtisosligiga bog‘liq ravishda ot,

tuya, eshak, xachir, xo‘kiz va boshqa hayvonlar aravalarga qo‘shila boshladi. Masalan, Sharqiy Qozog‘istondagi Tarbag‘atoy qoyatosh suratlaridagi ikki ot qo‘shilgan ikki g‘ildirakli arava tasviri, Janubiy Turkmanistondagi Oltindepa yodgorligidan tuya qo‘shilgan 4 g‘ildirakli aravaning sopol haykalchasi topilgan. Oltindepadagi haykalcha O‘rta Osiyo janubida bronza davrida tuya qo‘shilgan aravalardan foydalanilganligini tasdiqlaydi. Tog‘li Oltoydagi 5-Paziriq qo‘rg‘onidan 4 ta ot qo‘shilgan 4 g‘ildirakli aravaning qoldig‘i topilishi , mashhur “Amudaryo hazinasi” ichida quyma oltindan mo‘jaz qilib ishlangan ikki g‘ildirakli arava mavjudligi, Oltoy va O‘rta Osiyoning dasht hududlaridagi makonlardan topilgan aravalar qoldiqlari, qoyatoshlardagi aravalar tasvirlari va boshqa ma’lumotlar O‘rta Osiyo xalqlari hayotida aravalardan foydalanish qadimdan rivojlanib kelganligini ko‘rsatadi.

Aravalardan qadimdan jangovar transport vosita sifatida ham foydalanilib, ossurlar, hindlar, yunonlar va boshqa qadimgi xalqlarda ikki g‘ildirakli jang aravalari keng tarqalgani ma’lum. Jang aravalari tasviri Qoratovdagi Arpauzun degan joyda , Afrosiyob devoriy rasmlarida topilgan. Bu mintaqamiz xalqlari ham jang aravalari bilan tanish ekanligidan dalolat beradi. Aravalarning harbiy ahamiyatini anglashimizga xizmat qiladigan dalillar ichida Ahamoniy hukmdorlar Kserks va Doro I ning Yunonistonga uyushtirgan harbiy yurishlari davrida jang aravalaridan va yuklar ortilgan aravalardan keng foydalanganini ham aytib o‘tish mumkin.

Xan sulolasi davrida, mil. avv. 102-101-yillarda xitoyliklarning Davan davlatiga uyushtirgan ikkinchi harbiy yurishiga puxta tayyorgarlik ko‘rilgan. Bu harbiy safarbarlikka jalb qilingan qo‘shin ta’minoti uchun hukmat g‘aznasidan katta mablag‘ ajratilib, yetarli kuchlar jalb etilgan. Qadimgi xitoy manbasi bo‘lgan “Shiszi”da Xitoy qo‘shini to‘planadigan Dunxuan shahriga harbiylar uchun oziq ovqatlar, qurol-aslahalar va boshqa kerakli narsalar minglab otlar, tuyalar, xachirlar, eshaklarga va aravalarga yuklanib yetkazib berilganligi haqidagi qaydlarga ham e’tibor qaratish kerak. Bu ma’lumotlar ot-ulov va aravalardan qadimdan boshlab harbiy maqsadlarda asosiy yuk tashuvchi vosita sifatida foydalanilib kelinganligini tasdiqlovchi muhim dalolatdir. Qadimgi Xitoyda foydalanilgan aravalar haqida Sin Shi Xuandining mahobatli maqbarasidan jangchilarning sopoldan yasalgan haykallari bilan birga topilgan 4 ot qo‘shilgan yopiq arava kichik nusxasi ham birmuncha ma’lumot beradi.

Mintaqamizda ham o‘rta asrlarda aravalar harbiy yurishlar davrida asosiy yuk tashuvchi vosita bo‘lgan .Xususan, Amir Temurning harbiy yurishlari davrida qo‘shin uchun zarur g‘alla va bosha oziq-ovqat zaxiralari, ayrim harbiy yarog‘-aslahalar aravalarda olib yurilgan. Aravalardan yuk tashishdan tashqari, vaziyat taqozo etganda mudofaa istehkomlari barpo etishda ham foydalanilgan. Bu ayniqsa chorvador turkiy xalqlarda keng rivojlanib, bu usuldan gunnlar Rim qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglarda ham foydalangani ma’lum. Ayrim manbalarga ko‘ra, bu usul ilk o‘rta asrlarda gunnlar orqali Yevropaga ham tarqaladi. O‘rta asrlarda aravalardan mudofaa maqsadida foydalanilgani haqida “Boburnoma”da ham ma’lumot keltiriladi.

O‘rta Osiyoda qadimgi davr va o‘rta asrlarda tuya, ho‘kiz, ot va boshqa yirik uy hayvonlari qo‘shilgan aravalardan foydalanilgani haqida ko‘plab ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ko‘chmanchi chorvachilik paydo bo‘lgan bronza davridayoq

mintaqaning dasht hududlarida uzoq masofalarga koʻchishga moʻljallangan, kigiz bilan oʻralgan toʻrt gʻildirakli aravalar paydo boʻlgan. Oʻrta asrlar davrida ham tuya qoʻshilgan aravalar mintaqaning dasht hududlarida asosiy ulov vositalaridan hisoblanardi. Xususan, venetsiyalik sayyoh, elchi va josus Franchesko Pecholatti Markaziy Osiyoga sayohati (1348-1355 yy.) davrida dastlab xoʻkiz qoʻshilgan aravalardan foydalangan boʻlsa, Kichik Saroydan (Saroyjikdan) Xorazmning oʻsha paytdagi bosh shahri Urganchga 20 kun davomida 2 ta tuya qoʻshilgan aravada yetib keladi. Marokashlik sayyoh Ibn Battuta ham Oltin Oʻrdadan Xorazmga kelishda Oʻgʻuz choʻllarini ikkita tuya qoʻshilgan aravada deyarli toʻxtamasdan bosib oʻtganini, bunday safardan keyin aravaga qoʻshilgan tuyalar yana kuch (yogʻ) toʻplashlari uchun ularga bir yil dam berilishini alohida yozib qoldirgan. Bu maʼlumot mintaqaning dasht va choʻllari orqali oʻtgan yoʻllarda harakatlanish ulov vositalari uchun ancha ogʻir kechganidan darak beradi.

Oʻrta Osiyoning chorvador qabilalar yashovchi hududlari orqali oʻtgan yoʻllarda tuyalarni almashtirish imkoniyati ham boʻlgan. Xususan, Oʻrta Osiyo va Sibir shaharlari oʻrtasidagi aloqalarda kirakash boʻlib yollanuvchi qozoqlar yoʻlda toliqib qolgan tuyalarni almashtirish uchun oʻz ovullariga kirishi, koʻp hollarda esa tuyachilik bilan shugʻullanuvchi chorvadorlar yirik savdo karvonlari yoʻli ustida tuyalarini boqishgan va karvonlardagi charchagan tuyalarni maʼlum narx evaziga sogʻlom, yaxshi boqilgan baquvvat tuyalarga almashtirishgan. Buning evaziga ular yaxshigina daromad qilishgan.

Umuman olganda, qadimgi davr va oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo tekisliklarida tuya qoʻshilgan aravalar katta masofalarni bosib oʻtishda asosiy transport vositasi sifatida katta oʻrin tutgan. Tuya qoʻshilgan arava tezligi birmuncha sekin boʻlsa-da, choʻl va dashtlarda qumliklarni bosib oʻtishda ularning ahamiyati katta hisoblangan. Shuning uchun ham mintaqaning dasht va choʻl hududlaridan oʻtishda asosan tuya qoʻshilgan aravalardan keng foydalanilgan. Buni soʻnggi oʻrta asrlarda ham Oʻrta Osiyo xonliklari va Sibir shaharlari oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarda aravalardan yuk tashish vositasi sifatida keng foydalangani ham tasdiqlaydi.

Qadimgi davr va oʻrta asrlarda hoʻkiz qoʻshilgan aravalar ham mintaqaning ayrim hududlarida keng yoyilgan edi . Mutaxassislar mintaqamizda hoʻkiz qoʻshilgan aravalardan foydalanish mil. avv. IV mingyillikda boshlanganini qayd etishadi. Mil. avv. I mingyillikda mintaqa shimolidagi dashtlarda yashovchi skif qabilalari hoʻkiz qoʻshilgan aravalardan keng foydalangani manbalarda va ilmiy adabiyotlarda taʼkidlab oʻtiladi. Qadimgi xitoy manbalarida (Tanshu) ham turk yerlaridan faqat Yuyegan (Urganch) mulkida hoʻkiz qoʻshilgan aravalar bilan savdo aloqalari olib borilishi toʻgʻrisidagi maʼlumot mavjud. XIX asrda qoraqalpoqlar aravaga hoʻkiz qoʻshishgani va boshqa koʻplab misollar hoʻkiz qoʻshilgan aravalardan qadimgi davr va oʻrta asrlarda Amudaryoning quyi oqimi va Qora dengiz shimolidagi dasht aholisi keng foydalanganini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, bu holatni boshqa geografik kengliklarda ham uchratamiz. Xususan, hoʻkizlarni aravalarga qoʻshib foydalanish Hindistonda keng tarqalgani maʼlum. Ayrim tadqiqotchilar moʻgʻullar ham hoʻkiz qoʻshilgan aravalardan foydalanishganini qayd etishdi. Mashhur sayyoh Marko Polo ham moʻgʻullarning

o‘sha aravalardan foydalanishi, ular qora kigiz bilan yopilgani bois kun bo‘yi yomg‘ir yoqqanda ham suv o‘tkazmasligini hayrat bilan yozib qoldirgan edi.

Shu o‘rinda, chorvador turkiy qavmlardan bo‘lgan qang‘larni, aniqrog‘i “Qang‘” atamasini “aravakash” yoki “aravali” tarzida talqin qiluvchi ilmiy qarashlarni ham esga olish mumkin. Bu ma’lumotlar ham aravalarning O‘rta Osiyo xalqlari hayotida tutgan ahamiyatini ko‘rsatadi .

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar aravalar mintaqaning dasht hududlari orqali olib borilgan iqtisodiy aloqalarda, mavsumiy migratsiya jarayonlarida qadimgi davrdan boshlab katta o‘rin tutib kelganini tasdiqlaydi.

O‘rta Osiyoda aravalardan yuk tashishda, mahalliy chorvador qabilalarda aholining mavsumiy ko‘chish jarayonlarida va boshqa xo‘jalik maqsadlarida, harbiy vaziyat taqoza etganda harbiy qo‘shinlarning yuklari va harbiy aslahalarini, qurol-yarog‘larini tashishda foydalanilgan. Shu bois aravalarni chidamliligiga katta e’tibor qaratilgan. Mintaqamizda o‘rta asrlarda asosan ikki g‘ildirakli soyabonsiz ochiq aravalardan foydalanilgan. Aravalarni tuzilishi va hajmiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linib, ular mintaqaning turli hududlarida turlicha bo‘lgan. Aravalar shotisi asosan mirzaterakdan, g‘ildiragi (tegarchak) qismlari qattiq qayrag‘ochdan yasalgan. Arava g‘ildiragini yasash maxsus malakali ustalar tomonidan ustaxonalarda amalga oshirilgan. Mintaqamizning shimoli-sharqiy hududlarida katta g‘ildirakli Qo‘qon arava tarqalgan. Uning g‘ildiragi 6,5 fut balandlikda bo‘lib, bir aylanishda 7,5 fut masofani bosib o‘ta olgan. G‘ildiragi kattaligi sababli Qo‘qon aravasida ung‘ir-cho‘ng‘ir joylarda ham yuk tashish mumkin bo‘lgan. Ot qo‘shilgan Qo‘qon arava 40 pud, tuya qo‘shilgani 60 pud yuk olgan ko‘tara olgan.

O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbiy hududlarida kichik g‘ildirakli aravalar, Xorazmda esa o‘ziga xos shakldagi aravalar tarqalgan. Savdo yo‘llari bo‘yida joylashgan shaharlar va ayrim yirik qishloqlarda aravakash ustalar yashab, ular mahalliy aholiga va savdo karvonlariga tegishli xizmatlar ko‘rsatgan. Mintaqada aloqa-savdo yo‘llari rivojining yangi davri ulov va transport (asosan turli aravalar) vositalaridan foydalanishning kelib chiqishi bilan boshlandi. Umuman olganda, ulov-transport vositalarining paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi bronza davridan to zamonaviy transport vositalari paydo bo‘lib, keng iste’molga kirgunga qadar deyarli o‘zgarishsiz kelgan.

Xullas, ulov va g‘ildirakli transport vositalaridan foydalanish eneolit-bronza davrida boshlanib, ular to zamonaviy yo‘llar va transport vositalari (avtomobil, poyezd va boshqa transport vositalari, ular uchun mo‘ljallangan yo‘llar) paydo bo‘lguncha ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarda asosiy o‘rin tutib keldi. Tuya, ot, eshak va boshqa hayvonlardan ilk ulov vositalari sifatida foydalanishning boshlanishi qadimgi yo‘llar tarmoqlari rivojiga, turli hududlar o‘rtasidagi o‘zaro mahsulot almashuvi va iqtisodiy munosabatlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. G‘ildirakning kashf etilishi esa yirik uy hayvonlarining tortish kuchi bilan harakatga keltiriladigan ilk transport vositasi – aravalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Mintaqa aloqa-kommunikatsiya tizimining muhim bo‘g‘inini tashkil etgan bu jarayonlar mintaqamizdagi umumiy iqtisodiy-madaniy yuksalish, mintaqa sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masson V.M. Altын-depe (Raskopki goroda bronzovogo veka v Yujnom Turkmenistane) ...– S. 33.
2. Samashev Z.S. Novыye mestonaxojdeniya naskalnыx izobrajeniy v Vostochnom Kazaxstane // AO 1976 g. – M.: Nauka, 1977. – S. 520.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2000. 1-jild. – B. 390.
4. Kuzmina Ye.E. Etapы razvitiya kolesnogo transporta Sredney Azii v epoxu eneolita i bronzы // VDI. – M., 1980. – № 4. S. 14-32.
5. Gerodot. Istoriya ... – S. 368.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma … – B. 363).
7. Abuseitova M.X., Abылxojin J.B. i dr. Istoriya Kazaxstana i Sentralnoy Azii ... – S. 23.
8. Mavlonov O‘., Maxkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo‘llari... – B. 94.
9. Ibragimov N. Ibn Battuta i yego puteshestviye po Sredney Azii... – S. 72.
10. Xoroshxin A.P.Sbornik statey, kasayuщixsya do Turkestanskogo kraya... – S. 7.
11. Agzamova G. Sredneaziatskiye xanstva i Rossiya: k istorii karavannoy torgovli … – S. 15-16.
12. Kircho L.B. Nachalo formirovaniya torgovыx putey v Sredney Azii (kulturnыye vzaimodeystviya naseleniya Yujnogo Turkmenistana i dolinы Zarafshana vo vtoroy polovine IV-IIItыs. do n.e.) // Rol goroda Samarkanda v istorii mirovogo kulturnogo razvitiya: Materialы Mejdunarodnogo nauchnogo simpoziuma, posvyaщyennogo 2750-letnemu yubileyu goroda Samarkanda. – Tashkent-Samarkand: Fan, 2007. – S. 101.
13. Bazarboevich R. K., Kumakovich T. A. Toponym and Ethnonyms of the Emirate of Bukhara in the Late Xix and Early Xx Centuries //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 136-142.
14. Bichurin N.Ya. (Iokinf). Sobraniye svedeniy o narodax ... Ch. II. – S. 329.
15. Gornenskiy I. Taynы imperii Chingizxana. – M.: Veche, 2004. – S. 75.
16. Marko Polo. Kniga o raznoobrazii mira ... – S. 105.
17. Bababekov X. Istoriya Kokanda. – Tashkent: Fan, 1996. – S. 103.

BUXORO AMIRLIGINING MA’MURIY- HUDUDIY TUZILISHI VA DAVLAT BOSHQARUVI XUSUSIDA

Raxmatov Xayrulla Bozorboevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
xayrulla.raxmatov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligining ma’muriy-hududiy tuzilishi (1753/1920y.), davlat hududining kengayib borishi, davlat boshqaruvi, tashqi

siyosiy diplomatiya va qo‘shni davlatlar bilan aloqalari xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, unda Buxoro amirlari tomonidan amalga oshirilgan turli sohadagi islohotlarning hozirgi kundagi davlat masalalarini yanada chuqur o‘rganishdagi tarixiy ahamiyati va amirlik ijtimoiy-siyosiy tuzumining asosiy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: vassal, ashtarxoniylar, Mang‘itlar sulolasi, bekliklar, bek, amirlik, daha, chegara, miyonqol, otaliq, amlokdor, Turkiston general-gubernatorligi, kenagas, yuz, mingboshi, hazora, tanob, Zarafshon vohasi.

Milliy o‘zlikni anglash har bir millatning hayotida nihoyatda katta o‘rin egallaydi, chunki u o‘zining o‘tmishini teran anglash asosida bugunini ham to‘g‘ri va atroflicha bilib olishga erishadi va shu bilan birgalikda o‘z kelajagini aniq belgilab, rivojlanish yo‘liga o‘tib oladi. Milliy o‘zlikni anglash davlat, jamiyat va xalq uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligi haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta’kidlagan edi: “Millat o‘zligini to‘la anglagan taqdirdagina buyuk o‘zgarishlar qilishga qodir bo‘ladi” [7:65].

Hozirgi kunda milliy o‘zlikni anglash orqali xalq, millat vakillari qancha o‘z tarixini chuqurroq bilishga erishsalar, shuncha ular ko‘prok tarixiy voqealar asosida xalqining o‘tmishni anglab oladilar. Milliy o‘zlikni anglash orqali, o‘tmishda xalqimiz duch kelgan muammolarni va ularning qanday hal qilinganligini bilib olish, shubhasiz bugungi kundagi muammolarni to‘g‘ri va tezrok hal qilinishiga yordam beradi va jamiyatimizning taraqqiyotini tezlashtiradi.

Vatanimiz tarixidan bizga ma’lumki, O‘rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi (1753/1920y.) alohida mavqeiga ega bo‘lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarda ta’kidlanishicha, XVIII asrning o‘rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Mazkur davrda Buxoro hukmdorlari o‘z tasarruflarida Buxoro shahri va uning tevaragidagi Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l, Vag‘oza tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qololgan edilar. Xo‘jand, Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa G‘uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek Amudaryoning o‘ng sohilidagi Balx, Andxo‘y, Maymana, Badaxshon va Shibirg‘onlar ham Buxoroga vassal bo‘lishiga qaramay unga itoat etmay qo‘yganlar. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi- so‘nggi ashtarxoniylar davridagi o‘zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeining o‘sishi edi.

Darhaqiqat, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya’ni mang‘itlar sulolasi hukmronligi o‘rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o‘z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlarida Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo‘ydan to Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan hududlar kirar edi. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab- mang‘itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg‘oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi

tomondan qozoq juzlari va to‘rtinchi tomondan Qo‘qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi.

Ko‘p asrlar davomida musulmon dunyosining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib kelgan Buxoro mang‘itlar sulolasi (1753/1920) davrida ham shu maqomini saqlab qolishga intildi. Biroq, Ashtarxoniylar davlatining tanazzulga yuz tutishi oqibatida Buxoro xonligining hududlari ancha qisqarib qolgan edi. Ma’lumki, XVIII asrning boshida Farg‘ona vodiysi Buxorodan ajralib chiqadi va Qo‘qon xonligi tashkil etiladi. Siyosiy tarqoqlik va ichki nizolar ayniqsa ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon (1711/1747) davrida o‘zining cho‘qqisiga yetdi. U o‘z hukmronligining so‘nggi yillarida davlat ishlarini yuritishni mang‘itlar urug‘iga mansub bo‘lgan otaliq Muhammad Hakimbiy ixtiyoriga topshirib qo‘ygan edi. Muhammad Vafo Karmanagiyning yozishicha, Hakimbiy otaliq Eron shohi Nodirshoh (1736/1747)ning Buxoroga bosqinini hokimiyatni egallash uchun qulay fursat deb bilgan. Nodirshoh vafotidan so‘ng otaliqning o‘g‘li Muhammad Rahim 1747-yilda Abulfayzxonni qatl ettirib, Buxoro taxtini egallaydi. Muhammad Rahimning qilmishlaridan norozi bo‘lgan viloyat hokimlari unga qarshi isyon ko‘taradilar. Mazkur qo‘zg‘olonlar shafqatsizlik bilan bostiriladi. 1757 yili u o‘zini amir deb e’lon qildi va shu bilan Buxoroda mang‘itlar sulolasiga asos solindi [8:408].

Mang‘itlar sulolasi asoschisi, g‘ayrat va shijoatli Muhammad Rahimxon Buxoro taxtini egallashi bilan asosiy e’tiborni oxirgi Ashtarxoniylar davrida zaiflashib qolgan markaziy hokimiyatni kuchaytirish, amirlik yerlarini kengaytirishga harakat qiladi. Ammo uning amakisi amir Doniyolbiyning (1759/1785) yumshoq tabiatidan foydalangan o‘zbeklarning kenagas, yuz, barqut, saroy kabi yirik qabilalari beklari markaziy hokimiyatga qarshi qo‘zg‘olonlar uyushtirishlari oqibatida uning hukmronligining oxirlarida mamlakatda ahvol nihoyatda og‘irlashib ketadi.

Amir Doniyolning o‘g‘li Shohmurod (1785-1800) hali otasi hayotligidayoq uning talabi bilan davlat ishlarini o‘z qo‘liga olib, mamlakatda tartib o‘rnatishga kirishadi. Humuliyning yozishicha, bu davr Doniyolbiy hukumronligining oxirgi 6-7 yilliklariga to‘g‘ri keladi [1:201-208].U sulola asoschisi Muhammad Rahimxonning markazlashtirish siyosatini davom ettirdi. Amir Shohmurodning davrida Buxoroda ma’muriy, moliyaviy, harbiy va sud islohotlari o‘tkazildi. Shohmurod tashqi siyosat borasida ham qattiqqo‘llik bilan ish yuritib, Nodirshoh istilosidan keyin Buxorodan ajralib chiqqan janubiy hududlarni qaytadan Buxoro davlati tasarrufiga kiritdi. U 1785-1801 yillar mobaynida bir necha marta Eron va Afg‘on qo‘shinlariga qarshi jang olib bordi va mamlakat hududlarini Chorjo‘y, Karki, Marv hisobiga kengaytirdi.

Keyinchalik Buxoro hukmdori Amir Haydar (1800-1826) Buxoro taxtiga o‘tirishi bilan O‘ratepa, Shahrisabz, Samarqand hokimlari va qabila boshliqlarining g‘alayonlari boshlanib ketadi. Shu kabi harakatlar Buxoroda hukmdor almashishi davrida deyarli har doim takrorlangan. Ayniqsa, 1821/1825 yillarda Miyonqolda yashovchi xitoy-qipchoqlar boshchiligida bo‘lib o‘tgan g‘alayonlar ommaviy tus olgan. G‘alayon tafsilotlari o‘sha davr manbalari asosida P.P.Ivanov tomonidan keng o‘rganilgan [2]. Amir Haydar Jizzax va O‘ratepa uchun Qo‘qon xonlari bilan, Chorjo‘y va Marv uchun Xorazm xoni Eltuzar (1804-1806) bilan bir necha bor janglar olib bordi. Umrining oxirlariga kelib u ichki va tashqi raqiblarining qarshiligini sindirishga erishdi [3:90].

Amir Haydar vafotidan so‘ng taxt uchun bo‘lib o‘tgan qisqa muddatli janglarda uning uchinchi o‘g‘li Nasrulloh (1826-1860) g‘alaba qozonib, Buxoro taxtiga o‘tiradi. Nasrulloh otasi amir Haydardan farqli ravishda mamlakatda ichki tartib o‘rnatish va davlat boshqaruvini amalga oshirishda nihoyatda qattiqqo‘llik bilan ish tutdi. Uzoq yillik hukmronligi davrida u bir necha bor Qo‘qon va Xiva xonliklariga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar uyushtirdi.

1860 yilda amirlik taxtiga Sayyid Muzaffar (1860-1885) chiqadi. U o‘z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakatni mustahkamlash va uning sarhadlarini kengaytirish borasida birmuncha harbiy harakatlar olib boradi. Sayyid Muzaffar Hisorga ikki marta qo‘shin tortib, Darvoz, Ko‘lob, Baljuvongacha bo‘lgan yerlarni o‘z hududiga qo‘shib oldi, Shahrisabzni bo‘ysundirib, keyinroq Qo‘qon xonligini tobe qildi.

Podsho Rossiyasi qo‘shini 1864 yildan boshlab O‘rta Osiyo hududlariga yurish qilib, qisqa fursat ichida Qo‘qon xonligiga qarashli Chimkent va Toshkent shaharlarini egallaydi. 1866-1868 yillar orasida esa Buxoro amirligining Buxorodan Zirabuloqqacha bo‘lgan hududlari bosib olinadi. Amirlikning Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on kabi yirik shaharlari 1867-yilda tuzilgan Turkiston general-gubernatorligi ixtiyoriga o‘tadi. Amir Muzaffar 1868-yilda Rossiya bilan sulh shartnomasini imzoladi va Buxoro amirligi Rossiya davlatining vassaliga aylanadi.

Buxoroning so‘nggi amiri, podsho Rossiyasiga tobe bo‘lgan Sayyid Amir Olimxonning 1927-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, XX asr boshiga kelib Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya’ni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho‘zilib boradi. Buxoro shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan, g‘arb tarafdan Sirdaryo hamda Xo‘qand xonligi bilan, janubda esa Afg‘oniston, Sharqda turkman o‘lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh bo‘lgan.

Amirlikning ma’muriy-hududiy tuzilishiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan. Ulardan Buxoro va Samarqand o‘z navbatida tumanlarga bo‘lingan edi. Viloyat hukmdorlari “hokim” deb atalgan. Keyinchalik viloyat o‘rniga bekliklar paydo bo‘lgach, ularning hukmdorlari “bek” deb atalgan. Yangi ma’lumotlarga ko‘ra, bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud bo‘lgan.

Mahalliy ma’muriyat namoyondalari mavzeni qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy bo‘linma deb ta’riflanganligini tadqiqotlar natijalari tasdiqlaydi. Misol uchun, Karki viloyati mavzelarga bo‘linsa ham ular o‘z navbatida bekchalarga bo‘lingan, bekcha qishloqlardan iborat bo‘lgan. Pomir viloyatlaridagi Ro‘shon va Shug‘non ma’muriy tumanlari oqsoqollik deyilgan. Aholi istiqomat qiladigan joylar manbalarda uchta atama-qishloq, mavze, daha nomlari orqali qayd etilgan.

Ma’lumki, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Qarshi shahri Buxoro amirligi tarkibidagi 27 ta beklikdan biri edi. Ma’muriy-hududiy jihatdan amirlik quyidagi 27 beklikka bo‘lingan: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, G‘uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Ko‘lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Shug‘non-Rushon, Qo‘rg‘ontepa, Qobodiyon, Kalif, Bo‘rdaliq, Qobog‘li va Xorazm. Har qaysi beklik amir tomonidan tayinlangan hokim – beklar tomonidan boshqarilgan. Bekliklar esa

amlokdorliklarga bo‘linib, ularni amlokdorlar yoki shohlar idora qilgan. Amlokdorlar beklar tomonidan tayinlangan, shohlar esa aholi tomonidan saylanib, so‘ngra beklar tomonidan tasdiqlangan. Amlokdorliklar aminliklarga bo‘linib, u ma’muriy bo‘linmaning eng quyi bo‘g‘inini tashkil etgan. Aminliklarni o‘zbeklarda “mingboshi”, tojiklarda “arbob” deb ataluvchi, aholi tomonidan saylab qo‘yilgan oqsoqollar boshqarganlar [5: 63-64].

O‘rganilayotgan davrda Buxoro amirligi hududi oldingi asrlarga nisbatan birmuncha qisqarib ketgan bo‘lib, amirlik hududi Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Janubiy Tojikiston, Chorjuy viloyatlari va yana bir necha tumanlarni o‘z ichiga olib, mahalliy aholini asosan o‘zbek, tojik va turkman, qisman esa qozoq va qoraqalpoqlardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, amirlikning janubi-sharqiy chekkalarida- Badaxshon tog‘lari daralarida o‘nlab sharqiy eroniy tilli aholi yashagan. O‘zbek va tojiklar asosan o‘troq aholi bo‘lib, shahar va qishloqlarda yashagan bo‘lsalar, turkman, qozoq va qoraqalpoqlar, o‘zbeklarning chorvador qismi dasht va cho‘llarda yashab, ularning turmush tarzida ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmani hayot tarzi ustuvor bo‘lgan.

Ta’kidlash joizki, Buxoro amirligidagi joy nomlarining aksariyati o‘zbek urug‘lari (mang‘it, nayman, saroy, qipchoq, bahrin, batosh, qarluq, qatag‘on, qo‘ng‘irot, xitoy, burqut, barlos, durman va b.) bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib qolgan qishloq, ovul va mahalla nomlarining ko‘pchiligi ushbu etnonimlarga borib taqaladi. Mazkur aholi manzillarining bunday nomlanishida o‘zbek urug‘larining Buxoro amirligi davrida yoppasiga o‘troqlashuvga o‘ta boshlashi bilan izohlashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek davlatchiligi tarixini chuqur o‘rganar ekanmiz, xususan Buxoro amirligi davlatchiligi tarixida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keng jamoatchilikka yetkazish orqali jahon davlatchiligi tarixida o‘z o‘rniga ega ekanligini hech shubhasiz e’tirof eta olamiz. Birgina misol, Buxoro amirligida amalga oshirilgan soliq-huquqiy islohotlarga taalluqli bo‘lgan huquqiy hujjatlar davlat ro‘yxatidan (reestr) o‘tkazilgan. Albatta, davlatchilik tarixining o‘zi, amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy asosga ega ekanligini, ushbu harakatlarning rasmiy jihatdan to‘liq amalga oshirilganligini nazarda tutadi. Bunday harakatlarni amalga oshirish uchun huquqiy hujjat sanalgan xabarnomalar (arizalar) orqali barcha bajarilgan ishlarning rasmiy hujjati soliqqa oid huquqiy hujjatlar ro‘yxatlarida (reestr)da yozib qoldirish orqali o‘z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жумақули Ҳумулий. Тарихи Ҳумулий. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, №37.
2. Иванов П.П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821-1825 гг. // Труды института Востоковедения АН ССР, вып. XXVIII. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1937.
3. Кюгельген А. Легитимация Среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алмати: Дайк-пресс, 2004.
4. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). Т.: Фан, 1969.

5. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1: Территория и населения Бухары и Хорезма. Часть 1: Бухара. Т.: Туркпечать, 1926.
6. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул муҳаррир: А. Муҳаммаджонов. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.
7. Каримов И.А.. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон, 2000.
8. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
9. Рахматов Х., Набиев Ш. Хіх асрнинг сўнгги чораги–хх аср бошларида бухоро воҳаси сиёсий-маъмурий бирликлари ва аҳолиси хусусида //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 605-608.
10. Bozorboevich R. K. The Ethnic Structure of the Population of the Bukhara Emirate //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 12. – С. 8-12.

YOSHLAR TARBIYASIGA HUQUQIY, AXLOQIY VA SIYOSIY MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI

Kamolov Dostonbek Rustam o‘g‘li
O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali
kamolov.dostonbek@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va huquqiy madaniyat tushunchalariga ta’rif belgan. Xususan, yoshlar huquqiy madaniyati xususida olimlarning qarashlari keltirilib o‘tilgan. Qolaversa, jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarning 3 guruhi, ya’ni: antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, huquqiy madaniyat, yoshlar, yondashuv, demokratiya, axloq.

Kirish

«Huquqiy madaniyat» - keng ko‘lamli, ma’nodor tushunchadir. Uning tahlili maxsus tadqiqot mavzusini taqazo qilishi mumkin va tabiiydir [1]. Yoshlar huquqiy madaniyatini o‘rganish, uning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni alohida-alohida o‘rganish zarurligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasi huquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki yoshlar huquqiy madaniyatiga berilgan har qanday tarif ham muayyan tarixiy jihatdan uning mazmunini to‘la-to‘kis ochib bermaydi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini muayyan-tarixiy tushunish, unda bu tushuncha tizimi va kelib chiqishi jihatidan predmetning subyektiv mazmunini takrorlaydi, yoshlarning huquqiy madaniyatini ijtimoiy ong shakllaridan biri deb tushunishni istisno etmasligi u yoqda tursin, hatto taqazo etadi ham.[2]

Asosiy qism

Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasiga tarif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o‘tishgan. Bu muammoni hal etishda birinchi navbatda huquq va madaniyat tushunchalari bilan o‘zaro tadqiq qilish katta o‘rin tutadi deydi R. Maxmudov o‘zining «Huquq va madaniyat» nomli risolasida.[3] «Madaniyat atamasi» o‘z hajmi va mazmuni jihatidan xilma-xil bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Masalan, bu ma’no ostida inson tomonidan vujudga keltirilgan moddiy va manaviy qadriyatlar majmuasi jamiyatning g‘oyaviy holati, uning sifati, ijodiy faoliyat va uning mahsuli, inson faoliyati va uning majmuiy turlari, jamiyatning manaviy hayoti va hakozolar yotadi.

Falsafiy adabiyotlarda «Madaniyat» tushunchasiga 500 dan ortiq tarif berilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich doim o‘sib bormoqda. «Madaniyat» kategoriyasiga berilgan eng ko‘p yondashuv, bu insoniyatning rivojlanish bosqichida qo‘lga kiritilgan moddiy va manaviy qadriyatlar yig‘indisi deb qarashdir.[4]

Huquqiy adabiyotlarda madaniyatning moddiy qadriyat sifatida qaralishini biz A. F Gramina, V. M. Chxekvadze, L. S. Yavich va boshqa mualliflarning ishlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinchi bir yondashuvda esa madaniyatga ijodiy faoliyatning sinonim sifatida qaralishidir. Bu yondashuvni huquqiy sohada ishlatadigan bo‘lsak, bunda huquqiy ijodkorlik faoliyati tushuniladi. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda bunday yondashuvni E. V. Agranovskaya, E. A. Zarchenko, S. N. Kojevnikov kabi mualliflarning ishlarida uchratish mumkin. Keyingi yondashuv, jamiyat ijtimoiy tizimidagi subyektiv unsurlarni madaniyat tushunchasidan ajratib olishdir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatni aniqlashda subyektiv-intelektual unsurlar huquqiy savodxonlik, huquqiy tushunish va boshqalarga tayanib ish olib borgan mualliflar ham mavjud. Bularga S. S. Alekseev, E. A. Lukasheva, R. K Gusinov va boshqalarni ishini misol qilib olishimiz mumkin.[5]

Biz ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan yana bir yondashuv, madaniyat tushunchasini subyektning manaviy rivojlanish darajasi bilan bog‘lab o‘rganishdir. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda, bu fikr ham o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki subyektning huquqiy madaniyati darajasi huquqiy madaniyatni tasniflashda uni o‘rganishda asosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi. Jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin: yani antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv.[6]

Antorpologik yondashuvda madaniyat tabiat erishgan narsalardan farqli ravishda inson tomonidan yaratilgan ne’matlarni yig‘indisi sifatida tushuniladi.

Sotsiologik yondashuv madaniyatni manaviy qadriyatlar sifatida talqin etadi. Bu erda madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi.

Falsafiy yondashuvda esa madaniy hodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog‘liq bo‘lmagan sof tahliliy holda ajratib ko‘rsatiladi.[7]

Yuqoridagi fikrlardan shunday savol kelib chiqadiki: madomiki, madaniyat tushunchasi umummilliy ma’noga taaluqli ekan yani bir qator fanlarda qo‘llanilar ekan, uning tarifini berishning imkoni va umuman zarurati o‘zi bormi? -degan savol tug‘iladi. Shuning uchun ham madaniyat va huquqning o‘zaro aloqadorligini, uning birligi muammosini aniq bir madaniyatga berilgan tarif bilan emas, balki u yoki bu «madaniyat» tushunchasi doirasida aniqlab, uning o‘ziga xos muayyan tarifini ishlab

chiqishga harakat qilamiz. Sobiq ittifoq madaniyatshunosligida eng ko‘p tarqalgan madaniyat haqidagi talimotlardan biri bu mavzuning qadr– qimmati tug‘risida bo‘lib, uni moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmui yoki qadriyatlar tizimi asosida marifatga asoslangandir.[8] Uning alohida bilim saviyasidan tadqiqotlar yotadiki, madaniyat tushunchasi bashariyat faoliyatining ijtimoiy – tarixiy amaliyoti davomidagi jarayonlarni o‘zida aks ettiruvchi yakuniy majmua sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mazmunini aniqlash esa, moddiy ishlab chiqarishga band bo‘lgan kishilar qaytib faoliyatining xilma xil unsurlarini ko‘rsatib o‘tish, ularning axloqiy, siyosiy, huquqiy, maishiy va boshqa tomonlarini qayd etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Madaniyat mavzusini qadriyat sifatida tushunish, unga aksiologik nuqtai nazardan yondashishga undaydi. (Aksiologiya – yunonga “aksiya” – arzish, qadriyat, qadriyatlar haqidagi ta’limot) Unga muvofiq u yoki bu hodisada namoyon bo‘ladigan inson faoliyati “madaniy” yoki “madaniyatsiz” sifatida baholanadi. Ma’lumki, huquq va madaniyat o‘zaro bog‘liq kategoriyadir. Madaniyat shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi hamda ta’minotning ijtimoiy rivojlanish darajasining o‘lchovi sifatida maydonga chiqadi. Shunday qilib, madaniyat, sotsiologik ma’noga, inson o‘zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta’riflaydigan mualliflarning ham fikriga qo‘shilmoq lozim. Yaqingacha madaniyat umumiy nazariyasining to‘liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs huquqiy madaniyatini tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko‘rsatilar edi: shaxsning o‘z huquqlarini bilishi, qonun va boshqa me’yoriy hujjatlarning mazmuni va nimaga yo‘naltirilganini aniqlashi unga nisbatan hurmatni shakllantirishi, qonuniylik va adolatni his qilish.[9]

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarning huquqiy madaniyatiga uning tarkibiy unsurlari asosida ta’rif beradigan bo‘lsak, uni quyidagicha ta’riflash mumkin bo‘ladi: yoshlarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko‘nikmasi, huquq buzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasidir. Yoshlarni yuksak huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlaydi. Darhaqiqat, 2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida ham ko‘rsatib o‘tilganidek, yuksak huquqiy madaniyat – demokratik ta’minot poydevori hamda huquqiy tizim yetukligini ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqorolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda betartibligini ta’minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimdagi samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмоилов З. Ҳокимият ва ҳуқуқ маданияти. Ҳаёт ва қонун. 1998-й №7-78-б.
2. Тоджихонов У, Саидов Н Ҳуқуқий маданият назарияси Т2. -Т Ўз. Р ИИВ Акад. 1998.

3. Махмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият. Т. Ўзбекистон, 1994 йил 4-б.
4. Малая Советская энциклопедия. -Т5-М, 1959-С.238.
5. Алексеев С. С Механизм и правового регулированиява социалистическом государство. – М.-1996 г с 176.
6. Ковалзон М.Я Место понятие, «Культура» в системе категория истарического материализма 1976-С122.
7. Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 1-том. 1998 й. 28-бет.
8. Кушкмна Е.И. Познание, язык культура. М.Г.У. 1984. 40-бет.
9. Kamolov D., Eshonqulov R. DEMOKRATIYANING AXLOQIY JIHATLARI //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 37-42.

YOSHLARI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKANING O‘RNI (IJTIOMIY FALSAFIY TAHLIL)

Nabiyev Farux Abduraximovich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ko‘pincha kuchli fan sifatida qaraladigan matematika yosh ongning kognitiv rivojlanishini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqola ushbu muhim rolning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganadi, matematika zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va kognitiv qobiliyatlarni qanday rivojlantirishini o'rganadi. Matematik ta'limning ijtimoiy va falsafiy oqibatlarini tahlil qilib, ushbu maqola nafaqat individual intellektlarni shakllantirishga, balki jamiyat tuzilmalari va taraqqiyotiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so‘zlar: Matematika, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, ijtimoiy-falsafiy tahlil, matematik savodxonlik, ijtimoiy ta'sirlar, ta'lim imperativi, intellektual qiziquvchanlik, matematik qidiruv, o'zgartiruvchi kuch.

Matematika insonning intellektual yutuqlarining poydevori bo'lib, uning aniqligi, universalligi va koinotni boshqaradigan yashirin naqshlarni ochish qobiliyati bilan hurmat qilinadi. Ilm-fan, muhandislik va tijoratda amaliy qo'llanilishidan tashqari, matematika yosh ongning kognitiv rivojlanishini shakllantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi va murakkab ijtimoiy muammolar davrida matematik tafakkurni rivojlantirish eng muhim ta'lim talabi sifatida paydo bo'ldi.

Matematik ta’limning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati sinf doirasidan tashqariga chiqib, inson faoliyatining har bir jabhasini qamrab oladi. Matematik fikrlashning murakkab gobelenini ochish orqali biz nafaqat jismoniy olamning tuzilishi, balki inson ongining o'zi haqida ham tushunchaga ega bo'lamiz. Ushbu maqola yoshlarning intellektual landshaftini shakllantirishda matematikaning chuqur rolini o'rganish,

uning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va kengroq kognitiv rivojlanishga ta'sirini o'rganish uchun sayohatga chiqadi.

Axborotning haddan tashqari yuklanishi va tez texnologik o'zgarishlar bilan ajralib turadigan zamonaviy dunyoning murakkabliklarini kezar ekanmiz, tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyati hech qachon bu qadar muhim bo'lmagan. Mantiqiy fikrlash va tizimli muammolarni echishga urg'u bergan matematika yosh o'quvchilarni noaniqlik va noaniqlik labirintida yo'naltiruvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi. Matematikani o'rganish orqali odamlar nafaqat matematik usullarning repertuarini, balki qat'iylik, aniqlik va intellektual qiziquvchanlik bilan ajralib turadigan fikrlashni ham rivojlantiradilar.

Bundan tashqari, matematik ta'limning ijtimoiy oqibatlari individual bilish doirasidan tashqarida ham aks etadi. Matematik jihatdan savodli aholi ilm-fan yutuqlari bilan shug'ullanish, ongli qarorlar qabul qilish va iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shish uchun yaxshi jihozlangan. Sifatli matematik ta'limga sarmoya kiritish va matematik izlanish madaniyatini rivojlantirish orqali jamiyatlar odamlarga yigirma birinchi asrning qiyinchiliklariga ishonch va chidamlilik bilan qarshi turish imkoniyatini berishi mumkin.

Masala yechish malakalari va matematik savodxonlik:

Matematikaning o‘ziga xos muammolarni yechish xususiyati yosh o‘quvchilarda qiyinchiliklarni yengish va ijodiy yechim topish uchun chidamlilikni singdiradi. Murakkabligi ortib borayotgan matematik muammolar bilan kurashish orqali odamlar turli kontekstlarda qo'llaniladigan strategiyalar va evristik vositalar to'plamini ishlab chiqadilar. Bundan tashqari, matematik savodxonlik odamlarni tobora ortib borayotgan ma'lumotlarga asoslangan dunyoda harakat qilish qobiliyati bilan jihozlaydi, bu ularga miqdoriy ma'lumotlarga asoslangan holda sharhlash, tahlil qilish va ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Matematika va kognitiv rivojlanish:

Matematikani o'rganish xotira, diqqat va fazoviy fikrlash kabi turli xil aqliy qobiliyatlarni mashq qilish orqali kognitiv rivojlanishni rag'batlantiradi. Asosiy arifmetik operatsiyalardan tortib, mavhum matematik tushunchalargacha, matematik o'rganishning har bir bosqichi neyron aloqalarni rivojlantiradi va kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi. Bundan tashqari, matematikaning fanlararo tabiati o'quvchilarni turli xil nuqtai nazarlarga ega bo'lishiga yordam beradi, fanlararo fikrlashni rag'batlantiradi va muammolarni hal qilishda yaxlit yondashuvni rivojlantiradi.

Matematik ta’limning jamiyatga ta’siri:

Matematik ta'limning ta'siri jamiyat tuzilmalari va taraqqiyotni shakllantirish uchun individual kognitiv rivojlanishdan tashqariga chiqadi. Matematik jihatdan savodli aholi fuqarolik hayotida ishtirok etish, ilm-fan yutuqlari bilan shug'ullanish va iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarga hissa qo'shish uchun yaxshi jihozlangan. Bundan tashqari, sifatli matematik ta'limdan teng foydalanish ta'lim darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va ijtimoiy harakatchanlikni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Matematika va inson tushunchasiga falsafiy qarashlar:

Falsafiy nuqtai nazardan, matematika haqiqatga intilish va tabiiy dunyoni boshqaradigan universal tamoyillarni o'rganishni o'zida mujassam etadi. Matematik tushunchalarning mavhum tabiati madaniy va vaqtinchalik chegaralardan oshib, inson aql-zakovatining universalligidan dalolat beradi. Tarix davomida faylasuflar matematik mavjudotlarning ontologik holati haqida fikr yuritib, ularning inson idrokidan mustaqil mavjudligi va voqelik haqidagi tushunchamizni shakllantirishdagi roli haqida fikr yuritdilar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytish mumkinki, matematika yoshlarning kognitiv rivojlanishida, ularning fikrlash shakllarini, muammolarni yechish qobiliyatini va kengroq intellektual imkoniyatlarini shakllantirishda ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdan tortib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishgacha bo‘lgan matematik ta’limning ijtimoiy-falsafiy ta’siri chuqur va keng qamrovlidir. Matematikaning utilitar qo'llanmalaridan tashqari o'ziga xos qiymatini tan olish orqali biz uning kelajak avlodlar ongini shakllantirishdagi o'zgartiruvchi kuchini chuqurroq anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Piaget, J. (1970). "Genetic Epistemology." New York: Columbia University Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes." Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. National Council of Teachers of Mathematics. (2000). "Principles and Standards for School Mathematics." Reston, VA: Author.
4. Boaler, J. (2016). "Mathematical Mindsets: Unleashing Students' Potential through Creative Math, Inspiring Messages, and Innovative Teaching." San Francisco, CA: Jossey-Bass.
5. Sowell, E. J. (1989). "Effects of Mathematics Instruction on Understanding: Solving Problems in Flexible and Reflective Ways." Review of Educational Research, 59(3), 315-328.

MADANIY MEROSLARNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ruzinov Baxtiyor Asqarovich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Madaniy meros jamiyatlarning umumiy xotirasi, an’analari va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirib, bilim va o‘zlikni anglash ombori bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqola madaniy merosni o'rganishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini o'rganadi, uning inklyuziv ta'limni rivojlantirish, madaniyatni qadrlashni rag'batlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Madaniy merosning pedagogika, psixologiya va sotsiologiya bilan kesishuvini o‘rganib, ushbu maqola madaniy merosni ta’lim dasturlariga kiritishning ko‘p qirrali afzalliklarini

yoritib beradi. Tadqiqot natijalari va nazariy asoslarni har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu amaqola madaniy merosni o'rganishni butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining asosiy komponenti sifatida qo'shishni targ'ib qiladi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, ta'lim, pedagogika, ijtimoiy birdamlik, madaniy qadrlash.

Kirish. Madaniy meros avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analar, bilimlar va qadriyatlarni o'zida mujassam etgan umuminsoniy tajribaning dalilidir. Qadimiy artefaktlardan tortib nomoddiy madaniy amaliyotlargacha bo‘lgan boy madaniy meros gobelenlari insoniyatning xilma-xilligi va zukkoligini aks ettiradi. Tarix va san'at ombori sifatidagi ichki qadriyatdan tashqari, madaniy meros ta'lim sohasida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, odamlarning o'zini va dunyodagi o'rnini idrok etish usullarini shakllantiradi.

So'nggi yillarda madaniy merosni ta'lim sharoitida o'rganishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu e'tirof madaniy merosning inklyuziv jamiyatlarni rivojlantirish, madaniy qadrlashni rag'batlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishda o'zgartiruvchi kuchini tushunishdan kelib chiqadi. Madaniy merosni ta'lim o'quv dasturlariga kiritish orqali o'qituvchilar xilma-xillikni nishonlaydigan, hamdardlikni rag'batlantiradigan va o'quvchilarni o'z jamoalarida faol ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar yaratadigan o'quv muhitini yaratish imkoniyatiga ega.

Ushbu maqola madaniy merosni ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganishning ko'p qirrali ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Ta'lim, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlardan olingan ma'lumotlarga tayangan holda, ta'lim natijalarini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun madaniy merosning pedagogika bilan kesishish usullarini ko'rib chiqamiz. Empirik tadqiqotlar va nazariy asoslarni tahlil qilish orqali ushbu maqola madaniy merosni ta’lim amaliyotiga integratsiyalashuviga asos bo‘lgan asosiy tamoyillarni yoritishga harakat qiladi.

Madaniy meros

Madaniy meros avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan inson ijodi va o‘ziga xosligining moddiy va nomoddiy ifodalarini o‘z ichiga oladi. U ma'lum bir jamoa yoki jamiyatning e'tiqodlari, qadriyatlari va tajribasini aks ettiruvchi artefaktlar, an'analar, tillar, urf-odatlar, marosimlar va boshqa ifoda shakllarini o'z ichiga oladi. Madaniy meros statik emas, balki dinamik xususiyatga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan turli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarning o‘zaro ta’sirida rivojlanib boradi.

Moddiy madaniy meros: Bu tarixiy, badiiy yoki arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan jismoniy artefaktlar, inshootlar va joylarga tegishli. Masalan, me’moriy yodgorliklar, arxeologik yodgorliklar, san’at asarlari, qo‘lyozmalar va kulolchilik, asbob-uskunalar va kiyim-kechak kabi artefaktlar. Moddiy madaniy meros avvalgi tsivilizatsiyalarning moddiy madaniyati va texnologik taraqqiyoti haqida tushuncha berib, o‘tmish bilan aniq bog‘lovchi bo‘lib xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy meros: Moddiy merosdan farqli o'laroq, nomoddiy madaniy meros og'zaki, tomoshalar, marosimlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar orqali uzatiladigan amaliyotlar, an'analar, bilim va iboralarni o'z ichiga oladi. Masalan, og'zaki ijod, musiqa, raqs, ertak, marosimlar, bayramlar, an'anaviy hunarmandchilik va

pazandachilik amaliyotlari. Nomoddiy madaniy meros ijtimoiy o‘ziga xoslikni shakllantirish, jamiyat hamjihatligini mustahkamlash, madaniy qadriyatlar va bilimlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Tabiiy meros: Madaniy meros birinchi navbatda inson tomonidan yaratilgan ko'rinishlarga tegishli bo'lsa-da, tabiiy landshaftlar, ekotizimlar va biologik xilma-xillik ko'plab jamoalar uchun madaniy ahamiyatga ega. Milliy bog'lar, muqaddas bog'lar va tabiiy yodgorliklar kabi tabiiy meros ob'ektlari ko'pincha madaniy, ma'naviy yoki ramziy ma'nolarga ega. Ayniqsa, mahalliy xalqlar madaniyati o‘zlarining madaniy o‘ziga xosligi va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘langan deb hisoblagan holda, o‘z ota-bobolari zamini va tabiiy muhit bilan chuqur bog‘langan.

Raqamli madaniy meros: raqamli texnologiyalar paydo bo'lishi bilan madaniy merosni saqlash va tarqatish raqamli sohaga kengaydi. Raqamli madaniy meros raqamli to'plamlar, virtual ko'rgazmalar, multimedia arxivlari, onlayn ma'lumotlar bazalari va madaniy resurslarga kirishni osonlashtiradigan va raqamli hikoyalarni targ'ib qiluvchi interaktiv platformalarni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat madaniy merosni saqlash va ulardan foydalanish imkoniyatini oshiradi, balki auditoriyani jalb qilish va global miqyosda madaniy almashinuv va hamkorlikni rivojlantirishning innovatsion usullarini taklif etadi.

Madaniy merosning ahamiyati: Madaniy meros shaxsiy va jamoaviy o'ziga xoslikni shakllantirishda, o'tmishga tegishlilik va davomiylik hissini tarbiyalashda asosiy rol o'ynaydi. U ilhom, ijod va innovatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi, jamiyat hayotining turli jabhalariga, jumladan, san’at, adabiyot, me’morchilik, musiqa, oshxona va modaga ta’sir qiladi. Madaniy meros, shuningdek, turizm, ijodiy industriyalar va madaniy turizm orqali iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi, daromad keltiradi, bandlik imkoniyatlari va barqaror rivojlanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy meros inson ijodi, o'ziga xosligi va merosining rang-barang va dinamik ifodalarini o'zida mujassam etadi. Moddiy artefaktlardan tortib nomoddiy an’analargacha bo‘lgan madaniy meros butun dunyo jamiyatlarining umumiy xotirasi, qadriyatlari va intilishlarini aks ettiradi. Madaniy merosni asrab-avaylash, asrash va targ‘ib qilish orqali biz nafaqat o‘tgan avlodlar erishgan yutuqlarni hurmat qilamiz, balki kelajak avlodlar uchun umumiy global merosimizning madaniy xilma-xilligi va mustahkamligini ham boyitamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Smith, Laurajane, and Natsuko Akagawa. "Intangible heritage." Routledge, 2009.
2. UNESCO. "Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage." Paris: UNESCO, 2003.
3. Meskell, Lynn. "Archaeologies of materiality." Blackwell Publishing, 2005.
4. Bendix, Regina F. "In Search of Authenticity: The Formation of Folklore Studies." University of Wisconsin Press, 1997.
5. Kirshenblatt-Gimblett, Barbara. "Destination culture: Tourism, museums, and heritage." University of California Press, 1998.

MA’NAVIYAT JAMIYAT – RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI

s.f.n., Xakimov Orziqul Meliyevich,
Qahhorov Jasurbek
O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya.Xalqimiz ma’yatini yanada yuksaltirishda o’ziga xos yo’lidan borayotgan mamlakatimiz tarraqiyotining ustuvor yo’nalishlaridan biri ekanligini, ma’naviyat barcha insonlarning milliy va umuminsoniylik darajasini yuksaltirishi ushbu maqolada aks etgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, jamiayt, ma’rifat, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, taraqqiyot.

Respublikamizning bugungi ma’naviy-ma’rifiy hayotida asrlarga teng sezilarli o’zgarishlarni ko’rsak bo’ladi.Asriy qadriyatlarimiz va milliy an’analarimiz tiklanmoqda va mustahkamlanmoqda.Xalqimiz ma’naviyatini yanada yuksaltirishda o’ziga xos yo’lidan borayotgan mamlakatimiz tarraqqiyotining ustivor yo’nalishlaridan biri ekanligini yaqqol ko’rsa bo’ladi.

Har bir jamiyatda ma’naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir.Chunki ma’naviyat-insonning insoniylik mohiyati,shaxsdagi ijobiy fazilatlari qiyofasi majmuidir.U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy,ruhiy,axloqiy va jismoniy qarashlar ko’nikmasidir. Ma’naviyat-har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi,unga yetaklovchi ,undovchi imkoniyat.U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol topdiruvchi, ko’rkamlashtiuvchi beqiyos hayotiy omil.Ma’naviyat-yaxshilik va ezgulikka moyil,yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqqiatga ,halollik va rostgo’ylikka intilish, o’zi mansub jamiayatning axloqiy, huquqiy, ma’rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir.

Bu masalada har bir jamiyatda yetakchi o’rinda turmog’i lozim.O’zbekiston Respublikasining birinchi prizidenti Islom Karimov takidlaganidek:”biz yillar davomida ma’rifat va madaniyatga noto’g’ri munosabatda bo’ldik. Unga sarflanadigan mablag’lar doim boshqa sohalardan kam bo’ldi.Natijada biz bu masalada orqada qolib ketdik.Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma’rifat, jismoniy atrbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim.Va, nihoyat, shu sohalarda va shifokorlar, madaniyat muassasalaridagi va boshqa sohalarda ko’plab mutahassislar-chinakam ziyolilardir”.

Ma’rifat-mohiyat aql-idrok,tafakkurning mayog’i, mijozning murabbiysi, qalbda munavvarlikni, insoniy ulug’vorlikni qaror topdiruvchi umniy vosita, iymon-e’tiqod, harakter, lafzning me’yori, vujudning jon tomiri. U-bilish, tanish ilm va madaniyatning kamol toppish mazmuni, usul va vositalaridir.

Ma’naviyat va ma’rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyam mazmunga ega bo’ladi.Ma’naviyat yo’q joyda ma’lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo’lmaydi.Ma’naviyatning ahamaiyatining ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak.

Ma’naviyat va ma’rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, pdamlar ruhiyatidagi ko’tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksaligini, o’z faoliyatida tinchlikni, millarlararo hamjihatlikni barqoror rivojlantirish yo’lini aniq belgilashdagi o’z fuqoralarining orzu-umidlarini,manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo’naltirish va unga rahbarlik qilish solohiyati hisoblanadi.Ma’naviyat va ma’rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o’z ifodasini topadi va ma’naviyat-ma’rifat ishlarini tashkil etishda ularga alohida e’tibor qaratiladi.

Ma’naviyat va ma’rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o’zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolar va davlat manfaatlarini birlashtiradi.Ma’naviyati va ma’rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg’ulari kuchli bo’ladi.Bunday holar o’z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millarlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo’lida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

Ma’naviyat va ma’rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O’z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs millat va davlatni kechadigan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo’lishiga yetaklaydi , shaxs , millat va davlat taraqqiyoti sari harakat qilishga da’vat etadi.Bu jarayonda ma’naviyat va ma’rifat shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi.

Ma’naviyat va ma’rifat aql-zakovat,solahiyat yuksakligini mezoni va manbai hisoblanadi.Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma’naviy boyliklari darajasiga ko’taradi.

Ma’naviyat va ma’rifat davlat ichki holatida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi,har qanday munozali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruhiyati shakllanadi.

Ma’naviyat va ma’rifat kishilarni subyektiv ,qarindosh-urig’chilik , mahalliychilik manfaatlari ehtiroslarga berilishidan saqlaydi, shaxs va mahhaliy manfaatlarni milliy hamda Vatan manfaatlariga uyg’unlashtirish muhitini vujudga keltiradi , millatning umumbashariy qadriyatlar sari intilishi kuchaytiriladi.

Ma’naviyat va ma’rifat mamlakatda adolatni qaror topdirish, insonlarni qonunlarning ijodkorlari va itoatkori darajasiga ko’taradi.Qonunlar davlat millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me’yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruxdagi adolatli qadriyatlar shakllanishi mumkin bo’ladi.

Ma’naviyat- shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o’zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o’zligini anglashi, milliy g’urur, milliy iftihor, vatanparvarlik, davlatga xurmat, jamoa ananlariga xayrixonlik, diyonat, mehr-shavqat, poklik, halollik, vijdoniylik, rostgo’ylik, adolatparvarlik, kamtarlik kabilarni o’z ichiga oladi. Ma’naviyat yo’li-bosqichma-bosqich o’tiladigan yo’l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, axloq va ma’rifatda kamolatga intiladi. Jamiat ma’naviyati, uning rivoji hamda uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblamadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib brogan sari inson ma’naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib brogan. Ma’naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil

qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma’naviyatning siyosiy, falsafiy va ilmiy shakllari yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’naviyat:asosiy tushunchalar izohli lug’ati.T.:G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa iyodiy uyi,2010.
2. Ziyomuhhammadov B., Ziyomuhhamedova S., Qodirova S.Ma’naviyat asoslari. T.:O’zbekiston Milliy etiklopediyasidavlat ilmiy nashriyoti,2000.
3. Xakimov O., Ortiqov O., Xoslimurodov I. RENAISSANCE PHILOSOPHERS AND THEIR CONTRIBUTIONS TO THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHY //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
4. Melievich H. O. ISSIQ-QURUQ IQLIM SHAROITI UCHUN ASFALTBETON XOSSALARINI TANLASH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – С. 203-205.
5. Hakimov O., Mulholland J. FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING O ‘RNI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 458-464.
6. Xakimov O., Subhiddinov S. YOSHLAR MADANIYATINI OSHIRISHDA TA’LIM TARBIYA JARAYONI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 473-476.
7. Xakimov O., Sultonova L. DIQQATNING PSIXOFIZIOLOGIK TA’SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 477-480.
8. Хакимов О. Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashtirishda ijtimoiy xizmat ko ‘rsatishning o ‘ziga xos xususiyatlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 408-413.
9. Xakimov O., Donaboyeva D. GENDER STEREOTIPLARI VA AYOLLARGA MOS KASBLAR //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 155-160.
10. Xakimov O., Rajabaliyev S. FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O ‘RNI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 142-148.
11. Xakimov O., Jabborova G. JAMIYATDA GENDER STEREOTIPLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 149-154.
12. Xakimov O., Gurgiboyev O. NOGIRONLAR BILAN ITIMOIY ISH OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 125-129.
13. Melievich K. O., Sarviniso I. Social Psychological Characteristics of Leadership in Management //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 14. – С. 175-186.
14. Hakimov O., Jaloliddinova S. O’SMIRLIK DAVRIDA BOLALRDA UCHRAYDIGAN AGRESSIVLIK YOKI O’SMIRLIK INQIROZI //Current approaches and new research in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 21-26.
15. Orziqul H. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI DEMOKRATLASHTIRISHNING BA’ZI JIHATLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 153-158.

16. Orziqul H. SHAXSNING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TAXDIDLARNING OLDINI OLISHNING AYRIM JIHATLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 158-161.
17. Khakimov O. Social goals of students in higher education //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 55-59.
18. Khakimov O. M. Issiq-quruq iqlim sharoiti uchun asfaltbeton tarkibini tanlash //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 241-247.
19. Хидоятов Р., Хакимов О., Исакобулов Р. Ю. Духовная просвещенность руководителя: проблемы и их решения //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 96-99.
20. Hakimov O. DESCRIPTION OF SOCIAL SERVICES FOR THE ADAPTATION OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN SOCIETY //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 19-24.
21. HAKIMOV O. A. Doctor of Philosophy in the Department of Economics and Finance in the Graduate School of : дис. – Middle Tennessee State University, 2006.
22. KHAKIMOV O., JALOLIDDINOVA S. IMPACT OF DEPRESSION ON HUMAN LIFE //Social sciences.

XOTIN-QIZLARNING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Adilova Madina Shamsidinovna,
Qosimova Farida Abdulaxat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda huquqiy madaniyatning ustuvorligini ta‘minlashda xotin-qizlarni, faqatgina huquqlari to‘liq ta‘minlangan jamiyatdagina yuksak huquqiy madaniyatli farzandlarni tarbiyalashi mumkinligi ta‘kidlanadi. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda so‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquqlarini ta‘minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar huquqlari, huquqiy madaniyat, nikoh, qizlar huquqlari, gender tengligi, ijtimoiy kontrakt.

